

**N. A. BONK  
G. A. KOTIY  
N. A. LUKYANOVA**

**Ingliz  
tili  
darsligi**

**O‘ZBEK TILIDA**

1-QISM

**Мажбурий нусха**

UO'K 811.111

KBK 81.2 Англ

B 85

*УНЛА ТИЛИ*

**Bonk, Natalya Aleksandrovna.**

B 85

**Ingliz tili darsligi: 2 qismli / N. A. Bonk, G. A. Kotiy, N. A. Lukyanova. – T.: «ART FLEX», 2013.**


**Q. I – 752 b.**

**I. Kotiy, Galina Akimovna II. Lukyanova, Natalya Anatolyevna.**

Darslik chet tili kurslari, to'garaklarida, ingliz tilini mustaqil o'rganayotganlar va oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan.

UO'K 811.111

KBK 81.2 Англ



*№ 31775  
2*

**Natalya Aleksandrovna Bonk,  
Galina Akimovna Kotiy,  
Natalya Anatolyevna Lukyanova**

**INGLIZ TILI DARSLIGI**

**1-qism**

## MUALLIFLARDAN

Ushbu darslik o'qituvchi rahbarligi ostida ingliz tili bilan shug'ullanishga endi kirishgan katta yoshdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, haftasiga 8 – 10 soatlik o'quv mashg'ulotlari o'tkazilganda to'rt yillik ta'lim kursi uchun yaratilgan darslikning birinchi qismi hisoblanadi. Undan til o'rgatishning asosiy maqsadi og'zaki nutq ko'nikmalarini egallashga qaratilgan chet tili kurslarida, oliy o'quv yurtlari va boshqa ta'lim muassasalarida foydalanish mumkin.

Darslik taxminan 500 soat auditoriya mashg'ulotlari va yana shuncha soat mustaqil o'rganishga mo'ljallangan. Darslik bilan ishlash natijasida o'quvchilar ingliz tilida so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, o'tilgan leksik va grammatik mavzular ko'lamida ingliz tili og'zaki va yozma nutq ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

Darslikdagi matnlar maishiy va ijtimoiy-siyosiy mavzularni o'z ichiga oladi. Ushbu mavzulardan kelib chiqib, darslikning lug'at tarkibi yaratildi. Unda taxminan 1250 so'z va iboralar mavjud.

Grammatik material chet tili instituti 1-bosqich talabalari uchun grammatika fanidan tuzilgan o'quv dasturiga mos keladi.

Darslik kirish kursidan (10 dars), asosiy kurs (26 dars), kirish va asosiy kurs darslariga grammatik ko'rsatmalar, grammatik jadvallar va darslar bo'yicha tuzilgan lug'atdan iborat.

"So'z yasash" (so'z yasash qoidalari) bo'limi va 1-hamda 2-qismning mashqlar tizimi N. A. Lukyanova tomonidan ishlab chiqilgan.

N. A. Lukyanova tomonidan, shuningdek, grammatik ko'rsatmalar va grammatik jadvallar hamda grammatik mashqlar tizimi ("Grammar Exercises", "Grammar Revision" bo'limlari) ishlab chiqilgan.



## TARJIMONDAN

Natalya Aleksandrovna Bonk, Galina Akimovna Kotiy va Natalya Anatolyevna Lukyanovalar tomonidan yaratilgan ushbu darslik, mana, ko'p yillardirki ingliz tili fanini o'rganishda o'quvchi, abituriyent va talabalarga, deyarli barcha MDH mamlakatlarida eng yaqin ko'makchi hisoblanib kelayotgani hech kimga sir emas. Bizning yurtimizda ham ingliz tiliga qiziquvchilarning aksariyat qismi ushbu kitob bilan bevosita shug'ullanishgan. Biroq, darslik rus tilida bo'lganligi sababli milliy maktab o'quvchilarida u bilan shug'ullanishda bir qator qiyinchiliklar tug'ilishi, tarjimonni ushbu darslikni o'zbek tiliga tarjima qilishga undadi. Bu bilan o'zbek o'quvchilari ham ushbu darslikdan to'la va to'g'ri foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar, degan umiddamiz.

**Bu darslikning boshqa ingliz tili darsliklaridan farqi (qulayligi) nimada?**

Birinchidan, darslik uslubiy jihatdan yuqori saviyada tuzilgan. Ya'ni, mavzular bayonida (xoh fonetik, xoh grammatik yoki leksik mavzu bo'lsin) mantiqiy zanjirga qat'iy amal qilingan. Sodda qilib aytadigan bo'lsak, darsda nima o'tilsa, o'quvchidan shu narsa talab qilinadi. Til o'rganuvchi darslikning har qanday bosqichida o'tilgan mavzularni yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa, deyarli hech qanday qiyinchilikka uchramaydi. Qiyin mavzular ham kerakli joyda me'yorida, o'quvchining ayni vaziyatdagi bilim va ko'nikmalarini hisobga olgan holda bayon etilib, butun darslik davomida to'ldirib boriladi.

Ikkinchidan, grammatik mavzular muomala (kommunikatsiya) vaziyatlariga bog'langan holda berilishi uning o'zlashtirilish darajasini oshiradi va o'quvchi xotirasida uzoq vaqt muhrlanib qoladi. Bundan tashqari, o'tilgan darslar bo'yicha mavzular tegishli mashqlar orqali muntazam mustahkamlab boriladi.

Uchinchidan, mavzularning aniq dars soatlariga ajratilishi, o‘rinli metodik ko‘rsatmalar o‘qituvchi ish faoliyatini tashkil qilishga sezilarli yordam beradi.

Darslik so‘ngida berilgan ilovalar mavzularni bir tizimga solishga xizmat qiladi.

Tarjimada ingliz tili bilan til o‘rganuvchining ona tilisi o‘rtasidagi tafovutlarda o‘zbek tili xususiyatlaridan kelib chiqilgan holatlardagina tarjimon tomonidan ayrim o‘zgartirishlar kiritilgan. Qolgan o‘rinlarda asliyat to‘laqonli saqlab qolingan. Grammatik mavzular bayonida ayrim o‘rinlarda takrorlanishlar mavjud bo‘lib, ular o‘quvchining mavzuni o‘rganish jarayonida e‘tiborini (kitobni varaqlab) chalg‘itmasligi uchun atayin berib ketilgan. Ba‘zi mavzular esa biroz kengaytirilgan. (Masalan, *to be* fe‘li: darslik katta yoshdagi o‘quvchilarga mo‘ljallanganligi uchun uning tuslanishini bir joyda berishni ma‘qul topdik.)

Darslikning tarjimasi xususida bildirilajak har qanday fikr va mulohazalaringiz uning keyingi nashrlari yanada mukammalroq chiqishiga xizmat qiladi. Biz esa sizlarga buning uchun avvaldan minnatdorchilik bildiramiz.

*Bahodir Jo‘raboyev*

# M U N D A R I J A

Darslikning asosiy bo'limlariga uslubiy ko'rsatmalar .....	12
--	----

## Kirish kursi

Kirish .....	15
--------------	----

<b>1-dars</b> .....	18
---------------------	----

Tovushlar: [i, e, m, p, b, f, v, t, d, n, l] Undosh harflarning o'qilishi. b, d, f, l, m, n, p, t, v. Unlilarning urg'u ostida o'qilishi (I va II o'qish turlari). E harfi va ee harf birikmasining o'qilishi. So'z va ibora urg'usi haqida tushuncha. Intonatsiya haqida tushuncha. Portlovchi undosh harflarning birga kelishi. *Tekst. Grammatika:* Buyruq gap. Ingliz tilida ot va olmoshlarning kelishiklari haqida tushuncha.

<b>2-dars</b> .....	25
---------------------	----

Tovushlar: [i, ai, s, z, w]. Harflar i, y, s, z. Ss harf birikmasi. Ingliz tilidagi gaplarning ayrim urg'u va ohang qoidalari. Ingliz nutqining ritmikasi. *Tekst. Grammatika:* Otlarning rodi va soni. To'ldiruvchi haqida tushuncha. Predlogsiz (vositasiz va vositali) to'ldiruvchining gapdagi o'rni. Aniqlovchi haqida tushuncha.

<b>3-dars</b> .....	30
---------------------	----

Tovushlar: [æ, ei, ə, θ, ð] va [pl] tovush birikmasi. a harfining ai, ay, ea harf birikmalarida va c harfining i dan oldin o'qilishi. Ko'tariluvchi ton. Darak gapda intonatsiya. Ma'no guruhi haqida tushuncha. Ko'makchi so'zlarning to'la va reduksiyaga uchragan shakllari. *Tekst. Grammatika:* Infinitiv haqida tushuncha. to be fe'lining uchinchi shaxs birlikdagi shakli. Gap – umumiy tushuncha. It olmoshi. Artikl haqida tushuncha. Noaniq artikl.

<b>4-dars</b> .....	36
---------------------	----

Tovushlar: [k, g, ʃ, ʒ, tʃ, dʒ] va [kl] tovush birikmasi. C, g, h, j, k harflari. ch, sh, tch, th, ck harf birikmalarining o'qilishi. Murojaat intonatsiyasi. *Tekst. Grammatika:* Aniq artikl. this, that, these, those ko'rsatish olmoshlari. Birlikda -s, -x, -ss, -sh, -ch lar bilan tugallangan otlarning ko'plik shakli.

<b>5-dars</b> .....	42
---------------------	----

Tovushlar: [a, h, j, r, ŋ] va [ŋk] tovushlar birikmasi. r, h, y harflari va ar, ng, nk harf birikmalarining o'qilishi. III o'qish turi. Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u. *Tekst. Grammatika:* Umumiy so'roq gap. Qisqa bo'lishli javob. Birlikda -y bilan tugallanuvchi otlarning ko'plik shakli. Otdan so'ng sanoq son aniqlovchi bo'lib kelganda artiklning ishlatilmasligi.

<b>6-dars</b> .....	48
---------------------	----

Tovushlar: [u:, ɔ:, ɔ, u, ou] va [zð, zθ] Tovush birikmalari. O harfi va oo, or harf birikmalarining o'qilishi. Bo'g'in yasovchi undoshlar. Salomlashish intonatsiyasi. *Tekst. So'z yasash:* So'zlarning bir-biriga qo'shilishi. *Grammatika:* Bo'lishsiz darak gap to be fe'li bilan. Qisqa bo'lishsiz javob. Tanlov so'roq gap. Predlogli to'ldiruvchi.

7-dars .....	54
Tovushlar: [ʌ, au, ɔi] va [tɔ, dɔ, nɔ, lɔ. gr, dr, br, fr, pr, str, θr] Tovush birikmalari. U, w harflari va oi, oy, ow, ou harf birikmalarining o'qilishi. [r] bog'lovchi tovushi. <i>Tekst. So'z yasash: -er, -or</i> suffikslari. <i>Grammatika:</i> Kishilik olmoshlari bosh kelishikda. to be fe'lining hozirgi zamonda tuslanishi. Joy va yo'nalish predloglari.	
8-dars .....	62
Tovush [ɔ:] va [wɔ, wɔ:] tovush birikmalari. Harf birikmalari: er, lr, yr, ur, wa, wh. <i>Tekst. Grammatika:</i> Buyruq maylining bo'lishsiz shakli. Maxsus so'roq gaplar. Sifatdosh I. (Participle I). Hozirgi zamon davom fe'li (The Present Continuous Tense).	
9-dars .....	68
Tovushlar: [ia, ea, ua] va [aia, aua, wa:] tovush birikmalari. IV o'qish turi. Harf birikmalari: wor, eer, air, ire, our. Bosh va ikkinchi darajali urg'u. <i>Tekst. Grammatika:</i> Egalik olmoshlari. who, whose, where so'roq so'zlari bilan boshlanuvchi maxsus so'roq gaplar.	
10-dars .....	75
Tovush birikmalari: [tw, kw]. q harfi va all, alk, wr, ew, igh harf birikmalari. <i>Tekst. Grammatika:</i> of predlogi yordamida qaratqich kelishigi munosabatining ifodalaniishi.	
Ingliz alifbosi .....	80
O'qish qoidalari jadvali .....	80
<b>Asosiy kurs</b>	
1-dars .....	85
<i>Text:</i> We Learn Foreign Languages. <i>So'z yasash:</i> -ly suffiksi. <i>Grammatika:</i> Hozirgi zamon oddiy fe'li. (The Present Indefinite Tense). Noaniq zamon ravishlari.	
2-dars .....	95
<i>Text:</i> We Learn Foreign Languages. (Continued) <i>So'z yasash:</i> -ion suffiksi. O'qish qoidasi: kn harf birikmasini so'z boshida va u harfining r va l dan so'ng o'qilishi. <i>Grammatika:</i> Hozirgi zamon oddiy fe'li 3-shaxs birlik shaklining yasalishi. Ega va uning aniqlovchisiga savollar. to be going to oborotini kelasi zamondagi niyatni ifodalashda ishlatilishi. Holat va daraja ravishlarining gapdagi o'mi.	
3-dars .....	108
<i>Text:</i> The Working Day of an Engineer. <i>O'qish qoidasi:</i> ay, ey harf birikmalarining urg'usiz holatda va ear harf birikmasi, a harfining st, sk lardan oldin kelganda o'qilishi. <i>Grammatika:</i> Kishilik olmoshlarining obyekt kelishigi. Much, little, many, few.	
4-dars .....	118
<i>Text:</i> My Friend is a Children's Doctor Now. Sotlarning yasalishi. <i>Grammatika:</i> Fe'ning asosiy shakllari. O'tgan zamon oddiy fe'li (O'ZO). The Past Indefinite Tense. To'g'ri tuslanuvchi fe'llar. to be fe'lining O'ZO shakli. Otlarning kelishiklari. Qaratqich kelishigi.	
5-dars .....	129

	<i>Text: My Last Week-End. Soʻz yasash: -al</i> suffiksi. <i>Grammatika: Oʻtgan zamon oddiy feʼli. The Past Indefinite Tense. Notoʻgʻri tuslanuvchi feʼllar. Vositali hamda vositasiz toʻldiruvchining gapdagi oʻrni.</i>	
6-dars	.....	144
	<i>Text: My Friend's Family. Yilni ifodalovchi sonlar. Soʻz yasash: -ist, -ism</i> suffiksi. <i>Oʻqish qoidasi: Id, nd</i> dan oldin unilar va <i>th, ni, n, v</i> lardan oldin o harfining oʻqilishi. <i>Grammatika: to have</i> feʼli va <i>have (has)</i> got oboroti. <i>some, any</i> gumon olmoshlari. of predlogining <i>one of, some of</i> kabi birikmalarda ishlatilishi.	
7-dars	.....	159
	<i>Text: My Sister's Flat. Soʻz yasash: -ure, -able</i> suffikslari. <i>Oʻqish qoidasi: cei, ower, ph</i> harf birikmalari. <i>Grammatika: there is (there are)</i> oboroti HZO va OʻZO da. <i>can</i> modal feʼli va <i>to be able to</i> oboroti.	
8-dars	.....	174
	<i>Text: At the Library. Soʻz yasash: -hood, -y</i> suffikslari. <i>Oʻqish qoidasi: Unlilarning urgʻusiz</i> holatda oʻqilishi. <i>Grammatika: Siftdosh II haqida</i> tushuncha. Tugallangan hozirgi zamon feʼli (THZ). (The Present Perfect Tense.) <i>Fan</i> va oʻquv predmetlari nomlari oldidan artiklning ishlatilmasligi.	
9-dars	.....	189
	<i>Text: A Telephone Conversation. Oʻqish qoidasi: Unlilarning urgʻu ostida</i> qoʻsh <i>r</i> dan oldin oʻqilishi. <i>Grammatika: Ingliz tilida shartlilikning</i> berilishi. Boʻlishsiz soʻroq gaplar. <i>That, if, when, as, because</i> bogʻlovchilari bilan keluvchi ergash gaplar.	
10-dars	.....	205
	<i>Text: A Letter to a Friend. Soʻz yasash: -ing</i> suffiksi. <i>Grammatika: Kelasi zamon oddiy (KZO) feʼli (The Future Indefinite Tense). Aniqlovchi</i> ergash gaplar. <i>Till (until), as soon as, before, after, while</i> bogʻlovchilari bilan keluvchi ergash gaplar.	
11-dars	.....	228
	<i>Text: A Visit to Moscow. Soʻz yasash: -ive, -ful, -age, -ize</i> suffikslari. <i>Grammatika: Toʻldiruvchi</i> ergash gapli qoʻshma gaplarda zamonlar moslashuvi (the Future Indefinite in the Past, the Past Perfect Tense). Tasdiq soʻroq gap. <i>to speak, to talk, to say, to tell</i> feʼllari.	
12-dars	.....	243
	<i>Text: In the Lunch Hour (Meals). Grammatika: 1- yoki 3- shaxsga qaratilgan buyruq yoki iltimosning ifodalanishi. if yoki whether</i> bogʻlovchilari bilan kiritilgan toʻldiruvchi ergash gaplar (Umumiy soʻroq gaplar oʻzlashtirma gapda). <i>Narsa, buyum</i> nomlari oldidan artiklning ishlatilishi. <i>a little, a few</i> birikmalari.	
13-dars	.....	258
	<i>Text: They are Leaving Moscow. Oʻqish qoidasi: oa</i> harf birikmasi. <i>Grammatika: Majhul nisbat (The Passive Voice). Maxsus</i> soʻroq gaplar oʻzlashtirma gapda. <i>Egalik</i> olmoshlarining absolut (mustaqil) shakli.	
14-dars	.....	278

	<i>Text: A Sea Story (after W.W. Jacobs). Grammatika: O'tgan va kelasi zamon davom fe'llari (The Past and Future Continuous). Buyruq va iltimos o'zlashtirma gapda. Natija ergash gap.</i>	
15-dars	<i>Text: Shopping. Soatlar (vaqt)ni aytish. So'z yasash: -less suffiksi. Grammatika: Sifat darajalari. Ot shaxsi noma'lum gap. To'siqsiz ergash gap. O'rindosh so'zlar.</i>	296
16-dars	<i>Text: From Verkhoyansk to Sukhumi. So'z yasash: -ment suffiksi va un-, in-, im-, il-, ir-, mis- old qo'shimchalari. Grammatika: Ravish darajalari. as ... as, not so ... as qiyoslash konstruksiyalari. Ot va fe'l shaxsi noma'lum gaplar. O'rindosh so'zlar.</i>	310
17-dars	<i>Text: The United Kingdom. Ayrim geografik nomlar. So'z yasash: -ese, -ic, -ous, -ship suffikslari. Grammatika: Atoqli otlar bilan artiklning ishlatilishi.</i>	327
18-dars	<i>Text: The Childhood and Youth of Dickens. So'z yasash: -ance, ence suffikslari. Grammatika: some, any, no, every lardan yasalgan gumon olmoshlari va ravishlari.</i>	341
19-dars	<i>Text: The Lavrovs. 100 dan katta sonlar. So'z yasash: -ness, -dom suffikslari va dis- old qo'shimchasi. O'qish qoidasi: gu birikmasining unilardan oldin kelishi. Grammatika: Sifatdosh I va II bilan sifatdoshli aborotlar aniqlovchi va hol vazifasida. Since, for a long time, for ages so'zlari bilan tugallangan hozirgi zamon fe'lining ishlatilishi. Atoqli otlar bilan artiklning ishlatilishi. Ikki xil qiyoslash darajalari.</i>	355
20-dars	<i>Text: An Incident from the Life of a Russian Revolutionary. Grammatika: "Murakkab to'ldiruvchi"li konstruksiyaning to want, to expect fe'llari va should (would) like iborasidan so'ng kelishi. Gerundiyning to stop, to continue, to begin, to go on, to finish, to mind fe'llaridan so'ng ishlatilishi. Tugallangan o'tgan zamon fe'li (the Past Perfect Tense).</i>	375
21-dars	<i>Text: Now He Belongs to the Ages. O'qish qoidasi: alm harf birikmasi. Grammatika: "Murakkab to'ldiruvchi"li konstruksiyaning his qilish fe'llaridan so'ng kelishi.</i>	399
22-dars	<i>Text: The Open Window (after H. Munro). So'z yasash: over- old qo'shimchasi. Grammatika: O'zlik olmoshlari. "Murakkab to'ldiruvchi"li konstruksiya to make majbur qilmoq fe'lidan so'ng.</i>	413
23-dars	<i>Text: Her First Night. So'z yasash: -ite suffiksi. Grammatika: neither ... nor, either ... or, both ... and bog'lovchilari. So shall I, Neither (nor) did he kabi qisqa bo'lishli va qisqa bo'lishsiz gaplar.</i>	431
24-dars		449

	<i>Text: A Piece of Soap (after H. Munro). Grammatika: Tugallangan kelasi zamon (The Future Perfect Tense).</i>	
<b>25-dars</b>	.....	<b>462</b>
	<i>Text: Post Haste (after Colin Howard). O'gish qoidasi: So'z oxiridan uchinchi urg'uli bo'g'inda unilarning o'qilishi. Grammatika: Revision.</i>	
<b>26-dars</b>	.....	<b>485</b>
	<i>Text: Mr Winkle on the Ice (after Charles Dickens). So'z yasash: -ant, -ent, -en suffikslari. Grammatika: Revision.</i>	
<b>Darslar bo'yicha lug'at</b>	.....	<b>512</b>
<b>Grammatik mavzular</b>	.....	<b>630</b>
<b>Noto'g'ri tuslanuvchi fe'llar jadvali</b>	.....	<b>748</b>

# DARSLIKNING ASOSIY BO'LIMLARIGA USLUBIY KO'RSATMALAR

**Kirish kursi.** Kirish kursi 50 soat auditoriya mashg'ulotlariga mo'ljallangan. Kirish kursining tuzilish prinsipi – fonetik-orfografik (tovushdan harf va harf birikmalariga). Kirish kursini o'tish davrida tinglovchilar ingliz tilining butun fonemalar tarkibini o'rganishadi, shuningdek, so'zdagi urg'u va intonatsiya (iboradagi urg'u, ko'tariluvchi va pasayuvchi ohanglar, gapning ma'no guruhlari ajratilishi va boshqalar) haqida asosiy ma'lumotlarga ega bo'lishadi.

Kirish kursining har bir darsi tovushlar tasnifi, berilgan tovushlarni dastlabki mustahkamlash mashqlari (transkripsiyada berilgan), o'qish qoidasi, o'rganish mashqlari (orfografiyada berilgan), lug'at va izohlari bilan berilgan matn hamda matn yuzasidan tuzilgan mashqlardan iborat.

O'qish texnikasi\* ustida ishlash uchun asosiy material bo'lib o'tilgan tovush va harflarni o'z ichiga olgan leksika asosida qurilgan va o'qish qoidalarini yoritib beruvchi mantiqiy matnlar xizmat qiladi.

Matnda uchraydigan talaffuz qilinishi qiyinroq bo'lgan so'z birikmalari alohida mashqlarga ajratilgan, ularni matn o'qishdan avval mashq qilib olish tavsiya etiladi.

Kirish kursi tarkibiga sinfda ishlatiladigan so'zlar, ayrim kasb nomlari, spektrning asosiy ranglari nomlari, eng ko'p ishlatiladigan fe'llar, birinchi o'nta sanoq son, kishilik va egalik olmoshlari, asosiy joy va yo'nalish predloglari kiradi.

Kirish kursining grammatik materialiga *to be* fe'llining Indefinite guruh hozirgi zamondagi tuslanishi, uchta savol turi (umumiy, maxsus va tanlov so'roq gaplari), buyruq mayli (bo'lishli va bo'lishsiz shakllari) va Continuous guruhining hozirgi zamon shakli kiritilgan.

Leksika, grammatika va o'qish qoidalari matndan so'ng berilgan bir qator mashqlar bilan mustahkamlanadi. Bu mashqlardan ko'p qismini o'quvchilarga uy vazifasi sifatida berish maqsadga muvofiq.

Talaffuz, o'qish qoidalari va o'qish texnikasi ustida ishlash kirish kursi bilan cheklanmaydi. Shuning uchun asosiy kursning har bir darsi tegishli mashqlar bilan boshlanadi.

**Asosiy kurs.** Har bir dars asosini matn tashkil qiladi. Ingliz tili og'zaki nutqida ishlatiladigan va dars mavzusini to'ldiruvchi qisqa dialog va iboralar matndan so'ng ramka ichida berilgan. Bu nutq namunalari vazifasi dialog va matn materialini kengaytirishdan iborat. Ularni yod olish va dialogik nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mashq sifatida foydalanish tavsiya

---

\* O'qish texnikasi deganda o'qish jarayonida tovushlarning to'g'ri talaffuzi va gapning to'g'ri ohang bilan o'qilishi tushuniladi.



etiladi. Bunday topshiriq mashqlar tizimida hisobga olingan va "Og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish uchun mashqlar" bo'limida muntazam berib boriladi. Bundan tashqari, ramka ichida berilgan material yod olish va sinfda sahnalashtirish uchun tavsiya qilinadigan amaliy xarakterga ega bo'lgan dia-loglarda keng qo'llaniladi.

"Matnga izohlar"da dars lug'atida berilganiga qaraganda kengroq tahlil talab qiluvchi leksik hodisalar va ushbu bosqichda mukammal o'rganish nazarda tutilmagan, biroq matnda uchraydigan grammatik hodisalar izohlanadi.

Keyin aktiv lug'at ro'yxati (tarjimasiz), so'z yasash qoidalari, o'qish qoidalari va mashqlar keladi.

"Grammatik mavzular" bo'limidagi grammatik hodisalar tizim bo'yicha emas, balki darslarda kelishi bo'yicha berilgan. Ba'zi eslatmalarda mualliflar bayon etilayotgan grammatik hodisa bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumotlarni berib ketishni ma'qul topishdi. Ammo ular keyingi bosqichlarda batafsil yoritiladi.

**Asosiy kurs darslarining mashqlar tizimi.** Darsning barcha mashqlari o'zining asosiy maqsadiga ko'ra uch guruhga ajratilgan: 1) grammatik materialni dastlabki mustahkamlash uchun mashqlar; 2) leksik-grammatik mashqlar; 3) og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish uchun mashqlar.

Birinchi guruh mashqlari oldin ishlab chiqilgan matnlar leksikasi asosida tuzilgan va matnni o'qishdan avval tushuntiriladigan grammatik hodisalarni sinfda va uyda mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

Bu guruh mashqlarini ishlab chiqishda mashqlarni bajarayotib o'quvchilar o'rganilayotgan grammatik tuzilmalarni kerakli nutq vaziyatlarida ishlatishlariga alohida e'tibor berilgan. Ayrim hollarda grammatik tuzilmalarning talaffuzini ishlab chiqish uchun maxsus mashqlar berilgan.

Oxirgi ikki darsda yangi grammatik material berilmay, ularda o'tilgan grammatik hodisalar takrorlanadi va tizimlashtiriladi.

Ikkinchi guruh mashqlari yangi so'zlarni va mazkur darsning grammatikasini mustahkamlash uchun mo'ljallangan. Bu bo'lim uchun leksikani mustahkamlash bilan bir vaqtda o'tilgan grammatik materiallar asosida nutq ko'nikmalarini ham rivojlantiruvchi mashqlar turlari tanlab olingan. Shu maqsadda leksikani mustahkamlashga qaratilgan savollar shunday guruhlashtirilganki, har to'rt-besh bir mavzuga bog'langan savollardan so'ng umumlashtiruvchi hikoya tuzish mumkin (masalan, 287-betdagi VI mashq).

Leksikaning bir qismi qisqa dialoglarda (masalan, 290-betdagi XIV mashq) ishlab chiqiladi. Ularni yod olish yoki o'zlashtirma gapda aytib berish tavsiya etiladi. Ba'zi darslarda xabar shaklida bayon etilgan vaziyat asosida dialog tuzish taklif etiladi (473-betdagi XV mashq).

Birinchi va ikkinchi guruhlariga kiruvchi o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish mashqlarining katta qismini yozma uy vazifasi sifatida bergan ma'qul.

Uchinchi guruh mashqlari yanada ko'proq nutq faoliyatiga yo'naltirilgan. Bu bo'limga darsda ramka ichida berilgan iboralar, shuningdek, katta bo'lmagan dialogik matnlar asosida dialogik nutqni rivojlantirish mashqlari kiritilgan.

Dars lug'ati. Dars lug'atida so'z tarjimasidan tashqari uning ma'nolari ko'lami, boshqa so'zlar bilan birika olishi, frazeologik oborotlar va erkin so'z birikmalari beriladi. Ko'p uchraydigan xatolardan ogohlantirish uchun u yoki bu so'zlarning qo'llanishdagi o'ziga xosliklar ramka ichida beriladi. Lug'at o'quvchiga noma'lum bo'lgan barcha so'zlarni, hatto faol o'zlashtirilishi shart bo'lmagan so'zlarni ham o'z ichiga oladi. Ayrim hollarda so'z haqida qo'shimcha ma'lumotlar beriladi. Ular har doim ham mashqlarda o'z aksini topavermaydi.

Mazkur darslik bilan ishlashda materialning taxminiy taqsimlanishi. Asosiy kursning har bir darsi 14–16 akademik soatlik auditoriya mashg'ulotiga mo'ljallangan. Mashg'ulot ketma-ketligini taxminan quyidagicha tuzish tavsiya etiladi:

Yangi grammatik materialni tushuntirish va dastlabki mustahkamlash (birinchi guruh mashqlari) – 1 soat.

Grammatik materialni mustahkamlash (birinchi guruh mashqlari)	}	2–3 soat.
Leksik materialni kiritish (ikkinchi guruh mashqlari)		
Matn ustida ishlash	}	6 soat
Grammatik va leksik materialni mustahkamlash (ikkinchi va qisman uchinchi guruh mashqlari)		

O'tilgan grammatik va leksik material asosida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish (uchinchi guruh mashqlari) – 4–5 soat.

O'zlashtirilgan materialni nazorat qilish – 1 soat.

Mualliflar qo'lyozmani sinchiklab ko'rib chiqqanligi va qimmatli ko'rsatmalar berganligi uchun rasmiy taqrizchi filologiya fanlari nomzodi, dotsent I. I. Levinaga minnatdorchilik bildirishadi.

# KIRISH KURSI

## K i r i s h

Tilning og'zaki va yozma shakli haqida tushuncha. Til kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida dastlab tovushli, og'zaki shaklda paydo bo'lgan. Yozuv – tilning tovush shaklining shartli ifodasi hisoblanadi, xolos. Shuning uchun tilni bilish uchun, avvalambor, uning tovush shaklini, fonetik tuzilishini, ya'ni, tovushlar tizimi, so'zdagi urg'u va ohang haqida tushunchaga ega bo'lish kerak. Tilning fonetik (tovush) qurilishi bilan fonetika shug'ullanadi.

Tovush va harf o'rtasidagi farq. Har bir til ma'lum cheklangan tovushlar miqdoriga ega. Tilning barcha so'zlari ushbu tovushlardan tarkib topgan bo'ladi. Tovushlar nutqda talaffuz qilinadi, harflar esa tovushlarni yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi.

Tilning tovush tarkibi doimo o'zgarishlar ta'sirida bo'ladi, so'zning harfli ifodasi esa juda sekin o'zgaradi, shuning uchun so'zning harfli tarkibi uning talaffuzini shartli ravishda aks ettiradi, xolos.

Haqiqatan ham, agar biz *maktab* va *vijdon* so'zlarining yozilishi va (ularning) tovush shaklini solishtirsak, nomutanosiblikni darrov fahmlaymiz. *Maktab* so'zining oxirida *b* yozilishiga qaramay [p] o'qiladi, *vijdon* so'zida esa, umuman *j* harfi ishlatilgan so'zlarda, *j* ni [dʒ] yoki [ʒ] o'qish kerakligi muammosi bor. *Jurnal*, *juri* va boshqa so'zlar shular jumlasidandir.

Ingliz tovush tizimi ancha o'zgarishlarga uchragan bir paytda uning orfografiyasi uzoq muddat ichida o'zgarmay qoldi. Shu bois ingliz tilida so'zning tovush tizimi bilan uning harfiy ifodasi o'rtasidagi tafovut ancha katta. Ingliz tilidagi so'zning talaffuzi va yozilishi o'rtasidagi tafovutning kattaligining sababi yana shundaki, ingliz tilidagi 44 tovushni lotin alifbosiga asoslangan 26 ta harf ifodalaydi. Shuning uchun bitta harf turli holatlarda turlicha o'qilishi mumkin. So'zning tovush tarkibini aniq ifodalash va shu bilan chet tili talaffuzini egallashni osonlashtirish uchun fonetik transkripsiyadan foydalaniladi, ya'ni, bu shunday shartli grafik belgilash tizimiki, unda har bir tovushga bitta aniq belgi to'g'ri keladi.

Ingliz tili fonetik tizimining o'ziga xos xususiyatlari. Ingliz tili fonetik tizimi quyidagi o'ziga xosliklarga ega:

1. Ingliz tilida unli lar uzun va qisqa talaffuz qilinadi. Unli tovushning uzun yoki qisqaligi so'z ma'nosiga ta'sir qiladi. Unli tovushning uzunligi transkripsiyada vertikal ikki nuqta [:] bilan beriladi.

2. Ingliz tilida monoftong unli tovushlardan tashqari diftonglar ham mavjud, ya'ni ketma-ket kelgan ikki unli tovush bir tovushdek talaffuz qilinadi.

3. Ingliz tilida undosh tovushlarni talaffuz qilishda ham muayyan o'ziga xosliklar bor. Ingliz tilida jarangli undoshlar so'z oxirida va jarangsiz undoshdan oldin kelgan taqdirda ham o'z jarangini yo'qotmaydi. Agar u jarangsiz talaffuz qilinsa, so'z ma'nosining o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

4. Ingliz tilida undosh tovushlar har qanday unli oldidan qattiq talaffuz qilinadi.

### NUTQ ORGANLARI

- I. Og'iz bo'shlig'i.
- II. Bo'g'iz.
- III. Burun bo'shlig'i.
- IV. Halqum.



1-rasm. Nutq organlarining sxematik kesimi.

#### Faol nutq organlari:

1. Lablar.
2. Til:
3. Yumshoq tanglay:  
----- tushirilgan holat;  
----- ko'tarilgan holat.
4. Kichik til.
5. Tovush poychasi.

- a) uchi;
- b) old qismi;
- c) o'rta qismi;
- d) orqa qismi.

#### Sust nutq organlari:

6. Yuqori old tishlar.
7. Alveola.
8. Qattiq tanglay.

Unli va undosh tovushlar haqida tushuncha. Nutqdagi barcha tovushlar ikki katta sinfga ajraladi – unli va undosh. Unli tovush talaffuz qilinganda havo oqimi hech bir to'siqqa uchramaydi. Barcha unlilar jarangli bo'lib, ularni talaffuz qilishda tovush paychalari tebranadi.

Undosh tovush talaffuz qilinganda havo oqimi to'siqqa uchraydi.

Unli tovushlar musiqiy ohang tovushlari hisoblanadi, undosh tovushlarning ko'plari esa shovqin tovushlari hisoblanadi. Biroq, musiqiy ohangi shovqindan ustun keladigan undoshlar ham bor: [m, n, l, r]. Bunday undoshlar *sonantlar* yoki *sonorlar* deyiladi. Ovozdan shovqin ustunlik qiluvchi boshqa undoshlarni shovqinli undoshlar deyiladi.

Tovush paychasining harakatiga qarab undoshlar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) *jarangli*, tovush paychalari tebranadi, masalan [b, d].
- 2) *jarangsiz*, tovush paychalari tebranmaydi, masalan [p, t].

## MASHQLAR

**I. Quyidagi o'zbek tilidagi so'zlarning oxirida qaysi tovushlar eshitilyapti:**

xat, had, yuk, tug, maktab, xo'p, so'z, xos, mos, sas, shkaf, turp, shoh, tok, nav, naf.

**II. Quyidagi o'zbek tilidagi undosh tovushlarni talaffuz qilishda qaysi nutq organlari ishtirok etadi:**

[p, b, t, d, k, g, n, s]

**III. Quyidagi o'zbekcha so'zlarda nechta harf va nechta tovush borligini aniqlang:**

sharq, tong, sovg'a, shogird, baxtiyor, shahar, hashar, vodiy, o'lka, chaman.

**IV. Quyidagi so'zlarni bo'g'inlarga ajrating va qaysi bo'g'inga urg'u tushishini aniqlang:**

uy, sayr, daryo, o'rmon, temir, vatan, bolalik, namoyish, ob-havo, to'siq, poytaxt, shakl, yumush, qo'llash.

2013/91 A 6836	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
-------------------	--

# 1-dars

Tovushlar	{	[i:, e, m, p, b, f, v, t, d, n, l]	Harflar	{	E, e	Э, е	[i:]
					B, b	В, в	[bi:]
					D, d	Д, д	[di:]
					F, f	Ф, ф	[ef]
					L, l	Л, л	[el]
					M, m	М, м	[em]
					N, n	Н, н	[en]
					P, p	Р, р	[pi:]
					T, t	Т, т	[ti:]
					V, v	У, у	[vi:]

## ee harf birikmasi

1. So'z va ibora urg'usi haqida tushuncha.
2. Intonatsiya haqida tushuncha.
3. Portlovchi undosh harflarning birga kelishi.

## Grammatika

1. Buyruq gap (1-§, 630-bet).
2. Ingliz tilida ot va olmoshlarning kelishiklari haqida tushuncha (2-§, 630-bet).

## TOVUSHLAR TASNIFI

**[i:] unli tovushi.** [i:] tovushini talaffuz qilishda til oldinga intilgan. Til uchi pastki tishlarga tegadi. Lablar biroz cho'zilgan.

[i:] tovushi cho'ziq unli tovush bo'lib, talaffuz qilish jarayonida bir xil emas (o'zgaruvchan). Uning boshlanishi ancha keng va ochiq, oxiri tor va yopiq. O'zbek tilidagi *ignu* so'zidagi [i:] kabi. [i:] tovushining cho'ziq talaffuz qilinishi, xuddi barcha ingliz tilidagi unli-lar kabi, uning gapdagi o'rniga bog'liq. [i:] tovushi pauzadan oldingi so'z oxirida ancha cho'ziq, jarangli undoshdan oldin biroz qisqaroq va jarangsiz undoshdan oldin ancha qisqa talaffuz qilinadi. Bundan unlining sifati o'zgarmaydi: u boshqa (qisqa) unli tovushga o'tib ketmaydi.

**[e] unli tovushi.** [e] tovushi qisqa monoftong, talaffuz jarayonida bir xil [e] unli tovushini talaffuz qilishda tilning asosiy qismi og'iz

bo'shlig'ining oldingi qismida bo'ladi. Til uchi pastki tishlarga tegib turadi. Lablar biroz cho'zilgan. Pastki jag'ni tushirmaslik kerak.

[e] tovushi o'zbek tilidagi *ekin*, *echki* so'zlaridagi [e] ga yaqin.

**[m] undosh tovushi.** [m] sonantini talaffuz qilishda lablar yumilgan, yumshoq tanglay tushirilgan, havo oqimi burun bo'shlig'i orqali o'tadi. Ingliz tilidagi [m] undosh tovushini talaffuz qilishda lablar o'zbek tilidagi [m] undosh tovushini talaffuz qilishdagidan kuchliroq yumiladi.

**[p, b] undosh tovushlari.** Bu undosh tovushlarni talaffuz qilishda lablar avvaliga yumiladi, keyin esa birdaniga ochiladi va havo oqimi og'iz bo'shlig'i orqali o'tadi.

[p] tovushi – jarangsiz, kuchanish bilan talaffuz qilinadi, ayniqsa, urg'u ostidagi unidan oldin bu yaqqol seziladi.

[b] tovushi – jarangli, xuddi barcha boshqa jarangli undoshlar kabi so'z oxirida jarangsizlanmaydi.

**[f, v] undosh tovushlari.** Bu undosh tovushlarni talaffuz qilishda pastki lab yuqoridagi tishlarga biroz tegadi, ular orasida hosil bo'lgan tirqishdan havo oqimi tashqariga chiqadi. Ingliz tilidagi jarangsiz [f] o'zbek tilidagi [f] dan kuchliroq talaffuz qilinadi. [v] jarangli tovushi so'z oxirida jarangsizlanmaydi. Ushbu tovushlarni har ikki lab bilan talaffuz qilinmasligiga e'tibor berish kerak.

**[t, d] undosh tovushlari.** [t] va [d] undosh tovushlarini talaffuz qilishda til uchi ko'tariladi va tanglayga tekkiziladi. Natijada hosil bo'lgan to'siqni havo oqimi shovqin bilan (portlab) yorib o'tadi. [t] tovushi – jarangsiz, [d] tovushi esa – jarangli.

[t] jarangsiz undosh tovushi unli tovushlar oldidan kuchanib talaffuz qilinadi.

**[n] undosh tovushi.** [n] sonantini talaffuz qilishda tilning holati xuddi [t] va [d] tovushlardagidek, biroq yumshoq tanglay tushirilgan bo'ladi va havo oqimi burun oraliigidan o'tadi.

**[l] undosh tovushi.** [l] sonantini talaffuz qilish o'rni xuddi [t], [d] va [n]dagidek, biroq, tilning yon tomonlari (yoki bir tomoni) tushirilgan bo'ladi, yumshoq tanglay ko'tarilgan, havo oqimi tilning bir yoki har ikki tomonidan tashqariga chiqadi.

[l] undosh tovushining so'zdagi o'rni qarang ikki xil ko'rinishi mavjud. Unli tovushlardan oldin yumshoq, undosh tovushlardan oldin va so'z oxirida qattiq talaffuz qilinadi.

## Dastlabki mustahkamlash mashqlari

i:, n, d, l, t	m, b, p, f, v	e	l	t-d, f-v	p, t
ni:	mi:	ten	li:p – pi:l	net – ned	pi:
di:	bi:	ted	let – tel	bet – bed	pen
li:	pi:	pen		fi:l – vi:l	ti:
ti:	fi:	bed		li:f – li:v	ten
	vi:				

### O'QISH QOIDALARI

1. **b, d, f, l, m, n, p, t, v** undosh tovushlari quyidagicha o'qiladi:

B, b [bi:]	harfini [b]	deb o'qish kerak
D, d [di:]	> [d]	>
F, f [ef]	> [f]	>
L, l [el]	> [l]	>
M, m [em]	> [m]	>
N, n [en]	> [n]	>
P, p [pi:]	> [p]	>
T, t [ti:]	> [t]	>
V, v [vi:]	> [v]	>

Ikki ketma-ket kelgan undosh bir tovush kabi o'qiladi, masalan:  
tell [tel] aytmoq, demoq

2. Har bir ingliz unli harfi bir nechta unli tovushni berishi mumkin. Urg'u ostidagi unli harfni o'qish qoidasi undan so'ng shu so'zda qaysi harflar kelishiga bog'liq.

**Urg'u ostidagi unli harflar o'qish qoidasining I turi.** (Ochiq bo'g'inda – alfavitdagidek).

Quyidagi hollarda unli harf alfavitdagidek o'qiladi:

a) so'z oxirida, agar u shu so'z tarkibidagi yagona unli bo'lsa. Bu holatda E, e xuddi alfavitdagidek [i:] kabi o'qiladi, masalan:

me [mi:] meni, menga  
be [bi:] bo'lmoq, -dir

b) yagona undoshdan oldin, agar shu undoshdan so'ng unli harf kelsa:

Pete [pi:t]\*\* Pit (ism)

\* Transkripsiya qavsi ichida harfning alfavitdagi nomi berilyapti.

\*\* So'z oxiridagi -e o'qilmaydi, agar shu so'z tarkibida yana birorta boshqa unli bo'lsa (o'qilmaydigan – e).



Urg'u ostidagi unli harflarni o'qish qoidasining II turi. (Yopiq bo'g'inda – qisqa).

Quyidagi hollarda unli harf qisqa o'qiladi:


a) bir bo'g'inli so'zlarda so'z oxiridagi undoshdan oldin. Bunda e [e] o'qiladi, masalan:

ten [ten] o'n  
pen [pen] ruchka

b) agar urg'u ostidagi unli harf keyingi unli harfdan ikki yoki uchta undosh harf bilan ajratilgan bo'lsa, masalan:

meddle [medl] aralashmoq

3. E, e tovushi urg'uli bo'g'inda quyidagicha o'qiladi:



4. ee harf birikmasi [i:] kabi o'qiladi, masalan:

meet [mi:t] uchratmoq, tanishmoq, kutib olmoq

### O'rganish mashqlari

[i:]	[e]	[I]
1. dee – deed – deep	2. ten – pen	3. let – tell
be – been – beet	den – men	led – bell
me – meed – meet	Ted – bed	leep – peel
fee – feed – feet	net – vent	

### URG'U

**So'zdagi urg'u.** So'zdagi biron-bir bo'g'inni ajratib ko'rsatishga so'zdagi urg'u deyiladi. Transkripsiyada [r] belgisi urg'uli bo'g'indan oldinga qo'yiladi.

**Iboraviy urg'u.** Gapdagi ma'lum so'z(lar)ni boshqalaridan kuchliroq talaffuz qilinishiga *iboraviy urg'u* deyiladi. Ingliz tilida odatda asosiy so'zlar: ot, sifat, asosiy fe'l, son, ravish, so'roq va ko'rsatish olmoshlari urg'u ostida keladi.

**Mantiqiy urg'u.** Gapiruvchi muhim deb hisoblagan biron-

bir soʻzning maʼnosini ajratib koʻrsatish zarurati tugʻilsa, odatda urgʻusiz keladigan soʻzlar ham urgʻu ostida kelishi mumkin va aksincha, iboraviy urgʻuni oluvchi asosiy soʻzlar urgʻusini yoʻqotishi mumkin. Ingliz tilida xuddi oʻzbek tilidagi kabi mantiqiy urgʻu bilan iboraviy urgʻu mos kelmasligi mumkin.

## INTONATSIYA

Intonatsiya ovoz toni balandligi (ohang), soʻzning talaffuz qilinish kuchi (iboraviy urgʻu), tembr, temp va ritmni oʻz ichiga oladi.

Intonatsiya gapning tegishli grammatik tuzilishi va uning leksik tizimi bilan birgalikda fikr maʼnosini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi.

Intonatsiyaning eng koʻp tadqiq etilgan komponentlari ohang va urgʻu hisoblanadi.

**Ingliz tilidagi gapda ohang.** Pasayuvchi ton. Ingliz tilida, xuddi oʻzbek tilidagi kabi, ikkita asosiy nutq ohangi mavjud, ikkita ton: pasayuvchi va koʻtariluvchi.

Pasayuvchi ton fikr tugaganligini, qatʼiylikni bildiradi. Shuning uchun darak gaplar pasayuvchi ohangda talaffuz qilinadi. Pasayuvchi ton ingliz tilida, xuddi oʻzbek tilidagi kabi, buyruq va darak gaplarda ishlatiladi. Biroq, tonning pasayishi ingliz tilida oʻziga xos tarzda amalga oshadi: u oʻzbek tilidagiga qaraganda ancha keskin va chuqur.

**Ohang va urgʻuning grafik aks ettirilishi.** Ohang iboraviy urgʻu bilan chambarchas bogʻliq. Ohang va iboraviy urgʻuni grafik aks ettirish uchun quyidagi belgilar ishlatiladi: urgʻusiz boʻgʻin nuqta [•] bilan, pasaymaydigan yoki koʻtarilmaydigan urgʻuli boʻgʻin tire [-] bilan, pasayuvchi ovoz bilan talaffuz qilinuvchi soʻnggi urgʻuli boʻgʻin pastga qaratilgan egri chiziq [∪] bilan, koʻtariluvchi ovoz bilan talaffuz qilinuvchi soʻnggi urgʻuli boʻgʻin tepaga qaratilgan egri chiziq [∩] bilan belgilanadi.

Bu belgilar nutqdagi ovoz diapazonining yuqori va pastki chegarasini bildiruvchi ikki parallel gorizontaal chiziq oʻrtasida turli balandliklarda joylashadilar, masalan:

Meet ∩ Ted.



Tedni kutib oling.

↘ Meet me.

Meni kutib ol.

Intonatsiyaning bunday aks ettirish usuli juda ko'rgazmali, biroq matnning intonatsiyasini ko'rsatishda noqulay.

U yoki bu matnni qanday ohangda o'qishni eslab qolish uchun uni quyidagicha belgilasak bo'ladi: oxirgi bo'lmagan urg'uli bo'g'inning tepasiga urg'u belgisi ['] qo'yiladi. Oxirgi urg'uli bo'g'inga urg'u belgisi o'rniga yoki pastga qaragan [)], yoki tepaga qaragan [^] belgi qo'yiladi. Pastga qaragan [ \ ] belgi bo'g'inda ovoz pasayishini, tepaga qaragan [^] belgi esa bo'g'inda ovoz ko'tarilishini bildiradi.

### PORTLOVCHI UNDOSH HARFLARNING BIRGA KELISHI (PORTLASHNING YO'QOLISHI, BURUN BO'SHIG'IDA PORTLASH)

1. Bir xil ikki portlovchi undosh ketma-ket kelsa, birinchi undosh portlash effektini yo'qotadi, masalan: Meet Ted. Biroq, ikki xil portlovchi undosh birga kelganda ham shu hol ro'y beradi. Masalan: Meet Ben. Bunda til uchini tanglayga lablar [b] ga yumilguncha tekizib turish kerak.

2. Portlovchi tanglay tovushini portlovchi burun undoshi [m] bilan kelganda til uchini tanglayga lablar [m] ga yumilguncha tekkizib turish kerak. Bunda burun bo'shlig'ida portlash hosil bo'ladi, ya'ni, havo oqimi burun bo'shlig'idan chiqib ketadi, masalan: Meet me.

Agar portlovchi undosh jarangsiz bo'lsa, o'zidan keyin keluvchi jarangli undosh ta'sirida jarangli undoshga aylanib ketishidan saqlanish kerak. Masalan, Meet Ben dagi [t] hech qachon [d] ga aylanib ketmasligi kerak.

#### TEXT ONE

'Meet \Ted.

'Tell \Ted.

\Tell me.

'Meet \Ben.

'Tell \Ben.

\Meet me.

## YANGI SO‘ZLAR\*

Meet – uchratmoq, tanishmoq, kutib olmoq	ten – o‘n
tell – aytmq, aytib bermoq	pen – ruchka
me [mi:, mi., mi]** – meni, menga	bed – krovat
be – bo‘lmoq, -dir, yoki tarjima qilinmaydi	

## ATOQLI OTLAR

Ben [ben] Ben

Ted [ted] Ted

Pete [pi:t] Pit

*Meet Ted. Tell Ted. Meet me. Meet Ben.  
Tell Ben. Tell me.*

## MASHQLAR

- I. Quyidagi so‘zlardagi harflarni tartib bilan ayting:  
meet, tell, bed, Ted, feet, pen, Ben
- II. Quyidagi so‘zlarning har birida nechtdan harf va nechtdan tovush borligini aniqlang:  
Ben, meet, tell, be, ten, feet, tent, bed, bede
- III. 1-matnni ko‘chirib yozing va undagi [i:] tovushli so‘zlarning tagiga chizing.
- IV. Quyidagi so‘zlarning orfografik shaklini yozing:  
[mi:t, tel, ben, mi:, ten, bed, bi:, pi:t]
- V. Quyidagi so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing, ular qaysi qoida bo‘yicha o‘qilishini tushuntiring:  
bee, dene, bet, dent, beet, end, men, bede, peep, dell, bent, den, mete

---

\* Yangi so‘zlar ro‘yxatiga matnlarda uchraydigan yangi so‘zlardan tashqari, fonetik va grammatik mavzulardagi so‘zlar ham kiritilgan.

\*\*Yordamchi so‘zlarda [i:] cho‘ziq unli tovushining cho‘ziqligi iboraviy urg‘u olmaganligi uchun qisqaradi va [i.] yoki [i] bilan belgilanadi.

## 2-dars

Tovushlar	{	[t, ai, s, z, w*]	Harflar	{	l, i	l, i	[ai]
			Y, y		Y, y	[wai]	
			S, s		S, s	[es]	
			Z, z		Z, z	[zed]	

### Ss harf birikmasi

1. Ingliz tilidagi gaplarning ayrim urg'u va ohang qoidalari.
2. Ingliz nutqining ritmikasi.

### Grammatika

1. Otlarning rodi va soni (3-§, 1- va 2-punktlari, 632-bet).
2. To'ldiruvchi haqida tushuncha. Predlogsiz (vositasiz va vositali) to'ldiruvchining gapdagi o'rni. (4-§, 633-bet).
3. Aniqlovchi haqida tushuncha. (5-§, 634-bet).

## TOVUSHLAR TASNIFI

**[i] unli tovushi.** [i] unli tovushini talaffuz qilishda tilning asosiy qismi og'iz bo'shlig'ining old qismida yotadi. Til uchi – pastki tishlarga tegib turadi. Til o'rta qismi oldinga intilgan va yuqoriga ko'tarilgan, biroq [i:] dagidek emas.

[i] tovushi – qisqa monoftong.

**[ai] diftongi.** Diftong yoki qo'sh unli deb, bir bo'g'in ichida tilning bir unli talaffuz qilish holatidan ikkinchisiga o'tishiga aytiladi.

Diftongning kuchli elementini *yadro*, kuchsiz elementini esa *sirg'alish* deyiladi.

[ai] diftongining yadrosi [a] unli tovushidir. Sirg'alish [i] tovushiga qarab boradi, biroq uni to'la (oxirigacha) talaffuz qilinmaydi, natijada [i] tovushining boshlanishi eshitiladi, xolos. [ai] diftongining ikkinchi elementi o'zbekcha [y] bilan almashib qolishidan saqlanish kerak.

**[s, z] undosh tovushlar.** [s] tovushi – jarangsiz, [z] – jarangli. [s] va [z] tovushlarini talaffuz qilishda til uchi alveola oldida bo'ladi.

\* [w] tovushining harfli ifodasi bu darsda berilmagan.

Havo oqimi til oldi va alveola orasidan ishqalanib o'tadi. [z] undoshi oxirida jarangsizlanmaydi.

**[w] undosh tovushi.** [w] sonantini talaffuz qilishda lablar aylana shaklida va biroz oldinga intilgan, tilning orqa qismi esa xuddi o'zbekcha [u] dagidek holatda bo'ladi. Havo oqimi lablar bilan hosil qilingan doira ichidan shiddat bilan o'tadi. Lablar tez ochiladi.

### Dastlabki mustahkamlash mashqlari

i	ai	s – z	w
dip	mait – mai	set – zed	wi
tip	taim – tai	pens – penz	wi:l
bit	faiw – fai	si:s – si:z	wit
it		si:ts – si:dz	wai

### O'QISH QOIDALARI

1. S, s [es] harfi [s] kabi o'qiladi:

a) undoshlardan oldin, masalan:

test [test] sinov, imtihon, yozma ish

b) so'z boshida, masalan:

sit [sit] o'tirmoq

send [send] yubormoq, jo'natmoq

c) so'z oxirida jarangsiz undoshdan so'ng, masalan:

lists [lists] ro'yxatlar

d) ss birikmasida, masalan:

Bess [bes] Bess (*ayol kishi ismi*)

[z] kabi o'qiladi:


a) so'z oxirida jarangli undosh va unidan so'ng, masalan:

pens [penz] ruchkalar

bees [bi:z] asalarilar

b) ikki unli harf orasida, masalan:

visit ['vizi:t] tashrif



2. Z, z [zed] harfi doim [z] kabi o'qiladi, masalan:

size [saiz] o'lchov (razmer)

3. I, i [ai] yoki Y, y [wai] harflari urg'uli bo'g'inda quyidagicha o'qiladi:

I, i, Y, y

I o'qish turi

[ai]

life – hayot  
tie\* – galstuk  
my – mening  
type – tur, xil

II o'qish turi

[i]

in – ichida (*predlog*)  
it – u (*3-shaxs, birlik, sredniy rod kishilik olmoshi*)

### O'rganish mashqlari

[i]

[i: – i]

[ai]

[ai]

[s – z]

4. tin pit in it  
5. Pete – pit bede – bid teen – tin feet – fit  
6. time – tie pine – pie life – lie  
7. my – mine – type by – five – life  
8. nets – pens sets – sends Bess – is Test – it \is

### INGLIZ TILIDAGI GAPLARNING AYRIM URG'U VA OHANG QOIDALARI

1. Gapdagi birinchi urg'uli bo'g'in boshqa bo'g'inlarga qaraganda eng baland tonda talaffuz qilinadi.


2. Fikr maqsadini belgilovchi ohangning asosiy o'zgarishi so'nggi urg'uli bo'g'inda sodir bo'ladi. Shunday qilib buyruq va darak gaplarning so'nggi bo'g'inida ton pasayadi:

a) Send me my pen.  
[ˈsend miː maɪ \pen]



Menga ruchkamni yuboring.

b) Meet me.  
[ \mi:t miː]



Meni kutib oling.

\*Tub inglizcha so'zlarda i bilan so'z tugamaydi, undan so'ng o'qilmaydigan e keladi. ie birikmasi so'z oxirida [ai] o'qiladi.

Misollardan ko'rinib turibdiki, birinchi va oxirgi urg'uli bo'g'inlar o'rtasidagi bo'g'inlar tobora pasayuvchi ohangda talaffuz qilinadi (*a* misol), gapdagi oxirgi urg'usiz bo'g'inlar esa past ohangda talaffuz qilinadi (*b* misol).

**Ingliz nutqining ritmikasi.** Ingliz nutqining ritmikasi uchun gapdagi urg'uli bo'g'inlarni ozni-ko'pmi cho'zibroq talaffuz qilinadi. Shuning uchun urg'usiz bo'g'inlarning talaffuz qilinish tezligi ikki urg'uli bo'g'inlar orasida nechta urg'usiz bo'g'in kelishiga bog'liq: urg'usiz bo'g'in qancha ko'p bo'lsa, ular shunchalik katta tezlikda talaffuz qilinadi.

## TEXT TWO

my \tie	'five \ties	'Tell \Ted.	\Tell me.	\Find it.
my \pen	'ten \pens	'Meet \Bess.	\Meet me.	\Send it.
my \life	'seven \beds	'Send \Ben.	\Send me.	\Spell it.

'Find my \test. 'Send me my \test. \Meet me. 'Send 'Ted 'five ties. 'Send 'Bess 'nine \pens. 'Let me 'meet \Ted. 'Let me \send it.

'Let me \see!	O'ylab ko'ray! (Bir daqiqa, hozir javob beraman.)
\Spell it!	Harflab o'qing! (Harfma-harf ayting!)
'Let me \spell it.	Men bu(so'z)ni harflab aytishimga ijozat bering.

### Yangi so'zlar

my – mening

tie – galstuk

life – hayot

five – besh

seven – [sevn] yetti

send – yubormoq, jo'natmoq

find – [faind] topmoq

it – u (*3-shaxs, birlik, sredniy rod, bosh kelishikdagi kishilik olmoshi*)

it – uni, unga (*3-shaxs, birlik, sredniy rod,*

*obyekt kelishikdagi*

*kishilik olmoshi*)

spell – so'zni harflab aytmoq

test – sinov, yozma ish

nine – to'qqiz

let – ruxsat, ijozat bermoq



## ATOQLI OTLAR

Bess [bes] Bess

*Find my test. Send me my test. Meet me.  
Send Ted five ties. Send Bess nine pens.  
Let me meet Ted. Let me send it.*

## MASHQLAR

- I. Quyidagi so'zlardagi harflarni tartib bilan ayting:  
size, Bess, type, sees, vine, fine, tie, test, spell, life
- II. Quyidagi so'zlarning har birida nechtdan harf va nechtdan tovush borligini aniqlang:  
life, spell, tie, seven, nine, seen
- III. Alohida-alohida ustunlarga tarkibida [i:, e, i, ai] tovushlari bo'lgan so'zlarni ko'chirib yozing:  
mine, type, bid, did, fine, pit, five, vine, me, meet, lend, mete, eve, seem, pep, beef, ebb, see, send, pie
- IV. Quyidagi so'zlarning orfografik shaklini yozing:  
[pen, let, test, nain, faiv, fain, tai, tin, ten]
- V. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing, ular qaysi qoida bo'yicha o'qilishini tushuntiring:  
type, tin, fine, pin, lip, pile, line, sit, fit, set, best, sin, fist, miss, pens, less, lends, Bess, seems, size, zest, send
- VI. Matnni ko'chirib yozing va undagi [e] tovushli so'zlarning tagiga chizing.
- VII. Ko'plik qo'shimchasining talaffuziga e'tibor berib, quyidagi otlarni ovoz chiqarib o'qing:  
pens, sets, beds, tips, bess, pits, lips, lies, bibs, nets, seeds, tests, lids
- VIII. Ingliz tiliga tarjima qiling:  
a) mening ruchkam, yettita karavot, mening galstugim, to'qqizta ruchka, o'nta galstuk, mening ruchkalarim.  
b) 1. Mening galstugimni toping. 2. Ben bilan tanishing. 3. Menga yettita galstuk jo'nating. 4. Bessga yettita ruchka jo'nating. 5. Menga ruchkamni jo'nating. 6. Peterni toping.

## 3-dars

Tovushlar	[æ, ei, ə, θ, ð]	Harflar	A, a A, a [ei] C, c C, c [si:]
-----------	------------------	---------	-----------------------------------

[pl] tovushlar birikmasi ai, ay, ea harf birikmalari

1. Ko'tariluvchi ton.
2. Darak gapda intonatsiya.
3. Ma'no guruhi haqida tushuncha.
4. Ko'makchi so'zlarning to'la va reduksiyaga uchragan shakllari.

### Grammatika

1. Infinitiv haqida tushuncha (6-§, 634-bet).
2. **to be** fe'lining uchinchi shaxs birlikdagi shakli (7-§, 634-bet).
3. Gap. Umumiy tushuncha (8-§, 635-bet).
4. **it** olmoshi (9-§, 637-bet).
5. Artikl haqida tushuncha. Noaniq artikl (10-§, 637-bet).

### TOVUSHLAR TASNIFI

**[æ] unli tovushi.** [æ] unli tovushini talaffuz qilishda lablar biroz tortilgan, pastki jag' tushirilgan, til uchi past tishlarga tegadi, tilning o'rta beli esa oldinga va tepaga egiladi. O'zbek tilida bunday tovush yo'q.

**[ei] unli tovushi** – diftong, yadrosi [e] unlisi bo'lib [i] unlisiga qarab sirg'aladi. [ei] diftongini talaffuz qilishda yadrodagi [e] keng bo'lmasligiga e'tibor bering, ikkinchi element [y] ga o'tib ketmasligi kerak.

**[ə] unli tovushi.** [ə] tovushi neytral unli hisoblanib reduksiya natijasida vujudga keladi, ya'ni unilarning urg'usiz holatda kuchsizlanishi. U doim urg'usiz va qo'shni tovushlar ta'sirida bo'ladi. Neytral unlining turli talaffuzlarining sababi shundan. Ulardan biri o'zbek tilidagi *keldi, ketdi* so'zlari oxiridagi [i] ga mos keladi. Ya'ni deyarli sezilmaydi. Uni na [a] va na [e] deb o'qib bo'lmaydi. Uni talaffuz qilishda xatoga yo'l qo'ymaslik uchun bor e'tiborni urg'uli bo'g'inga qaratish kerak.

[θ] undosh tovushi. O'zbek tilida bunday tovush yo'q. [θ] tovushi – jarangsiz. Uni talaffuz qilishda til yoyilgan va bo'sh qo'yilgan, til uchi tepa tishlarning barcha kesuvchi qismi bilan tor yassi tirqish hosil qiladi. Til uchi qattiq bosilmaydi. Bu tirqishdan kuch bilan havo oqimi o'tadi. Til uchi tepa tishdan ham tepaga chiqib ketmasligi yoki tishga qattiq bosilmasligi kerak (aks holda [t] tovushi chiqadi). Tishlardan lablar olingan bo'lishi kerak, ayniqsa, pastki lablar tepa tishlarga tegmasligi kerak (aks holda [f] tovushi chiqadi).

[ð] undosh tovushi. [ð] tovushini talaffuz qilishda nutq organlarining holati xuddi [θ] tovushidagidek. [ð] tovushi [θ] tovushidan faqat o'zining jarangliligi bilan farq qiladi.


[pl] tovushlar birikmasi. [pl] birikmasi urg'uli unidan oldin qo'shib o'qiladi. [p] tovushi shu qadar kuchli o'qiladiki, [l] qisman jarangsizlanadi.

### Dastlabki mustahkamlash mashqlari

æ	eɪ	a	θ, ð	pl	w
æm	deit – dei	'seldam	θθθai	pli:z	wet
æn	leɪn – lei	'let	ðððai	plæn	wein
læmp	meɪn – mei	a 'pen	θθθi:	pleɪn	west
mæn	peɪn – pei	a 'bed	ððði:	pleɪs	
		ə 'tai			

### O'QISH QOIDALARI

1. A, a [ei] harfi urg'uli bo'g'inda quyidagicha o'qiladi:



2. ai, ay harf birikmalari [ei] kabi o'qiladi, masalan:

main [meɪn] asosiy, bosh	May [meɪ] may (oyi)
Spain [speɪn] Ispaniya	day [deɪ] kun

3. ea harf birikmasi ko'pincha [i:] o'qiladi, masalan:

please [pli:z] iltimos, marhamat

4. C, c [si:] e unlisidan oldin [s] o'qiladi:  
nice [nais] yaxshi, ajoyib

### O'rganish mashqlari



[æ]	[æ - e]	[ei]	[e - ei]
9. am Ann	10. man - men	11. main may	12. men - mane
man flat	tan - ten	pain pay	pen - pane
map bad	pan - pen	name nay	let - late
lamp plan	bad - bed	date day	met - mate

### KO'TARILUVCHI TON

Ko'tariluvchi ton fikr tugallanmaganligini bildiradi, qat'yilik yo'q. Masalan, ko'tariluvchi ton sanab o'tishda ishlatiladi:

a *map*, a *pen*, and a *plan* xarita, ruchka va reja

Misoldan ko'rinib turibdiki, matn intonatsiyasini ko'rsatishda, ton ko'tarilishi to'g'ri kelgan so'nggi urg'uli bo'g'in oldidan pastdan tepaga qaragan yoy chiziq [ / ] ishlatiladi.


Grafik usulda ham shunday  Bordi-yu, so'nggi urg'uli bo'g'indan keyin urg'usiz bo'g'in kelsa, u nuqta bilan belgilanib, to'g'ri chiziqdan sal teparoqda keladi. 

Ingliz tilida ton ko'tarilishi bo'g'in oxirida sodir bo'lib, u eng past'ondan ko'tarilib chiqadi.

### DARAK GAPDA INTONATSIYA

Darak gapning dastlabki urg'usiz bo'g'inlari odatda tobora ko'tarilib boruvchi ton bilan talaffuz qilinadi. Eng baland ton bilan, xuddi buyruq gapdagidek, birinchi urg'uli bo'g'in talaffuz qilinadi. Ton pasayishi oxirgi urg'uli bo'g'inda ro'y beradi, masalan:

It is a lamp. [it ɪz ə ˈlæmp]



Bu chiroq.

### MA'NO GURUHI HAQIDA TUSHUNCHA

Gap odatda ma'nosiga putur yetkazmay bir-biridan ajratib bo'lmaydigan so'zlarning ma'no guruhlaridan tashkil topadi. Bunday guruhlarini *ma'no guruhlari* deyiladi. Har bir ma'no guruhi o'ziga mos keluvchi intonatsiya bilan xarakterlanadi, ma'no guruhlari bir-biridan pauza bilan ajratiladi.

Masalan, Send Bess my map and my plan (*Bessga mening xaritam bilan rejamni yuboring*) gapini ikkita ma'no guruhiga bo'lish mumkin. Birinchi ma'no guruhining chegarasi map so'zidan keyin bo'ladi. Bu gapni o'qishda map so'zidan so'ng pauza qilish mumkin. Matnning intonatsiyasini ko'rsatishda ma'no guruhlari chegarasi tik (vertikal) chiziq bilan belgilanadi, masalan:

Send 'Bess my \map| and my \plan.||

## KO'MAKCHI SO'ZLARNING TO'LA VA REDUKSIYAGA UCHRAGAN SHAKLLARI

Ko'makchi so'zlar (predloglar, artikllar, bog'lovchilar va ko'makchi fe'llar), shuningdek, ayrim olmoshlar ingliz tilidagi gapda odatda urg'u olmaydilar. Bu esa ushbu so'zlarning reduksiyaga uchragan shakllarini paydo bo'lishiga olib keladi. Reduksiya ko'makchi so'z tarkibiga kiruvchi unli tovushning cho'ziqligining qisqarishiga, so'z tarkibidagi unli, ba'zan esa, undosh harflarning ham tushib qolishiga, va nihoyat, unli tovushni [ə] neytral tovushga o'tib qolishiga olib keladi. Unlining cho'ziqligining qisqarishini transkripsiyada odatdagi ikki nuqta [:] o'miga bitta nuqta ['] qo'yish yoki umuman nuqta qo'ymaslik orqali ko'rsatiladi, masalan:

me [mi', mi] meni, menga

Shunday qilib, ko'makchi so'zlar bitta to'la shaklga (odatda urg'uli holatda) va bir nechta urg'usiz reduksiyali shaklga ega bo'ladi. Masalan, and bog'lovchisi [ænd] to'la shaklga va [ænd] va [ən] reduksiyali shakllarga ega. [d] tovushi unidan oldin tushib qoldirilmaydi, masalan:

a map and a pen [ə 'mæp and ə 'pen] xarita va ruchka  
biroq:

a map and ten pens [ə 'mæp ən 'ten 'penz] xarita va o'nta ruchka

## TEXT THREE

my \name	a \name	a 'bad \day	It is a \map.'
my \map	a \map	a 'fine \day	It is a \lamp.
my \plan	a \flat	a 'bad \plan	It is a \nice flat.
my \flat	a \man	a 'bad \pen	It is a \fine day.
my \lamp	a \plan	a 'nice \lamp	It is a \bad plan.

It's a \map.  
 It's a \lamp.  
 It's a 'nice \flat.  
 It's a 'fine \day.  
 It's a 'bad \plan.

'Send 'Ben	and my 'plan
'Send 'Bess	'lamp please

'Please<sup>2</sup> tell 'Ben my \name. My 'name's \Ann.<sup>3</sup>

'Send 'Ben my \map, please. 'Send 'Bess my \map | and my \plan, please.

### MATNGA IZOHLAR

1. "It is a map" kabi gaplar "What's this?" ("What is this?") *Bu nima?* savoliga javob bo'la oladi.

2. **please** so'zi *iltimos* ma'nosida gap boshida keladi va vergul bilan ajratilmaydi. Gap oxirida *marhamat (qilib)* ma'nosida u iltifotli buyruqni bildirib vergul bilan ajratiladi.

3. **My name is Ann.** *Mening ismim Anna. (Mening ismim bo'ladi Anna.)*'s (= is) – **to be** bo'lmoq fe'lining 3-shaxs birlikdagi shakli.

#### Yangi so'zlar

<b>a name</b> – ism, nom	<b>a day</b> – kun
<b>a map</b> – xarita	<b>fine</b> – ajoyib ( <i>kun, ob-havo</i> )
<b>a plan</b> – reja	<b>nice</b> [nais] – yoqimli, yaxshi ( <i>kishi, galstuk va h.</i> )
<b>a flat</b> – xonadon	<b>bad</b> – yomon
<b>a lamp</b> – chiroq	<b>please</b> – iltimos, marhamat
<b>a man</b> – erkak kishi	<b>and</b> [ænd, ənd, ən] – va, biroq ( <i>bog'lovchi</i> )

#### ATOQLI OTLAR

Ann [æn] Anna

*Please tell Ben my name. My name's Ann.  
 Send Ben my map, please. Send Bess my  
 map and my plan, please.*

## MASHQLAR

### I. Quyidagi so'zlardagi harflarni tartib bilan ayting:

sad, made, state, fit, deep, film, fail

### II. Quyidagi so'zlarning har birida nechtadan harf va nechtadan tovush borligini aniqlang:

name, day, please, nice, fine, deep, beat, Spain

### III. Quyidagi so'zlarning orfografik shaklini yozing:

[neim, plæn, flæt, læmp, dei, fain, bæd, men, pli:z, nais]

### IV. Matnni ko'chirib yozing va undagi [ei] tovushli so'zlarning tagiga bir chiziq va [æ] tovushli so'zlarning tagiga ikki chiziq chizing.

### V. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing, ular qaysi qoida bo'yicha o'qilishini tushuntiring:

a) pale, date, ban, tape, fate, mad, say, same, fat, day, Sam, lane, land, tame, Spain, faint, aim, leave, bede, beat, deed, lean, mean, seat, nice

b) line, pin, pine, dene, fine, man, dent, Ann, nine, same, Sam, bet, bed, dine, did, May, fit, style, vet, bay, sat, tilt, file, faint, ease, pet, tin, veal, slip, stay

### VI. Quyidagi gaplar ingliz tiliga tarjima qilinganda ajratib ko'rsatilgan qaysi otlar oldidan noaniq artikl ishlatilsa bo'lar edi?

1. Bandargohga *kema* keldi. 2. *Kema* allaqachon keldi. 3. *Kun* ajoyib bo'ldi. 4. Bu ajoyib *kun* edi. 5. *Xat* jo'natildi va *telegramma* ham. 6. Kecha men maktabdosh do'stimdan *xat* va *telegramma* oldim. 7. Men katta, yangi *uyda* yashayman. 8. *Uy* menga yoqdi, *bog'* esa yoqmadi. 9. *Kitobni* men katta qiziqish bilan o'qib chiqdim. 10. Bu *kitobmi* yoki *jurnal*?

### VII. Ingliz tiliga tarjima qiling:

1. Besh kishi, yetti kun, to'qqizta ruchka, o'nta chiroq, ajoyib kun, yaxshi inson. 2. Mening ruchkam yomon. Menga ruchka jo'nating, iltimos. 3. Anna bilan Peterni kutib oling, iltimos. 4. Mening familiyam N. 5. Bu mening galstugim, u yaxshi. 6. Mening ismim Bess.

## 4-dars

Tovushlar	[k, g, ʃ, ʒ, tʃ, ʒʃ]	Harflar	G, g <i>g, g</i> [dʒi:] J, j <i>ʒ, j</i> [dʒei] H, h <i>h, h</i> [eitʃ] K, k <i>k, k</i> [kei]
[kl] tovushlar birikmasi	ch, sh, tch, th, ck harf birikmalari		
Murojaat intonatsiyasi			
G r a m m a t i k a			
1. Aniq artikl (11-§, 638-bet).			
2. <b>this, that, these, those</b> ko'rsatish olmoshlari (12-§, 639-bet).			
3. Birlikda -s, -x, -ss, -sh, -ch lar bilan tugallangan otlarning ko'plik shakli (3-§, 3-punkt, 632-bet).			

### TOVUSHLAR TASNIFI

[k] **undosh tovushi.** [k] tovushi – jarangsiz. U xuddi o'zbek tilidagi [k] kabi talaffuz qilinadi, biroq ingliz tilidagi [k] kuchanish bilan talaffuz qilinadi va so'z oxirida aniqroq chiqadi.

[g] **undosh tovushi.** [g] tovushi – jarangli. Xuddi o'zbek tilidagi [g] kabi o'qiladi, faqat kuchsizroq talaffuz qilinadi va so'z oxirida jarangsizlanmaydi.

[ʃ] **undosh tovushi.** Ingliz tilidagi [ʃ] tovushini talaffuz qilishda tilning o'rta qismi qattiq tanglayga ko'tariladi. Shuning uchun u o'zbek tilidagi [ʃ] dan yumshoqroq.

[ʒ] **undosh tovushi** [ʃ] undosh tovushidan faqat jarangliligi bilan farq qiladi. O'zbek tilidagi *vijdon* so'zidagi [ʒ] dan yumshoqroq.

[tʃ] **undosh tovushi.** Ingliz tilidagi [tʃ] o'zbek tilidagi [tʃ] dan qattiqroq talaffuz qilinadi. [tʃ] tovushi [t] va [ʃ] tovushlarining oddiy birikmasi emas. U til uchining alveolaga tegishi bilan bir talaffuz urinishida aytiladi.

[dʒ] **undosh tovushi.** Bu tovush xuddi [tʃ] kabi, faqat jarangli ovoz bilan talaffuz qilinadi.

[kl] **tovush birikmasi.** [kl] tovush birikmasi xuddi [pl] kabi urg'uli unidan oldin qo'shib talaffuz qilinadi, bunda [k] shu qadar kuchli aytiladiki, [l] ancha past chiqadi.



## Dastlabki mustahkamlash mashqlari

k	g	j	ʒ	tʃ	dʒ	ð	pl, kl
kæn	geiv	ʃi:	'leʒe	tʃes	dʒi:	ððði:z	pleis
kin	giv	ʃeim	'pleʒe	eitʃ	eidʒ	ðððis	kli:n
næk	veig	miʃn	'meʒe	tʃæt	peidʒ	ðððæt	klik
nik	big	finiʃ	vizn	mætʃ	tʃeindʒ	'ðis iz	
						'ðæt iz	

### O'QISH QOIDALARI

1. **C, c** [si:] harfi ikki xil o'qiladi:

a) **e, i, y** unli harflaridan oldin [s] kabi, masalan:

place [pleis] joy, o'rin

civil ['sivil] fuqarolik

face [feis] yuz, chehra

icy ['aisi] muzlik

b) qolgan **a, o, u** unli harflari, undosh harflar oldidan va so'z oxirida [k] kabi, masalan:

cap [kæp] shapka

clean [kli:n] toza

2. **K, k** [kei] harfi doim [k] kabi o'qiladi, masalan:

Kate [keit] Katya (*ism*)

take [teik] olmoq

3. **ck** harf birikmasi [k] kabi o'qiladi, masalan:

black [blæk] qora

4. **G, g** [dʒi:] harfi ikki xil o'qiladi:

a) **e, i, y** unli harflaridan oldin [dʒ] kabi, masalan:

page [peidʒ] bet, sahifa

gin [dʒin] jin

gym [dʒim] gimnastika zali

#### Istisnoni esda saqlang:

give [giv] bermoq

b) qolgan **a, o, u** unli harflari, undosh harflar oldidan va so'z oxirida [g] kabi, masalan:

game [geim] o'yin

glad [glæd] xursand

bag [bæg] sumka

5. **J, j** [dʒei] harfi doim [dʒ] o'qiladi, masalan:

Jane [dʒein] Jeyn (*ism*)

jam [dʒæm] murabbo

6. **H, h** [eitʃ] harfi ko'pincha boshqa undosh harflar bilan birga keladi:

a) **sh** harf birikmasi [ʃ] kabi o'qiladi, masalan:

she [ʃi:] u (*ayol, qiz*)

ship [ʃip] kema

b) **ch** va **tch** harf birikmalari [tʃ] o'qiladi, masalan:

chess [tʃes] shaxmat

teach [ti:tʃ] o'qitmoq

match [mætʃ] gugurt

7. **th** birikmasi [ð] va [θ] o'qilishi mumkin. Quyidagi holatlarda u [ð] o'qiladi:

a) yordamchi so'zlarning boshida, masalan:

this [ðis] bu, shu (*ko'rsatish olmoshi, birlikda*)

that [ðæt] u, o'sha (*ko'rsatish olmoshi, birlikda*)

these [ði:z] bular, shular (*ko'rsatish olmoshi, ko'plikda*)

the [ði:, ði, ðə] aniq artikl (*tarjima qilinmaydi*)

b) asosiy so'zlarda ikki unli orasida, masalan:

bathe [beið] – cho'milmoq

**th** birikmasi asosiy so'zlarning boshi va oxirida [θ] o'qiladi, masalan:

thick [θik] – semiz, qalin, yo'g'on

thin [θin] – oriq, yupqa, ingichka

faith [feiθ] – ishonch

### O'rganish mashqlari

[k]	[g]	[k – g]	
13. can      cake	14. gap      bag	15. back – bag	
came      make	gave      beg	lack – lag	
keep      peak	give      big	sick – big	
[ʃ]	[tʃ]	[tʃ]	[θ – ð]
16. she      fish	17. chess	18. Jane	19. theme – thee
shy      dash	chain	gin	thin – then
sheep      dish	fetch	age	faith – bathe
		page	


### MUROJAAT INTONATSIYASI

Murojaat gapda boshqa so'zlardan vergul bilan ajratiladi, masalan:

Please give me a match, Jane. Jeyn, iltimos, menga gugurtni ber.

Gap oxiridagi murojaatga urg'u tushmaydi va pauzasiz tekis past tonda talaffuz qilinadi.

[ˈpli:z ˈgɪv mi ə ˈmætʃ, dʒeɪn]



#### TEXT FOUR

a 'fine \film  
a 'bad \bag  
a 'black \cap  
a 'clean \page  
a 'thick \match

the \film  
the \bag  
the \cap  
the \page  
the \match

'ten \films  
'five \bags  
'nine \caps  
'five \bags  
'nine \caps  
'seven \pages  
'ten \matches

'that \cap 'that \match	a 'big \bag a 'black \cap
----------------------------	------------------------------

'Please 'give me a \match, Jane. 'This is a \bad match. 'Please give me \that match.

'This is a \bag. The 'bag's \big. It's a \big bag.

'That's a \cap. The 'cap's \black. It's a \black cap.

'That's a 'thin \pencil. \Give me that pencil, please.

#### Yangi so'zlar

give [gɪv] – bermoq  
a match – gugurt  
this [ðɪs] – bu, shu  
that – u, o'sha  
a bag – sumka  
big – katta  
a cap – shapka  
black – qora

thin – oriqliq, ingichka  
a pencil [ə ˈpensl] – qalam  
a film – (kino)film  
clean – toza  
a page – bet, sahifa  
thick – semiz, qalin  
these – bular, shular  
take – olmoq

#### ATOQLI OTLAR

Kate [keɪt] – Keyt (Katya)

Jane [dʒeɪn] – Jeyn

*Please give me a match, Jane.*

*This is a bad match.*

*Please give me that match. This is a bag.*

*The bag's big. It's a big bag.*

## MASHQLAR

### I. Quyidagi so'zlardagi harflarni tartib bilan ayting:

cent, jam, game, keep, chain, patch, thick, place, nice, Nick

### II. Quyidagi so'zlarning har birida nechtadan harf va nechtadan tovush borligini aniqlang:

thick, page, match, these, clean, black, thin

### III. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing, ular qaysi qoida bo'yicha o'qilishini tushuntiring:

cap, can, ice, came, nice, cat, neck, mice, fact, space, peck, pace, kin, keen, pact, face, gate, gem, gas, age, gym, page, egg, gin, game, beg, gag, jam, Jim, Jack, Jane, sky, shame, dish, she, ship, shape, shave, fish, shine, chest, chin, match, catch, fetch, chick, chill, this, that, these, than, them, theme, faith, thick, thin

### IV. Quyidagi so'zlarning transkripsiyasini bering:

film, bag, match, cap, page, pencil, black, big, this, these, that, clean, Jane, give.

### V. Matnni ko'chirib yozing va undagi ko'rsatish olmoshlarining tagiga chizing.

### VI. Quyidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qilinganda ajratib ko'rsatilgan otlar oldidan qaysi artiklni qo'yish mumkin?

1. Bu uy. Uy katta. 2. Bu uy. Bu katta sariq to'qqiz qavatli uy.  
3. Mening akam – muhandis. U katta zavodda ishlaydi. 4. Kecha men kinoda bo'ldim. Film, afsuski, menga yoqmadi. Men bu filmni juda zerikarli deb topdim va uni ko'rishni sizga maslahat bermayman.  
5. Bu qanaqa bino? – Bu teatr. 6. Teatr shunaqangi chiroyli yoritilgan ediki, biz beixtiyor (unga) tikilib qoldik. 7. Bizning ko'chada juda qiziqarli muzey bor. 8. Muzey ertalabki 10 dan kechki 8 gacha ochiq.

### VII. Nuqtalar o'rniga artikl qo'ying va ularning ishlatilishini tushuntiring:

1. This is ... cap. ... cap's black. 2. This is ... match. It's ... thin match. That's ... thick match. 3. This is ... fine film. 4. This is ... pen. ... pen's black. 5. Please give me ... pen, Kate. (2 xil variant)  
6. Please take that pencil, Jane. Please give me ... pencil. It's ... bad pencil.

### VIII. Quyidagi otlarning ko'plik shaklini yasang:

a match, a page, a patch, a dish, a cage, a mass, a bench

## **IX. Yangi so'zlardan foydalanib, ingliz tiliga tarjima qiling.**

1. Bu qora qalam. 2. Bu sumka qora. U yomon. Menga narigi sumkani bering, iltimos. 3. Bu shapka. Bu shapkani oling. 4. Menga gugurt bering, iltimos. 5. Jeynga bu qalamlarni bering. 6. Menga bu ruchkalar va bu sumkani bering. 7. Bu yomon gugurtlarni oling. Menga narigi gugurtni bering, iltimos. 8. Bu ruchka. Bu qora ruchka. Bu ruchka qora. 9. Bu sumka. Bu mening sumkam. Bu sumka qalin. 10. Ben, menga anavi ingichka ruchkani ber. 11. Bu kvartira toza. Bu toza kvartira. 12. Benga bu ruchkalar va qalamlarni bering. 13. Yettita ruchka, besh sahifa, o'nta film, to'qqizta qora shapka.

## 5-dars

Tovushlar	[a:, h, j, r, ŋ]	Harflar	R, r Ṛ, r [a:] X, x X̣, x [eks]
-----------	------------------	---------	-------------------------------------

[ŋk] tovushlar birikmasi **ar, ng, nk** harf birikmalari

Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u

### Grammatika

1. So'roq gap. Umumiy so'roq gap (13-§, 639-bet).
2. Qisqa bo'lishli javob (14-§, 640-bet).
3. Birlikda -y bilan tugallanuvchi otlarning ko'plik shakli. (3-§, 4-punkt, 632-bet).
4. Otdan so'ng sanoq son aniqlovchi bo'lib kelganda artiklning ishlatilmasligi. (15-§, 641-bet).

### TOVUSHLAR TASNIFI

**[a:] unli tovushi.** Ingliz [a:] unli tovushini talaffuz qilishda og'iz xuddi o'zbek tilidagi [a:] kabi ochiladi, biroq til orqaroqda va quyiroqda yotadi. Old va o'rta tilning ko'tarilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Til uchi pastki tishlardan orqaga tortilgan. Lab neytral holatda, ya'ni tortilmagan va oldinga cho'zilmagan. Jarangli undoshdan oldin [a:] unli tovushi biroz qisqaradi, jarangsiz undoshdan oldin esa — ancha qisqaradi.

**[h] undosh tovushi.** Bu tovush o'zbek tilidagi yumshoq [h] ga juda yaqin, biroq u biroz yengil bo'lib, eshitilar-eshtilmas nafas chiqarishdek aytiladi. Talaffuz jarayonida til ishtirok etmaydi, orqa tilning yumshoq tanglayga ko'tarilishidan saqlanish kerak.

**[j] undosh tovushi.** Ingliz sonanti [j] o'zbek tilidagi "y" ga yaqin. Uni talaffuz qilishda tilning o'rta qismi tanglayga, o'zbek tilidagiga qaraganda kamroq ko'tariladi. [j] da shovqin kamroq. U doim unidan oldin keladi.

**[r] undosh tovushi.** [r] undosh tovushini talaffuz qilishda til uchi alveola do'ngida bo'lib, u bilan tirqish hosil qiladi. Til tarang, uning uchi esa harakatsiz, natijada bu tovush titroqsiz talaffuz qilinadi. Til uchi va alveola orasidagi tirqish [ʒ] dagidan kengroq.

**[ŋ] undosh tovushi.** [ŋ] undosh tovushini talaffuz qilishda tilning orqa qismi tushirilgan yumshoq tanglayga tegadi va havo oqimi burun

bo'shlig'i orqali o'tadi. Nutq organlarini to'g'ri joylashtirib olish uchun keng ochilgan og'iz bilan burundan nafas chiqariladi, so'ngra burun orqali nafas chiqarayotib [ŋ] tovushini talaffuz qilish mumkin. Bunda na til uchi, na uning o'rta va orqa qismi tanglayga tegmasligi kerak.

### Dastlabki mustahkamlash mashqlari

r	a:	h	j	ŋ	w
rr	a: - a:m	ai - hai	es - jes	ŋŋŋ	wig
rait	ka: - ka:m	ei - hei	el - jel	hæŋ	win
rein	fa: - fa:m	i: - hi:	\jes   it \iz	kiŋ	wiŋ
red	ba: - ba:k	iz - hiz		θiŋ	
ri:d		a:m - ha:m			

### O'QISH QOIDALARI

1. H, h harfi so'z boshida unidan oldin [h] kabi o'qiladi, masalan:

he [hi:] u (*erkaklar uchun 3-shaxs birlikdagi kishilik olmoshi*)  
hat [hæt] shlapa

2. Y, y harfi uch xil o'qiladi:


a) [ai] diftongi kabi (urg'u ostida unilarning o'qish qoidasi I turi bo'yicha ochiq bo'g'inda, 2-darsga qarang).

b) [i] tovushi kabi (urg'u ostida unilarning o'qish qoidasi II turi bo'yicha yopiq bo'g'inda va so'z oxirida), masalan:

myth [miθ] afsona  
baby [ˈbeibi] bola, chaqaloq

c) [j] kabi (so'z boshida unidan oldin), masalan:

yes [jes] ha



3. R, r [a:] harfi, o'qilmaydigan -e dan tashqari, barcha unilardan oldin [r] o'qiladi, masalan:

read [ri:d] (kitob) o'qimoq  
red [red] qizil

4. Urg'u ostida unilarni o'qish qoidasi III turi – unli + r (+undosh). r harfi unidan so'ng o'qilmaydi, biroq u shu unliga

boshqacha talaffuz tusini beradi va bu unlilar I, II turdagi o'qilishidan farq qiladi. Masalan, a unli tovushi r (yoki r + undosh) dan oldin [a:] kabi o'qiladi, masalan:

car [ka:] avtomobil  
mark [ma:k] belgi, baho

5. ng harf birikmasi so'z oxirida [ŋ] o'qiladi, masalan:

thing [θiŋ] narsa, buyum

6. nk harf birikmasi [ŋk] tovush birikmasi kabi o'qiladi, masalan:

ink [iŋk] siyoh


7. X, x [eks] harfi quyidagicha o'qiladi:

a) undoshlardan oldin va so'z oxirida [ks] o'qiladi, masalan:

text [tekst] matn  
six [siks] olti

b) urg'uli unlidan oldin [gz] kabi o'qiladi, masalan:

exam [ig'zæm] imtihon



### O'rganish mashqlari

	[h]	[r]	[a:]
20. he	hay	21. red	read
his	hat	rain	risk
him	hand	rest	rent
			large lark
			farm park

	[ŋ]	[ŋ - n]	[ŋ - ŋk]	[j]
23. bang	ring	24. bang - ban	25. bang - bank	26. yes
sang	sing	fang - fan	sang - sank	yell
fang	thing	thing - thin	sing - sink	yelp
			thing - think	yarn



## IKKI BO'G'INLI SO'ZLARDAGI URG'U

Ko'pgina ikki bo'g'inli ingliz tilidagi so'zlarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi. Ikki bo'g'inli so'zlardagi urg'uli bo'g'indagi unlining o'qilishi xuddi bir bo'g'inli so'zlardagi kabi, masalan:

baby ['beibi] bola, chaqaloq (*1 o'qish turi*)

### TEXT FIVE

his \name	a 'big \city	and 'clean	'Is it \black?
his \baby	a 'red \tie	and 'read	'Is it \clean?
his e \xam	a 'thick \pen	'take 'text 'ten	'Is it \large?
		'read 'page 'six	

My 'name's \Nick. 'This is my \flat. It's 'large and \clean. My flat's in \Kiev. 'Kiev is a \city. It's a \big city.

"Is 'Kiev a \city?" "Yes, it 'is."

"Is it a \big city?" "Yes, it's \very big."

'Find Text \Six, Jack, and \read it, please.

My 'pen's \bad. 'Please 'give me 'that \red pen.

'Read it a \gain, please.

Marhamat qilib buni yana bir marta o'qing.

### Yangi so'zlar

large – katta (keng)  
in – ichida (*predlog*)  
a city [ə 'siti] – shahar  
very – juda  
a text – matn  
read – (kitob) o'qimoq

red – qizil  
his – uning (*egalik olmoshi*)  
a baby – bola, chaqaloq  
an exam – imtihon  
six – olti

### ATOQLI OTLAR

Nick [nik] Nik  
Jack [dʒæk] Jek  
Kiev ['ki:ev] Kiyev

### MASHQLAR

I. Quyidagi so'zlarning har birida nechtadan harf va nechtadan tovush borligini aniqlang:

large, text, read, Nick, please

## II. Quyidagi so'zlarning orfografik shaklini yozing:

[ig'zæm, 'siti, la:ʤ, ri:d]

## III. Matnni ko'chirib yozing va tarkibida [a:] tovushi bor so'zlarning tagiga chizing.

## IV. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing, ular qaysi qoida bo'yicha o'qilishini tushuntiring:

a) risk, red, ripe, read, rest, rally, hand, hay, hip, hate, heap, help, hide, yes, yell, easy, daddy, yet, yelp, my, by, myth [miθ], next, text, exam, sex, six, sixty, ring, thing [θiŋ], fang, bring, sing, gang, sling, drink, link, clink, pink, prank

b) shelf, shy, sheel, dash, fish, chain, chick, change, catch, patch, mine, cage, fill, mile, Spain, miss, ice, page, back, space, click, game, gem, let, lest, gay, set, lay, say, lack, icy

## V. Quyidagi otlarni ovoz chiqarib o'qing, artiklning to'g'ri talaffuz qilinishiga e'tibor bering:

a \text	an e \xam	the \text	the e \xam
a \city	an \inkstand <sup>1</sup>	the \city	the \inkstand

## VI. Savollarga javob bering:

- |                      |                          |
|----------------------|--------------------------|
| 1. Is this a pen?    | 7. Is it a large lamp?   |
| 2. Is this pen red?  | 8. Is this my bag?       |
| 3. Is that a pencil? | 9. Is that match thin?   |
| 4. Is his name Nick? | 10. Is this flat clean?  |
| 5. Is this lamp bad? | 11. Is this bag big?     |
| 6. Is this a map?    | 12. Is Minsk a big city? |

## VII. Quyidagi gaplarni (umumiy) so'roq gap shaklida yozing:

1. My tie is red. 2. His flat is large and clean. 3. His baby is in Minsk. 4. My pen is bad. 5. His hat is black. 6. Jack is in Kiev. 7. Nick is in Minsk.

## VIII. Quyidagi otlarning ko'plik shaklini yasang:

A baby, a lady, a bag, a tie, a test, a bed, a city, a day, a man, a page, a match, an army, a cage, a party.

## IX. Kerakli joyga artikl qo'ying:

1. This is ... nice city. 2. ... pen's red, and ... pencil's black. 3. Please give Bess ... pen and ... pencil. 4. Read ... page ten, please. 5. Tashkent is ... big city. 6. Please send Jane ... text. Read ... text, please.

<sup>1</sup> an inkstand – siyohdon

**X. Yangi soʻzlardan foydalanib, ingliz tiliga tarjima qiling:**

1. Bu kvartira katta. 2. Uning ismi Petermi? – Ha. 3. Oltinchi matnni oling, iltimos. 4. Bu matnni oʻqing, iltimos. 5. Oltinchi sahifani oʻqing, iltimos. 6. Bu matnlarni oling, iltimos. 7. Iltimos, Jeynga bu matnni bering. 8. Menga qora qalamni bering, iltimos. 9. Bu u (bola) ning qalamimi? – Ha. 10. Bu ruchka qizil. 11. Bu qizil ruchka. 12. Minsk katta shaharmi? – Ha. 13. Mening kvartiram Minskda, uning kvartirasi esa Kiyevda.

## 6-dars

Tovushlar [u:, ɔ:, ɔ, u, ou] Harf O, o O, o [ou]

[zð, zθ] Tovush birikmalari oo, or harf birikmalari

1. Bo'g'in yasovchi undoshlar.
2. Salomlashish intonatsiyasi.

### Grammatika

1. Bo'lishsiz darak gap to be fe'li bilan (16-§, 641-bet).
2. Qisqa bo'lishsiz javob (14-§, 2-punkt, 640-bet).
3. Tanlov so'roq gap. (17-§, 641-bet).
4. Predlogli to'ldiruvchi. (18-§, 642-bet).

### TOVUSHLAR TASNIFI

[u:] **unli tovushi.** [u:] tovushini talaffuz qilishda lablar doira shakliga keltirilgan va biroz oldinga intilgan bo'ladi.

Ingliz tilidagi [u:] tovushi o'zbek tilidagiga qaraganda ancha cho'ziq va tarang. [u] tovushidan oldin ko'pincha [j] tovushi keladi. [ju:] ni talaffuz qilishda [j] undosh tovushi yumshab qolmasligi kerak.

[ɔ:] **unli tovushi.** [ɔ:] tovushi – cho'ziq unli. [ɔ:] tovushini to'g'ri talaffuz qilish uchun nutq organlari xuddi [a:] tovushini talaffuz qilishdagidek holatni egallashlari kerak, so'ngra esa lablarni yanada kichikroq doira shakliga keltirib, lablarni biroz oldinga cho'zish kerak; [ɔ:] talaffuz qilishda uni [u] ga o'xshatmaslik kerak.

[ɔ] **unli tovushi.** [ɔ] tovushini to'g'ri talaffuz qilish uchun xuddi [a:] tovushini talaffuz qilishdagi nutq organlarining holatidan kelib chiqish kerak, so'ngra lablarni biroz kichikroq doira shakliga keltirib, qisqa [ɔ] talaffuz qilinadi.

[u] **unli tovushi.** [u] tovushi – qisqa monoftong. [u] tovushini talaffuz qilishda lablar unchalik oldinga intilmagan, biroq sezilarli darajada doira shaklida. Til orqaga tortilib turadi, tilning orqa qismi yumshoq tanglayning old qismi tomon ko'tariladi.

[ou] **unli tovushi.** [ou] tovushi – diftongdir. U [o] tovushidan boshlanadi. Bunda lablar tortilgan va doira shaklida bo'ladi. Sirg'alish [u] tovushiga qarab ketadi.

[s], [z] tovushlarining [θ], [ð] tovushlari bilan birga kelishi.

[s], [z] tovushlari [θ], [ð] tovushlari bilan kelganda, ular orasida pauza yoki tovush sifati buzilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Buning uchun, [s], [z] tovushlari [θ], [ð] tovushlaridan oldin kelganda, birinchi tovush talaffuz qilib bo'lib-bo'lmay til uchini asta-sekin tishlar orasiga qo'yish kerak, masalan: ['iz 'ðis]. Agar, [s], [z] tovushlari [θ], [ð] tovushlaridan keyin kelsa, til uchini tishlar orasidan olib chiqish kerak, masalan: [ba:ðz].

**Bo'g'in yasovchi undoshlar.** Ingliz tilida nafaqat unlilar, balki [m], [n], [l] sonantlari ham bo'g'in yasovchi undosh hisoblanadilar. Shunday qilib table [teibl] stol so'zi ikki bo'g'inli hisoblanadi. Ikkinchi bo'g'in [bl] esa [l] sonanti va [b] undoshi bilan yasalgan.

Sonantlardan biri va boshqa undosh tovushlardan tuzilgan bo'g'in doim urg'usiz bo'ladi, shuning uchun uning grafik intonatsiyasi tasvirida bo'g'in nuqta bilan beriladi, masalan:

'This is a \table. ['ðiz iz ə 'teibl]



[m], [n] yoki [l] sonantlari ishtirokida yasalgan ikki bo'g'inli so'zlardagi urg'u odatda transkripsiyada ko'rsatilmaydi.

table [teibl]


### Dastlabki mustahkamlash mashqlari

u:	u	ɔ:	ɔ	ou
ku:	kuk	fɔ:	ɔn – nɔt	sou – soup
ʃu:	ʃuk	fɔ:m	ɔd – gɔt	nou – nout
tu:	tuk	spɔ:t	ɔks – tɔp	gou – kout
su:n	buk	ko:n		
mu:n				
fu:d				

ju:	zð, zθ	Bo'g'in yasovchi undosh [l]
nju:	izzz ðð'ðis	teibl
fju:	izzz ðð'ðæt	litl
kju:	iz \θin	taitl
'stju:dənt	iz \θik	saikl

## O'QISH QOIDALARI

1. O, o harfi quyidagicha o'qiladi:



2. oo harf birikmasi quyidagicha o'qiladi:

a) k, r harflaridan tashqari barcha undoshlardan oldin va so'z oxirida [u:] o'qiladi, masalan:

spoon [spu:n] qoshiq  
too [tu:] ham, shuningdek

b) k harfidan oldin [u] o'qiladi, masalan:

book [buk] kitob  
to look [luk] qaramoq

**Istisnoni esda saqlang:**

good [gud] yaxshi

### O'rganish mashqlari

[u:]	[u]	[ou]	[ɔ]
27. tool	28. book	29. go – tone	30. odd
pool	look	no – note	not
moon	took	so – smoke	on
food	hook		
[ɔ:]	[ou – ɔ]	[ɔ: – ɔ – ou]	
31. or	32. go – got	33. sport – spot – spoke	
form	note – not	tom – top – tone	
sport	hope – hop	lord – lot – lone	
North	coke – cock	cord – cot – cope	
		North – not – note	

### SALOMLASHISH INTONATSIYASI

Uchrashgandagi salomlashuv odatda pasayuvchi ton bilan talafuz qilinadi, masalan:

Good \morning. [gud \mɔ:nɪŋ]

## TEXT SIX

'Is 'this	\good	or	\bad	'short 'too
'Is 'that	\short	or	\long	and 'go
'Is the 'pen	\red	or	\black	a 'blackboard
'Close the \book	\thick	or	\thin	

'This is a \room. 'That is a \blackboard. \Look at it. It's \black. 'These are \maps'. 'Those are \pencils'. 'Those 'pencils are not \short. They are \long. 'Please 'take the \book, Tom, | \open it and 'read 'Note 'Five. 'Close the \book | and 'go to the \blackboard. 'Please 'go to the \door | and \close it.

"'Is 'this a \pencil?" "Yes, it 'is."

"'Is 'that a \pencil?" "Yes, 'that's a 'pencil, \too."

"'Is it \short or \long?" "It's \short."

"'Are 'those 'pencils 'short, \too?" "No, they 'aren't."

"'Is 'that a \book?" "Yes, it 'is."

"'Is it a \good book?" "No, it 'isn't."

Good \morning! [gud \mɔ:nɪŋ]

Xayrli tong!

Good \evening! [gud \i:vniŋ]

Xayrli kech (oqshom)!

## MATNGA IZOHLAR

1. **These are maps.** *Bular xaritalar (bo'ladi).* Are – to be fe'lining ko'plikdagi uchala shaxs uchun ishlatiladigan shakli. To'la talaffuzi undoshlardan oldin – [a:], unililardan oldin – [a:r]; [ə] va [ər] kabi reduksiyaga uchragan shakllari ham mavjud.

2. **Those are pencils.** *Ular (anavilar) qalamlar.* Those *ular, anavilar* – that *u, o'sha, anavi* ko'rsatish olmoshining ko'plikdagi shakli.

## Yangi so'zlar

a room [ə 'rum, ru:m] – xona

long – uzun

a blackboard [ə 'blækbɔ:d] – doska

a book – kitob

to look (at) – (-ga) qaramoq

to open – ochmoq

those – ular, o'shalar, anavilar

a note – eslatma, izoh

not – emas

to close – yopmoq

short – qisqa

to go – bormoq, ketmoq

they [ðei] – ular

a door [ə 'dɔ:] – eshik

to [tu:, tu, tə] --ga (tomon) ( <i>yo'nalish predlogi</i> )	or [ɔ:] – yoki
too – ham, shuningdek	no – yo'q
	good [gud] – yaxshi

## ATOQLI OTLAR

Tom [tɒm] Tom

## SO'Z YASASH

Ingliz tilida so'z yasashning ikki turi bor: so'z birlashtirish va qo'shimcha qo'shish. Nomlaridan ham bilinib turibdiki, so'z birlashtirishda ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaklari qo'shiladi; qo'shimcha qo'shishda so'z o'zagiga affiksalar, ya'ni prefiks va suffiksalar qo'shiladi.

**So'z birlashtirish.** So'z birlashtirishda so'zlar o'zaklarini qo'shish orqali yangi so'zlar yasaladi. Qo'shma so'zning ma'nosi uning komponentlari (tarkibidagi so'zlar)ning ma'nosidan kelib chiqadi. Ular qo'shib yoki chiziqcha bilan yoziladi, masalan:

a 'blackboard *sinf doskasi* (black *qora*, a board *doska*)

a 'text-book *darслиk* (ya'ni matnli kitob)

So'z birlashtirish usuli bilan yasalgan qo'shma so'zlarda urg'u ko'p hollarda birinchi so'zga tushadi.

## MASHQLAR

**I. Quyidagi so'zlardagi harflarni tartib bilan ayting. So'zlarni transkripsiya qiling va so'zlarning har birida nechtdan harf va nechtdan tovush borligini aniqlang:**

pencil, blackboard, short, long, room

**II. Matnni ko'chirib yozing va tarkibida [ou] tovushi bor so'zlarning tagiga chizing.**

**III. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing, ular qaysi qoida bo'yicha o'qilishini tushuntiring:**

a) note, lot, lone, nod, code, cot, tone, cope, dot, sock, hot, pope, doll, hop, bone, tool, moon, look, doom, took, fool, cool, shook, loop, cook, choose, hook, sport, torn, corn, gorge, cork, or, fork

b) lead, steel, meat, bet, lest, tip, tiny, type, myth, mice, stay, plain, star, farm, cart, cell, cod, sing, cling, bank, rank, spin

**IV. Quyidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qilinganda ajratib ko'rsatilgan so'z va iboralar bilan qaysi artikl ishlatilsa bo'lar edi?**



1. O'tgan yili men yozni *katta bo'lmagan qishloqda* o'tkazdim. *Qishloqdan* uzoq bo'lmagan joyda *daryo* bor edi. *Daryo* chuqur emas edi, biroq juda tez oqar edi.

2. *Kun* oxirlab qolgan edi. Bu *esda qolarli kun* bo'ldi.

3. Bor ekan-da, yo'q ekan, *chol* bilan kampir bo'lgan ekan. Ular dengiz bo'yidagi *eski kulbada* yashar ekanlar. *Chol* baliq ovlar, *kampir* esa urchuqda ip yigirar ekan.

**V. to be fe'lining mos shaklini qo'ying:**

1. This ... a note. 2. These ... long texts, and those ... short texts. 3. ... this book good? 4. Those doors ... black. 5. That pencil ... not black. It ... red.

**VI. Quyidagi gaplarni bo'lishsiz va (umumiy) so'roq gap shaklida yozing. Ularga qisqa javob bering:**

1. This is a good tie. 2. That is a long text. 3. Those are big bags. 4. These rooms are clean. 5. That pencil is short. 6. His ties are red and black.

**VII. Savollarga javob bering.**

- |                       |  |
|-----------------------|--|
| 1. Is this a text?    | 9. Are these pencils long or are they short? |
| 2. Is that a note?    | 10. Is this a map or a plan?                 |
| 3. Is it long?        | 11. Is this a note or a text?                |
| 4. Are these pens?    | 12. Is this a tie or a cap?                  |
| 5. Are those pencils? | 13. Is it his or my tie?                     |
| 6. Are they good?     | 14. Is his name Tom or is it Ted?            |
| 7. Is this a cap?     | 15. Are those books thick or are they thin?  |
| 8. Is that a tie?     | 16. Is this page ten or page nine?           |

**VIII. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga tanlov so'roq gap tuzing.**

N a m u n a: This pencil's *bad*. = Is this pencil bad or (is it) good?

1. My pen is *thin*. 2. That note is *short*. 3. Those matches are *bad*. 4. This film is *good*. 5. His pencil is *red*.

**IX. Yangi so'zlardan foydalanib, ingliz tiliga tarjima qiling.**

1. Anna, doskaga chiqing, iltimos. Beshinchi matnni o'qing, iltimos. 2. Yettinchi eslatmani toping, iltimos. Uni o'qing, iltimos. 3. Jeynga anavi qalamlarni bering, iltimos. 4. Bu kitobni oling, uni oching, iltimos. 5. Bu eslatmaga qarang, iltimos. Bu eslatma to'qqiz. 6. Anavi xaritaga qarang, iltimos. 7. Tom, eshikka boring va uni yoping, iltimos. 8. Bular xonalar. Bu xonalar toza. 9. Anavi xonalar yaxshi. Ular katta (keng) va toza. 10. Menga yaxshi galstuk bering, iltimos. 11. Eslatma: besh uzunmi yoki qisqami? – U qisqa. 12. Bu qalammi yoki ruchkami? 13. Bu yaxshi yoki yomon xonami? – Bu yaxshi xona.

## 7-dars

Tovushlar	[ʌ, au, ɔi]	Harflar	$\left\{ \begin{array}{l} U, u \quad \mathcal{U}, u \quad [ju] \\ W, w \quad \mathcal{W}, w \quad ['dʌblju:] \end{array} \right.$
Tovush birikmalari	$\left\{ \begin{array}{l} [tð, dð, nð, lð, \\ gr, dr, br, fr, \\ pr, str, θr] \end{array} \right.$	Harf birikmalari	$\left\{ \begin{array}{l} oi, oy \\ ow, ou \end{array} \right.$

[r] bog'lovchi tovushi

### Grammatika

1. Kishilik olmoshlari bosh kelishikda (19-§, 642-bet).
2. **to be** fe'lining hozirgi zamonda tuslanishi (20-§, 645-bet).
3. Joy va yo'nalish predloglari (21-§, 646-bet).

### TOVUSHLAR TASNIFI

[ʌ] **unli tovushi**. [ʌ] unli tovushini talaffuz qilishda til biroz orqaga tisarilgan, tilning orqa tomoni yumshoq tanglayning old qismi tomon ko'tariladi, lablar biroz taranglashgan, tishlar orasidagi masofa bosh barmoq kattaligida.

[au] **unli tovushi** – diftong bo'lib, uning yadrosi xuddi [ai] diftongidagidek [a] tovushidir, sirg'alish [u] unli tovushi tomon boradi, bunda [u] ham aniq talaffuz qilinadi.

[ɔi] **tovushi** – diftongdir. Uning yadrosi [ɔ] tovushi bo'lib, sirg'alish [i] unli tovushi tomon boradi.

[t], [d], [n], [l] **tovushlarining** [θ], [ð] **tovushlari bilan birga kelish**. [t], [d], [n], [l] alveolyar tovushlari [θ], [ð] tish orasi tovushlaridan oldin kelgan holatda, talaffuz etish joyiga ko'ra ularga moslashadi, ya'ni alveolyarlik xususiyatini yo'qotadi va tish tovushlari yoki tish orasi tovushlariga aylanadi. Bunda, [ð] tovushidan oldin [t] ni portlashsiz va jarangsiz talaffuz qilinishiga alohida e'tibor berish kerak.

[r] **tovushining o'zidan oldin keluvchi undoshlar bilan birga kelishi**. [r] o'zidan oldin keluvchi undosh bilan deyarli bir paytda talaffuz qilinadi, masalan:

brown [braun] jigarrang

Agar [r] dan oldin keluvchi undosh jarangsiz bo'lsa, u holda [r] ham uning ta'sirida jarangliligini tovush boshida yo'qotadi, masalan:

friend [frend] do'st

street [stri:t] ko'cha


[t] va [d] tovushlarini [tr, dr] tovush birikmalarida talaffuz qilishda til uchi alveolada emas, balki alveoladan orqada yotadi.

### Dastlabki mustahkamlash mashqlar.

Λ	au	ɔi	tð, dð, nð, lð	dr, br, gr, tr, fr, θr
ap	aut	bɔi	æt ðis	drai
as	nau	tɔi	æt ðæt	bred
bat	hau	vɔis	'ri:d ðis	gri:n
bas	haus	pɔint	ɔn ðis	trai
sam			ɔn ðæt	frend
kam			'ɔl ðæt	θri:

### O'QISH QOIDALARI

1. U, u [ju:] harfi urg'uli bog'ida quyidagicha o'qiladi:



2. W, w ['dʌblju:] harfi so'z boshida [w] kabi o'qiladi, masalan:  
we [wi:] biz (*kishilik olmoshi*)

3. oi va oy harf birikmalari [ɔi] kabi o'qiladi, masalan:  
point [pɔint] nuqta, punkt  
boy [bɔi] o'g'il bola

4. ow harf birikmasi ikki xil o'qiladi:

a) urg'u ostida bir bo'g'inli so'zlarda [au] kabi, masalan:  
now [naʊ] hozir, endi

b) ikki bo'g'inli so'zlarning oxirida urg'usiz holatda [ou] kabi, masalan:

yellow ['jelou] sariq

Moscow ['mɒskou] Moskva

5. ou harf birikmasi [au] o'qiladi, masalan:

out [aut] —dan tashqarida

6. er va or harf birikmalari so'z oxirida urg'usiz holatda [ə] o'qiladi, masalan:

teacher ['ti:tʃə] o'qituvchi

doctor ['dɒktə] doktor, vrach

### Unlilarning urg'u ostida o'qish qoidasining I va II turlari jadvali

Tur	a	o	e	i	y	u
I	[ei]	[ou]	[i:]	[ai]		[ju:]
	name ism	note izoh	be bo'lmoq	fine zo'r	my mening	tune kuy
II	[æ]	[ɔ]	[e]	[i]		[ʌ]
	bad yomon	not emas	pen ruchka	in ichida	myth mif	but biroq

### O'rganish mashqlari

- |   |  |  |                                |
|---|--|--|--------------------------------|
| [ʌ]   | [ʌ - a:]   | [ʌ - æ]  | [w]                            |
| 34. up - cup<br>us - bus<br>un - bun<br>'ugly - hurry | 35. cut - cart<br>duck - dark<br>much - March<br>buck - bark | 36. hum - ham<br>fun - fan<br>bun - ban<br>cup - cap | 37. we<br>week<br>wine<br>wake |

- |   |  |   |
|---|--|---|
| [w - v]   | [ɔi]   | [r undoshdan so'ng]   |
| 38. wet - vet<br>wine - vine<br>west - vest<br>'very well | 39. boy - voice<br>coy - coin<br>toy - point | 40. green price<br>dream three<br>brave tree<br>Fred street |

[ə]

41. teacher  
doctor  
seller  
reader

[r] bog'lovchi tovushi. So'z oxiridagi r harfi va re harf birikmasi odatda o'qilmaydi va faqat o'zidan oldingi unlining o'qilishiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq so'z oxirida kelgan r harfi yoki re harf birikmasidan keyin keluvchi so'z unli bilan boshlansa, ular [r] o'qilib, keyingi so'zga qo'shib talaffuz qilinadi, masalan:

A teacher or a student? O'qituvchimi yoki talabami?  
 You are a student. Siz talabasiz.

So'z oxiridagi r ikki ma'no guruhi chegarasida o'qilmaydi, ular bir-biridan pauza bilan ajratiladi, masalan:

His sister is a teacher and he is a student.  
 Uning singlisi – o'qituvchi, u esa talaba.

## TEXT SEVEN

a note   or a text	at the table
a student   or a teacher	on the table
a student   or a schoolboy	from the table

'Fred is 'my friend. He's a doctor. ~ I'm not a doctor'. I'm a teacher. ~ Bess is not a teacher. She's a student. We're in my room now. We're at the table. 'Please 'give me 'three cups, Bess. 'Thank you'. 'Put a 'spoon into your cup, Fred.

"Are you a teacher?" "Yes, I am."

"Is your 'friend a 'teacher, too?" "No, he isn't."

"Is 'that 'boy a student | or a schoolboy?" "He's a schoolboy."

"Is 'this his brief-case?" "Yes, it is."

'Please 'come in.	Marhamat, kiring.
'Please 'go out.	Iltimos, chiqib turing.
'Please 'come into the room.	Xonaga kiring, marhamat.
'Please 'go 'out of the room.	Xonadan chiqing, iltimos.

## MATNGA IZOHLAR

1. Ingliz tilida murakkab pasayib ko'tariluvchi ton mavjud. U fikrga hayajonli tus beradi va agar pasayib ko'tarilish bitta bo'g'in atrofida ro'y bersa ~ belgisi bilan yoki, bir nechta bo'g'inni o'z ichiga olsa \) belgisi bilan ko'rsatiladi.

2. **Thank you. Rahmat. You** – kishilik olmoshining bosh va obyekt kelishigidagi shakllari bir xil. **Thank you** iborasi rasmiy minnatdorchilikni bildirsa, ko'tariluvchi ton bilan talaffuz qilinadi.

### Yangi so'zlar

<b>a friend</b> [ə 'frend] – do'st	<b>a brief-case</b> [ə 'bri: fkeis] – sumka
<b>a doctor</b> – shifokor	<b>yellow</b> – sariq
<b>a teacher</b> – o'qituvchi	<b>brown</b> – jigarrang
<b>a student</b> – talaba	<b>I</b> – men
<b>now</b> – hozir, endi	<b>you</b> [ju:, ju] – sen, siz, sizlar
<b>a table</b> – stol	<b>he</b> [hi:, hi] – u ( <i>mujskoy rod</i> )
<b>three</b> – uch	<b>she</b> [ʃi:, ʃi] – u ( <i>jenskiy rod</i> )
<b>a cup</b> – chashka, piyola	<b>we</b> [wi:, wi] – biz (lar)
<b>to thank</b> – minnatdorchilik bildirmoq	<b>your</b> [jɔ:, jɒ] – sizning, sening
<b>to put</b> [tə 'put] – qo'ymoq, joylashtirmoq	<b>to come in</b> – ichkariga kirmoq
<b>a spoon</b> – qoshiq	<b>to go out</b> – tashqariga chiqmoq
<b>a boy</b> – o'g'il bola	<b>at</b> [æt] – -da, yonida
<b>a schoolboy</b> [ə 'sku:lboi] – o'quvchi (bola)	<b>into</b> – (tashqaridan) ichkariga

### ATOQLI OTLAR

**Fred** [fred] Fred

### So'z yasash

-er suffiksi – ot suffiksi bo'lib, ma'lum otlarni yasashda fe'llarga qo'shiladi va ish-harakat ijrochisini bildiradi; xuddi [ə] neytral tovushidek talaffuz qilinadi, masalan:

to read – o'qimoq – a reader – o'quvchi

to teach – o'qitmoq – a teacher – o'qituvchi

-or ([ə] talaffuz qilinadi) suffiksi -er suffiksining bir ko'rinishi, masalan:

a doctor – shifokor, doktor

### MASHQLAR

I. Quyidagi so'zlardagi harflarni tartib bilan ayting. So'zlarning har birida nechtadan harf va nechtadan tovush borligini aniqlang:

student, friend, cup, under, teacher, yellow, spoon, reader

**II. a, e, i, y, o, u unli harflari I va II tur bo'yicha o'qilishiga misollar keltiring.**

**III. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing, ular qaysi qoida bo'yicha o'qilishini tushuntiring:**

cup, cube, but, nut, mute, butter, rung, huge, wake, weak, wig, waver, wine, wink, way, weed, wit; coin, boy, point, join, toy, noisy, joy; now, how, yellow, bow, Moscow, town, vow, window, gown, down; out, ounce, foul, noun, scout, count; seller, actor

**IV. Matnni ko'chirib yozing va jonli predmetni bildiruvchi otlarning tagiga chizing.**

**V. Quyidagi gaplardagi fe'l-kesimni tuslang:**

1. I am a teacher. 2. I am a student. 3. I am a doctor.

**VI. Quyidagi gaplarni bo'lishsiz va (umumiy) so'roq gap shaklida yozing:**

1. Those men are doctors. 2. Kate is a teacher. 3. The students are in that room. 4. My friend is a student. 5. These books are good.

**VII. to be fe'lining mos shaklini qo'ying.**

1. Ben ... my friend. 2. He ... a teacher. 3. I ... in my room. 4. "... Tommy ['tɒmi] and Billy ['bili] babies?" "Yes, they ... ." 5. We ... students. 6. She ... a teacher. 7. ... you a student? 8. "... they doctors?" "No, they ... not. They ... students." 9. This ... a cup. It ... yellow. 10. The spoons ... on the table. The table ... in the room. 11. ... those men friends?

**VIII. Qavs ichidagi so'zlardan foydalanib, quyidagi gaplarni tanlov so'roq gaplarga aylantiring:**

1. Fred is a doctor (a student). 2. Ann is my friend (Kate). 3. They are teachers (students). 4. Those cups are brown (yellow). 5. These pencils are short (long).

**IX. Kerakli joyga artikl qo'ying:**

1. My friend Ann is ... good student. 2. "Is Kate ... teacher?" "No, she is ... doctor." 3. This is ... room. It's ... good room. 4. This is ... cup. It's ... red cup. ... red cup is on ... table. 5. Please give me ... pen and ... pencil. 6. Am I ... teacher? 7. This cup is not ... red. It's ... yellow. 8. This is ... red cup and that's ... yellow cup. 9. Bess is my ... friend.

**X. Savollarga javob bering:**

a) darsdagi yangi so'zlardan foydalaning:

- |  |  |
|--|--|
| 1. Are you a teacher?                    | 10. Am I a teacher or a doctor?            |
| 2. Are you a student?                    | 11. Is your friend in the room?            |
| 3. Are you a student or a teacher?       | 12. Are they friends?                      |
| 4. Is this boy a student?                | 13. Are we in the room?                    |
| 5. Is he your friend?                    | 14. Is your baby in the room too?          |
| 6. Is your friend a doctor or a teacher? | 15. Is Nick doctor, or is Jane?            |
| 7. Am I a doctor?                        | 16. Is Nick (Jane) a good or a bad doctor? |
| 8. Am I a student?                       | 17. Is Nick a doctor or a teacher?         |
| 9. Am I a teacher?                       |  |

**b) predloglarning ishlatilishiga e'tibor bering:**

1. Is your book on the table or under it?
2. Is your map in your brief-case or on the table?
3. Is the teacher at the table or at the blackboard?
4. Is Peter at the door or at the table?
5. Are we at the table or at the door?
6. Is his map on his book or under his book?
7. Is his book in my bag or on his table?

**XI. Nuqtalar o'rniga tegishli predloglarni qo'ying va ularni o'zbek tiliga tarjima qiling.**

1. Please take that long pencil ... your brief-case, Nick, and put it ... the table. 2. The black pen is ... the table, the brown pen is ... my bag. The red pencil is ... that book. 3. Please take these books ... the table. 4. Please go ... the blackboard. 5. Please close your book and put it ... your brief-case. It's ... your brief-case now. 6. Please go ... the door and close it. 7. Please put a spoon ... your cup, Ben. 8. Please go ... the room. 9. Please take a pen ... that student. 10. Fred is ... his room now. 11. Please take your pen ... the table and put it ... your bag, Jane. Now please take it ... your bag and put it ... the book. 12. Please go ... your table and take your book ... your bag. 13. Please look ... the blackboard. Please go ... the blackboard. 14. Please take the cup ... Jane and put it ... the table.

**XII. Ingliz tiliga tarjima qiling.**

a) 1. Siz o'qituvchimisiz? – Yo'q, men o'qituvchi emasman, men talabaman. 2. Fred, bu bolaga o'zingni kitobingni ber, iltimos. 3. Bu galstuk sariqmi yoki qizilmi? – U sariq. 4. Iltimos, chashkalarni stol



ustidan oling. Chashkalarni bu stol (usti)ga qo'ying, iltimos. Rahmat.  
5. Iltimos, bu kitobni sumkangiz(ning ichi)ga soling. 6. Bu boladan qoshiqni oling, iltimos. 7. Peter shifokor. U mening do'stim. U yaxshi shifokor va yaxshi do'st. 8. Fred talaba. Hozir u o'z(ining) xonasida. 9. Sizning talabalarangiz anavi xonadami? 10. (Sizning) do'stingiz shifokormi yoki o'qituvchimi? – U shifokor.

b) Mening ismim Nikolay. Men o'quvchiman. Fred mening do'stim. U ham o'quvchi. Hozir biz uning kvartirasidamiz. Uning kvartirasi katta (keng) va toza.

c) 1. Fred, menga kitobing va qalamingni berib tur, iltimos. Rahmat. 2. Kolya, anavi stol ustidan mening kitobimni ol, uni och, yettinchi sahifani top va uchinchi darsni o'qi, iltimos. 3. Bu matn qisqami yoki uzunmi? – U qisqa. 4. Anna talabami yoki shifokormi? – Anna hozir shifokor. U yaxshi shifokor.

## 8-dars

Tovush [ə:]

Tovush Harf } er, ir, yr  
 birikmalari [wɔ, wɔ:] birikmalari } ur, wa, wh

### Grammatika

1. Buyruq maylining bo'lishsiz shakli (22-§, 648-bet).
2. Maxsus so'roq gaplar (23-§, 649-bet).
3. Sifatdosh I. (Participle I). Hozirgi zamon davom fe'li (The Present Continuous Tense) (24, 25-§§, 651-bet).

### TOVUSHLAR TASNIFI

[ə:] unli tovushi. [ə:] unli tovushini talaffuz qilishda til tanasi biroz ko'tarilgan, tilning yelkasi maksimal yassi yotadi, lablar tortilgan va biroz cho'zilgan. lablar tishlarga tegmay turadi, tishlar orasidagi masofa katta emas. [ə:] o'zbek tilidagi *o'rik* so'zidagi "o"ga yaqin.

#### Dastlabki mustahkamlash mashqlari

ə:		wɔ	wɔ:
kə:	ək      tə:m	wɔt	wɔ:l
fə:	fə:θ      bə:d	wɔz	wɔ:k
sə:	sə:l      gə:l	wɔnt	wɔ:m

### O'QISH QOIDALARI

1. e, i, y, u harflari III o'qish turi bo'yicha [ə:] o'qiladi, masalan:  
 her [hə:] uning (*egalik olmoshi, 3-shaxs, jenskiy rod*)  
 firm [fə:m] firma  
 Byrd [bə:d] Berd (*familiya*)  
 turn [tə:n] navbat
2. wa harf birikmasi [wɔ] kabi o'qiladi, agar undan so'ng undosh (r dan tashqari) yoki undoshlar birikmasi kelsa, masalan:  
 want [wɔnt] xohlamoq
3. wh harf birikmasidagi h o'qilmaydi, agar undan so'ng o harfi kelmasa, masalan:

what [wɒt] nima (so'roq olmoshi)

white [waɪt] oq

4. Agar wh dan so'ng o kelsa, w oqilmaydi, masalan:

who [hu:] kim (so'roq olmoshi)

whose [hu:z] kimning (so'roq olmoshi)

5. ar harf birikmasi w harfi yoki wh harf birikmasidan so'ng [wɔ:] o'qiladi, masalan:

war [wɔ:] urush

wharf [wɔ:f] sohil

### O'rganish mashqlari

[ə:]

42. fur – firm – first  
sir – burn – burst  
her – turn – thirst

[ə: – ɔ:]

43. burn – born  
turn – torn  
cur – corn

[ə: – e]

44. burn – Ben  
turn – ten  
bird – bed

[ə: – ou]

45. burn – bone  
turn – tone  
cur – cone

[wɔ – wɔ:]

46. wasp – war  
want – warm  
what – ward

### Unli harflarning urg'u ostida o'qilishining III turi (unli +r (+ undosh))

Tur	a	o	e	i	y	u
III	[a:] large katta	[ɔ:] fork vilka	<pre>graph TD     A["[ə:]"] --- B["term"]     A --- C["firm"]     A --- D["Byrd"]     A --- E["fur"]     B --- B1["semestr"]     C --- C1["firma"]     D --- D1["Berd"]     D --- D2["(familiya)"]     E --- E1["mo'yna"]</pre>			

### TEXT EIGHT

'Don't give

'Read 'Text' One

'sit down

'What's this?

'What's that?

'What's Kate?

'What colour is it?

'copy 'out this 'text

'Tom is a 'schoolboy. 'This 'girl is his 'sister. She's a 'schoolgirl, too. Her 'name's 'Kate.

'Please 'take your 'book out of your 'bag, Kate. 'Don't 'give 'me your book. 'Open it at 'page 'two' and 'read 'Text 'One. 'Thank you. 'Sit 'down, please'. Your 'mark is 'good'. 'Don't 'copy 'out 'this 'text 'now. 'Do it at 'home, please'.

"What's 'this?" "It's an 'exercise-book"

"What 'colour is it?" "It's 'white."

"What's 'Kate?" "She's a 'schoolgirl."

"What's Kate 'doing now?" "She's 'reading."

"Are you 'reading, too?" "No, I'm not."

Repeat [ri'pi:t] it, please. — Marhamat qilib takrorlang.

## MATNGA IZOHLAR

1. Sit down, please. Marhamat qilib o'tiring. To sit – o'tirmoq (holat), down pastga, to sit down (tik turgan kishi pastga) o'tirmoq (harakat). Murakkab fe'l tarkibiga kirgan ravish uning ma'nosini o'zgartiradi.

2. Do it at home, please. Marhamat qilib buni uyda bajaring. at home iborasi ravish xususiyatiga ega, shuning uchun home so'zidan oldin artikl ishlatilmaydi.

### Yangi so'zlar

eight [eit] – sakkiz

to sit down – o'tirmoq

what – nima, kim, qaysi

(so'roq olmoshi)

a colour [ə'kʌlə] – rang

a girl – qiz

a sister – singil

to repeat [tə'ri'pi:t] – takrorlamoq,  
qaytarib aytmoq

two [tu:] – ikki

one [wʌn] – bir

a mark – baho, belgi

to copy out – ko'chirib yozmoq,  
qayta yozmoq

a schoolgirl – o'quvchi qiz

her [hə:, hə] – uning (3-shaxs birlik,  
jenskiy rod egalik olmoshi)

white – oq

to do [tə'du:] – qilmoq, bajarmoq

at home – uyda

an exercise-book [ən'eksəsaizbuk]  
– daftar

## MASHQLAR

I. Quyidagi so'zlardagi harflarni tartib bilan ayting. So'zlarning har birida nechtadan harf va nechtadan tovush borligini aniqlang:

girl, sister, her, white, home, two, one

## II. Quyidagi soʻzlarni ovoz chiqarib oʻqing, ular qaysi qoida boʻyicha oʻqilishini tushuntiring:

a) term, first, bird, third, stern, turn, Byrd, furs, curl, serf, curb, herb; want, wash, was, watch, watt; whale, wharf, wheat, ward, when, whether, which, whiff, whip, warn, whole, warp, why

b) cat, bunch, pinch, rice, will, chest, sister, frost, lick, sly, pace, lunch, rib, from, luck, cry, chat, shy, chill, sky, hale, rose, spine, till, spider, vine, sniff, maze, pan, reader

## III. Quyidagi soʻzlarni transkripsiya qiling:

girl, sister, copy out, sit down, her, what, exercise-book, school-girl, colour, eight, repeat

## IV. Matnni koʻchirib yozing va undagi predloglarning tagiga chizing.

## V. Nuqtalar oʻrniga tegishli predlog va ravishlarni qoʻying. Gaplarni oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Please take that thick book ... the table, Kate. 2. Please put your exercise-books ... your bag, Ann. 3. The black pen is ... the exercise-book and the brown pen is ... that book. 4. Fred is ... home now. 5. Please go ... that table, Jack, and sit ... . 6. Don't give me your exercise-book. Please put it ... the table. 7. Open your books ... page eight, please. 8. Please take that red cup ... that boy. 9. Please take that book ... the table, Jane, open it ... page five and read Note Five. 10. Don't copy out Text Seven now, do it ... home.

## VI. Kerakli joyga artikl qoʻying:

1. Tom is ... good boy. 2. This is ... exercise-book. It's ... white exercise-book. ... exercise-book is on ... table. 3. I'm ... doctor. I'm at ... home now. This is my ... room. ... room is large and clean. 4. Please open that book at ... page two and read ... Text Five. 5. Please give me ... inkstand. 6. That's ... text. ... text is long. 7. Minsk is ... fine city. 8. Billy is ... good boy. 9. This is ... black tie and that's ... white tie. Please give me ... white tie, not ... black tie.

## VII. Quyidagi gaplarni boʻlishsiz va (umumiy) soʻroq gap shaklida yozing:

1. I am taking the book off the table. 2. He is reading a book now. 3. They are looking at me. 4. She is opening the exercise-book. 5. I am closing the door. 6. You are going out. 7. They are coming in.

**VIII. Buyurilgan ishni hozir qilayotganingizni ayting. HZD shaklini ishlating.**

**N a m u n a:** Please come here. = I am coming (now).

1. Please take your book.
2. Please open it.
3. Please read Text Seven.
4. Please close the book now.
5. Please give it to your friend.
6. Please put the exercise-book on the table.
7. Please take it off the table.
8. Please go to the blackboard.
9. Please look at the blackboard.
10. Please read the word "colour".
11. Please go to your table now.
12. Please sit down.

**IX. Bo'lishsiz buyruq gapga aylantiring.**

1. Open your book, please.
2. Look at the blackboard, please.
3. Please close the door.
4. Please put that cup on this table.
5. Read Note One at home, please.
6. Copy out this text, please.

**X. Savollarga javob bering.**

- a)
1. What are you doing?
  2. Are you opening or closing the book?
  3. Are you reading now?
  4. What are you reading?
  5. What is your friend doing?
  6. Is he reading now?
  7. Are they looking at me?
  8. Who are they looking at?
- b)
1. Are you a schoolboy?
  2. Is your sister a doctor?
  3. Are those girls your friends?
  4. Are they teachers or students?
  5. Is your friend at home now?
  6. Is that page one or page two?
  7. Is this a text-book or an exercise-book?
  8. Are those doors yellow?
  9. Is that cup white?
- c)
1. What's this?
  2. What's that?
  3. What are these?
  4. What are those?
  5. What colour is this exercise-book?
  6. What colour is that pencil?
  7. What's your sister?
  8. What are your friends?

### **XI. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol bering.**

1. Jane is a doctor.
2. They are teachers.
3. This is an exercise-book.
4. Those are notes.
5. We are students.
6. Bess is a schoolgirl.
7. This cup is yellow.
8. Kate is a teacher.
9. That pencil is red.
10. She is a student.

### **XII. Quyidagi fe'llarning sifatdosh I shaklini yozing:**

to meet, to tell, to find, to send, to give, to take, to read, to look, to go, to open, to close, to put, to copy out, to sit, to do, to come

### **XIII. Ingliz tiliga tarjima qiling.**

O'qiyotgan, aytayotgan, bajarayotgan, ketayotgan, ochayotgan, jo'natayotgan, yopayotgan, qarayotgan, olayotgan, berayotgan, ko'chirib yozayotgan, o'tirgan, kirayotgan.

### **XIV. Namuna asosida gaplar tuzing.**

1. I am looking at you.
2. I am not reading now.
3. What are you speaking about?

### **XV. Ingliz tiliga tarjima qiling.**

#### **a) Yangi so'zlardan foydalaning:**

1. Kitoblaringizni yopmang, iltimos. Birinchi matnni o'qing.
2. Eslatma: ikkini uyda o'qing. Iltimos, uni hozir bajarmang.
3. Bu oq chashkani stol ustidan olmang. Anavi sariq chashkani oling, iltimos.
4. O'tiring, marhamat. Matnni ko'chirib yozing.
5. U kim? – U o'qituvchi.
6. Sizning singlingiz nima ish qiladi? – U talaba.
7. Bu qiz kim? – U o'quvchi. Uning ismi Jeyn.
8. Jeyn, doskaga chiq, marhamat. Menga daftaringni berma. Kitobni och va to'qqizinchi matnni o'qi. Rahmat. Sening bahoing "yaxshi". Ikkinchi va uchinchi matnlarni uyda o'qi. Hozir menga daftaringni ber. Joyingga bor.
9. Marhamat qilib bu qalamga qarang. Bu qalam qaysi rangda? – (U) qizil. – Bu daftar qaysi rangda? – Sariq. – Bu sizning daftaringizmi? – Yo'q, bu u (qiz)ning daftari.

#### **b) fe'l-kesim zamon shakliga e'tibor bering:**

1. Do'stingiz nima qilyapti? – U uyda kitob o'qiyapti.
2. Kir-mang, iltimos. Marhamat qilib eshikni yoping.
3. Marhamat qilib doskaga qarang. Do'stingiz nima o'qiyapti?
4. Ular nimaga qarayapti?
5. Siz hozir nima qilyapsiz? – Biz matnni o'qiyapmiz. – Qaysi matnni o'qiyapsiz? – Biz oltinchi matnni o'qiyapmiz.
6. Qara, Bess bilan Ann stol (atrofi)da o'tirishibdi. – Ular nima qilyapti? – Ular sakkizinchi matnni ko'chirib yozyapti.

## 9-dars

Tovushlar	[iə, eə, uə]	Harf birikmalari	{ wor, eer, air ire, our
-----------	--------------	---------------------	-----------------------------

Tovush  
birikmalari [aiə, auə, wə:]

Bosh va ikkinchi darajali urg'u

### Grammatika

1. Egalik olmoshlari (26-§, 653-bet).
2. **who, whose, where** so'roq so'zlari bilan boshlanuvchi maxsus so'roq gaplar (23-§, 2-punkt, 649-bet).

### TOVUSHLAR TASNIFI

**[iə] unli tovushi** – diftongdir. Diftongning yadrosi – [i] unlisi, sirg'alish [ə] neytral tovush tomon bo'ladi, ikkinchi element [ə] tovushiga yaqinlashadi.

**[eə] unli tovushi** – diftong bo'lib, uning yadrosini ochiq [ɛ] tashkil qiladi. Sirg'alish [ə] neytral tovush tomon bo'ladi, ikkinchi element [ə] tovushiga yaqinlashadi.

**[uə] tovushi** – diftongdir. Uning yadrosi [u] tovushi bo'lib, sirg'alish [ə] neytral tovushi tomon boradi. Ikkinchi element [ə] tovushiga yaqinlashadi.

**[aiə] va [auə] tovush birikmalari.** Bu birikmalar [ai] va [au] diftonglarining [ə] neytral tovushi bilan birikishidan hosil bo'ladi. Biroq bu elementlarning o'rta qismi hech qachon aniq (to'liq) talaffuz qilinmaydi. [aiə] dagi o'rta element [j], [auə] dagi o'rta element esa [w] bo'lib qolmasligiga e'tibor berish kerak.

**[wə:] tovush birikmasi.** Bu tovush birikmasini talaffuz qilishda [w] ni yumshatmaslikka va [ə:] ni aniq talaffuz qilishga harakat qilish kerak.

#### Dastlabki mustahkamlash mashqlari

iə	eə	uə	aiə	auə	wə:
diə	beə	fuə	'baia	'auə	wə:
niə	wəə	muə	'faia	'pauə	wə:k
hiə	pri'pəəd	puə	'flaia	'flauə	wə:d
		kjuəd	'faiaəd	'fauə	wə:ld



**Bosh va ikkinchi darajali urg'u.** Ingliz tilida ko'p bo'g'inli unlilar ikkita urg'uga ega bo'lishadi: bosh va ikkinchi darajali. Ikkinchi darajali urg'u, odatda, bosh urg'udan bir urg'usiz bo'g'in bilan ajratilgan bo'ladi.

Ikkinchi darajali urg'u [, ] belgisi bilan belgilanadi va urg'u tushadigan bo'g'in oldidan qo'yiladi:

engineer [, enʒi'niə] muhandis

### O'QISH QOIDALARI

**1. Unlilarning urg'u ostida o'qish qoidasining IV turi.** Unli + r + unli xilidagi birikmalarni IV – o'qish turi o'z ichiga oladi. Bu turda unlilar quyidagicha o'qiladi:

a) a harfi [ɛə] diftongi kabi o'qiladi, masalan:

Mary ['mæəri] Meri      Parents ['pæərənts] ota-ona

b) e harfi [iə] diftongi kabi o'qiladi, masalan:

here [hiə] shu yerda, bu yerga

#### Istisnoni esda saqlang:

there [ðɛə] – u yerda, u yerga  
where [wɛə] – qayerda, qayerga

c) i va y harflari [aiə] tovush birikmasi kabi o'qiladi, masalan:

fire [faɪə] olov      tyre [taɪə] shina

d) o harfi [ɔ:] tovushi kabi o'qiladi, masalan:

more [mɔ:] yanada, ko'proq

e) u harfi [juə] tovush birikmasi kabi o'qiladi, masalan:

during ['djuəriŋ] mobaynida

#### Unlilarning urg'u ostida o'qish qoidasining IV turi jadvali (unli + r + unli)

Tur	a	o	e	i	y	u
IV	[ɛə] Mary Meri	[ɔ:] more yanada	[iə] here shu yerda	[aiə] fire olov	tyre shina	[juə] during mobaynida

**2. eer harf birikmasi [iə] diftongi kabi o'qiladi, masalan:**

engineer [, enʒi'niə] muhandis

3. **air** harf birikmalari [ɛə] diftongi kabi o'qiladi, masalan:

chair [tʃɛə] stul

4. **our** harf birikmasi [aʊə] tovush birligi kabi o'qiladi, masalan:

our [aʊə] bizning

5. **wor** harf birikmasi unliidan oldin [wə:] o'qiladi, masalan:

work [wə:k] ish

word [wə:d] so'z

### O'rganish mashqlari

[iə]	[ɛə]	[juə]	[aɪə]
47. deer	48. air – care	49. cure	50. fire
here	pair – Mary	pure	mire
engi'neer	fair – 'parents	during	tired
[aʊə]	[wə:]	[wə: – wɔ – wou]	
51. our	52. work	53. were [wə:]	– war – woe
sour	word	word	– ward – wove
flour	world	work	– warn – woke
	worker	worm	– warm – won't

### TEXT NINE

'Where 'is he?

'Who's this 'girl?

His 'wife's 'there. 'too.

It's 'their flat.

My 'name's Be 'lov. I'm an , engi'neer. My 'wife's 'not an engineer. She's a 'actory worker. Our 'son's a 'schoolboy. He's a pio'neer.

'Mary and 'Kate are 'friends. 'Their 'sons are 'friends, 'too.

“'Who's your 'friend?” “'My 'friend's 'Jack. He is an , engi'neer.”

“'Is he 'here 'now?” “'No, he 'isn't.”

“'Where 'is he?” “'He's in 'Kiev. His 'wife's 'there 'too.”

“'What are they 'doing there?” “'They're 'visiting their 'friends.”

“'Whose 'flat's 'this?” “'It's 'their flat.”

“'Who's 'this 'girl?” “'She's my 'sister.”

“'What's her 'name?” “'Her 'name's 'Mary.”

“'What 'is she?” “'She's a 'schoolgirl.”

“'What 'kind of 'pupil is she?” “'She's a 'good pupil.””

That's right!	– To'g'ri!
"What's your name?"	– Ismi sharifingiz nima?
"Mary Smith."	– Meri Smit.

## MATNGA IZOHLAR

1. **What's her name?** *U (qiz)ning ismi (sharifi) nima?*

2. **"What kind of pupil is she?"** "She's a good pupil." *U qanday o'qiydi? (= U qanaqa o'quvchi?) – U yaxshi o'qiydi. (= U yaxshi o'quvchi.)* **What kind of ...** bilan boshlanuvchi maxsus so'roq gapda odatda predmetning sifati so'raladi. **What + ot** bilan boshlanuvchi maxsus so'roq gaplarda predmetning nomi (turi) so'raladi.

**"What kind of city is Minsk?"** Minsk qanday shahar?

**"It's a big city."** U katta shahar.

**"What city is this?"** Bu qaysi shahar?

**"It's Minsk."** Bu Minsk.

## Yangi so'zlar

**an engineer** [ən , enʤi'niə] – muhandis

**a wife** (*pl. wives*) – xotin

**a factory** – zavod, fabrika

**a worker** – ishchi

**a factory worker** – zavod ishchisi

**whose** [hu:z] – kimning

**who** [hu:] – kim (*so'roq olmoshi*)

**here** – shu yerda, bu yerga

**where** [weə] – qayerda, qayerga

**our** – bizning (*egalik olmoshi*)

**a son** [ə 'sʌn] – o'g'il (*farzand*)

**a pioneer** [ə , paɪə'niə] – pioner

**their** [ðeə] – ularning (*egalik olmoshi*)

**there** – u yerda, u yerga

**to visit** ['vɪzɪt] – bormoq, tashrif buyurmoq

**kind** – tur, xil

**What kind of ...** ['wʌt 'kaind əv] – Qanday, qanaqa ...?

**a pupil** [ə 'pju:pl] – o'quvchi

## ATOQLI OTLAR

**Mary** ['mɛəri] Meri

## MASHQLAR

I. Quyidagi so'zlarni transkripsiya qiling. So'zlarning har birida nechtadan harf va nechtadan tovush borligini aniqlang:

engineer, pioneer, wife, worker, son, our, their, who, whose, where, here, there

**II. Matnni ko'chirib yozing va [ɛə] diftongli so'zlarning tagiga chizing.**

**III. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing, ular qaysi qoida bo'yicha o'qilishini tushuntiring:**

a) leer, beer, peer, veer; teem, fee, wee, bee, feel; air, fair, hair, stairs, pair; plain, Spain, faint; care, fare, mare, stare, bare, rare; pure, cure, during; fire, mire, tire, shire; here, sere, mere; our, flour, sour; world, worm, 'workship, word, 'worthy

b) fate, fat, far, fare; Peter, pet, pert, here; style, gyps, Byrd, tyre; file, fill, first, fired; tube, tub, turn, cure; bone, lot, form, store

**IV. Kerakli joyga nuqtalar o'rniga tegishli predlog yoki ravishlarni qo'ying.**

1. I'm ... the blackboard. 2. Please don't go ... there. 3. Are you putting that cup ... the table? I'm putting it ... here. 4. Whose exercise-books are ... the table? 5. Is she putting the spoons ... those white cups? 6. Please go ... the room. 7. "Where's the red pencil? Is it ... the bag?" "No, it's not ... the bag, it's ... the table." 8. Please go ... the table, Bob, and sit ... 9. What page is he opening his book ...? 10. "Where's Jack?" "He's ... the blackboard. He is looking ... it."

**V. Kerakli joyga artikl qo'ying.**

1. "Where is ... yellow tie?" "It's on ... bed." 2. I'm ... engineer. 3. "Where is ... white exercise-book" "It's on ... table." 4. "Where is your friend?" "He's in ... room." 5. Jane is ... factory worker, and Ben is ... engineer. Jack is ... engineer, too. Ben and Jack are ... engineers. They are ... good engineers. 6. Peter is ... pioneer. He's ... good pupil. 7. Mary is ... doctor. Her friend Kate is ... doctor, too. 8. Moscow is ... city. 9. "Bobby is ... baby. Whose son is he?" "He's their son." 10. Open your books at ... page ten and read ... Text Nine, please.

**VI. Nuqtalar o'rniga tegishli egalik olmoshini qo'ying.**

1. I'm a worker. ... name is Ivanov. 2. Ted is a schoolboy. He's a pioneer. ... marks are good. 3. Ann and Jane are engineers. ... sons are pioneers. 4. Please give me ... exercise-book, Peter. 5. We're engineers. ... friends are engineers, too. 6. "What are ... names?" "... name's Nick and ... name's Jack."

## VII. Savollarga javob bering.

1. Is your name Belov?
2. What's your name?
3. Are you an engineer?
4. Is your wife an engineer, too?
5. Is she a teacher or a doctor?
6. What's she?
7. What's her name?
8. Is your son a schoolboy?
9. What kind of pupil is he?
10. Is he a pioneer?
11. Are we students?
12. What are we?
13. Are we reading?
14. What are we doing?
15. Am I opening the book or am I closing it?
16. What am I doing?
17. Is Comrade Petrov putting his exercise-book on the table?
18. Who's your friend?
19. Who's this man?
20. Are these men factory workers or engineers?
21. Who's this girl?
22. Where are our books?
23. Whose books are these?
24. Whose exercise-books are these?
25. What kind of room's this?
26. What kind of pencil's this?
27. What kind of pen's that?

## VIII. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savollar qo'ying.

1. *My friend is a teacher.* (3) 2. *This is a map.* (1) 3. *It's a good map.* (1) 4. *That's a bad cap.* (2) 5. *It's his cap.* (1) 6. *The match is on the table.* (1) 7. *The matches are on the table.* (1) 8. *Her name's Mary.* (2) 9. *Bess is a good pupil.* (2)

## IX. Yangi so'zlardan foydalanib ingliz tiliga tarjima qiling.

1. Bu qiz mening singlim. Uning ismi Meri. U muhandis. 2. Sizning o'g'lingiz muhandismi yoki ishchimi? – U ishchi. 3. Dugonangiz kim? – Mening dugonam Katya. – U nima ish qiladi? – U o'qituvchi. 4. O'qituvchingiz qayerda? – U shu yerda. 5. Mening singlim hozir Minskda. Mening dugonam ham o'sha yerda. 6. Peter bilan Anna Kiyevdami? – Ha, Kiyevda, ular do'stlarinikiga tashrif buyurishmoqda. – Ularning o'g'li ham Kiyevdami? – Yo'q, u hozir shu yerda. – U nima qilyapti? 7. Bu bola kim? – U mening o'g'lim. 8. Bu qiz kim? – U muhandis. 9. Bu kishi shifokormi? – Ha. – Uning familiyasi nima? – Uning familiyasi Petrov. 10. Xotiningiz nima ish qiladi? – U muhandis. 11. Bu kishi kim? – U mening do'stim. 12. U nima ish qiladi? U muhandismi yoki shifokormi? 13. Bu qiz kim? U

\* Qavs ichida har bir gapga qo'yiladigan savollar soni ko'rsatilgan.

sizning singlingizmi? 14. Bu qiz nima ish qiladi? U talabami yoki o'qituvchimi? 15. Bizning kvartira yaxshi. U katta va toza. 16. Anavi eshiklar qaysi rangda? – Ular oq. 17. Bu kimning kvartirasi? – Bu ularning kvartirasi. 18. Bu qanday kitob? – Bu katta kitob. 19. Bular qanday daftarlar? – Bular yupqa daftarlar. 20. Bu qanday xona? – Bu katta (keng) xona. 21. Singillaringiz qayerda? – Ular uyda.

## 10-dars

	Harf	Q, q	Q, q [kju:]
Tovush birikmalari	[tw, kw]	Harf birikmalari	{ all, alk, wr, ew, igh
Grammatika			
of predlogi yordamida qaratqich kelishigi munosabatining ifodalanishi (27-§, 653-bet).			

### TOVUSHLAR TASNIFI

[t] va [k] tovushlarining [w] tovushi bilan birga kelishi. [tw] va [kw] Tovush birikmalarini to'g'ri talaffuz qilish uchun [t] va [k] tovushlarini talaffuz qilib, bir vaqtning o'zida [w] tovushini talaffuz qilish uchun lablarni doira shakliga keltirish kerak. Jarangsiz undoshdan so'ng [w] tovushi kuchsizlanadi (boshlanishi jarangsiz bo'ladi).

[ŋ] tovushi unlilar o'rtasida. [ŋ] tovushini unlilar o'rtasida talaffuz qila turib, [ŋ] tovushidan so'ng [g] chiqib qolishining oldini olish kerak.

#### Dastlabki mustahkamlash mashqlari

tw	kw	ŋ	ŋg
twais	kwait	'mi:tiŋ_iz	'iŋgliʃ
twelv	kwik	'si:liŋ_iz	'læŋgwið
'twenti	'kwestʃn	'siŋiŋ	'æŋgri
		'kliŋiŋ	'hæŋgri

### O'QISH QOIDALARI

1. Q, q [kju:] harfi doim qu harf birikmasida keladi va o'qiladigan unlidan oldin [kw] o'qiladi, masalan:

quick [kwik] tez

2. al harf birikmasi k harfidan oldin [ɔ:] kabi o'qiladi, masalan:

chalk [tɔ:k] bo'r

Boshqa barcha undoshlardan oldin urg'uli bo'g'inda bu harf birikmasi [ɔ:l] o'qiladi, masalan:

small [smɔ:l] kichik  
also ['ɔ:lsoʊ] ham, shuningdek

3. ew harf birikmasi ko'p so'zlarda [ju:] kabi o'qiladi, masalan:  
new [nju:] yangi

4. w so'z boshida r dan oldin oqilmaydi, masalan:  
write [rait] yozmoq

5. igh harf birikmasi [ai] kabi o'qiladi, masalan:  
light [lait] yengil

6. ng harf birikmasi l, r, w sonantlari oldidan [ŋg] o'qiladi,  
masalan:

English ['ɪŋɡlɪʃ] ingliz    angry ['æŋɡri] g'azablangan  
language ['læŋɡwɪdʒ] til

## TEXT TEN

We're at a lesson.

We're at the table

The ceiling's white.

the walls in our classroom

a piece of chalk

an English newspaper

We're at a lesson now.<sup>1</sup> This is our classroom. It's small, but it's light and clean. The walls in our classroom are blue. The floor's brown. The ceiling's white. The door and the windows are white, too. We're sitting at the table. It's brown. The chairs are brown, too.

"Please come here, Jack."<sup>2</sup> Don't take your book. Take a piece of chalk and write the new English words on the blackboard, please. Thank you. Write four questions at home, please."

"What's this?" "It's a newspaper."

"What kind of newspaper is it?" "It's an English newspaper."

"Where are you?" "We're at a lesson."

"What are you doing?" "We're writing."

## MATNGA IZOHLAR

1. We're at a lesson now. Biz hozir darsdamiz (Biz mashg'ulotdamiz). At predlogi where? so'rog'iga javob bo'luvchi o'rin holi oldidan ishlatiladi.

2. Please come here, Jack. Jek, iltimos, bu yoqqa keling. to come fe'li gapiruvchiga qarab harakatlanishni bildiradi. O'zbek

---

<sup>1</sup> Millatni anglatuvchi sifat va otlar doim katta harf bilan yoziladi.



tiliga *kelmoq* deb tarjima qilinadi. *to go* fe'li gapiruvchidan boshqa tarafga ketishni bildiradi. O'zbek tiliga *bormoq*, *ketmoq* deb tarjima qilinadi.

Qiyoslang:

Bu yoqqa keling, iltimos.

Please come here.

U yoqqa boring, iltimos.

Please go there.

### Yangi so'zlar

a lesson [ə 'lesn] – dars

a chair – stul

a classroom [ə 'kla:srum] –  
sinf xonasi

to come [tə 'kʌm] – kelmoq

a piece [ə 'pi:s] – bo'lak, ushq

small – kichkina

chalk – bo'r

but [bʌt, bət] – biroq

to write – yozmoq

(bog'lovchi)

new – yangi

light – yorug'

English – ingliz

a wall – devor

a word – so'z

blue [blu:] – havorang

four [fɔ:] – to'rt

a floor – pol

a question [ə 'kwɛstʃn] – savol

a ceiling [ə 'si:liŋ] – shift

a newspaper [ə 'nju:speɪpə] –

a window – deraza

gazeta

### Esda tuting:

one, two, three, four, five,  
six, seven, eight, nine, ten

### MASHQLAR

I. Quyidagi so'zlardagi harflarni tartib bilan ayting, ularni transkripsiya qiling. So'zlarning har birida nechtdan harf va nechtdan tovush borligini aniqlang:

ceiling, window, chair, piece, chalk, word, question, colour, light, blue, come, eight

II. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing, ular qaysi qoida bo'yicha o'qilishini tushuntiring:

a) quite, quick, quest, quiz, quaver, quits; small, fall, tall, call, all; chalk, walk, talk, stalk, calk; new, few, stew, pew, hew, pewter, hewn, news; write, wrest, wring, wreck, wrap, wry, wrong; English, angry, angle; high, nigh, right, night, bright, might, light, fight

b) she, meek, reel, grim, happy, pony, sack, lad, darn, got, lard, pond, mule, bloom, butter, ugly, rudder, sink, mill, fuss, hobby, fly, cube, seep, pep, send, stove, made, Sam, pane, sand, plate, mean, heat, pine, sty, teach, close, clock, shelf, cock, tape, tone, bud, fun, fume, laid, bay, tube, far, hard, term, bird, skirt, thirsty, icy, free, party, peg, gent, peck, skin, single

**III. Matnni ko'chirib yozing va undagi kishilik, ko'rsatish hamda egalik olmoshlarining tagiga chizing.**

**IV. Nuqtalar o'rniga tegishli egalik olmoshini qo'ying.**

1. We're students. This is ... classroom. The door in ... classroom is white. 2. I'm at home now. ... room is small, but it's light and clean. These are ... sisters, ... names are Mary and Ann. 3. Open ... books, please. 4. Sit down, Peter. ... mark is "good". 5. Is she a teacher? Are these boys and girls ... pupils? 6. This man is an engineer. ... name's Petrov.

**V. Kerakli joyga artikl qo'ying.**

1. What colour is ... floor in your room? 2. Write ... question on ... blackboard, please. 3. Please open ... window. 4. Please close ... door. 5. Are you writing ... new words? 6. Is he giving you ... piece of ... chalk? 7. Where's ... chalk? 8. Where's ... Room Six? 9. ... exercise-book is on ... table.

**VI. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savollar qo'ying.**

1. It is *our classroom*. (2) 2. It's *a light room*. (1) 3. *The walls in my room are yellow*. (3) 4. This cup is *white*. (1) 5. They are *new ties*. (1) 6. The table is *at the window*. (1) 7. The chairs are *at the table*. (1) 8. *Klimov is our teacher*. (3) 9. *Peter is sitting at the window*. (3) 10. It is *an English newspaper*. (2)

**VII. Kerakli joyda nuqtalar o'rniga tegishli predlog va ravishlarni qo'ying.**

1. The walls ... the rooms ... my flat are yellow and blue. 2. Please go ... the blackboard, Peter. He is ... the blackboard now. 3. Take a piece ... chalk ... the table and write these words, please. Who's writing the new words ... the blackboard? 4. Please come ... the room. 5. We're going ... the classroom. 6. The blackboard is ... the wall ... our classroom. 7. Please put these matches ... your bag. 8. Please open that book ... page eight. 9. They're looking ... the boys.

**VIII. Savollarga javob bering.**

- |                                    |   |
|------------------------------------|---|
| 1. Is this a classroom?            | 3. Is it large or small?                        |
| 2. What kind of classroom is this? | 4. What colour are the walls in this classroom? |

- |  |   |
|--|---|
| 5. What colour is the floor (ceiling, door)? | 11. Is Ann at the blackboard or at her table? |
| 6. Where's the blackboard?                   | 12. What's she doing there?                   |
| 7. What colour is it?                        | 13. Is your bag new?                          |
| 8. Where's the piece of chalk?               | 14. Is this a table or a chair?               |
| 9. Where are you?                            | 15. Where's your friend sitting?              |
| 10. Are you at a lesson or at home?          |   |

### IX. Ingliz tiliga tarjima qiling.

#### a) Predloglarning ishlatilishiga e'tibor bering:

to'rtinchi darsning so'zlari, o'sha kitobning sahifalari, o'sha darslarning yangi so'zlari, uch bo'lak bo'r, bu sumkaning rangi, bizning o'quvxonada devorlari, Kiyev ishchilari.

#### b) Buyruq mayli shaklining ishlatilishiga e'tibor bering:

1. Keytga u kitoblarni jo'natmang. Keytga bu yangi kitoblarni yuboring, iltimos. 2. Marhamat qilib bu muhandislarni shu yerda kutib oling. 3. Menga qora qalamni bermang, menga, marhamat qilib, qizil qalamni bering. 4. Bu matnni darsda o'qimang, uni uyda o'qing, iltimos. 5. Mening daftarimni olmang, marhamat qilib, anavi toza daftarini oling. 6. So'z va savollarni daftarlaringizga yozing va marhamat qilib, doskaga qaramang. 7. Marhamat qilib kitoblaringizni yoping va daftarlaringizni oching. 8. Kitoblaringizni yopmang. Marhamat qilib sakkizinchi matnni o'qing. 9. Sumkalarigizni stol ustiga qo'ymang, iltimos, ularni mana bu stul ustiga qo'ying. 10. Uchinchi matnni ko'chirib yozmang, marhamat qilib, to'rtinchi matnni ko'chiring. 11. Marhamat qilib o'tiring. 12. U yoqqa bormang, iltimos. 13. Bunday qilmang, iltimos. 14. Bu so'zlarni hozir yozmang, marhamat qilib ularni uyda bajaring. 15. Buyoqqa keling, iltimos. 16. Hozir ketmang, iltimos.

#### c) Yangi so'zlardan foydalaning:

1. Bu bizning sinf xonamiz. Sizning sinf xonangizning devorlari qaysi rangda? – Ular sariq. – Sinf xonangiz kattami yoki kichkinami? – U katta emas, biroq yorug'. 2. Shift qaysi rangda? – U oq. – Pol qaysi rangda? – U jigarrang. 3. Stolingiz qayerda? – U deraza oldida. 4. U (qiz) savollarni o'qiyapti. 5. Bo'rni marhamat qilib oling va savolingizni doskaga yozing. 6. U (qiz)ning daftari qaysi rangda? – U havorang. 7. Siz yangi kitobni o'qiyapsizmi? 8. Men sizga sakkizta yangi qalam beraman. 9. Bu talabalar nima qilishyapti? – Ular yangi so'zlarni yozishyapti.

## INGLIZ TILI ALIFBOSI

Bosma harf	Yozma harf	Harf nomi	Bosma harf	Yozma harf	Harf nomi
Aa	<i>Aa</i>	[ei]	Nn	<i>Nn</i>	[en]
Bb	<i>Bb</i>	[bi:]	Oo	<i>Oo</i>	[ou]
Cc	<i>Cc</i>	[si:]	Pp	<i>Pp</i>	[pi:]
Dd	<i>Dd</i>	[di:]	Qq	<i>Qq</i>	[kju:]
Ee	<i>Ee</i>	[i:]	Rr	<i>Rr</i>	[a:]
Ff	<i>Ff</i>	[ef]	Ss	<i>Ss</i>	[es]
Gg	<i>Gg</i>	[ɔgi:]	Tt	<i>Tt</i>	[ti:]
Hh	<i>Hh</i>	[eit]	Uu	<i>Uu</i>	[ju:]
Ii	<i>Ii</i>	[ai]	Vv	<i>Vv</i>	[vi:]
Jj	<i>Jj</i>	[ɔgei]	Ww	<i>Ww</i>	[ˈdʌblju:]
Kk	<i>Kk</i>	[kei]	Xx	<i>Xx</i>	[eks]
Ll	<i>Ll</i>	[el]	Yy	<i>Yy</i>	[wai]
Mm	<i>Mm</i>	[em]	Zz	<i>Zz</i>	[zed]

### Ingliz tilida unli harflarni urg'u ostida o'qilishining to'rt turi

Harf	a [ei]	o [ou]	e [i:]	i [ai]	y [wai]	u [ju:]
Tur						
I	[ei] name	[ou] note	[i:] be	 [ai] fine   My	[ju:] tune	
II	[æ] flat	[ɔ] not	[e] pen	 [ɪ] sit   myth	[ʌ] cup	

III	[a:] large	[ɔ:] fork	term	[ə:] firm	Byrd	fur
IV	[ɛə] Mary	[ɔ:] more	[jə] here	[aɪə] fire	tyre	[juə] during

### Unli harflar urg'uli birikmalarining o'qilishi

Harf birikmalari	O'qilishi	Misollar
ai } ay }	[ei]	{ Spain day
ea } ee }	[i:]	{ sea meet
ew	[ju:]	new
oi } oy }	[ɔi]	{ point boy
oo + k	[u]	book
oo	[u:]	too

Harf birikmalari	O'qilishi	Misollar
ou } ow }	[au]	{ out, brown
ai + r	[ɛə]	chair
ee + r	[iə]	engineer
ou + r	[aʊə]	our
oo + r	[ɔ:]	door

## Ikki xil o'qiluvchi undoshlar

Harflar	O'rni	O'qilishi	Misollar
c [si:]	1. e, i, y dan oldin	[s]	cent, pencil, icy
	2. a, o, u va barcha undoshlardan oldin hamda so'z oxirida	[k]	cap, come, cup, black
g [ɟi:]	1. e, i, y dan oldin	[ɟ]	page, gin, gypsy
	2. a, o, u va barcha undoshlardan oldin hamda so'z oxirida	[g]	good, green, big
s [es]	1. So'z boshida jarangsiz undoshlardan oldin va so'z oxirida jarangsiz undoshlardan so'ng	[s]	sit, student, lists
	2. Unlilar o'rtasida, so'z oxirida unli va jarangli undoshdan so'ng	[z]	please, ties, pens
x [eks]	1. Undoshlardan oldin va so'z oxirida	[ks]	text, six
	2. Urg'uli unlidan oldin	[gz]	exam

## Undosh harf birikmalarining o'qilishi

Harflar	O'rni	O'qilishi	Misollar
sh	Har qanday holatda	[ʃ]	she
ch	Har qanday holatda	[tʃ]	chess
tch	Qisqa unlidan so'ng	[tʃ]	match
ck	Qisqa unlidan so'ng	[k]	black
th	1. Asosiy so'zlar boshida va so'z oxirida	[θ]	thick, myth
	2. Olmoshlar, ko'makchi so'zlar boshida va unlilar o'rtasida	[ð]	this, bathe
wh	1. So'z boshida o dan boshqa barcha unlilar oldidan	[w]	what
	2. o dan oldin	[h]	who
qu	Unlilardan oldin	[kw]	question
ng	So'z oxirida	[ŋ]	long
nk	Har qanday holatda	[ŋk]	thank
wr	So'z boshida unlidan oldin	[r]	write

## Unlilarning undoshlar bilan birga kelganda o'qilishi

Harflar	O'rni	O'qilishi	Misollar
al	1. Urg'uli bo'g'inda k dan oldin	[ɔ:]	chalk
	2. Urg'uli bo'g'inda boshqa undoshlardan oldin	[ɔ:l]	wall, also
wor	Urg'uli bo'g'inda undoshlardan oldin	[wə:]	work, word
wa	1. (r) dan tashqari so'z oxiridagi undosh yoki undosh birikmalaridan oldin	[wɔ]	want
	2. r dan oldin	[wɔ:]	warm
igh	Har qanday holatda	[ai]	light



## LESSON ONE (THE FIRST LESSON)

**Text:** We Learn Foreign Languages.

**Grammar:** 1. Hozirgi zamon oddiy fe'li (The Present Indefinite Tense) (28-§, 654-bet).

2. Noaniq zamon ravishlari (29-§, 656-bet).

### WE LEARN FOREIGN LANGUAGES

My 'name is Pe'trov. I 'live in the ↑ centre' of Moscow. I 'work at the ↑ Ministry of ↑ Foreign Trade. I'm an engi'neer<sup>ε2</sup> and I'm 'also a student. Many engi'neers in our Ministry<sup>ε</sup> 'learn 'foreign languages. I learn English. We 'have our ↑ English<sup>ε</sup> in the morning.

We're at a 'lesson now. Jane is 'standing at the blackboard. She's 'writing an ↑ English sentence. We aren't writing. We are 'looking at the blackboard.

We 'don't often write in class.<sup>3</sup> Sometimes we 'have dic'tations. During the lesson<sup>ε</sup> we 'read our text-book<sup>ε</sup> and 'do a ↑ lot of exercises. We 'don't often speak Russian in class. We 'speak English to our teacher. We 'usually speak Russian<sup>ε</sup> after classes.

“What is your name?” “My 'name is Smir'nov.”

“Where d'you work?” “I work at an office.”

“What d'you do?” “I'm an engi'neer.”

“Do you learn French?” “No, I don't.”

“What 'language do you learn?” “I learn English.”

“When d’you ‘usually have your English?” | “In the evening.”

“Are you ‘having a lesson now?” | “No, I’m not.”

‘What’s the ‘English for “dars”?’

Ingliz tilida “dars” nima deyiladi?

‘What’s the ‘Uzbek for “trade”?’

O‘zbek tilida “trade” nima deyiladi?

## MATNGA IZOHLAR

1. Tik strelka ↑ oddiy urg‘u o‘rniga ishlatilib, undan keyingi so‘zni talaffuz qilishda, ingliz tilida gapdagi odatiy urg‘uli bo‘g‘inning tobora pasayishi buzilgan holda ovoz ko‘tariladi.

2. Tik to‘g‘ri chiziq | ma‘no guruhleri orasidagi uzun tanaffusni (to‘xtalishni), tik to‘lqinli chiziq † esa qisqa tanaffusni bildiradi.

3. Gap oxiri odatda pasayuvchi ohangda talaffuz qilinadi. Agar gap oxirida ohang ko‘tarilsa (†), bu ishonchsizlik, shubha, ikkilanishni anglatadi.

4. **What do you do?** *Nima ish qilasiz? Kasbingiz nima?* Uchinchi shaxsga nisbatan **What is he?** *Uning kasbi nima?* deyish mumkin. (Shuningdek, kirish kursidagi VIII darsga qarang.)

## ACTIVE WORDS AND WORD COMBINATIONS

first

to learn

to study

foreign

a language

the English language

grammar

to live

(the) centre

to work (at, in)

the Ministry of Foreign Trade

also

many

a lot of

to have

to have one’s English

to have a lesson

morning

every morning  
in the morning  
to stand  
a sentence  
often  
not often  
seldom  
always  
in class  
sometimes  
a dictation  
to have a dictation  
during  
a text-book

an exercise  
to do exercises  
to speak (to smb.)  
Russian  
usually  
after (*prp*)  
after classes  
before (*prp*)  
office  
French  
when  
evening  
in the evening

(See Vocabulary [və'kæbjuləri](= lug'at) for Lesson One, p. 512)

## ATOQLI OTLAR Moscow Moskva

### So'z yasash

**-ly** [li] – ravish qo'shimchasi; paytni bildiruvchi ot yoki sifat o'zagidan ravish yasash uchun ishlatiladi:  
usual ['ju:ʒuəl] – odatiy – usually ['ju:ʒuəli] – odatda  
hour [aʊə] – soat – hourly ['aʊəli] – har soat

## GRAMMATIK MATERIALNI DASTLABKI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

I. Quyidagi gaplarni bo'lishsiz va (umumiy) so'roq gap shaklida yozing. (28-§):

1. I often meet this engineer here. 2. You go to the factory every day. 3. I read newspapers every morning. 4. His sisters always give me books to read. 5. They often go there. 6. I usually read the newspaper at home. 7. They often come here. 8. We write questions at home.

II. Quyidagi gaplarni o'qing, *often* ravishini qavs ichida berilgan ravishlar bilan almashtiring:

a) 1. We often meet these boys here. 2. They often

send me English books. 3. I often write to my sister. 4. Do you often go there? 5. Do you often read English newspapers? 6. Do they often come here? (*sometimes, always, usually*)

b) 1. We don't often copy out these texts. 2. They don't often meet their friends here. 3. I don't often read English newspapers. (*always, usually*)

### III. Savollarga javob bering.

1. What do you read every morning?
2. Where do you usually read books and newspapers?
3. Where do you go every day?
4. Do you often meet your friends?
5. Do they sometimes take your books?
6. Do you read English books or newspapers?
7. What do you often copy out?
8. Do you read the newspaper every day?
9. Are you reading the newspaper now?
10. What are you doing now?
11. What do you do every evening?
12. Where do you go every morning?
13. Do you copy out English texts at home?
14. Is your friend copying out the new text?
15. What's he doing?

### IV. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savollar qo'ying.

1. This is *a room*. (1) 2. The walls in this room are *yellow*. (1) 3. Ann is in *her room* now. (1) 4. *She is reading a newspaper*. (3) 5. We read *good books*. (2) 6. I sometimes give Peter *my exercise-books*. (2) 7. My sons *read these books* every day. (2) 8. I am going *to the blackboard*. (1)

### V. Fe'l-kesimning mayli va zamon shakliga e'tibor berib, gaplarni tarjima qiling.

1. Marhamat qilib, daftarlaringizni oching. 2. Siz hozir nima qilyapsiz? 3. Uning talabalari odatda nima o'qishadi? Ular qaysi gazetalarni o'qishadi? 4. Qayerga

ketyapsiz? 5. Siz har kuni qayerga borasiz? 6. Marhamat qilib stol yoniga o'tiring, daftarlaringizni oling va beshinchi matnni ko'chirib yozing. – Siz hozir nima qilyapsiz? – Biz beshinchi matnni ko'chirib yozyapmiz. 7. Do'stlaringiz ingliz (tilidagi) kitoblarni o'qishadimi? – Ha, (juda) ko'pincha. 8. Kitobni yopmang, iltimos. 9. Ular menga kitob(lar) va gazetalarni yuborishmaydi. 10. Bu qanday film? – Bu yaxshi film. 11. Men bu ishchini bu yerda ko'p(incha) ko'raman. 12. Bu muhandislarni ko'p(incha) ko'rasizmi? – Yo'q, bu muhandislar bu yerga juda kam kelishadi.

## LEKSIK-GRAMMATIK MASHQLAR

I. Quyidagi birikmalarning o'qilishini *mashq qiling*, so'ngra matnni ovoz chiqarib o'qing:

in the \centre      at the \Ministry      our \English  
 in the \morning      at the \blackboard      your \English  
 'writing an 'English \sentence  
 'looking at the \blackboard

II. Quyidagi harflarning I va II o'qish turlariga ikkitadan misol yozing:

$\begin{matrix} \swarrow & a & \searrow \\ [e] & & [\ae] \end{matrix}$ 
 $\begin{matrix} \swarrow & e & \searrow \\ [i:] & & [e] \end{matrix}$ 
 $\begin{matrix} \swarrow & i & \searrow \\ [ai] & & [i] \end{matrix}$ 
 $\begin{matrix} \swarrow & o & \searrow \\ [ou] & & [ɔ] \end{matrix}$ 
 $\begin{matrix} \swarrow & u & \searrow \\ [ju:] & & [ʌ] \end{matrix}$

III. Quyidagi so'zlarning yasalish usuli, qaysi o'zaklardan yasalganligi, qaysi so'z turkumiga kirishini aniqlang va ularni o'zbek tiliga tarjima qiling:

exercise-book      usually      blackboard      speaker  
 writer      worker      badly      sender  
 reader      doer      taker

IV. Yangi so'zlardan foydalanib, savollarga javob bering.

1. What's your name?
2. Do you live in Moscow or in Saint Petersburg?

3. Do you live in the centre of Moscow?
4. Are you a teacher?
5. What do you do?
6. Where do you work?
7. Where do you go in the evening?
8. When do you have your English?
9. What language do you learn?
10. What do you do during the lessons?
11. What are you doing now?
12. Where do you do your exercises?
13. Do you usually do many exercises in class?
14. Do you do many exercises at home or not?
15. Do you often have dictation?
16. Do you often speak English to your teacher?
17. What language do you usually speak in class?
18. Where do you go after classes?
19. What kind of books do you usually read?
20. Are you reading now?
21. Do you sometimes speak English before and after classes?
22. Are you speaking English or Russian now?

V. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savollar qo'ying.

1. I work *at an office*. (1)
2. We usually have our English *in the evening*. (1)
3. They often speak *English* in class. (1)
4. We write *a lot of sentences on the blackboard*. (2)
5. *After my English* I go to the office. (2)
6. You read *English books at home*. (2)
7. *We read, write and speak English during our lesson*. (2)
8. *We are having a dictation*. (2)
9. *I am taking my English book* off the table. (2)

VI. Jadvaldan foydalanib, iloji boricha ko'proq bo'lishli va bo'lishsiz darak gaplar tuzing (kerakli joyda to'ldiruvchi yoki o'rin hollaridan qo'shimcha qiling).

- N a m u n a l a r :
1. My sisters often send me letters.
  2. I don't often do exercises in class.

3. The students are having their English now.

4. He isn't standing now.

I	to learn	
We	to live	
You	to work	
They	to have	
These engineers	to stand	every day
Those workers	to speak to	every morning
My sisters	to read	every evening
The students	to do	often
My friends	to write	always
	to copy out	usually
	to open	sometimes
	to close	now
	to take	
	to meet	
	to send	
	to go	
	to come	
	to give	

**VII. Kerakli joyda nuqtalar o'rniga tegishli predloglarni qo'ying.**

1. We live ... Moscow. 2. They work ... the Ministry ... Foreign Trade. 3. I usually go ... the office ... the morning. 4. Do you speak English or Russian ... your teacher? 5. "Where's your pencil? Is it ... the table?" "No, it's ... the floor ... the table." 6. Take your pen ... your bag and write this sentence. 7. We often write ... the blackboard ... class. We usually write ... our exercise-books ... home. 8. "What do you usually do ... your English lessons?" "We read, write and speak English ... our lessons." 9. Are you going ... the office or ... your lesson? 10. Don't go ... that room. 11. Look ... the blackboard, please. 12. ... what language do you speak ... classes?

### VIII. Kerakli joyga artikl qo'ying.

My sister is ... student. Her friends are ... students, too. They live in Moscow. They learn ... English. They usually have classes in ... morning. Their classroom is large. ... walls in ... classroom are yellow. Every morning ... students go into ... classroom and sit down at ... tables. They usually do ... lot of exercises and have ... dictations in class. They also often write on ... blackboard. They do ... exercises at ... home, too.

### IX. Berilgan gaplardagi otlarni boshqa kerakli o'zgartishlar kiritgan holda sizga ma'lum kishilik olmoshlari bilan almashtiring.

1. We're having a dictation. 2. Are they having a lesson now? 3. They're having their English now.

### X. Ingliz tiliga tarjima qiling.

a) *Bormoq, kelmoq, yurmoq, ketmoq* fe'llari tarjimasiga e'tibor bering.

1. Men idoraga odatda ertalab ketaman. 2. Biz Kiyevga tez-tez borib turamiz. 3. U yerga bormang, iltimos. 4. Marhamat qilib bu yerga keling. 5. Marhamat, Moskvaga keling. 6. Ular ba'zan Sankt-Peterburgga borishadi. 7. Ular odatda Moskvaga qachon kelishadi? 8. Bu yerga ertalab kelmang, iltimos. 9. Kiring, marhamat. 10. Iltimos, xonaga kirmang. 11. Qayerga ketyapsiz?

b) Yangi so'zlarning ishlatilishiga e'tibor bering.

1. Bu muhandislar qayerda ishlashadi? – Ular bizning tashkilotda ishlashadi. 2. Bu muhandislar bilan odatda qaysi tilda gaplashasiz? – Biz odatda o'zbek tilida gaplashamiz. Ba'zan fransuzcha gaplashamiz. Ular fransuz tilini o'rganishyapti. 3. Ertalab men xonaga kiraman va joyimga o'tiraman. Dars mobaynida biz o'qiymiz, diktant yozamiz, mashqlar bajaramiz va fransuzcha gapiramiz. 4. Bu mashq uzun. Uni uyda bajaring. 5. Men uyda inglizcha kam gapiraman. Men darslarda inglizcha gapiraman. 6. Siz fransuz tilini o'rganyapsizmi? – Yo'q,



men fransuz tilini o'rganmayapman. Men ingliz tilini o'rganyapman. 7. Singillaringiz Moskvada yashashadi? – Yo'q, ular Sankt-Peterburgda yashashadi. 8. Ishdan so'ng nima qilasisiz? – Kechqurunlari mening darslarim bor. 9. Bu(lar) kimning kitoblari? – Bu(lar) mening kitoblarim. – Bular fransuzcha kitoblarmi yoki o'zbekchami? – Bular o'zbekcha kitoblar. 10. U yerda kim turibdi? – Bu Anna. 11. Odatda doskaga ko'p gap yozasizmi? – Odatda doskaga besh yoki oltita gap yozamiz. 12. U doskaga nima yozyapti? U inglizcha gap yozyapti. 13. Siz qayerda yashaysiz? – Men Sankt-Peterburgda yashayman. Sankt-Peterburg juda katta shahar. Men shahar markazida turaman. 14. Biz fransuz tilini o'rganyapmiz. Biz matnlar o'qiyamiz, gapiramiz, grammatikani o'rganamiz, ko'p mashqlar bajaramiz. 15. Siz ko'p inglizcha kitoblar o'qiyasizmi? – Hozir biz juda oz inglizcha kitoblar o'qiyapmiz. 16. Siz qaysi kitoblarni o'qiyasiz? – Biz o'z darsliklarimizni o'qiyamiz. 17. Siz o'qituvchingiz bilan inglizcha gaplashasizmi yoki o'zbekchami? – Odatda biz inglizcha gaplashamiz, ba'zan o'zbekcha.

## OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MASHQLAR

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalaridan foydalanib, hikoyalar tuzing:

### 1. *In the Morning*

to live, in the centre, to go, the office, to meet friends

### 2. *Before Classes*

to have one's English, in the evening, to go into the classroom, to speak to smb., to speak Russian

### 3. *In Class*

to have one's English, in the morning, to do exercises, a lot of, to have a dictation, sometimes

#### 4. At Home

usually, to speak Russian, to do exercises, to copy out the new words, to learn the new words, often

**II. Darsdagi yangi so'z va iboralardan iloji boricha ko'proq foydalanib, o'z mashg'ulotlaringiz haqida gapiring. Hikoyani o'quv xonangizni tasvirlashdan boshlang.**

**III. a) Do'stingizdan inglizcha so'rang:**

1. U qayerda yashaydi, nima ish qiladi, qayerda ishlaydi?

2. U qaysi chet tilini o'rganadi, uning darslari qachon (ertalabmi yoki kechqurun), ko'pincha u darsda yozadimi, ko'p mashq bajaradimi, ko'pincha darsda inglizcha gaplashadimi?

3. U ko'p inglizcha kitoblar o'qiydimi, darsdan so'ng ko'pincha inglizcha gaplashadimi, uyda inglizcha gaplashadimi yoki o'zbekchami.

**b) Olingan javoblarni qisqacha axborot qilib to'plang.**

**IV. Quyidagi so'zlar inglizchasiga qanday bo'lishini do'stingizdan so'rang. Ularni harflab aytting.**

Namuna: – What's English for "diktant"?

– "A dictation".

– Please spell the word.

– D – i – c – t – a – t – i – o – n.

– Thank you.

Yashamoq, ishlamoq, ertalab, kechqurun, darsda, darsgacha (darsdan oldin), darsdan so'ng, o'rganmoq, chet tili, mashq bajarmoq, diktant yozmoq, shug'ullanmoq, birinchi, grammatika, turmoq, kamdan kam, markaz, qachon.

## LESSON TWO (THE SECOND LESSON)

Text: We Learn Foreign Languages. (Continued)

- Grammar: 1. Hozirgi zamon oddiy fe'li 3-shaxs birlik shaklining yasalishi (30-§, 657-bet).
2. Ega va uning aniqlovchisiga savollar (31-§, 657-bet).
3. to be going to oborotini kelasi zamondagi niyatni ifodalashda ishlatilishi (32-§, 658-bet).
- 
4. Holat va daraja ravishlarining gapdagi o'rni (33, 34-§§, 659-660-betlar)\*.

### WE LEARN FOREIGN LANGUAGES

(Continued)

My 'wife is an e **conomist**.| She 'works at the ↑ Minis-  
try of ↑ Foreign 'Trade too.| She 'goes to the 'office ↑ eve-  
ry \day.| My 'wife \doesn't learn \English.| She **al'ready**  
\knows \English 'very \well.| She 'reads ↑ very 'many  
'English books, **magazines** and \newspapers.| At  
the \office she 'sometimes 'writes 'letters to ↑ foreign  
\firms.| She 'often **trans'lates** 'telegrams from ↑ English  
**into** \Russian and from 'Russian into \English.|

My 'wife's 'also a \student.| She 'learns \German<sup>‡</sup>  
and is **doing** 'very \well.| She 'usually 'gets ↑ good  
\marks<sup>‡</sup> and is 'always in 'time for the \lessons.| She  
**likes** 'languages ↑ very \much<sup>‡</sup> and<sup>‡</sup> is 'going to 'learn  
\French **next** <sup>‡</sup>year.|

My 'wife and **he** 'usually 'go 'home to \gether.| We  
'do our 'homework in the \evening.| we 'learn the ↑ new  
\words, 'read \texts<sup>‡</sup> and 'do \exercises.| We 'also re'vise  
\grammar **rules**.<sup>‡</sup> We 'sometimes 'speak 'English at  
\home.| We 'speak **about** our \work<sup>‡</sup> and our \lessons.|

\* Chiziqcha tagida matnni o'rganish jarayonida tushuntirib ketish maqsadga muvofiq bo'lgan grammatik hodisalar ko'rsatilgan.

“Who’s an e \conomist?” | “My \wife is.” |

“Who \knows \English?” | “ \She does.” |

“\How \well does she know English?” | “\She \knows it \very well.” |

“\Does she \learn \German or \French?” | “\She is \learning \German \now, | but \next \year<sup>ε</sup> she’s \going to \learn \French.” |

“\What does she \often \speak about in \class?” | “\She \often \speaks about her \work.” |

“\What is she \going to \do \tonight?” | “\She is \going to \do her \homework.” |

“\Is she \going to \have her \German to\morrow \morning?” |

“ \No, <sup>ε</sup> she is \going to \have it in \three \days.” |

“\Which of you \likes to ↑ \speak \foreign \langu- \ages?” | “\My \wife does.” |

‘What’s the ‘homework for  
to \morrow?

Ertangi kunga nima vazifa  
berildi?

## MATNGA IZOHLAR

1. **She likes languages very much.** *U chet tillarni juda yaxshi ko ‘radi.* O‘zbek tilidagi juda so‘zi sifat yoki ravishga tegishli bo‘lsa ingliz tiliga very deb tarjima qilinadi.

a very good book

juda yaxshi kitob

He reads very well.

U juda yaxshi o‘qiydi.

Agar juda so‘zi fe‘lga tegishli bo‘lsa, unga ingliz tilidagi very much to‘g‘ri keladi. U fe‘ldan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin.

We very much want to go there.

{ Biz u yerga borishni

We want to go there very much.

{ juda xohlaymiz.

2. a **grammar rule** *grammatik qoida*. Agar ikki ot predlogsiz birin-ketin kelsa, birinchi ot ikkinchisini aniqlovchisi bo'lib, o'zbek tiliga sifat bilan tarjima qilinadi. Aniqlovchi ot artikl bilan aniqlanmish ot orasida keladi.

3. **What does she often speak about in class?** *U (qiz) ko'pincha darsda nima haqida gapiradi?* Predlogli to'ldiruvchiga maxsus savol berilganda, predlog o'z joyida qoladi, ya'ni fe'l-kesimdan keyin keladi. Predlog so'roq olmoshidan oldin kelishi ham mumkin, biroq bu kamdan kam ishlatiladigan variant, masalan:

**What** do you sometimes  
**speak about** in class?

**About what** do you  
sometimes **speak** in class?

Sizlar darsda ba'-  
zan nima haqida  
gapirasizlar?

#### ACTIVE WORDS AND WORD COMBINATIONS

second	to be going
an economist	next year (week, month)
already	tomorrow
to know	tomorrow morning
well	tomorrow evening
badly	the day after tomorrow
a magazine	home
a journal	to go home
a letter	to get home
a firm	together
to translate (from ... into)	homework
a telegram	to revise
German	a rule
to do well	about ( <i>prp</i> )
to get	how
time	how well
to be in time (for)	tonight
to like	which of
very much	

(See Vocabulary for Lesson Two, p. 515)

### So'z yasash

-ion – otning suffiksi bo'lib, fe'l o'zagidan ot yasaydi. Bu suffiks t, ss undoshlari bilan kelsa [ʃn] deb, s undoshi bilan [zn] deb o'qiladi:

to dictate aytib berib turmoq – dictation [dik'teiʃn] diktant  
to revise takrorlamoq – revision [ri'viʒn] takrorlash

Agar fe'l o'qilmaydigan -e bilan tugallansa, suffiks qo'shilganda o'qilmaydigan -e tushib qoladi.

### O'qish qoidasi

1. k harfi so'z boshida n dan oldin o'qilmaydi. Masalan:

to know [tə 'nou] bilmoq

2. u harfi r va l dan keyin [u:] kabi o'qiladi. Masalan:

a rule [ə 'ru:] qoida

blue [blu:] havorang

### GRAMMATIK MATERIALNI DASTLABKI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

I. Namunaga qarab quyidagi fe'llarni: a) bo'lishli; b) bo'lishsiz va c) umumiy so'roq gap shakllarida tustlang (30-§).

I look	I don't look	Do I look?
You look	You don't look	Do you look?
He looks	He <b>doesn't</b> look	<b>Does</b> he look?
She looks	She <b>doesn't</b> look	<b>Does</b> she look?
It looks	It <b>doesn't</b> look	<b>Does</b> it look?
We look	We don't look	Do we look?
You look	You don't look	Do you look?
They look	They don't look	Do they look?

to close, to go, to open, to read, to sit, to live, to work,  
to study, to come, to write, to do, to speak, to send, to  
meet, to give, to take, to copy out, to put

II. Nuqtalar o'rniga kishilik olmoshlaridan mosini qo'ying.

1. ... lives in Moscow. 2. ... go into their classroom  
and sit down at the tables. 3. "Does ... sometimes meet

his friends at the office?" "Yes, ... does". 4. ... have our English in the morning. 5. ... doesn't speak English to her teacher. 6. ... don't learn English, ... learn French. 7. Do ... have lessons in the morning? 8. Does ... have his French in the morning or in the evening? 9. ... doesn't often write sentences on the blackboard. 10. "What do ... usually read in class?" "... usually read our text-book."

**III. Quyidagi gaplarni bo'lishsiz va (umumiy) so'roq gap shaklida yozing.**

1. Her sister lives in Moscow. 2. My friend learns English. 3. Our teacher speaks French. 4. This engineer works at our office. 5. His wife goes to the office in the morning. 6. Her friend does English exercises at home. 7. His name is Pavlov. 8. They are having dictation now.

**IV. Fe'l-kesimning shaxs-son shakliga e'tibor berib, savollarga javob bering.**

- a) 1. Does your sister work?  
2. Where does she work?  
3. Does she learn a foreign language?  
4. What language does she learn?  
5. Does your sister have her English every day?  
6. When does she have her English?  
7. Does she learn French, too?  
8. What does she do in class?  
9. What language does your sister speak in class (after classes)?
- b) 1. Are you a worker?  
2. What do you do?  
3. Where do you work?  
4. Do you learn English?  
5. When do you have your English?  
6. Does your friend learn English too?  
7. Is he a good student?  
8. Is he having his English now?  
9. What is he doing now?

10. What kind of books do you read?

11. What kind of books does your son read?

**V. Fe'l-kesimning shaxs soniga e'tibor berib, gaplarni tarjima qiling.**

1. Bu ishchi qayerda yashaydi? 2. Mening o'g'lim Moskvada yashamaydi. 3. Uning xotini ingliz va fransuz tillarini o'rganadi. 4. Bu o'qituvchi qayerda ishlaydi? – U shu yerda ishlaydi. 5. Mening do'stim ikkita chet tilini o'rganadi. 6. U uyda, odatda, qanaqa mashqlarni bajaradi? 7. U hozir qanaqa mashqlarni bajaryapti? 8. Ularning o'g'illari ingliz tilini o'rganmaydi. 9. Bu kishi fransuzcha gaplashmaydi. 10. U hozir qaysi tilda gapiryapti? 11. Bu muhandis qanaqa kitoblar o'qiydi? 12. U hozir nima qilyapti? 13. Siz uyda ko'p mashq bajarasizmi? – Ha, juda ko'p.

**VI. Savollarga javob bering.**

1. Which of your friends has his English in the morning (in the evening)?
2. Which of you has lessons every morning?
3. Which of you has dictations every day?
4. Who does a lot of exercises in class (after classes)?
5. Who speaks Russian in class?
6. Who speaks English after classes?
7. Who gives you books to read?
8. Who often sends you letters?
9. Which of your friends lives in Saint Petersburg?
10. Whose friend lives in the centre of Moscow?
11. Who's standing at the blackboard?

**VII. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savollar qo'ying.**

1. *Our teacher* always speaks English *in class*. (3)
2. We sometimes have English *in the evening*. (1) 3. *My friends* work *at the Ministry of Foreign Trade*. (3) 4. We often have *dictations* in class. (2) 5. *They* do a lot of exercises *at home*. (2) 6. We *are having our English* now. (1)



### VIII. Quyidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling:

1. Sizga inglizcha kitoblarni o'qish uchun kim beradi? – Mening o'qituvchim. 2. Ulardan qaysi biri vazirlikda ishlaydi? – Petrov. 3. Anavi xonada hozir kim ishlayapti? – Belov. 4. Bu yerga ertalab kim keladi? – Biz. 5. Kimning o'g'li ingliz tilini o'rganyapti? – Mening o'g'lim. 6. Sizlardan qaysi biringiz nemis tilini o'rganyapsiz? – Ivanov va Petrov. 7. O'qituvchingiz bilan hozir kim gaplashyapti? – Mening do'stim.

### IX. *to be going to* oborotining ishlatilishiga e'tibor berib, quyidagi gaplarni o'qishni mashq qiling:

I'm 'going to 'speak to him to ↑ morrow \ evening.

We're 'not 'going to the office | to'morrow \ morning.

'What are you 'going to 'do to \ night?

### X. Quyidagi jadvaldan foydalanib gaplar tuzing; kerakli o'zgarishlar kiriting:

I	am } is } are } going to	write to Peter	tomorrow
We		read this book	evening
They		have a dictation	tomorrow
My friend(s)		have one's English	morning
My sister(s)		(French)	tonight
These engineers		speak to smb.	tomorrow
His son(s)		work in the Ministry	soon
	do these exercises	in a week	
	meet one's friend	next week	
		next month	

### XI. Savollarga javob bering.

1. Are you going to have your English this evening?
2. When are you going to have your English?
3. What are you going to do in the evening?
4. When are you going to do your exercises?
5. When are you going to read this book?
6. When are you going to speak to your friend?
7. When's your friend coming to Moscow?

### XII. Quyidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling:

1. Men fransuz tilini o'rganmoqchiman. 2. O'qi-

tuvchingiz bilan qachon gaplashasiz? 3. Kechqurun nima qilmoqchisiz? 4. Men bu grammatik mashqlarni darsgacha bajaraman. 5. Biz diktant yozmaymiz, biz yangi matnni o'qiymiz.

## **LEKSIK-GRAMMATIK MASHQLAR**

**I. Quyidagi so'zlarning o'qilishini mashq qilib, dars matnini ovoz chiqarib o'qing:**

gets	lives	letters
likes	knows	firms
translates	goes	telegrams

**II. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing:**

a) knife, know, knock, knave, knee, knit, knew, knot; rule, blue, flute, rude, ruby, allude

b) speech, crack, drone, stuff, traffic, gate, gust, bigger, log, egg, germ, high, jig, just, kite, bring, quest, quick, race, cane, cinders, cut, care, mere, tire, cure, stir, burn, arm, lore, port

**III. Quyidagi so'zlarning qaysi belgilariga qarab ularni qaysi gap bo'lagi ekanligini aniqlay olasiz? Bu so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.**

nicely	finder	revision	homework
doctor	dictation	foreigner	learner

**IV. Yangi so'zlarga e'tibor qilib, savollarga javob bering. Olingan javoblarni har savol guruhidan so'ng qisqa xabarda qo'llang.**

- a) 1. Do you learn English or do you already know it well?  
2. Does your friend know English well?  
3. Do you sometimes do your homework together?  
4. Do you like to do your homework together?  
5. Which of you is doing well (in English)?  
6. Which of you is always in time for the lesson?
- b) 1. How often do you get newspapers and magazines?  
2. Which magazines do you like to read?

3. Do you often get letters from your friends?
  4. Which of you likes getting letters?
  5. Which of you likes writing letters?
  6. How often do you write to your friends?
  7. When are you going to write to your friends?
- c)
1. Who translates letters and telegrams from foreign firms at your office?
  2. Does he (she) translate letters from English or from German?
  3. How well does he (she) translate letters and telegrams?
  4. Is he (she) translating a letter now?
  5. What is he (she) going to translate tomorrow morning?
- d)
1. Are you going to revise the grammar rule in the evening?
  2. Are you going to do it at home or in class?
  3. What are you going to speak about in class tomorrow evening?
  4. What do you usually speak about in class?
- e)
1. When do you usually get home after classes (after work)?
  2. Who do you usually go home with?
  3. Do you like to go home with your friends?
  4. What do you like to do in the evening?
  5. What are you going to do tomorrow evening?

**V. Qavs ichidagi so'zlardan mosini tanlang va gaplarni o'qing.**

1. (How, how well) do you get to your office?
2. (How, how well) does your wife know French?
3. (How, how well) does your friend speak German?
4. (How, how well) do you translate this sentence from Russian into English?
5. (How, how well) do you do these exercises?
6. (How, how well) does she get home?

**VI. Kerakli joyda nuqtalar o'rniga tegishli predloqlarni qo'ying.**

1. Peter is always ... time ... his lessons. 2. We often go ... the blackboard ... class. We write a lot ... sentences ... the blackboard. 3. "Where does he usually go ... work?" "He usually goes ... home". 4. I like to speak English ... my sons. 5. Please tell her ... your friends. 6. Please translate this text ... Russian ... English. 7. What do you usually speak ... ... class? 8. How often do you write ... your friends? 9. When do you usually get ... home? 10. How do you get ... your office? 11. He's going to write ... me ... a week.

**VII. Nuqtalar o'rniga kerakli joyda artikl yoki egalik olmoshini qo'ying.**

My son's ... engineer. He works at ... factory. He knows ... French and ... German. He learns ... English and is doing very well. He has ... English in ... morning. He's always in ... time for ... lessons. In ... evening he does ... homework. He often translates ... sentences from ... Russian into ... English. He often reads ... English magazines and newspapers at ... home. He likes ... English classes very much.

**VIII. *to go, to come, to get* fe'llarining ishlatilishiga e'tibor berib, gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.**

1. Marhamat qilib bu yerga keling. 2. Marhamat qilib anavi xonaga kiring. 3. O'g'lingiz qachon uyga keladi? 4. Marhamat qilib doskaga chiqing. 5. Har kuni ertalab men idoraga boraman. 6. U darslardan so'ng hammavaqt ham uyga ketavermaydi. 7. Men uyga kechqurun kelaman va dars qilaman. 8. Mening do'stim har kuni ertalab Moskvaga keladi va kechqurun uyiga ketadi. 9. Siz vazirlikka qanday borasiz? 10. U bu yerga ertaga ertalab keladi. 11. U tez orada ketadi.

**IX. Yangi so'zlardan foydalanib, ingliz tiliga tarjima qiling.**

A. 1. Bu qiz kim? – U mening singlim. – U nima ish

qiladi? – U iqtisodchi. 2. U (qiz) nemis tilini qanchalik yaxshi biladi? – U (qiz) nemis tilini juda yaxshi biladi. 3. O‘g‘lingiz qachon dars tayyorlaydi? – Kechqurun. 4. O‘g‘lingiz qanday o‘qiyapti? – U yaxshi o‘qiyapti. 5. Sizlar bu so‘zlarni bilmaysiz, bu so‘zlarni va grammatik qoidalarni uyda takrorlang. 6. Qaysi biringiz iqtisodchisiz? – Petrov. 7. Qaysi biringiz yaxshi o‘qiysiz? – Anna. 8. Kim inglizcha jurnallar oladi? – Ivanov. 9. Siz, odatda, yaxshi o‘qirdingiz, biroq hozir juda yomon o‘qiyapsiz. 10. Xat olishni yoqtirasizmi? 11. U xat yozishni yoqtirmaydi. 12. Darsda inglizcha gapirish bizga yoqadi. 13. Grammatik qoidalarni takrorlashni u (qiz) yoqtirmaydi. 14. U (qiz) o‘qituvchidan so‘ng qaytarishni yoqtirmaydi. 15. Ular kechqurun o‘qishni yoqtirishadi. 16. U (qiz) kamdan-kam darsga o‘z vaqtida keladi. 17. U (qiz) doim ishga o‘z vaqtida keladi. 18. Siz u yerga, odatda, qanday yetib borasiz? 19. Biz bu haqda kelasi hafta gaplashamiz. 20. Siz qancha ko‘p birga dars qilasiz? – Biz har kuni birga dars qilamiz.

B. *O‘qituvchi*: Marhamat qilib darsligingizni oling va bu yerga keling. (*Talaba o‘qituvchi stoli oldiga boradi.*) Darsligingizning o‘ninchi sahifasini oching va ikkinchi darsdagi matnni o‘qing. Marhamat qilib birinchi beshta gapni o‘qing.

*Talaba (o‘qiydi)*: “Biz katta, yorug‘ xonada o‘qiymiz (mashg‘ulotlar o‘tamiz). Talabalar darsga doim o‘z vaqtida keladilar. Darslarimiz(mobayni)da biz o‘qiymiz, diktant yozamiz va gaplarni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilamiz. Bizda har kuni ingliz tili darsi bor. Odatda biz kechqurunlari dars tayyorlaymiz, biroq ko‘pincha yangi so‘zlarni ertalab darsdan oldin takrorlaymiz. Hozir bizda ingliz tili (darsi), biz matnni o‘qiymiz, so‘ngra esa diktant yozamiz”.

*O'qituvchi:* Rahmat, siz bu matnni endi yaxshi o'qiyapsiz. O'tiring. Sizning bahoingiz "yaxshi". Marhamat qilib bu mashqni uyda bajaring, yangi grammatik qoidani yod oling va ikkinchi darsdagi so'zlarni takrorlang.

## OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MASHQLAR

I. Birinchi darsning matnini 3-shaxs birlikda hikoya qilib bering.

Hikoyani shunday boshlang:

My friend Petrov lives in Moscow ...

II. Quyidagi so'z va so'z birikmalaridan foydalanib, hikoyalar tuzing:

### 1. *At the Office*

to be in time for, to get a lot of letters, to read, to translate

### 2. *At the Lesson*

to write (read, translate), well (badly), to like reading (writing, translating), to speak English, to be doing well

### 3. *In the Evening*

to be going, to get an English book, to be at home, to do one's homework, to revise, to translate, with one's friends, to speak about

### 4. *My Son*

to learn English, already, to do one's homework, to like, to be doing well

III. 1- va 2-darsdagi yangi so'z va iboralardan iloji boricha ko'proq foydalanib, do'stingizning (o'g'lingizning, qizingizning) dars mashg'ulotlari haqida gapiring.

IV. a) Do'stingizdan inglizcha so'rang:

1. Uning do'sti (xotini, o'g'li v.h.) ingliz tilini o'rganishini yoki u tilni allaqachon bilish-bilmasligini, u ingliz tilini qay darajada bilishini, ingliz tilida gapira ola

bilishini, inglizcha kitob o'qishini, kim bilan inglizcha gaplashishini so'rang.

2. Guruhingizdagi talabalardan qaysi biri yaxshi o'qishini, darsga o'z vaqtida kelishi, ingliz tilida gapirishni yoqtirishi, darsdan so'ng inglizcha gaplashishi, fransuz yoki nemis tilini o'rganmoqchi ekanligini so'rang.

3. Guruhingizdagi talabalardan qaysi birlari darsni birga qilishlarini, ko'pincha birga dars tayyorlashlarini, so'z va qoidalarni takrorlashlarini, uyga birga ketishini, birga ishlamoqchi ekanligini so'rang.

4. Ertaga nima qilmoqchi ekanligini, kechqurun uyda bo'lishini, qoidalarni o'qishi yoki takrorlashini, nima o'qishini, do'stlari bilan gaplashishini, nima haqida gaplashishini so'rang.

b) Olingan javoblarni qisqacha axborot qilib to'plang.

V. O'qishni mashq qiling. Dialogni yod oling va sahnalashtiring.

“Good \morning, Mr ['mistə] Brown.”|

“Good \morning, Mr Ivanov.”|

“Is 'this your ↑first 'visit to \Moscow?”|

“\Yes.”|

“How do you \like it here?”|

“It's \nice \here. | I 'like it ↑very \much.”|

## LESSON THREE (THE THIRD LESSON)

Text: The Working Day of an Engineer.

Grammar: 1. Kishilik olmoshlarining obyekt kelishigi (35-§, 660-bet).  
2. **Much, little** (36-§, 661-bet), **many, few** (37-§, 662-bet).

### THE WORKING DAY OF AN ENGINEER

'Comrade Pe'trov ↑ works at an office. | He 'lives near the office. | He 'usually walks there. | He 'only works 'five 'days a week. | He 'works on ↑ **Monday, Tuesday, ↑ Wednesday, Thursday** and **Friday**. | He 'doesn't 'work at the 'week-end. | His 'working 'day 'lasts ↑ eight hours. | He re'ceives ↑ very 'many 'letters and telegrams in the morning<sup>ε</sup> and 'always answers them. | He 'sometimes trans'lates 'articles from ↑ foreign 'newspapers and journals. | He 'often re'ceives engi↑neers from 'factories in the ↑ **after noon**. | They dis'cuss a ↑ lot of questions with him. | He 'usually 'finishes work<sup>ε</sup> at 'six o'clock<sup>2</sup> in the evening.

'Comrade Pe'trov 'learns English. | He 'works hard at his English. | He 'sometimes 'stays in the 'office ↑ after work<sup>ε</sup> for his 'English lessons. | After classes<sup>ε</sup> he re'turns home.

"Who 'works at ↑ this office?" | "Comrade Pe'trov does."

"Does he 'work very much?" | "Yes, <sup>ε</sup> he 'works a lot."

"Whom does he 'often re'ceive at the office?" | "He 'often re'ceives engi↑neers from factories."

"Does 'Comrade Pe'trov 'live far from the office?" | "No, he 'lives near it."



“How 'long does his ↑ working 'day \last?’| “It 'lasts ↑ eight \hours.’|

“What 'time does he \stop work?’| “He 'stops 'work at ↑ six in the \evening.’|

“Thank you very \much.” – Katta rahmat!

“Not at \all.” – Arzimaydi! (Marhamat!)

### MATNGA IZOHLAR

1. He only works five days a week. *U haftada faqat besh kun ishlaydi.* Only kuchaytirish ravishi, qoida bo'yicha, qaysi so'zni kuchaytirishidan qat'iy nazar gapda asosiy fe'ldan oldin keladi. Og'zaki nutqda **only** tegishli bo'lgan so'z urg'u bilan ajratiladi.

2. His working day lasts      Uning ish kuni 8 soat  
eight hours.                      davom etadi.

He usually finishes      U, odatda, soat 6 da  
work at six o'clock.              ishni tugatadi.

**Hour** so'zi bo'lib o'tadigan vaqt oralig'ini ko'rsatadi. **o'clock** aniq vaqtni ko'rsatib, “*Soat necha bo'ldi?*” so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan:

at five o'clock              soat (roppa-rosa) beshda

at three o'clock             soat uchda

### ACTIVE WORDS AND WORD COMBINATIONS

third

a working day

a comrade

near

far from

a long way from

to walk

to go for a walk

to go for walks

only

Monday

every Monday

on Monday

(on) Monday morning

(on) Monday afternoon

(on) Monday evening

next Monday

Tuesday

Wednesday	in the afternoon
Thursday	to discuss
Friday	a question
Saturday	to finish
Sunday	work
a week-end	at
at the week-end	at six (o'clock) in the evening
for the week-end	hard
over the week-end	to stay
to last	to return
an hour	to give back
to receive	to come (get) back
to get	to go back
to answer	how long
an article	What time ...?
afternoon	to stop

(See Vocabulary for Lesson Three, p. 517)

#### O'qish qoidasi

1. **ay, ey** harf birikmalari urg'usiz holatda [i] kabi o'qiladi, masalan:

Monday ['mʌndi] dushanba  
money ['mʌni] pul

2. **ear** harf birikmasi xuddi [iə] diftongi kabi o'qiladi, masalan:

near [niə] yaqin

3. **a** harfi **st, sk** harf birikmalaridan oldin [a:] kabi o'qiladi, masalan:

to last [tə 'lɑ:st] davom etmoq  
to ask [tə 'ɑ:sk] so'ramoq

#### GRAMMATIK MATERIALNI DASTLABKI MUSTAHLAMLASH UCHUN MASHQLAR

- I. Qavs ichidagi kishilik olmoshlarini obyekt kelishigiga qo'yib gaplarni ko'chiring. (35-§).

1. These are very good exercises. Do (they) at home, please.  
2. This engineer works with (I). I know (he) well.  
3. Write these words out in your exercise-book, please,

and learn (they). 4. Read this letter and translate (it) into English, please. 5. I know this girl. She works with (we).

## II. Nuqtalar o'rniga kishilik olmoshlarining obyekt kelishigidagi mos shaklini qo'ying.

1. Take this book and read ... at home, please. 2. Is he going to speak to ... about his new work? 3. These are very good exercise-books. Where do you get ...? 4. My sister knows English well. I often do my homework with ... . 5. Read these words and learn ... well. 6. I don't know ... . What's his name?

## III. Tagiga chizilgan so'zlariga e'tibor berib, quyidagi gaplarning o'qilishini mashq qiling:

1. "Does your 'son read much?"  
"Yes,| he 'reads a lot."  
"No,| he 'doesn't read much.| He 'reads ↑ very little."
2. "Do you 'do ↑much homework?"  
"Yes,| we 'do a↑lot of homework | 'every \day."
3. "How many 'English \words do you know?"  
"Not very many."

## IV. Quyidagi gaplarni bo'lishsiz va (umumiy) so'roq gap shaklida yozing:

1. He translates very many letters into English. 2. The teacher gives us a lot of homework. 3. Your friends read a lot. 4. She gets a lot of telegrams every day. 5. They work too much.

## V. Ko'p, oz so'zlarining tarjimasiga e'tibor berib, gaplarni ingliz tiliga o'giring.

1. Singlim ko'p ishlaydi. 2. Ular ko'p inglizcha kitoblar o'qishadi. 3. O'g'lingiz ko'p ishlaydimi? – Yo'q, u hozir juda kam ishlaydi. 4. U har kuni ko'p xat oladi. 5. Biz darsda juda ko'p o'qiymiz va juda kam yozamiz. 6. O'g'lingiz ko'p o'qiydimi? – Ha, ko'p. Odatda u kechqurunlari o'qiydi. 7. Ko'p talabalar ikkita chet tilini

bilishadi. 8. Kechqurun o'ta ko'p o'qimang. 9. Biz ko'p xorijiy firmalarga xatlar jo'natamiz.

### LEKSIK-GRAMMATIK MASHQLAR

I. Quyidagi so'z birikmalarini o'qishni mashq qilib bo'lib, darsning matnini ovoz chiqarib o'qing:

walks there

works there

answers them

Thursday and Friday

letters and telegrams

II. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing:

a) past, task, flask, mast, holiday, kidney, hockey, storey, dear, clear, fear

b) stay, play, gay, day, leap, feel, deer, steer

III. Quyidagi so'zlar qaysi so'z turkumining o'zagidan yasalgan?

Ularni o'zbek tiliga tarjima qiling:

translation

discussion

week-end

hourly

receiver

translator

walker

giver

IV. Yangi so'zlardan foydalanib, savollarga javob bering.

- a) 1. Does your friend work at an office or in a factory?  
2. Does your friend live far from the office (the factory)?  
3. Does he walk to the office (factory)?  
4. (On) Which days does he work?  
5. How long does his working day last?  
6. How many hours does he work a day?  
7. Who usually answers telegrams at the office?  
8. Who does he often receive?  
9. What do they discuss?  
10. What time does he usually finish work?  
11. Where does he sometimes stay after work?  
12. When does he return home?  
13. What does he do on Sunday?  
14. Does he usually stay in Moscow over the week-end?  
15. What does he usually do at the week-end?

16. Who does he often stay with over the week-end?
- b) 1. Do you live far from your office (factory)?  
 2. Do you often walk to your office?  
 3. Do you like walking?  
 4. Do you usually go for walks in the morning or in the evening?  
 5. Who do you take out for a walk?  
 6. How long does your working day last?  
 7. What do you often discuss during your working day?  
 8. What time do you stop and go home?  
 9. Do you work at the week-end?  
 10. What do you usually do at the week-end?  
 11. What are you going to do this week-end?  
 12. Are you going to stay at home over the week-end?  
 13. Are you going to Saint Petersburg (Kiev) for the week-end?  
 14. What are you going to do (on) Saturday evening?  
 15. What are you going to do on Sunday?
- c) 1. Which of you reads much (doesn't read much)?  
 2. How many new English words do you usually learn in class (at your lesson)?  
 3. How long does your class (lesson) last?  
 4. What time do you get home after classes?

V. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savollar qo'ying.

1. *He discusses a lot of questions* at the office. (2)  
 2. *Our English lessons* usually last *two hours*. (2) 3. *These students* usually get home *at five in the afternoon*. (2)  
 4. *His sisters* work *at a new factory*. (3) 5. *I* am going to stay *at the factory after work today*. (3) 6. *You* live a long way from the office. (1) 7. *They* are discussing *this question* now. (3)

**VI. Kerakli joyda nuqtalar o'rniga tegishli predloglarni qo'ying.**

1. "Do you work ... an office?" "No, I work ... a factory." "Do you live far ... the factory?" "Yes, I live a long way ... it." 2. Mary lives near ... a large park. She often takes her son ... a walk ... the park. ... Saturdays her sister Ann usually comes to stay ... Mary ... the week-end. 3. I usually get ... home ... six ... the evening. 4. This is a letter ... my sister. I'm going to answer ... it now. She's coming ... Moscow. I'm going to meet ... her ... Tuesday evening ... seven. 5. Nick works hard ... his English. He does a lot ... exercises ... class and ... home. 6. "What are you going to do ... the week-end?" "We are going ... Klin ... the week-end". 7. Are you going to stay here ... the week-end? 8. Do you often stay ... the office ... work ... your English lessons?

**VII. Qavs ichidagi fe'llarni tegishli zamon, shaxs va sonda qo'llang.**

1. He usually (to walk) home after work. 2. Where (to work) Comrade Petrov? 3. He (not to work) hard at his German. 4. You often (to speak) in class? 5. Who (to answer) questions now? 6. Your sister often (to stay) at the office after work for her English? 7. I often (not to get) telegrams from my friends. I often (to get) letters from them. 8. Who often (to discuss) plans with these engineers? 9. What (to discuss) they now? 10. You (to be) going to discuss this question tomorrow morning? 11. How well they (to know) English? 12. "The students (to revise) the words at home or in class?" "They (to do) it at home." 13. They (to revise) the words now? 14. "What he (to do)?" "He (to be) a factory worker." 15. "What he (to do)?" "He (to translate) an article now."

**VIII. Kerakli joyga artikl qo'ying.**

Ann is ... worker. She works at ... large factory. ... factory is ... long way from Moscow. Ann lives near ...

factory and usually walks there. She finishes ... work at six in ... evening. Her sister is ... student, she lives in ... Moscow. She learns ... German. Ann often gets ... letters from her.

**IX. Qavs ichidagi so'zlardan mosini tanlang.**

1. This film lasts two (o'clock, hours). 2. They sometimes finish work at three (o'clock, hours) on Thursday afternoon. 3. "Where are you (going, walking) to?" "I'm (going, walking) to my office." 4. He likes (going, walking). 5. He (goes, walks) a lot. 6. How often does your son (go, walk) there for the week-end?

**X. Yangi so'zlardan foydalanib, ingliz tiliga tarjima qiling.**

**A.1. Yakshanba kuni uyda bo'lasizmi? 2. Shanba kuni kechqurun qayerga borasiz? 3. Uning faqat seshanba va payshanba kunlari darsi bor. 4. U bu yerga faqat yakshanba kunlari keladi. 5. Siz zavodga ertalab borasizmi? – Ha. – Uyda o'g'lingiz bilan kim qoladi? – Mening singlim. 6. Siz uyga, odatda, soat nechada kelasiz? – Men uyga, odatda, kech soat yettida kelaman. 7. Bu savolni hozir muhokama qilmang. Biz uni payshanba kuni ertalab ko'rib chiqamiz. 8. Men faqat ingliz tilini bilaman, biroq nemis tilini o'rganmoqchiman.**

**B. Ish kuningiz necha soat davom etadi? – Sakkiz soat. – Idorada nima ish qilasiz? – Men xat va telegrammalarga javob beraman, jurnallar o'qiyman, bu jurnallardan maqolalar tarjima qilaman va muhandislarimiz bilan ko'p masalalarni muhokama qilaman. – Ishni, odatda, soat nechada tugatasiz? – Ishni soat oltida tugataman. – Siz idorangizdan uzoqda turasizmi? – Yo'q, men unga yaqin (joyda) yashayman va odatda, u yerga piyoda boraman. – Siz nemis tilini yaxshi bilasizmi? – Men nemis tilini endi o'rganyapman. Darslaringiz qachon bo'ladi? – Bizda dushanba, chorshanba va juma kunlari kechasi dars bo'ladi. Darsingiz qancha davom etadi? – Ikki soat.**

Uyda nima (ish) qilasiz? – Uyga kelganimda men, odatda, jurnallar o‘qiyman va dars qilaman, ba‘zan do‘stlarimga xatlar yozaman. Men ulardan ko‘p xatlar olaman va doim ularga javob beraman. Sizning idorangizda chet tilidagi jurnallardan kim tarjima qiladi? – Orlov. U ingliz va fransuz tillarini biladi. – U bu tillarni qanchalik yaxshi biladi? – U bu tillarni yaxshi biladi. – Nemis tilidan xatlarni kim tarjima qiladi? – Men.

#### **XI. Ingliz tiliga tarjima qiling. (1, 2, 3-darslarni takrorlash uchun mashq)**

Mening singlim o‘qituvchi. U ingliz tilidan dars beradi. Mening do‘stim va men ham ingliz tili o‘tamiz, biroq ko‘p talabalar ikkita chet tili ustida qattiq ishlashadi. Biz har doim darslarga o‘z vaqtida kelamiz va uy vazifalarini yaxshi bajaramiz. Biz ko‘pincha uyda ingliz tilidagi gazeta va jurnallarni o‘qiyimiz. Men ingliz tilidagi kitoblarni o‘qishni yoqtiraman va (men) ko‘p o‘qiyman. Bizda dushanba, chorshanba, payshanba va juma kunlari dars bo‘ladi. Biz darsda ko‘p mashq qilamiz va ba‘zan diktant yozamiz. Biz matnlar o‘qiyimiz, ularni tarjima qilamiz, savollarga javob beramiz va o‘zbek tilidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qilamiz. Ko‘pincha darsdan so‘ng uyga birga ketamiz. Biz inglizcha gaplashamiz va o‘z ishlarimizni muhokama qilamiz.

#### **OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MASHQLAR**

**I. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib, hikoyalar tuzing:**

##### **1. *My Friend Works Hard at the Office***

to receive, to discuss, to answer, a lot of articles,  
to finish work

##### **2. *I like Walking***

a long way from, to walk (to), to go for a walk, in the  
evening



3. *I'm Going to Stay at Home over the Week-end*  
in the morning, in the afternoon, to go for a walk,  
to take out, together

4. *My Son Reads a Lot*

to like reading, to take books from, to learn (from  
books), to do well, to return (to give back)

II. O'z ish kuningizni tasvirlang. (Do'stingizning, xotiningizning,  
singlingizning ish kunini tasvirlang.)

III. Darsdagi yangi so'zlar va quyida keltirilgan so'zlardan  
foydalanib, do'stingizdan uning ish kuni haqida so'rang:  
when, where, what, who, which of, how, how well,  
how often, how long

IV. a) Do'stingizdan bugunga (ertaga, indinga) nima vazifa  
berilganini so'rang. Javobi uchun minnatdorchilik bildiring,  
minnatdorchiligingizga qanday javob berayotganligini  
eshiting. (1, 2, 3-darslardagi ramkalar ichiga qarang.)

N A M U N A : "What's the homework for tomorrow?"

"Exercise four, page seventeen."

"Thank you."

"Not at all. (It's nothing at all.)"

b) 3-darsdagi ba'zi so'zlarning ingliz tiliga qanday tarjima  
qilinishini so'rab, yuqoridagi namunadagidek dialog tuzing.

## LESSON FOUR (THE FOURTH LESSON)

**Text:** My Friend is a Children's Doctor Now.

**Grammar:** 1. Fe'lining asosiy shakllari. O'tgan zamon oddiy fe'li (O'ZO). The Past Indefinite Tense. To'g'ri tuslanuvchi fe'llar (38, 39, 40-§ 1, 3, 4, 5-punktlar, 663-665-betlar).  
2. to be fe'lining O'ZO shakli (41-§, 665-bet).  
3. Otlarning kelishiklari. Qaratqich kelishigi (42-§, 666-bet).

### MY FRIEND IS A CHILDREN'S DOCTOR NOW

My 'friend's 'name is Peter. 'He and 'I are 'doctors now, but e'leven 'years a go we were 'students at a 'Medical 'college' in 'Moscow.

We 'lived a 'long 'way from the college, but we 'liked to 'walk 'there in 'fine 'weather.

Our 'classes 'usually 'lasted 'till 'four o'clock in the 'after 'noon, and 'then we 'worked 'hard at 'home. We 'sometimes 'stayed 'after 'classes to 'play 'volleyball, but on 'weekdays we were 'usually at 'home by '9 o'clock. We re'ceived a 'lot of 'medical 'journals and 'often dis'cussed 'interesting 'articles in them.

In his 'third 'year Peter de'cided to be a 'children's doctor, and 'now he 'works at a 'children's 'hospital in 'Kiev. He 'loves his 'work and 'often 'writes to me about it.

"Whose 'name's Peter?" "My 'friend's."

"What does he 'do?" "He's a 'doctor."

"Was he a 'doctor e'leven 'years a go?" "No, he was a 'student 'then."

"When did he de'cide to be a children's doctor?" "In his 'third 'year at the 'Medical college."

"Does he 'like his work?" "Yes, 'he 'loves it."

## MATNGA IZOHLAR

1. ... we were students at a Medical college in Moscow. ... *biz Moskvadagi tibbiyot institutida o'qirdik.* O'zbek tilidagi *institut* (oliy o'quv yurti) so'ziga ingliz tilida *college, school, institute* so'zlari to'g'ri keladi. Masalan:

a teacher-training college	pedagogika instituti
a medical college (school)	tibbiyot instituti
an engineering institute	mashinasozlik instituti

2. In his third year Peter decided to be a children's doctor. *Uchinchi kursda Peter bolalar vrachi bo'lishga qaror qildi. Year* so'zi *yil* ma'nosidan tashqari yana oliy o'quv yurtidagi *kurs, bosqich* ma'nosini ham beradi.

Qiyoslang:

U birinchi (ikkinchi) kurs talabasi.	He's a first (second) year student.
U birinchi (ikkinchi) kursda o'qiydi.	He's in his first (second) year.

### ACTIVE WORDS AND WORD COMBINATIONS

fourth	to play
a child ( <i>pl.</i> children)	to play volley-ball (football, tennis, hockey)
eleven	hockey)
a year	a weekday
ago	on weekdays
a college	interesting
to go to college	to decide
to be at college	a hospital
weather	to go to hospital
till	to be in hospital
then	to love

(See Vocabulary for Lesson Four, p. 521)

**Esda saqlang:**

eleven [i'levn] o'n bir  
twelve [twelv] o'n ikki

**Sonlarning yasalishi:**

1. **-teen** [ti:n] – son suffiksi (ten ning o'zgargan shakli) bo'lib, 13 dan 19 gacha bo'lgan sanoq sonlarni yasashda ishlatiladi.

**-teen** suffiksi – urg'ulidir, shuning uchun uning ishtirokida sonlarda ikkita asosiy urg'u bo'ladi:

'thir'teen	o'n uch	'seven'teen	o'n yetti
'four'teen	o'n to'rt	'eight'teen	o'n sakkiz
'fif'teen	o'n besh	'nine'teen	o'n to'qqiz
'six'teen	o'n olti		

Gapda ritm ta'sirida urg'ulardan biri yo'qoladi. Agar son oldidan urg'uli bo'g'in kelsa, birinchi urg'u yo'qoladi, masalan: Lesson Nine \teen [ 'lesn nain \ti:n] .

Agar urg'uli so'z sonidan keyin kelsa, ikkinchi urg'u yo'qoladi, masalan: the 'nineteenth \esson [ðə 'nainti:nθ \esn].

2. **-ty** – son suffiksi o'nlik sanoq sonlarni yasash uchun ishlatiladi.

**-ty** suffiksi urg'usiz:

'twenty	yigirma	'sixty	oltmish
'thirty	o'ttiz	'seventy	yetmish
'forty	qirq	'eighty	sakson
'fifty	ellik	'ninety	to'qson
	'one (a) 'hundred [ 'hʌndrəd]		yuz

3. Murakkab (birlik va o'nlikdan iborat bo'lgan) sonlar xuddi o'zbek tilidagidek yasaladi:

'twenty-'three yigirma uch

Murakkab sonlar ikkita kuchli urg'uga ega bo'lib, chiziqcha (defis) bilan yoziladi, masalan:

'twenty-'one yigirma bir  
'ninety-'nine to'qson to'qqiz

4. -th tartib son suffiksi bo'lib, four to 'ri (va un) dan keyingi tartib sonlarni yasashda ishlatiladi:

fourth to'rtinchi

fourth	to'rtinchi	eleventh	o'n birinchi
sixth	oltinchi	thirteenth	o'n uchinchi
seventh	yettinchi	twenty-first	yigirma birinchi
eighth	sakkizinchi	thirty-second	o'ttiz ikkinchi
tenth	o'ninchi	forty-third	qirq uchinchi

Agar son -y bilan tugallansa, tartib son yasashda -y →ie ga o'tadi va -th suffiksi qo'shiladi:

twentieth ['twenti:θ] yigirmanchi  
ninetieth ['nainti:θ] to'qsoninchi

**Orfografiyadagi o'zgarishlarni esda saqlang:**

five	- fifth	- beshinchi
nine	- ninth	- to'qqizinchi
twelve	- twelfth	- o'n ikkinchi

### GRAMMATIK MATERIALNI DASTLABKI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

I. Quyidagi to'g'ri tuslanuvchi fe'llarni ingliz tiliga tarjima qiling va ularning O'ZO shaklini yozing (39, 40-§§):

Minnatdorchilik bildirmoq, ochmoq, qaramoq, yopmoq, yashamoq, ishlamoq, o'rganmoq, o'qimoq, tarjima qilmoq, (piyoda) bormoq, qaytmoq, qolmoq, davom etmoq, olmoq, tugatmoq, muhokama qilmoq, javob bermoq, takrorlamoq, ko'chirib yozmoq.

**II. Quyidagi gaplarni bo'lishsiz va (umumiy) so'roq gap shaklida yozing:**

1. He opened the window before classes. 2. Ann translated a lot of foreign letters at the office last week. 3. I finished work at five o'clock the day before yesterday. 4. He lived in Kiev five years ago. 5. They returned home in the evening. 6. They discussed a lot of articles from these French magazines last week-end.

**III. Quyidagi gaplarni O'ZO shaklida yozing, ma'nosi mos keluvchi payt ravishini qo'shib keting. (*yesterday, the day before yesterday, last week, last year, etc.*)**

1. My working day lasts eight hours. 2. Do you often get letters from your friends? 3. Does she do well in French? 4. We discuss a lot of questions. 5. They don't often stay at the factory after six o'clock.

**IV. Fe'llarni kerakli zamon, shaxs-songa qo'yib qavsni oching.**

1. "Who usually (to do) his homework in this room?" "This student (to do)." 2. "Who (to do) his homework there now?" "I (not to know)." 3. I (to live) near my office last year. I always (to walk) there. 4. "How well your friend (to speak) English?" "He (to speak) English badly." 5. "What language you (to learn) five years ago?" "I (to learn) French." 6. "What language he (to learn) now?" "He (to learn) German." 7. "How long your class usually (to last)?" "It usually (to last) two hours." 8. "How long your class (to last) on Wednesday morning?" "It only (to last) an hour." 9. "Who you (to discuss) this question with last night?" "I (to discuss) it with my friends." 10. "Who you usually (to go) home with?" "I (to go) home with my friends." 11. How well he usually (to know) his lessons? 12. I (not to work) at this office three years ago. 13. You (to work) there now? 14. "How long you (to stay) in Kiev last year?" "I (to stay) there a month." "How long you (to be going) to stay there this year?" "I (to be going) to stay there a month too."

V. Fe'l-kesimning zamon shakliga e'tibor berib, gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.

1. Men doskaga qaradim va yangi so'zlarni ko'chirib oldim. 2. Siz o'tgan yili qayerda yashardingiz? – Men o'tgan yili Minskda yashardim. 3. Siz u bolaga kitob uchun minnatdorchilik bildirdingizmi? 4. Biz kecha ko'p savollarni muhokama qildik. 5. Siz bu qoidani oxirgi marta qachon takrorladingiz? – Biz uni avvalgi kunigina qaytargan edik. 6. Ular o'tgan oy ko'p xatlarga javob berishdi.

VI. *to be* fe'lining O'ZO dagi shakliga e'tibor berib, gaplarni tarjima qiling (41-§).

1. Ular bu yerda bir soat oldin bo'lishdi. 2. U kecha darsga o'z vaqtida keldimi? 3. Siz dushanba kuni ertalab uyingizdamidingiz? – Yo'q, men vazirlikda edim. 4. U chorshanba kuni kechqurun uyida bo'lmadi.

VII. Quyidagi so'z birikmalarini ovoz chiqarib o'qing, qaratqich kelishigidagi otlarning talaffuziga e'tibor bering. (42-§).

my 'sister's	name	these engi'neers'	'Jame's	book
his 'friend's	son	letters	'Alex's	room
this 'student's	our 'students'	marks	'Bess's	teacher
exercise-book	those 'men's	work		

VIII. Quyidagi so'z birikmalarini ingliz tiliga tarjima qiling:

1. Mening do'stimning xonasi. 2. Mening do'stimning xonalari. 3. Mening do'stlarimning xonasi. 4. Mening do'stlarimning xonalari. 5. Bu muhandisning o'g'li. 6. Bizning o'qituvchimizning o'g'illari. 7. Bu talabanning diktanti. 8. Sizning iqtisodchilaringizning xatlari. 9. Sizning muallimangizning singlisi. 10. Merining dugonasi. 11. Petr Ivanovning xati.

**IX. Qavs ichida berilgan soʻzlarni qaratqich kelishigida ishlatib savollarga javob bering.**

1. Whose exercise-book is this? (my sister)
2. Whose son lives in Kiev? (my friend)
3. Whose pen is on the table? (our teacher)
4. Whose mark's good? (my son)
5. Whose name's Peter? (Comrade Petrov)

**X. Qaratqich kelishigining ishlatilishiga e'tibor berib, gaplarni tarjima qiling.**

1. (Sizning) do'stingizning xonasi katta (keng)mi? – Yo'q, u kichik, biroq juda yorug'. 2. Siz kecha Borisning savoliga javob bermadingiz. 3. (Sizning) do'stingizning xotini nemis tilida yaxshi gapiradimi? – Ha, juda yaxshi. 4. Bu kimning daftarlari? – Bu bizning talabalarning daftarlari. 5. (Siz) o'rtoq Smirnovning do'stlarini taniysizmi? – Ha. 6. O'rtoq Ivanovning xotini muhandis, uning qizi esa shifokor. 7. (Sizning) o'g'lingizning ismi nima?

**XI. Otlarni qaratqich kelishigida ishlatib, 10 ta gap tuzing.**

**XII. Ushbu sanoq sonlarni soʻz bilan yozing.**

9, 11, 8, 13, 12, 20, 32, 30, 34, 43, 41, 14, 45, 54, 50, 53, 56, 65, 67, 57, 78, 89, 91, 99, 100.

**XIII. Tartib sonlarni ishlatib, quyidagi soʻz birikmalarini ingliz tiliga tarjima qiling:**

Birinchi soat (vaqt), uchinchi daftar, ikkinchi xat, to'rtinchi telegramma, to'qqizinchi kun, beshinchi dars, oltinchi savol, sakkizinchi hafta, o'n ikkinchi oy, yigirma beshinchi jurnal, qirq ikkinchi kun

**XIV. Sanoq sonlarni ishlatib, quyidagi soʻz birikmalarini ingliz tiliga tarjima qiling:**

yigirma sakkizinchi matn, o'n uchinchi eslatma, uchinchi maqola, qirqinchi dars, to'rtinchi mashq, o'n to'rtinchi matn, o'ttiz oltinchi dars, o'n beshinchi mashq, qirq beshinchi (nomerli) xona, yigirma uchinchi (nomerli) xona



## LEKSIK-GRAMMATIK MASHQLAR

I. Quyidagi so'z birikmalarini o'qishni mashq qilgandan so'ng matnni ovoz chiqarib o'qing:

we were 'students  
we 'liked to \walk there  
in his 'third year

II. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing:

last, past, cast, fast, mask, ask, mule, pump, car, forth, went, lick, bite, bit, tiny, fume, birth, same, Sam, stern, cape, rob, cute, robe, fur, list, turn, Byrd, stir, curly, Charley, knock, flute, clear, fear

III. Matnga doir 5 ta umumiy, 5 ta maxsus va 5 ta tanlov (alternativ) so'roq gap tuzing.

IV. Fe'l-kesimning zamon shakliga e'tibor berib, savollarga javob bering.

- a) 1. What do Peter and his friend do now?  
2. What did they do eleven years ago?  
3. Where did they live then?  
4. What did they like to do in fine weather?  
5. How long did their classes last?  
6. What did they do after classes?  
7. What did Peter decide to do in his third year?  
8. Where does he work now?  
9. Does he like his work?
- b) 1. Did you do well at college?  
2. Was your college in Moscow?  
3. When were you usually at home on weekdays?
- c) 1. Do you like to play volley-ball?  
2. Did you play volley-ball yesterday?  
3. When did you last play volley-ball?  
4. Which of you often plays tennis?  
5. Do you play tennis (football) on weekdays or at the week-end?
- d) 1. Do students at medical colleges work at hospitals?

2. When do they work at hospital?

3. Is work at a hospital interesting for a medical student?

e) 1. What was the weather like yesterday?

2. What is the weather like now?

3. What kind of weather do you like?

**V. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savollar qo'ying.**

1. *They worked at a large factory then.* (3) 2. *My sister*

*stayed at her friend's over the week-end.* (3) 3. *You lived*

*in that house ten years ago.* (3) 4. *Ann plays volley-ball*

*well.* (2) 5. *Peter decided to go to a medical school last*

*year.* (2) 6. *They liked to play football in fine weather.* (1)

7. *My friend wrote an interesting article last month.* (3)

**VI. Ushbu sanoq sonlarni so'z bilan yozing.**

1, 11, 2, 12, 20, 3, 13, 30, 4, 14, 40, 5, 15, 50, 6, 16, 60, 7, 17, 70, 8, 18, 80, 9, 19, 90.

**VII. Ushbu sonlarni so'z bilan tartib son qilib yozing.**

1, 5, 8, 11, 12, 30, 34, 42, 50, 53, 3, 9, 90, 98, 100.

**VIII. Kerakli joyga artikl qo'ying.**

1. Mary's two children are at ... college. ... boy is at

... medical school, and ... girl is at ... teacher-training college. 2. "What was ... weather like ... day before yesterday?" "It was fine. I love ... fine weather."

3. We did our homework, and then played ... tennis yesterday. 4. I seldom go to ... hospital. I last was in ... hospital ten years ago. 5. This is ... hospital. It's ... new hospital.

IX. Kerakli joyda nuqtalar o'rniga tegishli predloglarni qo'ying.

1. A lot ... students go ... college every year. My friend's son is ... college now, and my son is going ... college next year. 2. I don't like playing ... football, but I often play ... tennis ... work ... weekdays, and ... the week-end too. 3. Ann's children were ... hospital last week. They are ... home now, and they are doing very

well. 4. "When did you discuss ... those questions last?" "We discussed ... them the day ... yesterday." 5. Peter is going ... hospital ... two days. 6. I stayed ... home ... ten yesterday morning.

X. Yangi so'zlardan foydalanib, ingliz tiliga tarjima qiling.

1. Men bolalarni juda yaxshi ko'raman. 2. Ish kunlari men kamdan kam uyda bo'laman. 3. Mening o'g'lim futbol o'ynashni juda yoqtiradi. 4. (Mening) singlimning o'g'li bu yil institutga kirmoqchi, mening o'g'lim esa allaqachon institutda o'qiyapti. 5. (Siz) do'stingizning xatiga qachon javob berdingiz? – Avvalgi kun. 6. Kecha ajoyib (ob-)havo bo'ldi. 7. Biz bu maqolani o'qishga va uni muhokama qilishga qaror qildik. 8. Besh yil avval men Minskda yashardim. Unda men zavodda ishlardim. 9. Oxirgi marta men voleybolni besh yil oldin o'ynagandim. 10. U qachon kasalxonaga yotishga qaror qildi? – O'tgan hafta. 11. O'tgan oy u qayerda edi? – U kasalxonada edi. 12. Film qancha davom etdi? – U ikki soat davom etdi.

## OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MASHQLAR

I. Darsning matnini hikoya qilib bering.

II. Quyidagi so'z va so'z birikmalaridan foydalanib, o'tgan zamonda hikoyalar tuzing:

1. *We Discussed Our Friend's New Article Yesterday*  
to discuss, an article, at my friend's, to answer, to like

2. *I Translated an Article Last Week*

in class, to look at the blackboard, to copy out the new words, to translate, very well, to like the translation, to thank very much

3. *I Learned German Two Years Ago*

to stay after work for one's German, to work hard,

to answer the teacher's questions, to translate, to learn a lot in class, to know the language

**III. Yuqorida tuzilgan hikoyalarga savollar tuzing.**

**IV. Do'stingizdan so'rang.**

Ertaga siz bilan darsgacha gaplashib olishini; darsda va darsdan keyin siz bilan faqat inglizcha gaplashishini; sizga jurnalni ikki kundan so'ng qaytarishini; bu masalani bugun muhokama qilmaslikni; ishdan so'ng uyga ketib qolmasligini so'rang.

## LESSON FIVE (THE FIFTH LESSON)

Text: My Last Week-End.

Grammar: 1. O'tgan zamon oddiy fe'li. The Past Indefinite Tense.  
Noto'g'ri tuslanuvchi fe'llar (40-§, 2-punkt, 664-  
bet).

2. Vositali hamda vositasiz to'ldiruvchining gapdagi  
o'rni (43-§, 667-bet).

### MY LAST WEEK-END

A 'week a/go<sup>1</sup> my 'friend 'Boris /Klimov/ 'came to 'Moscow from \Saint Petersburg. On /Saturday<sup>2</sup> he 'came to 'see ↑ me and my \family. We de'cided to 'spend the ↑ week-end to\gether and 'Klimov /stayed with us<sup>3</sup> till \Monday.

We 'woke 'up \late on /Sunday. We 'got 'up at ↑ nine o'clock, <sup>4</sup> /washed<sup>5</sup> and \dressed. Then we 'had \breakfast.

“What d'you 'usually \do on Sunday?” Boris asked us at table<sup>2</sup>.

“We 'often 'go to the \country,” my wife answered. “Sometimes we 'go to the \theatre<sup>6</sup> or the \cinema.”

“Do you 'often 'go to 'Central /Park?” he asked again.

“We 'went there ↑ last \month. It is a 'very \nice park. We 'like it ↑ very \much. D'you 'want to /go there, Boris?”

“Oh, \yes. I'd \love to.<sup>3</sup> The 'weather's ↑ very \nice today.”

We 'went to the 'park with our \children. We 'skated and /ski'd and the 'children played with their ↑ little \friends.

We 'came 'home at ↑ two o'clock. | 'Boris and 'I ↑played \chess 'after /dinner and we 'went to the 'cinema in the \evening. The 'film was \interesting<sup>7</sup> and 'not 'very

long. It be'gan at ↑ seven o' clock and it was over by eight. We 'didn't 'want to ↑ go 'home so early and 'went to 'see my parents. They were 'very 'glad to see us and we 'had supper together.

We 'got 'home late, but we 'didn't 'go to 'bed at once. Boris 'wrote ↑ two 'letters to our ↑ friends in Saint Petersburg and read them to us.

We 'went to 'bed at ↑ twelve o' clock.

"I'm sorry." ("Sor'ly.")	- Kechirasiz!
"That's all right."	- Hechqisi yo'q!
"Did you stay with your family over the ↑ week-end?"	- Siz shanba-yakshanbani oilangizda o'tkazdingizmi?
"Unfortunately, I didn't."	- Afsuski, yo'q.

## MATNGA IZOHLAR

1. We decided to spend the week-end together ... Biz shanba-yakshanba (hafta oxiri)ni birga o'tkazishga qaror qildik... Agar so'z birikmasida bir asosiy fe'ldan keyin ketma-ket ikkinchi fe'l kelsa, ikkinchi fe'l to lik infinitiv shaklida ishlatiladi. to want, to decide fe'llaridan so'ng vositasiz to'ldiruvchi vazifasida infinitiv keladi:

I decided to go to the country on my day off. Men dam olish kunimda shahar chetiga borishga qaror qildim.

They want to stay with us till Sunday. Ular biznikida yakshanbaga-cha qolishmoqchi.

to like, to begin fe'llaridan so'ng infinitiv ham, -ing li shakl ham ishlatilsa bo'ladi, faqat -ing li shakl fikrga umumiy ma'no beradi:

I very much like to read English books. Men inglizcha kitoblarni o'qishni juda yoqtiraman.

I like reading very much. Men o'qishni juda yoqtiraman.

She began learning English.

U ingliz tilini o'rganishni boshladi.

She began to read Lesson Five.

U beshinchi darsni o'qishni boshladi.

2. ...**Boris asked us at table.** ... *so'radi bizdan Boris stol atrofida (o'tirganimizda).* **Table** so'zidan oldin artikl ishlatilmasligining sababi shundaki, **at table** predlogli oborotdagi **table** so'zi bu yerda predmetni bildirmaydi, balki u bilan bog'liq faoliyatni bildiradi.

Qiyoslang:

Don't read the newspaper **at table.**

Stol atrofida (o'tirganda) (*ya'ni:ovqat paytida*) gazeta o'qimang.

Please sit down **at the table** and write a letter.

Marhamat qilib stol (yoni)-ga o'tiring va xatni yozing.

**Ko'chirma gapni kirituvchi gaplardagi so'z tartibiga e'tibor bering:**

a) "Do you work very hard at your English?" **he asked.**

b) "Do you work very hard at your English?" **asked Boris.**

c) "Do you work very hard at your English?" **Boris asked.**

d) "Do you work very hard at your English?" **Boris asked me.**

Agar ko'chirma gapni kirituvchi gapning egasi olmosh bilan ifodalansa, qoida bo'yicha, bunday gapda to'g'ri tartibli so'z tartibi ishlatiladi (a - misol).


Agar ko'chirma gapni kirituvchi gapning egasi ot bilan ifodalansa, qoida bo'yicha, bunday gapda to'g'ri tartibli so'z tartibi ham, teskari tartibli so'z tartibi ham ishlatilsa bo'ladi (b va c - misollar), biroq nutq kimga qarata aytilgani ko'rsatilsa, faqat to'g'ri tartibli so'z tartibi ishlatiladi (d - misol).

Ko'chirma gapni kiritib, undan so'ng keluvchi so'zlar urg'usiz bo'lib, o'zidan oldingi ma'no guruhining intonatsiyasini davom ettiradi.

"We 'often 'go to the \country," my wife answered.



"Do you 'often 'go to 'Central \Park?" he asked again.



3. **Oh, yes, I'd love to.** *Ha, bajon-u dil.* Fe'lning infinitiv shaklini to'laligicha ishlatib o'tirmaslik uchun faqat uning ko'rsatkichi **to** ishlatilgan, **go** – esa nazarda tutiladi. So'z birikma to'laligicha *Men juda xohlar edim* ma'nosini beradi va biror narsa bajarish xohishiga ijobiy javob sifatida ishlatiladi:

"Do you want to see the new film?" – Yangi filmni ko'rishni xohlaysizmi?

"I'd love to." – Bajon-u dil.

#### ACTIVE WORDS AND WORD COMBINATIONS

to see (saw, seen)

to come to see

to go to see

a family

to spend (spent, spent)

to spend time (money) on ...

to be in the country

to go to town

to be in town

to wake up (woke up, woken up)

late (adv)

to get up (got up, got up)

to wash

to dress

breakfast

dinner

supper

to have breakfast (dinner, supper)

at dinner

before (after) dinner

to ask



to ask questions	to ski (ski'd, ski'd)
to ask for smth.	chess
a country	to play (have) a game of chess
to go to the country	to begin (began, begun)
a theatre	to be over
to go to the theatre	by
a cinema	early
to go to the cinema	parents (pl.)
a park	to be glad
again	to go to bed
to want	at once
to skate	

(See Vocabulary for Lesson Five, p. 522)

**So'z yasash:**

-al [əl] – sifat suffiksi, ot o'zagidan sifat yasaydi:

centre *markaz* – central *markaziy*

**GRAMMATIK MATERIALNI DASTLABKI  
MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR**

**I. Quyidagi noto'g'ri tuslanuvchi fe'llarning uch asosiy shaklini yod oling:**

to be	was, were	been	<i>bo'lmoq</i>
to have	had	had	<i>ega bo'lmoq</i>
to meet	met	met	<i>uchratmoq</i>
to tell	told	told	<i>aytmoq</i>
to send	sent	sent	<i>yubormoq</i>
to come	came	come	<i>kelmoq</i>
to read	read [red]	read [red]	<i>(kitob) o'qimoq</i>
to go	went	gone [gɔn]	<i>bormoq</i>
to do	did	done [dʌn]	<i>qilmoq</i>
to find	found	found	<i>topmoq</i>
to give [giv]	gave	given [givn]	<i>bermoq</i>
to take	took	taken	<i>olmoq</i>
to write	wrote	written	<i>yozmoq</i>
to speak to	spoke	spoken	<i>gapirmoq</i>
know	knew	known	<i>bilmoq</i>
to get	got	got	<i>erishmoq</i>
to sit	sat	sat	<i>o'tirmoq</i>
to put [put]	put	put	<i>joylashtirmoq</i>

**II. Birinchi mashqda berilgan fe'llarning namunada ko'rsatilgandek (umumiy) so'roq va bo'lishsiz shakllarini yozing.**

Namunalar: 1. Did he (I, you, we, they) go ...?

2. He (I, you, we, they) did not (didn't) go ...

**III. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savollar bering.**

1. *He was in Kiev last week.* (3) 2. *My friend wrote to me very often last year.* (4) 3. *They were at their office yesterday morning.* (3) 4. *Our students read a lot of English books last year.* (4) 5. *He took his son out on Monday evening.* (2) 6. *Comrade Petrov spoke to us about the plan yesterday.* (4) 7. *The students usually go home after classes.* (3)

**IV. Fe'l-kesimning zamon shakliga e'tibor berib, gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.**

1. Sizning muhandisingiz qachon Moskvaga qaytdi? – U Moskvaga uch kun oldin qaytdi. 2. O'tgan hafta Sankt-Peterburgga kim ketdi? – O'rtoq Zotov. 3. Boris to'rtinchi gapni juda yaxshi o'qidi. 4. O'rtoq Petrov doskaga chiqdi, gapni yozdi, uni o'qidi va o'z stoliga qaytdi. 5. Kecha siz uyda qaysi mashqni bajardingiz? – Yigirmanchi mashqni. 6. Bu xususida o'rtoq Zotov bilan gaplashing, u kecha Sankt-Peterburgdan keldi. 7. O'tgan yili (sizning) talabalariniz ingliz tilida qanday gapirishgan? 8. Singlingiz Moskvaga qachon keldi? – Uch yil avval. 9. Siz kecha darsda nima qildingiz? – Biz matnlar o'qidik va mashqlar bajardik, o'qituvchimiz bilan inglizcha gaplashdik va gaplarni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qildik. 10. Siz bu xatni qachon oldingiz? – Kecha ertalab.

**V. Vositasiz to'ldiruvchini imkoni bor joyda o'rnini almash-tiring.**

1. Please send *this book* to Tom. 2. Please take that letter and give *it* to Peter. 3. Don't read us *the telegram*. We know it. 4. Please take your exercises and read *them* to us. 5. Please give *these telegrams* to Comrade Petrov.

## MATNGA LEKSIK-GRAMMATIK MASHQLAR

I. Ko'chirma gapni kirituvchi so'zlar intonatsiyasini mashq qilib olib, dars matnini ovoz chiqarib o'qing.

"Oh, yes," I said. "Are you a doctor?" he said.

"What do you do?" he asked me. "Do you skate?" he asked me.

"I am a factory worker," I answered. "Did you read it last night?" he asked me yesterday.

"We often go there," she said. "Do you often go there?" he asked us at table.

II. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing:

ail, hay, dew, moon, task, cow, stout, voice, took, rude, space, ear, rain, ounce, meak, last, steep, stool, moist, knock, want, wash, wasp, past, sail

III. Quyidagi so'zlar qaysi yo'l bilan va qaysi so'z turkumi o'zagidan yasalgan? Ular qaysi so'z turkumiga kiradi? Bu so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

cultural	newspaper	player	central
gladly	skater	text-book	cinema-goer
beginner	ninety-fifth	skier	decision

IV. Yangi so'zlardan foydalanib, savollarga javob bering.

- a) 1. Do you often go to see your friends?  
2. How often do your friends come to see you?  
3. How often do you spend the week-end with your friends?  
4. How often do you go to the theatre (to the cinema) together?  
5. When did you last go to the theatre?
- b) 1. When did you begin learning English?  
2. Do you spend much time on your English?  
3. How much time do you usually spend on your homework?

4. How many questions does the teacher usually ask you in class?
  5. How well do you usually know your lesson?
- c)
1. When do you usually get up on weekdays?
  2. What do you do then?
  3. Do you wake up your children early in the morning?
  4. Do they wake up at once?
  5. Do they go to bed early or late?
- d)
1. When do you usually have dinner (breakfast, supper)?
  2. Do you have dinner at home or at your office?
  3. Where are you going to have dinner today?
- e)
1. Did you go to the country for the last week-end or did you stay in town?
  2. How often do you spend the week-end in the country?
  3. When did you last go to the country?
  4. Where do you want to spend next week-end?
  5. Are you going to the country again?
- f)
1. What's the weather like today?
  2. What kind of weather do you like?
  3. Do you like to go for walks in bad weather?
  4. When are you going to take your children (son) out (for a walk)?
- g)
1. Which of you likes ski'ing (skating)?
  2. Do you ski (skate)?
  3. Which of your friends plays chess well?
  4. Which games do you play?
  5. Who did you last play chess with?
- h)
1. Where do your parents live?
  2. Do you often go to see them?
  3. When did you last see them?
  4. When are you going to see them again?

V. Nuqtalar o'rniga *to give* va *to take* fe'llarini mos shaklda qo'ying.

1. Please ... that red pencil from the table and ... it to me. 2. Don't ... your children out, the weather's bad. 3. Your sister ... me a very interesting book to read last week. I want to ... it back to her now. Please ... it to her and thank her for it. 4. Where did you ... the book from? Please put it back.

VI. Gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.

a) *Unga, uni, uning; ularga, ularni, ularning* olmoshlari tarjimasiga e'tibor bering:

1. Men uning maqolasini o'tgan hafta o'qidim. 2. Men uni kecha ko'rmadim. 3. Ularning do'stlari ularnikida o'tgan hafta bo'lishdi. 4. Biz undan so'radik: "Familiyangiz nima?" 5. Petrovning singillari unikiga tashrif buyurishga qaror qilishdi va unikiga o'tgan hafta ketishdi. 6. Havo yaxshi edi va bolalar singillaridan ularni xiyobonga olib borishini so'rashdi. 7. Siz uni o'tgan hafta qayerda ko'rdingiz? – Biz uni teatrda ko'rdik. Uning bolalari ham u bilan birga edilar. 8. Belovning do'stlari undan (uning) ishi haqida so'rashdi va u ularning savollariga javob berdi. 9. Men bu jurnallarni olaman va ularni uyda o'qiyman.

b) *to love (sevmog), to like (yoqtirmog)* fe'llarining ishlatilishiga e'tibor bering:

1. Men (kitob) o'qishni yoqtiraman. 2. U tushlikdan so'ng o'qishni yaxshi ko'radi. 3. (Mening) singlimning o'g'li konki uchishni yoqtiradi. 4. Siz chang'i uchishni yaxshi ko'rasizmi? 5. Biz vatanimizni sevamiz. 6. Sizga bu xiyobon yoqadimi? 7. Ularga yangi film yoqdimi? – Ha, u ularga juda yoqdi. 8. Sizga qanaqa kitoblar yoqadi? 9. Ularga bu muhandisning maqolasi yoqmadi. 10. Sizga Annaning yangi kvartirasi yoqdimi? 11. U kichkina bolalarni yaxshi ko'radi. 12. (Sizning) do'stlaringizning bolalari menga juda yoqadi.

c) *Ko'rimoq, qaramoq* fe'llarining tarjimasiga e'tibor bering:

1. Siz kecha qayerda edingiz? Men sizni ishda (idorada) ko'rmadim. 2. Xaritaga qarang. Bu qanaqa xarita? 3. Kecha qaysi filmni ko'rdingiz? – Biz talabalar haqida yangi film ko'rdik. 4. Men o'g'limning muallimasini ertaga ertalab ko'raman. 5. U menga qaradi va so'radi: "Siz uch yil avval zavodda ishlaganmisiz?"

d) *Nonushta qilmoq, tushlik qilmoq, kechki ovqat qilmoq* fe'llarining va tegishli otlarning tarjimasiga e'tibor bering:

1. Siz, odatda, qachon tushlik (nonushta, kechki ovqat) qilasiz? 2. U avvalgi kun uyida tushlik qilmadi. 3. Siz kechki ovqatdan oldin sayrga chiqasizmi? 4. Sen do'stlaringni tushlikka taklif qilasanmi? 5. Bugun nonushtamizga nima (ovqat) bo'ladi? 6. Do'stingiz qayerda? – U tushlik qilyapti.

e) *to ask for (so'ramoq = tilamoq), to ask (so'ramoq = savol bermoq)* fe'llarining ishlatilishiga e'tibor bering:

1. U nima so'rayapti? – U yangi jurnal so'rayapti. 2. U nima (haqida) so'rayapti? – U o'rtoq Petrovning oilasi haqida so'rayapti. 3. Ular bizga mamlakatimiz haqida ko'p savollar berishdi. 4. U mendan daftar so'ramadi, u mendan darslikni so'radi.

f) *Vositasiz va vositali to'ldiruvchining o'rniga e'tibor bering:*

1. Siz menga bu kitobni qachon berasiz? 2. Siz bu kitobni Meriga berdingizmi yoki Annagami? – Men uni Annaga berdim. 3. Menga bu maqolani o'qimang, men uni bilaman. 4. Muallim ularga yangi matnni o'qiydi. 5. Men bu maqolani o'qib chiqishni xohlayman. Uni ularga bugun jo'natmang.

VII. Nuqtalar o'rniga kerakli joyda tegishli predloglarni qo'ying.

1. My friend likes playing ... chess. He spends a lot ... time ... it. Yesterday he played chess ... six ... the

evening and only got ... home ... ten. 2. We spent Sunday ... the country. We went ... there early ... the morning and got back ... town late ... the evening. 3. We decided to ask our friends ... dinner tomorrow. ... dinner we're going ... Central Park. 4. What are we having ... dinner today? 5. My friend lives ... the country and he likes it very much. His house is a long way ... his office. He goes ... town every morning. He is always ... time ... work. 6. I don't want to go ... the cinema tonight. My wife and I are going ... a walk. 7. Does your friend play ... chess well? I am going to have a game ... chess ... him. 8. "When did the meeting finish?" "It finished ... four." 9. I got ... home late yesterday evening and went ... bed ... once. 10. Peter spends a lot ... money ... books. I often ask him ... books to read.

#### **VIII. Kerakli joyga artikl qo'ying.**

"Do you want to go to ... country?" my wife asked me on Sunday. "I'd love to," I answered. We decided to go to Kuskovo and got there at eleven in ... morning. ... weather was fine and we had ... long walk in ... park. We went back to ... town at four in ... afternoon. We had ... dinner, and in ... evening we went to ... theatre. (We often go to ... cinema or to ... theatre on ... Saturday or Sunday.) ... play was very interesting and we liked it very much. Then we went ... home. At ... home we had ... supper, played ... game of ... chess and went to ... bed at 12 o'clock.

#### **IX. Fe'llarni kerakli zamon, shaxs-songa qo'yib qavsni oching.**

1. Yesterday (to be) my day off. I usually (to wake up) early on my day off, but sometimes I (not to get up) at once. I (to get up) at eight o'clock yesterday. 2. "When you (to have) breakfast yeaterday?" "I (to have) breakfast at nine in the morning." 3. We usually (to stay) in the country over the week-end, but the weather (to be) bad

and we (not to go) to the country tomorrow. 4. "When you last (to go) to the theatre?" "Two weeks ago." 5. I usually (to go) to bed at eleven o'clock. Yesterday my friends (to come) to see me, and I (to go) to bed at one in the morning. 6. She (not to be) at home now. She (to play) tennis. 7. When your son (to go) to college?

**X. Yangi so'zlardan foydalanib, ingliz tiliga tarjima qiling.**

1. Kecha siznikiga kim tashrif buyurdi? – O'g'limning do'stlari. Biz ularni ko'rganimizdan juda quvondik. Ular biznikida kechgacha qolishdi. 2. Kecha qayerda edingiz? – Men kinoga bordim. – Film sizga yoqdimi? – Ha, bu juda qiziqarli film. Menga u juda yoqdi. – Siz qachon uyga keldingiz? – Men uyga kech keldim va darrov uxlashga yotdim. 3. Biz avvalgi kun darsda yangi matn o'qidik. Keyin muallim bizga savollar berdi, biz esa ularga javob berdik. 4. Bugun soat nechada tushlik qildingiz? – Men soat uchda tushlik qildim. 5. Siz shaxmat o'ynashni yoqtirasizmi? – Ha, lekin hozir kam shaxmat o'ynayman. Men o'tgan yili ko'p shaxmat o'ynadim. 6. Men, odatda, hafta oxirini oilam bilan o'tkazaman. O'tgan yakshanba biz shahar chetiga chiqishga qaror qildik. Biz u yerga ertalab bordik. Havo yaxshi edi va biz shaharga kech oqshomda qaytdik. 7. Kichkina o'g'lim menga savol berishni yoqtiradi va men ularga doim javob beraman. 8. Kecha qayerda edingiz? Men kecha siznikiga kelgan edim, lekin siz uyda yo'q ekansiz. 9. Bolalaringiz qayerda? – Ular xiyobonda konki uchishyapti.

**XI. Ingliz tiliga tarjima qiling. (Takrorlash mashqi)**

Dugonam Anna shanba kuni ishdan so'ng menikiga keldi. Biz diktantdan oldin birinchi beshta darsning so'zlarini takrorlashga qaror qildik. Biz kech soat yettida ishlashni boshladik. Men Anna bilan dars tayyorlashni yoqtiraman. U ko'p o'qiydi va ingliz tilini yaxshi biladi.



Biz so'zlarni takrorladik va matnlarni o'qidik. Biz, shuningdek, grammatik qoidalarni takrorladik va ko'p mashqlar bajardik. Keyin Anna menga ko'p savollar berdi va men ularga javob berdim. Biz bunga ko'p vaqt sarfladik. Biz ishlashni soat to'qqizda tugatdik. "Men kinoga borib yangi film ko'rishni xohlayman. Men bilan borishni xohlaysanmi?" – so'radi Anna. "Bajon-u dil, – javob berdim men. – Singlim uni o'tgan hafta ko'ribdi va u unga juda yoqibdi". Biz kinoga kech soat o'nda bordik. Film ikki soat davom etdi va 12 da tugadi. Biz uyga kech keldik va Anna biznikida qoldi. Yakshanba kuni biz shahar chetiga chiqishga qaror qildik. Havo yaxshi edi va biz shahar chetida uch soat o'tkazdik. Biz uyga kech soat beshda keldik. Tushlikdan so'ng biz Annaning do'stlarinikiga bordik. Biz ular bilan kechqurun sayrga chiqishni xohlagandik, biroq keyinchalik teatrga borishga qaror qildik.

## OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MASHQLAR

**I. Matni Boris Klimov nomidan hikoya qilib bering.**

**II. Quyidagi so'z va iboralardan foydalanib, qisqa hikoyalar tuzing:**

1. a day off, weather, fine, to wake up, to get up, to decide, to stay over the week-end, to go to the country, to return, late, after supper, not to want, to play chess, at once, to go to bed

2. to like, to go to the theatre, after a day's work, often, to see, interesting, a play, very much, once, to get home, late, before supper, to be over, then, to go to bed, at once

3. in the afternoon, to decide, to the park, to walk, two hours, to go back, to have dinner, after dinner, to play chess, to go to the cinema, to finish

4. to like, to play chess, often, in the evening, to come

to see, to be glad, last night, to have supper, together, to discuss, to go to bed, late

5. to want, to ask for, to give, interesting, a book, to begin, at once, to like, to read, very much, to give back, to thank

**III. Berilgan soʻz va soʻz birikmalaridan dialoglar tuzing.**

1. to be going, to the country, to stay there over the week-end, to want, I'd love to

2. to play chess, to want, to play a game of, I'd love to

3. to be glad to see, to be going to the cinema, to want to see the film, I'd love to

4. What's the weather like ..., fine (nice, bad), to go to the country, to stay in town

**IV. Quyidagi mavzularga qisqa hikoyalar tuzing:**

1. My Last Day Off.

2. How I Usually Spend the Week-End.

3. Last Sunday Evening.

4. Yesterday (Tomorrow) Morning.

**V. a) Quyidagi iboralarga javob qaytaring:**

1. "Sorry"

" ....."

2. "Thank you."

" ....."

**b) Quyidagi savollarga bo'lishsiz javob bering, bunda afsuslanayotganingizni ham ifodalang:**

1. "Did you go to the cinema yesterday?"

"Unfortunately ....."

2. "Did you go to see your friends on Saturday?"

" ....."

3. "Did your children go to the country last Sunday?"

" ....."

4. "Did you meet Mr Brown last week?"

" ....."

5. "Did Comrade Petrov see (receive) you this morning?"

" .....

VI. Quyidagi dialogni o'qishni mashq qiling, yod oling va uni sahnalashtiring:

"Good after \noon, Mr Brown."

"Good after \noon, Mr Ivanov."

"Glad to 'see you in \Moscow again. | 'When did you \come?"

"I 'only 'came ↑this \morning."

"'What was the \weather like | in \London [lʌndən]?"

"It was 'very \nice there, | \too."

## LESSON SIX (THE SIXTH LESSON)

Text: My Friend's Family.

Grammar: 1. to have fe'li va have (has) got oboroti (44-§, 668-bet).

2. some, any gumon olmoshlari (45-§, 671-bet).

3. of predlogining one of, some of kabi birikmalarda ishlatilishi (46-§, 673-bet).

### MY FRIEND'S FAMILY

My 'friend's 'name is Lav'rov. He 'lives in Moscow. His 'family is ↑ not 'very \large. He has 'got a \wife<sup>ε</sup> and 'two \children. His 'wife's \name<sup>ε</sup> is Mary and his 'children's \names<sup>ε</sup> are 'Ann and \Nick.

'Comrade Lav'rov's \wife<sup>ε</sup> is a \young woman. She's 'twenty nine 'years \old. She's a \lecturer. She 'teaches 'English at the 'Institute of ↑ Foreign \Languages. She's 'got ↑ very 'many \students. She 'hasn't 'got ↑ bad \students. Her 'students 'do \well as a \rule. My 'friend's \daughter<sup>ε</sup> is a 'girl of \ten. She 'goes to \school. She 'does a ↑ lot of \subjects at school. She 'also 'learns \English. She 'works \hard and 'knows the 'language \well. She 'doesn't 'make ↑ many mis \takes in English. She's a pio \neer. She 'likes \reading. She 'also 'helps her 'mother at \home.

'Comrade Lav'rov's \son<sup>ε</sup> is a 'little \boy. I 'think he was 'born ↑ five or 'six ↑ years a \go. His 'father 'takes him to a \nursery \school<sup>ε</sup> 'every \morning.

My 'friend's 'got a \sister. She's 'going to 'be a \doctor and she's 'leaving her 'Institute ↑ this \year. She's \married. Her 'husband's an engi \neer.

My friend 'hasn't 'got any \brothers.

My 'friend's 'wife ↑ usually 'takes the \children to the \country in \summer to 'stay with their 'grandfather

and **grandmother**.| They 'love their **grandchildren**  
↑very **much**.| She's 'going to 'take them to the ↑ country  
a/gain<sup>z</sup> **this summer**.|

“Has 'Comrade Lav'rov 'got any **children**?”  
“**Yes**,| he's 'got **two**.”

“Have his 'children 'got any **toys**?”| “**Yes**, they've  
**got some**.”|

“Where does he **come from**?”| – U (asli) qayerlik?

“He 'comes from the U**kra**ine | – U Ukrainadan.  
[ju:'krein].”

“Is he **married**?”| – U uylanganmi?

“**Yes**,| I 'think he **is**.”| – Menimcha, ha.

“**Yes**,| he got married ↑ last  
**year**.”| – Ha, u o'tgan yili uylandi.

“**No**,| he's 'still **single**.”| – Yo'q, u hali uylanmagan  
(bo'ydoq).

### ACTIVE WORDS AND WORD COMBINATIONS

young

a woman (*pl.* women)

a woman of forty

old

a lecture

a lecturer

to teach (*taught, taught*)

an institute

as a rule

a daughter

a school

to go to school

to work at a school

a subject

to do (*take*) subjects

to make (*made, made*)

a mistake

to make a mistake

to help

a mother

to think (*thought, thought*)

born

to be born

a father

a nursery school

to leave (*left, left*)

to leave for

to leave school

to graduate from one's

Institute (*the University*)

married

to be married

to get married

a husband

any  
a brother  
summer  
winter  
spring  
autumn

a grandfather  
a grandmother  
a grandchild (*pl.* grandchildren)  
a grandson  
a granddaughter  
some

in (the) summer (winter,  
spring, autumn)

(See Vocabulary for Lesson Six, p.526)

### YILLARNI IFODALOVCHI SONLAR

O'zbek tilidagidan farqli o'laroq, ingliz tilida yillarni ifodalovchi raqamlar tartib son kabi emas, balki sanoq son kabi o'qiladi. Bundan tashqari, avval sanadagi yuz yillik soni aytiladi, keyin o'nlik va birlik. Yilni bildiruvchi raqamdan so'ng **year** so'zi ishlatilmaydi.

#### Taqqoslang:

1900 ['nainti:n 'hʌndrid]	1900-yil (ming to'qqiz yuzinchi yil)
1905 ['nainti:n 'ou 'faiv]	1905-yil (ming to'qqiz yuz beshinchi yil)
1917 ['nainti:n sevn'ti:n]	1917-yil (ming to'qqiz yuz o'n yettinchi yil)
1957 ['nainti:n 'fifti 'sevn]	1957-yil (ming to'qqiz yuz ellik yettinchi yil)

#### So'z yasash:

-ist [-ist] – ot suffiksi bo'lib, kasb yoki partiyaga tegishlilikni bildiradi:

an economist – iqtisodchi

labourist – leyborist (*leyboristik partiya a'zosi*)

-ism [-izm] – ot suffiksi bo'lib, falsafiy, siyosiy, diniy oqim yoki iqtisodiy formatsiyani bildiradi:

Darwinism – Darvinizm (*Darvin ta'limoti*)

## O'qish qoidasi

1. **ld, nd** harf birikmalari oldidan unlilar **l** turdagi kabi (xuddi alfavitdagidek) o'qiladi, masalan:

old [ould]            qari, eski

child [tʃaɪld]        bola

find [faɪnd]         topmoq

2. **o** harfi **th** hamda **m, n, v** harflaridan oldin ko'p hollarda [ʌ] kabi o'qiladi, masalan:

mother ['mʌðə]        ona

brother ['brʌðə]       aka

come [kʌm]            kelmoq

love [lʌv]              sevmoc

### GRAMMATIK MATERIALNI DASTLABKI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

I. Quyidagi namunalarning o'qilishini mashq qiling, tagiga chizilgan shakllarga e'tibor bering (44-§):

A. 1. "Have you 'got ↑ many 'English \books at home?"

"Yes, | I've 'got a \lot."

2. He 'hasn't 'got ↑ any \sisters. |

3. "How many \children did they have then?"

"They had \two, | and now they've got \three."

B. 1. "Has the 'boy 'got a \cold?"

"Yes, | but he 'doesn't 'often \have \colds."

"When did he \last have a cold?"

"Last \year."

II. Quyidagi gaplarni bo'lishsiz va (umumiy) so'roq gap shaklida yozing:

a) 1. Mary has got a family. 2. Jane has got a lot of children. 3. I've got a wife. 4. My children have got a lot of friends.

b) 1. They have their English in the morning. 2. They had a dictation yesterday. 3. He's having dinner now.

c) 1. I often have a lot of work to do. 2. I've got a lot

of work to do today. 3. She had a lot of work to do last week.

**III. Berilgan so'zlardan foydalanib, namuna asosida gaplar tuzing.**

**N a m u n a 1:** I ve got a family.

I haven't got a family.

Have you got a family?

a son, a sister, a friend, a wife, a mother, a father, skates, skis, an English (German, French) magazine, a text-book, a question

**N a m u n a 2:** I have (had) dinner at two.

Do (did) you have dinner at two?

I don't (didn't) have dinner at two.

Is he having dinner now?

to have breakfast (supper), a dictation, a test, classes, one's English (German, French)

**N a m u n a 3:** I ve got (haven't got) a cold now.

I often have (don't often have) colds.

time, work, a cold, colds

**IV. to have fe'li va to have got oborotining ishlatilishiga e'tibor berib, savollarga javob bering.**

a) 1. Have you got a family?

2. How many children have you got?

3. Have you got a son?

4. Which of your friends hasn't got a family?

5. Which of you has got a sister?

b) 1. How often do you have English classes (dictations, tests)?

2. Did you have classes (a test, a dictation) last week?

3. When are you having a dictation (a test, your English)?

c) 1. Which days do you have much work to do?

2. Have you got much work to do now?



3. When do you usually have time to go to the cinema?
4. Have you got time to go to the theatre tonight?
5. Do your children often have colds?
6. Has your child got a cold now?

V. *to have* fe'li va *to have got* oborotining ishlatilishiga e'tibor berib, garlarni ingliz tiliga tarjima qiling.

a) 1. Menda Repin haqida qiziqarli kitob bor. 2. Do'stimning singlisini ikkita kichkina bolasi bor. 3. Do'stingizning oilasi kattami yoki kichkinami? 4. Do'stingizning nechta bolasi bor? 5. O'g'limda ko'p o'zbekcha kitoblar bor, biroq unda inglizcha kitoblar yo'q. 6. Kimda savollar bor? – Menda bitta savol bor.

b) 1. Siz, odatda, soat nechada nonushta qilasiz? 2. Bugun biz juda erta nonushta qildik. 3. Siz bugun kech tushlik qildingizmi? 4. Siz kecha qayerda tushlik qildingiz? – Kecha men uyda tushlik qildim. 5. Ular (hozir) tushlik qilishyaptimi?

c) 1. Afsuski bu masalani siz bilan muhokama qilishga mening bugun vaqtim yo'q. 2. Ingliz tilidan uy vazifasini qilish uchun sizning kechqurun yetarlicha vaqtingiz bormi? 3. Kecha ko'p ishingiz bormidi? 4. Marhamat qilib menga jurnalni bering, mening hozir bu maqolani o'qish uchun vaqtim bor. 5. Siz ko'p shamollaysizmi? 6. (Hozir) shamollab qoldingizmi? – Ha.

VI. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling. *Some, any* gumon olmoshlarining ishlatilishini tushuntiring.

1. *Some* children don't like to play. 2. Please give me *some* chalk. 3. Have you got *any* friends here? 4. I haven't got *any* questions. 5. I don't think we've got *any* time left. 6. Please take *any* magazine you like.

VII. Qavs ichidagi olmoshlardan mosini tanlang.

1. Do you learn (some, any) foreign languages?
2. Has your friend got (some, any) English magazines?

3. I didn't get (some, any) letters yesterday. 4. Please take (some, any) German book you like. 5. I don't think we've got (some, any) time today to discuss this question.

**VIII. Gumon olmoshlarining ishlatilishiga e'tibor berib, ingliz tiliga tarjima qiling.**

1. Siz besh yil oldin *biror* chet tilini bilarmidingiz?  
2. Siz o'tgan oy *birorta* inglizcha kitob o'qidingizmi?  
3. *Ba'zi* talabalar bu yerda (o'z) darslarini tayyorlashadi.  
4. Menda (*hech qanaqa*) nemischa jumallar yo'q. 5. Sizning Sankt-Peterburgda (*bironta*) do'stingiz bormi? 6. Menda *hech qanaqa* savol yo'q. 7. *Biron-bir* savolingiz bormi? – Ha, *bir nechta* bor. 8. Men bu gapda (*hech qanaqa*) xato ko'rmayapman. 9. Otangiz *bironta* chet tilida gapiradimi?

**IX. Namunada berilgandek gaplar tuzing (46-§).**

Namunalar: 1. Some of these articles are very interesting.  
2. Many of our friends love the theatre.  
3. Two of our students know three foreign languages.

**X. Quyidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling:**

1. Birontangizning bolalaringiz bormi? – Ha, ko'pchiligimizniki bor. 2. (Sizlardan) birontangizda savollar bormi? – Ba'zilarimizda savollar bor. 3. Muhandislarimizdan uchtasi tennisni yaxshi o'ynashadi. 4. Talabalarimizdan ikkitasi hozir shu yerda. 5. Ularning ko'plari konki uchishni yoqtirishadi.

**XI. Inglizcha o'qing.**

1956-y., 1945-y., 1915-y., 1906-y., 1900-y., 1812-y., 1366-y., 1242-y., 1441-y., 1066-y., 1854-y., 1871-y., 1147-y., 1612-y., 1496-y.

## LEKSIK-GRAMMATIK MASHQLAR

I. Quyidagi so'z va so'z birikmalarining o'qilishini mashq qilib, dars matnini ovoz chiqarib o'qing:

a girl	her husband	at the Institute
a nursery	her Institute	takes the children

II. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing:

a) child, find, wild, mild, kind, old, bold, cold, told, other, mother, brother, another, come, love, son, ton;

b) knit, rude, storey, clear, blast, cask, bleak, fit, bite, hurt, bark, right, knight, night, sink, skill, step, stern, tusk, tune.

III. Quyidagi so'zlar qaysi gap bo'laklariga kirishini aniqlang. Ularni o'zbek tiliga tarjima qiling.

teacher	lecturer	newcomer	helper
theatre-goer	spender	labourist	school-leaver
economist	maker	Darwinism	school-teacher

IV. Matnga 15 ta savol tuzing.

V. Yangi so'zlardan foydalanib, savollarga javob bering.

a) 1. How old are you?

2. Have you got a family?

3. How old is your wife (husband)?

4. How many children have you got?

5. How old is your daughter (son)?

b) 1. Are your parents very old?

2. How old is your father (mother)?

3. Where do they live?

4. How often do you go to see them as a rule?

c) 1. What does your wife do?

2. Do you think she's doing well at her Institute (at her office)?

3. How much work does she have as a rule?

4. How many subjects does she take at her Institute?

d) 1. Do your children go to school (a nursery-school)?

2. Which of your family usually takes them to school (their nursery-school)?

3. Do you think they are doing well?
  4. Does your son (daughter) help his (her) mother at home?
  5. Who helps your children with their homework?
  6. Who teaches them foreign languages?
- e) 1. When did you last have a dictation?
2. How many mistakes did you make?
  3. Did any of your friends help you to revise the words before the dictation?
- f) 1. When were you born?
2. When did you leave school?
  3. When did you graduate from your Institute?
- g) 1. Are you married?
2. When did you get married?
  3. What is your wife's (husband's) name?
- h) 1. What do students usually do in the summer (winter, spring, autumn)?
2. When do students usually have their exams?
  3. When did you last have exams?
  4. Did you spend the summer in the country or in town?
  5. Where are you going to spend the summer?

**VI. Ajratib ko'rsatilgan egalik olmoshlarini qavs ichida berilgan otlarning mos shakli bilan almashtiring.**

1. *His* daughter is a girl of ten. (my friend) 2. *Their* sons go to school every day. (his sisters) 3. *Their* parents are doctors. (these children) 4. *His* friend graduated last year. (my brother) 5. *Her* parents live in Kiev. (this girl) 6. *Her* husband is a doctor. (their teacher) 7. I like *his* lectures. (Petrov)

**VII. Kerakli joyda nuqtalar o'rniga predlog va ravishlardan mosini qo'ying.**

Mary Petrova is a women ... 32. She graduated ... the Insitute ... Foreign Languages eight years ago. She's a lecturer now. She teaches English ... an Institute. She

usually goes ... the Institute ... eight o'clock ... the morning and gets ... home ... three ... the afternoon. Her daughter Ann is a girl ... ten. She goes ... school. She spends four hours ... school every day. ... home she does her homework and helps ... her mother. Mary's son is a boy ... four. Her husband takes the boy ... a nursery-school every morning. Mary's parents do not live ... her. They live ... the country, a long way ... Moscow. ... the summer Mary takes her children ... the country and they stay ... their grandfather and grandmother.

Next week Mary and her children are leaving ... Moscow. Mary is only going to spend two weeks ... her parents. Then she's returning ... Moscow again.

**VIII. 5, 6-dars matnlaridagi barcha noto'g'ri tuslanuvchi fe'llarni ko'chirib yozing va ularning uch asosiy shakllarini bering.**

**IX. Kerakli joyga artikl qo'ying.**

My brother Peter lives in ... Kursk. He's ... young doctor. He's got ... family. He's got ... wife and two children. His wife Helen is ... teacher. She works at ... school. She hasn't got ... mother, but she's got ... father. Helen's father is ... engineer. He lives in ... country now.

... Peter's office is near his house. He goes there in ... morning and comes ... home for ... dinner, then he goes back to ... office. Peter's son goes to ... school. He's ... pioneer. Peter's daughter is ... girl of five. She goes to ... nursery-school. On Sundays all of them often go to the country to see Helen's father.

**X. Ingliz tilida o'qing.**

1870-y., 1868-y., 1825-y., 1773-y., 1837-y., 1919-y., 1708-y., 1800-y.

**XI. Berilgan fe'llardan foydalanib, gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.**

a) *to make, to do*

1. Bu talaba kecha yozma ishda kam xato qildi va

yo'zma ish uchun yaxshi baho oldi. 2. Bu ishni kecha kim bajardi? 3. Siz uyda, odatda, qanaqa mashqlar bajarasiz?

b) *to tell, to speak*

1. Mening singlim ingliz tilida juda yaxshi gapiradi va o'zining bolalarini inglizcha gapirishga o'rgatadi. 2. Biz o'z ishimiz haqida ko'p gaplashamiz. 3. Marhamat qilib u (qiz) bilan bu haqda kechqurun gaplashing. 4. Men unga (qizga) bu haqda kecha aytmadim.

c) *to leave, to graduate*

1. Siz maktabni qachon bitirgansiz? – Men maktabni 1950-yilda bitirganman. 2. Qaysi biringiz institutni 1960-yilda tamomlagansiz? 3. Mening singlim o'tgan yili Moskva Universitetini tamomladi. Hozir u nemis tilidan dars beradi. 4. Daftaringizni qayerda qoldirdingiz? – Menimcha, men uni kecha ishxonada (idorada) qoldirdim. 5. U, odatda, bu yerda o'z kitoblarini qoldiradi.

d) *to leave (for), to go*

1. Menimcha, ular Moskvadan o'tgan hafta ketishdi. 2. Menimcha, ular bir hafta oldin Minskka ketishdi. 3. Ular qachon Kiyevga ketishadi? 4. Ular Minskka uch yil avval ketishgan va hozir o'sha yerda yashashadi. 5. U (o'zining) ota-onasinikiga ketdi va ular bilan yo'zni o'tkazadi.

e) *to finish, to be over*

1. Film tugadimi? 2. Film soat nechada tugadi? – Soat beshda. 3. Ba'zan bizning darslarimiz kech soat yettida tugaydi. 4. Men u bilan gaplashmoqchi edim, biroq darslar tugab qoldi va u allaqachon institutda yo'q edi.

f) *to be born*

1. Pushkin qachon tug'ilgan? – Pushkin 1799-yilda tug'ilgan. 2. Tolstoy qachon tug'ilgan? – Tolstoy 1828-yilda tug'ilgan. 3. Lomonosov qachon tug'ilgan? – Lomonosov 1711-yilda tug'ilgan. 4. Jonatan Svift qachon tug'ilgan? – Jonatan Svift 1667-yilda tug'ilgan. 5. Choser qachon tug'ilgan? – Choser 1340-yilda tu-

g'ilgan. 6. Shekspir qachon tug'ilgan? – Shekspir 1564-yilda tug'ilgan.

**XII. Quyidagi namunalarning har biriga 5 tadan gap tuzing:**

1. My sister is 18 years old.
2. How old is our brother's son?
3. She's a women of 29.
4. My son was born in 1980.

**XIII. Yangi so'zlardan foydalanib, ingliz tiliga tarjima qiling.**

1. Mening singlimning o'g'li o'quvchi. U maktabda yaxshi o'qiydi. U, odatda, (qoida bo'yicha) yomon baholar olmaydi. Singlim, odatda, unga darslarni tayyorlashda yordam beradi. 2. Mening singillarim yo'q, lekin mening to'rtta aka-ukalarim bor. Akalarimdan ikkitasi o'tgan yili institutni tamomlashdi, ikkitasi esa maktabga borishadi. 3. Bu yosh ayol muhandis. U katta zavodda ishlaydi. Uning, odatda, ishi ko'p. Har kuni ertalab u kichik o'g'lini boqchaga olib boradi. 4. O'rtoq Klimov keksa ishchi. Uning o'g'il nabiralari yo'q, biroq uning ikkita qiz nabiralari bor. O'rtoq Klimovning birinchi (qiz) nabirasi bundan yetti yil avval tug'ilgan, ikkinchisi esa o'tgan yili. 5. O'tgan yili men ingliz tilini o'rganmasdim va menda inglizcha kitoblar yo'q edi. Hozir menda ko'p inglizcha kitoblar bor. Kechalari men, odatda, (qoida bo'yicha) inglizcha kitoblar o'qiyman. Mening xo'jayinim (erim) ham tilni biladi va ba'zan, biz inglizcha gaplashamiz. Kelasi yili men fransuz tilini o'rganishni boshlamoqchiman. 6. Mening ota-onam shahar chetida yashashadi. U yerda ularda uchta xona bor. Men, odatda, ularnikiga yozda va ba'zan qishda boraman. Men u yerga kuzda va bahorda borishni yoqtirmayman. 7. Kelasi hafta ishim ko'p bo'ladi. 8. Siz, odatda, darslaringizga qancha vaqt sarflaysiz? – Men ularga, odatda, (qoida bo'yicha) ikki soat sarflayman. 9. Nechta fan o'rganasizlar? 10. O'g'lingizga dars qilishda yordamlashmang. 11. Me-

nimcha, bu mavzularning ayrimlari juda qiziqarli. 12. Siz kelasi hafta Kiyevga ketyapsizmi? – Ha, men u yerga ota-onamni ko‘rgani boraman. 13. Bu daftarlarni kecha bu yerda kim qoldirdi?

**XIV. Ingliz tiliga tarjima qiling. (Takrorlash uchun mashqlar.)**

Besh yil avval men talaba edim. Men chet tillar institutida o‘qirdim va ota-onam bilan Moskvada yashardim. Men ikkita chet tilini o‘rgandim: ingliz va fransuz tillari. Institutda darslar soat sakkizda boshlanardi va men, odatda, ancha erta turardim. Men ko‘p vaqtimni institutda o‘tkazardim. Men ko‘p inglizcha va fransuzcha kitoblar o‘qirdim. Hozir men Moskvada yashamayman. Men institutni 2005-yili tamomladim va Tulaga ketdim. Hozir men ingliz tilidan dars beraman. Men maktabda ishlayman. Bolalarni o‘qitish menga yoqadi. Mening o‘quvchilarim ko‘p. Ular yaxshi o‘zlashtirishadi. Mening oilam katta emas, mening ikkita farzandim bor: bir o‘g‘il va bir qiz. Xotinim hozir ishlamaydi. U uyda o‘g‘lim bilan qoladi. U o‘tgan yili tug‘ilgan. Qizim besh yoshda. U maktabga bormaydi, men uni har kuni bog‘chaga olib borib qo‘yaman. Xotinim muhandis. U o‘z ishini juda yaxshi ko‘radi va yana ishlashni boshlashni xohlayapti. Mening ota-onam o‘z nabiralarni juda yaxshi ko‘rishadi. Ular bizga tez-tez xat yozib turishadi va doim yozda biznikiga kelishadi. Men, odatda, (qoida bo‘yicha), Moskvaga ota-onamni ko‘rgani qishda boraman.

## OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MASHQLAR

**I. Matnni Lavrov nomidan hikoya qilib bering.**

**II. Do‘stingizga uning oilasi haqida 10 ta umumiy, 10 ta tanlov va 10 ta maxsus so‘roq gapli savollar bering. Maxsus so‘roq gaplarda quyidagi so‘roq so‘zlarni ishlatting:**



who, what, whose, which of, where, when, how, how many, how much, how often, how well, how long

### III. Quyidagi so'z va so'z birikmalaridan foydalanib, hikoyalar tuzing:

#### 1. *My Father*

to be ... years old, to work, in the country, in the summer, to like, in the winter, to come to see

#### 2. *My Little Daughter*

to be born, to be ... years old, a nursery-school, to take smb. out, to go to the country, the week-end, one's grandmother, to stay

#### 3. *My Friend's Studies*

to have got a good friend, to go to the college, to take subjects, interesting, to help, to want, to work hard, not to make mistakes, to do well

#### 4. *My Friend's Son*

to be born in, to go to school, to do a lot of subjects, to do well, to help, parents, to leave school, to want, to begin working, a factory, late in the evening, to graduate from an evening institute, to be an engineer

### IV. Do'stingizdan ingliz tilida so'rang:

1. U qachon tug'ilgan, (asli) qayerdan, Moskvaga qachon kelgan, uylanganmi yoki bo'ydoqmi, agar bo'ydoq bo'lsa qachon uylanmoqchi, agar uylangan bo'lsa xotini qayerlik?

2. Maktab va institutda yaxshi o'qiganmi, qaysi institutni tamomlagan (tamomlayapti), ko'p ishlaydimi, idorada ishlaydimi yoki zavoddami?

3. Aka-uka, opa-singillari bormi, nechta bolasi bor, ularning ismlari nima, ular necha yoshda, ular bog'chaga borishadimi yoki maktabgami, yaxshi o'qishadimi, u ularga dars qilishda yordam beradimi, odatda, ular uy vazifasiga ko'p vaqt sarflashadimi?

**V. Quyidagi mavzularda qisqa hikoyalar tuzing:**

1. My Life.
2. My Parents.
3. My Sister's Family.

**VI. Quyidagi dialogni o'qishni mashq qiling, uni yod oling va sahnalashtiring:**

“This is my \wife.”|

“How do you \do,\* Mrs ['misiz] Brown.”|

“How do you \do, Mr Ivanov. | 'Glad to \meet you.”|

“Will you 'have some \coffee ['kɒfi], Mr Brown?”|

“\Yes, \thank you.”|

---

\* Tanishganda aytiladigan salom.

## LESSON SEVEN (THE SEVENTH LESSON)

Text: My Sister's Flat.


Grammar: 1. **there is (there are)** oboroti HZO va O'ZO da (47-§, 673-bet).

2. **can modal fe'li va to be able to** oboroti (48-§, 676-bet).

### MY SISTER'S FLAT

My 'sister ↑ left her 'Institute ↑ two 'years a go and 'went to 'work in No rilsk. She's an engi neer and 'works at a factory. She 'got a ↑ very 'comfortable 'flat 'last month in a 'new 'block of flats. It's on the 'third floor. I 'got a 'letter from my ↑ sister on the ↑ fifth of March with 'several pictures of the ↑ city and her flat.

'This is a 'picture of my ↑ sister's flat. Look at it. There's a 'study and a bedroom in it, but there 'isn't a sitting-room or a dining-room. She has a living-room and she 'uses it as a sitting-room and a dining-



room. There's 'also a ↑ kitchen and a bathroom in her flat, but you 'can't see them in ↑ this picture.

'This is her living-room. The 'walls in 'this room are yellow. The 'ceiling's white and the 'floor's brown. You can 'see a ↑ square 'table in the middle of the room. There's a ↑ vase of flowers on it. There's an arm-chair and a standard-lamp in the corner. There's 'also a piano in the room. My 'sister 'plays the 'piano ↑ very well. She loves music.

To the 'right of the piano you can 'see a door. It's open.

"Can you 'see a writing-table?" "Yes, I can."

"Are there any books on it?" "Yes, there are some."

"What else is there on the writing-table?" "There's a telephone and a radio set on it."

"Is the television set on the table too?" "No, I can't see it."

"Is there a sofa in the room?" "No, there isn't a sofa, but there's a book case in the corner."

"Which room's this?" "It's the study."

To the left of the piano you can also see a door. It's open too.

"Are there many things in ↑ that room?" "No, there aren't."

"Which room's that?" "It's the bedroom."

"Is my sister's flat comfortable?"

"How many rooms are there in her flat?"

"How d'you like your ↑ new flat?" – Yangi kvartirangiz sizga qanday yoqyapti?

"Oh, it's very nice." – Juda (u yaxshi).

"When did you move in?" – Qachon ko'chib o'tdingiz?

"I only moved in last month." – Men o'tgan oydagina ko'chib o'tdim.

## MATNGA IZOHLAR

1. \No,| there isn't a \so/fa,| but there's a \book/case in the \corner. Yo 'q, u yerda divan yo 'q, biroq burchakda kitob javoni turibdi. Bu gapda murakkab pasayuvchiko'tariluvchi ton ikki bor ishlatilyapti. (Bu haqida kirish kursining 7-darsida to'laroq tushuncha berilgan edi.) Bu yerda ton ikki bo'g'inga to'g'ri kelganligi uchun ovozning tushishi va ko'tarilishi tegishli \ va / belgilari bilan ko'rsatiladi.

### ACTIVE WORDS AND WORD COMBINATIONS

comfortable	a piano
a block of flats	to play the piano
a house	music
a floor	right
March	to (on) the right
several	open
a picture	closed
a study	a writing-table
a bedroom	else
a sitting-room	a telephone
a dining-room	to speak on the telephone
a living-room	a radio set
to use	to listen to the radio
a kitchen	to hear smth. on the radio
a bathroom	a television set
can	to see smth. on TV (on television)
to be able to	to watch TV
square	a sofa
round	a bookcase
in the middle of	left
a flower	to (on) the left
an arm-chair	a thing
a corner	
in the corner	
at the corner	

(See Vocabulary for Lesson Seven, p. 529)

### So'z yasash:

**-ure** – ot suffiksi bo'lib, t undoshidan keyin kelsa u bilan birga [tʃə] kabi o'qiladi:

a picture [ə 'piktʃə] rasm

**-able** [əbl] – sifat suffiksi bo'lib, fe'l o'zagidan sifat yasashda ishlatiladi:

to comfort tinchlantirmoq – comfortable qulay

### O'qish qoidasi

1. **cei** harf birikmasi [si:] o'qiladi, masalan:

ceiling [ə 'si:liŋ] shift                      to receive [tə ri'si:v] olmoq,  
qabul qilmoq

2. **ower** harf birikmasi [auə] kabi o'qiladi, masalan:

a flower [ə 'flauə] gul

3. **ph** [f] kabi o'qiladi, masalan:

a telephone [ə 'telifoun] telefon

## GRAMMATIK MATERIALNI DASTLABKI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

I. Quyidagi gaplarni ingliz tiliga tarjima qilinganda qaysi gaplarda *there is (there are)* oborotini ishlatlsa bo'lar edi?

1. Moskvada chiroyli binolar ko'p. 2. Kreml Moskvaning markazida joylashgan. 3. VI mashq keyingi betda. 4. 20-betda og'zaki tasvirlash uchun rasm berilgan. 5. Uning ma'ruzasida bir-ikkita xato bor edi. 6. Bu maqolada hech qanaqa qiziqarli narsa yo'q. 7. Levitanning asl nusxadagi rasmlari Tretyakov galereyasida. 8. Sibirda daryolar ko'p. 9. Sverdlov maydonida nechta teatr bor? 10. Bolshoy teatr qayerda joylashgan? – U Sverdlov maydonida joylashgan. 11. Sankt-Peterburgda tarixiy yodgorliklar ko'p. 12. Rossiyaning juda ko'p qishloqlarida XIX asrda maktablar bo'lmagan.

II. *There is (there are)* oborotining ishlatilishiga e'tibor berib, quyidagi gaplarning o'qilishini mashq qiling:

1. There's a mis\take in this sentence.|
2. There are a 'lot of 'new \words in Text Five.|
3. 'Is there a \cinema in this street?|
4. 'What's there for \dinner today?|
5. There 'isn't a uni'versity in 'that town.|
6. There's 'no 'time for it to \day.|

**III. Quyidagi gaplarni bo'lishsiz va (umumiy) so'roq gap shaklida yozing:**

1. There's a blackboard in our classroom.
2. There are some English books on the table.
3. There were very many mistakes in your dictation.
4. There's a new grammar rule in Lesson Four.
5. There was a telegram on the table.
6. There was too little ink in my pen to write two letters.

**IV. Fe'ning mos shaklini tanlab qavs oching va ega bilan kesimning tagiga chizing.**

1. There (is, are) a large table in my room.
2. There (is, are) three windows in our classroom.
3. There (is, are) a table and four chairs in my sister's room.
4. There (is, are) a blackboard, four tables and five chairs in our classroom.
5. There (is, are) a text-book and two exercise-books on my table.
6. There (wasn't, weren't) a school here in 1920.
7. There (was, were) very many children in the park yesterday.

**V. *There is (there are)* oborotini ishlatilishiga e'tibor berib, quyidagi savollarga javob bering:**

1. What is there on the table?
2. How many books are there on the table?
3. What kind of books are there on the table?
4. Is there a blackboard in your classroom?
5. Are there many tables in your classroom?
6. How many tables are there in your classroom?
7. Are there many chairs in this room?
8. How many chairs are there in this room?
9. What is there in your classroom?

10. How many mistakes were there in your last dictation?
11. Were there many children in the theatre yesterday?
12. Was there an institute in your home town ten years ago?
13. How many institutes are there in your home town now?
14. How many theatres are there in Moscow?
15. How many cinemas are there in the centre of Moscow?
16. How many pages are there in this book?

**VI. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savollar bering:**

1. There's *a nice park* in our city. (1) 2. There are *five chairs* in the room. (1) 3. There are some *English textbooks* on my table. (2) 4. There are a lot of mistakes in *your exercise-book*. (1) 5. There were *three* mistakes in *my distation*. (2) 6. There's *a new cinema* near my house. (1) 7. *Mary teaches her children* to play the piano. (2)

**VII. *There is, there are* oborotining ishlatilishiga e'tibor berib, gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.**

- A.** 1. Bizning shahrimizda ko'plab maktablar va besh-ta institut bor. 2. O'tgan yili bizning sinfimizda yigirmata o'quvchi bor edi, hozir esa faqat o'n beshta. 3. Anavi stol (usti)da ko'p jurnallar bormi? – Yo'q, faqat ikkita. 4. Bu xonada ikkita deraza bor. 5. Anavi stol (usti)da qaysi kitoblar turibdi? – Uning ustida o'zbek va ingliz tilidagi kitoblar turibdi. 6. Zavodimizda ko'p muhandislar bor. 7. Bu stol ustida (hech qanaqa) daftar yo'q. 8. Sinfingizda nechta o'g'il bola va nechta qiz bola bor? – O'n ikkita o'g'il bola va sakkizta qiz bola. 9. Besh yil oldin uyimiz oldida maktab bo'lmagan, hozir esa bu yerda katta yangi maktab bor.

- B.** 1. Stolim ustida qiziqarli kitob bor. Stol ustida qiziqarli kitob bor. 2. Uning diktantida xatolar yo'q. Bu diktantda xatolar yo'q. 3. Bu yerda ko'p qiziqarli maqo-



lalar bor. Unda (qizda), bu yerda ko'p qiziqarli maqolalar bor. 4. Bu sinfda qizlar oz. Ularning sinfida qizlar oz.

C. 1. Uyimizdan uzoq bo'lmagan joyda yangi maktab bor. Yangi maktab uyimizdan uzoqda emas. 2. Shahar markazida teatr bor. Teatr shahar markazida (joylashgan). 3. Xato beshinchi gapda. Beshinchi gapda xato bor. 4. Jurnal stol ustida (yotibdi). Anavi stolda hech qanday jurnal yo'q. 5. Bu darsda grammatik mashqlar kam. Yangi grammatik qoidalar o'ninchi sahifada. 6. Bu matnda yangi so'zlar bor. Yangi so'zlar doskada.

VIII. Namuna bo'yicha gaplar tuzing. (Yuqoridagi II mashqqa qarang.)

IX. *Can* modal fe'lining ishlatilishiga e'tibor berib, quyidagi gaplarning o'qilishini mashq qiling (48-§).

A. 1. The 'girl can \read now, | but she can't \write.

2. "What can I \do for you? | 'Can I \help you?"

"\Yes, \please."

3. "'Can I \have your \pencil for a minute?"

"\Certainly."

4. "We 'couldn't \speak 'English 'last \year."

"Can you \do it \now?"

"I'm a'fraid, I can't."

5. "'Could you \help me, please?"

"\Certainly."

B. I had some 'free \time yesterday, | and was 'able to 'go to my \friend's.

X. Quyidagi gaplarni bo'lishsiz va (umumiy) so'roq gap shaklida yozing:

1. He can skate. 2. They can come at five. 3. I can go to the theatre tonight. 4. My friend can play chess. 5. She can stay with us over the week-end. 6. They can work here.

XI. *Can* modal fe'lining ishlatilishiga e'tibor berib, savollarga javob bering.

1. Which of you can ski (skate, play volley-ball, football, tennis, chess)?
2. How well can you ski (skate)?
3. Can your child walk (read, write)? Who teaches him (her) to read and write?
4. How well can he (she) walk (read, write)?
5. Can I open the window?
6. Can I have your pen for a minute (your text-book, newspaper)?
7. Can I speak to you before or after classes?
8. When can we go to the cinema?
9. Can we go to the cinema today?
10. Which days can you usually go to the cinema or theatre?
11. Where can we get some English journals?
12. What can you see in this room?
13. How many foreign languages could you speak last year?
14. How many foreign languages can you speak now?
15. How well can you speak them?
16. Were you able to go to the cinema (theatre) last night?
17. Are you able to walk 50 kilometres ['kilə,mitəz] a day?
18. Are you able to ski all day long?
19. How many kilometres are you able to walk a day (to ski a day)?

XII. Berilgan so'z va so'z birikmalaridan foydalanib, quyidagi namunalar bo'yicha gaplar tuzing:

N a m u n a 1: My son can (can't) speak English.

My son couldn't speak English last year,  
but he can do it now.

to read, to write, to skate, to ski, to teach little children,

to play chess (volley-ball, tennis, football), to speak German (French), to walk

N a m u n a 2: "Can I leave my bag here?"

"Certainly."

"I'm afraid not."

to take, to have, to give, to tell, to speak, to go, to see, to meet, to leave, to put

N a m u n a 3: "Could you open the window, please?"

"Certainly."

to send, to get smth. for smb., to close, to do smth. for smb., to write about smth., to speak to smb.

N a m u n a 4: He was only able to see us at five.

He couldn't speak English last year.

to translate, to see, to teach, to go to the cinema (theatre, one's friend's, one's parents', the park), to go, to come to see, to speak to smb.

XIII. *Can* modal fe'li va uning ekvivalentining ishlatilishiga e'tibor berib tarjima qiling.

1. Bu gapni kim tarjima qila oladi? 2. Sizlardan qaysi biringiz ertaga ertalab kinoga bora olasiz? – Hech birimiz bora olmaymiz. 3. Kirsam bo'ladimi? 4. Sizing darsligingizni bir daqiqaga (for a minute) olsam bo'ladimi? – Albatta. 5. Bolamni bir soatga siznikida qoldirsam bo'ladimi? – Albatta. 6. Menga yordam berib yubora olasizmi? – Marhamat. 7. U sizni kutib ola oldimi? – Yo'q, u bizni kutib ola olmadi. 8. Siz ertaga kechqurun kela olasizmi? – Afsuski, ilojim yo'q. 9. Siz buni bugun qila olarmidingiz? – Ha, menimcha (o'ylashimcha), qila olardim. 10. Sizlardan qaysi biringiz inglizcha kitoblarni o'qiy olasiz? – Hech birimizning qo'limizdan kelmaydi, deb qo'rqaman. 11. Men ham kinoga borishni xohlagandim, biroq bora olmadim. 12. Men bugun bu yerda qola olmayman. 13. Savolimga kim javob bera oladi? 14. Sizlar bu savollarni dushanba kuni ertalab

muhoqama qila olasizlarmi? 15. Sizga savol bersam bo'ladimi? – Albatta.

### LEKSIK-GRAMMATIK MASHQLAR

I. Quyidagi so'z birikmalarining o'qilishini mashq qilib bo'lib, dars matnini ovoz chiqarib o'qing.

on the 'third floor      in the 'middle of the room      'Which 'room's 'this?  
in this 'picture      in the 'corner of the room      'Which 'room's 'that'?

II. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing:

a) picture, lecture, rapture, nature, culture, feature, receive, ceiling, deceive, perceive, flower, power, shower, powerful, photo, phase, phrase, phosphor, phonic

b) out, loud, bow, howl, fellow, willow, true, toil, spoil, frail, sphere, steer, tear, sour, ware, dare, lull, maid, square

III. Quyidagi so'zlarning yasalishini tahlil qiling va ularni o'zbek tiliga tarjima qiling:

comfortable	pianist	listener	specialist
picture	musical	readable	specialism
user	writing-table	comfortable	watcher

IV. Yangi so'zlardan foydalanib, matnga 15 ta savol tuzing.

V. Yangi so'zlardan foydalanib, savollarga javob bering.

a) 1. Are you married?

2. Do you live in a house or a block of flats?

3. Which floor is your flat on?

4. Is your flat comfortable? How many rooms are there in it?

5. Have you got a dining-room?

6. What is there in your dining-room (bedroom, study)?

7. What is there in the middle (in the corner) of your dining-room?

8. Is the table in the middle of your dining-room or in the corner?
  9. Do you like flowers? Are there usually many flowers in your flat?
- b)
1. Do you like music?
  2. Have you got a piano?
  3. Can you play the piano?
  4. When did you learn to play it?
  5. When do you usually play it?
  6. Who else can play the piano in your family?
- c)
1. Have you got a telephone?
  2. Is it in the living-room or the study?
  3. Which of your family likes to speak on the telephone?
  4. Do you usually discuss things with your friends on the telephone or when you see them?
- d)
1. What kind of TV set have you got?
  2. Do you like watching TV?
  3. When did you last watch TV? What did you see?
  4. Do you like seeing new films on TV?
  5. What else can we see on TV?
  6. Where do your family usually sit when they watch TV? (On the sofa or the chairs?) Which of them likes sitting in an (the) arm-chair?
- e)
1. Have you got a good radio set? How often do you use it?
  2. How often do you listen to the radio?
  3. What can we hear on the radio?
  4. Do you think that the radio helps you to learn English?

#### VI. Kerakli joyga artikl qo'ying.

This is ... picture of my study. Look at it. There's ... large window in my study. ... ceiling's white, ... floor's brown, ... walls are yellow. There's ... writing-table

near ... window and ... arm-chair near it. You can see ... telephone and ... lamp on ... writing-table. I often speak on ... telephone. There's ... bookcase to ... right of ... writing table. There aren't many English books in ... bookcase; but there are ... lot of ... Russian books in it. There isn't ... piano in my study. ... piano is in ... living-room. My sister loves ... music, and often plays ... piano in ... evening. There's ... sofa in ... corner of my study. I usually spend ... lot of ... time in my study. I work there in ... evenings on ... weekdays and in ... morning or afternoon on my days off.

**VII. Kerakli joyda nuqtalar o'rniga predloglardan mosini qo'ying.**

'Brown: It's 'very \good. 'What about the \price? It will be 'rather ex\pensive,<sup>ε</sup> \won't it?

Pe'trov: I 'don't \think so, Mr Brown. We'll be 'selling these 'watches at \reasonable \price. They'll be 'cheaper than \Swiss \watches and they 'aren't \worse<sup>ε</sup> at \all\ they're 'even \better.

'Brown: I 'think I'll 'have to dis↑cuss the 'matter with my ↑ people in \London. 'Could I 'see you about it a\gain, Mr Petrov?

Pe'trov: \Certainly. 'When would you 'like to \come?

'Brown: The 'day after to\morrow<sup>ε</sup> at e\ven<sup>ε</sup> if 'that's all 'right for \you.

Pe'trov: \Yes. 'that'll be ↑ quite 'all \right. I'll be 'waiting for you at e\ven.

---

business ['biznis] – bu yerda savdo bitimi

model [mɒdl] – model

price – narx

reasonable – bu yerda qulay (narx)

the matter – bu yerda bu masala

## LESSON SIXTEEN (THE SIXTEENTH LESSON)

Text: From Verkhoyansk to Sukhumi.

Grammar: 1. Ravishlarning darajalari. (75-§, 723-bet.)

2. as ... as, not so ... as qiyoslash konstruksiyalari.  
(76-§, 724-bet.)

3. Ot va fe'l shaxsi noma'lum gaplar.(77, 78-§§, 725-bet.)

4. O'rindosh so'zlar. (79-§, 2, 3-punktlar, 726-727-betlar.)

### FROM VERKHOYANSK TO SUKHUMI

I got up earlier **than usual** yesterday, as I had to go to the **airport** to meet my old friend Boris Petrov. We went to school together, then we went to the **same** college in Moscow, but now we live in different **parts** of the **Russian Federation**. Boris lives and works in the North of our country, in Verkhoyansk, and I live by the sea in Sukhumi. I wrote to him a few months ago to **invite** him to my place for a holiday. Soon I got an answer. He thanked me heartily for the **invitation** and asked me to meet him at the airport on the 20<sup>th</sup> of April.

"I hope you won't **mind** if I bring my wife and my son with me," he wrote.

When I went out, it was early morning.<sup>1</sup> The **air** was **fresh**, the **sky** was blue, and the sun was **shining**. In Sukhumi it's usually very fine in April. It doesn't often **rain** and it's not very **hot** yet. I like Sukhumi at this time of year best of all.

I took a taxi and **started** for the airport. "I'm afraid I **may** be late," I said to the **driver** and asked him to go faster. We reached the airport in time: the **plane** was just **landing**. It was only half past six in the morning, but it was as warm as in the afternoon.

The passengers were getting out of the plane. I went up to the plane and saw a group of people who looked very funny in this warm weather: all of them had warm winter clothes on.

"Hallo, glad to see you," I said, when I recognized Boris in the group.

"Hallo, old man, this is my wife and my son," Boris said.

"Pleased to meet you. I hope you had a good journey," I said. "Aren't you dressed a bit too warmly? It's not so cold here as in Verkhoyansk, is it?"

"I think it's just a little warmer," Boris agreed and laughed, "but when we left home, it was snowing hard<sup>2</sup> and we weren't at all hot.<sup>3</sup> D'you know how cold it was there that day? You won't believe it: almost 35° below zero<sup>4</sup>, let alone the biting winds."

"Ah, well, take off your coats, and let's hurry home. The taxi is waiting. It won't take us long. I'm sure you'll like it here."

## DIALOGUE

(to be learned by heart)

A.: 'What 'season d'you like ↑ best of \all?

B.: I 'like \summer. I'm a 'good \swimmer and I 'like \boating.

A.: 'I think ^winter<sup>ε</sup> is as 'good as \summer. 'Don't you 'like \skiing<sup>ε</sup> or \skating<sup>ε</sup> on a 'clear 'winter \day?

B.: ^Yes, but I 'haven't 'got e↑nough \time to go ^skiing, and I 'can't ^skate at \all.

A.: 'Are you 'going for a 'holiday in the \summer this year?

B.: I'm a'fraid \not. I shall be 'having my \holiday<sup>ε</sup> in the \autumn. I 'hope it 'won't be ↑ raining all the \time.

A.: 'Then you should 'go to the \South. | They 'say  
 † autumn is the \best season ^there. | There's 'also a † lot  
 of \fruit there at that time of year. | I'm 'sure you'll en'joy  
 your 'holiday in the \autumn. |

"When are you 'having your \holiday this year?"	- Bu yil qachon ta'tilga chiqmoqchisiz?
"Very \soon.   In a 'couple of \days, to be exact."	- Juda tez kunda. Aniqrog' g'i, bir-ikki kundan so'ng.
"\Are you?   'How \lucky,   I'll be having ^†mine this month \too.   'What a'bout 'going to the \riverside together?"	- Rostdanmi? Qanday yax- shi. Men ham shu oy ta'til- ga chiqaman. Keling, biror joyga - daryo bo'yiga bir- ga boramiz?
"I'm 'all \for it.   I'd be de \lighted."	- Men roziman. Bajon-u dil.
"\Splendid.   'See you to \morrow then."	- Ajoyib. Unda ertagacha.

## MATNGA IZOHLAR

1. ... it was early morning. ... *erta tong edi.*

Taqqoslang:

- |  |   |
|--|---|
| a) It was early <b>morning</b> .   | Erta tong edi.  |
| It is <b>afternoon</b> .   | Tush payti.   |
| It was late <b>evening</b> .   | Kech oqshom edi.  |
| (artikl ishlatilmaydi)   |   |
| b) We started for the country<br>on a <b>fine September<br/>     morning</b> .                   | Ajoyib sentabr tongida<br>biz shahar chetiga otlan-<br>dik. |
| (tasvirlovchi aniqlovchi bilan noaniq artikl ishlatiladi)  |   |
| c) The plane landed <b>in the<br/>     morning (in the evening,<br/>     in the afternoon)</b> . | Samolyot saharga<br>(kechqurun, kunduzi)<br>qo'ndi.         |
| (sutka paytlarini ko'rsatishda aniq artikl ishlatiladi)  |   |

2. It was snowing hard ... *Qor kuchli yog'ardi ...*  
Ushbu gapda **hard** so'zi *kuchli* deb tarjima qilinadi. Xuddi  
shu ma'noda u to rain hard birikmasida ham ishlatiladi:

Is it still **raining hard**?      Hali ham yomg'ir kuchli  
yog'yaptimi?

3. ... we weren't at all hot ... *biz uchun u qadar issiq emas edi.* Warm, hot, cold sifatlari nafaqat shaxsi noma'lum gaplarga, balki shaxsi ma'lum gaplarda ham ishlatiladi:

I'm cold.      Men sovqotdim.  
They were warm.      Ularga issiq edi.  
Take off your coat. You'll be hot.      Paltoingizni yeching. Issiqlab ketasiz.

4. 35° (thirty-five degrees) below zero [bi'lou 'zi:rou]  
35° daraja sovuq (noldan past)

#### ACTIVE WORDS AND WORD COMBINATIONS

usual	rain
than usual	to rain
as usual	hot
an airport	to start
(the) same	may
all the same	a driver
(a) part	to drive (drove, driven)
to take part in smth.	a plane
to invite	by plane
an invitation	to land
to mind	a passenger
Would you mind (doing smth.)?	to get out of (= to get off)
air	to get on (into)
in the open air (out-of-doors)	a group
to travel by air	funny
fresh	to have smth. on
the sky	to put on smth.
to shine (shone, shone)	clothes

to agree (with)  
to laugh (at)  
snow  
to snow  
to believe  
almost  
let alone

to take off  
to be sure  
a heart  
heartily  
a season  
to go boating  
to enjoy

(See Vocabulary for Lesson Sixteen, p. 568)

### So'z yasash

**-ment** [mənt] – ot suffiksi; fe'lga qo'shilib ot yasaydi, ko'pincha mavhum otlar yasashda:

to agree rozi bo'lmoq – agreement rozilik

**un-** [ʌn], **in-** [in] – sifat va ot old qo'shimchasi bo'lib, so'z o'zagidagi ma'noni rad etadi yoki yo'qligini bildiradi. Bunday old qo'shimchalarni bo'lishsiz old qo'shimchalar deyiladi.

Taqqoslang:

usual odatiy – unusual noodatiy

definite aniq – indefinite noaniq

im - [im]

il - [il]

ir- [ir]

in- old qo'shimchasining fonetik variantlaridir.

possible iloji bor – impossible ilojisiz

legal qonuniy – illegal noqonuniy

regular to'g'ri – irregular noto'g'ri

**mis-** [mis] fe'l va ot old qo'shimchasi bo'lib, so'z o'zagidagi ifodani noto'g'ri yoki noaniqligini bildiradi. Bu old qo'shimcha ham bo'lishsiz hisoblanadi.

to use foydalanmoq – to misuse [tə 'mis'ju:z] noto'g'ri ishlatmoq

## GRAMMATIK MATERIALNI DASTLABKI MUSTAHKAMLASH UCHUN MASHQLAR

I. Quyidagi ravishlarni ingliz tiliga tarjima qiling va ularning darajalarini ko'rsating. (75-§)

a) yaqin, erta, kech, oz, tez orada, tirishqoqlik bilan, baxtli, kuchli, kuchsiz, sekin, tez, baland ovozda, jahil bilan, iliq;

b) yaxshi, ko'p, uzoq, kam, yomon;

c) kamdan kam, qulay, chiroyli.

**II. Ravishlarning darajalariga e'tibor berib, savollarga javob bering.**

1. Do you speak English better now than you did three months ago, or worse?
2. Where do you usually speak slower, in class or at exams?
3. When do we usually ask people to speak louder?
4. Do you work harder at your English now than you did last months?
5. Did the students come to classes yesterday earlier than the teacher did, or later?
6. Which of you can play chess best?
7. Which of you can skate (ski) faster?
8. Which of the new films did you like best?
9. Do you read more now than you did in your childhood, or less?
10. Do you get home earlier on Thursday than on other week-days?

**III. Har bir namunaga 3 tadan gap tuzing.**

1. I speak English worse than my sister does.

2. Nick knows English best.

**IV. Ravishlarning darajalariga e'tibor berib, gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.**

1. Marhamat qilib balandroq gapiring, ~~men~~ sizni yomon eshityapman. 2. Agar sen bugun uyga ~~kechroq~~ kelsang, bir o'zing ovqatlanishingga to'g'ri keladi. 3. Siz yozma ishni hammadan yomon yozgansiz. 4. Pete' x-shiroq o'qiy oladi, agar ingliz tiliga ko'proq vaqt sarflasa. 5. Siz til ustida ko'proq ishlashingiz kerak, agar ingliz tilida yaxshiroq gaplashmoqchi bo'lsangiz. 6. Kelinglar, ertaga kutubxonaga ertaroq boramiz, maylimi? U yerda unchalik ko'p odam bo'lmaydi. 7. Siznikiga o'z vaqtida

yetib kelish uchun biz ertaga ertaroq turamiz. 8. Moskva kinoteatrlaridan qaysi biri menga ko'proq yoqqanligini so'rashdi.

**V. Nuqtalar o'rnini *as...as*, (*not*) *so ...as* bog'lovchilari bilan to'ldiring va gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling. (76-§)**

1. Her husband is ... old ... yours. 2. His daughter is ... young ... mine. 3. Are there ... many places of interest in Moscow ... there are in Saint Petersburg? 4. This building is ... high ... our Institute. 5. "Is Lesson Sixteen ... simple ... Lesson Fifteen?" "No, Lesson Fifteen is not ... simple ... Lesson Sixteen, it's more difficult." 6. Have you got ... many friends in Kiev ... you have in Moscow? 7. This year you don't work at your English ... much ... you did last year, do you? 8. Literature is ... interesting to me ... History. 9. Is your son doing ... well this year ... he did last year?

**VI. Qiyoslash konstruksiyasidagi bog'lovchilarga e'tibor berib, savollarga javob bering.**

1. Is Saint Petersburg as big as Moscow?
2. Is the Volga as long as the Don?
3. Is your friend's flat as large as yours? Which is larger?
4. Do you know English as well as Russian?
5. Can you learn new foreign words as easily now as you did in your childhood?
6. Wasn't the weather so nice yesterday as it is today?
7. How many days are there in April? What other months are as long as April?
8. Which months are longer (shorter) than April?
9. Was last winter as cold (warm) as this winter?
10. Why isn't it so difficult to get up early in the summer as it is in the winter?
11. Why don't you get up as early on Sunday as you have to do on week-days?

**VII. Qiyoslash konstruksiyasi tarjimasiga e'tibor berib, gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.**



1. Mening xonam xuddi siznikidek yorug'. 2. Kiyev Moskvachalik katta shahar emas. 3. Toshkent metrosi Moskva metrosidek chiroylimi? – Ha. 4. Onangizning yoshi otangizning yoshi bilan tengmi? – Yo'q, oyim dadamchalik katta (qari) emas. 5. Kecha havo bugungichalik yaxshi emasdi. 6. Bu yil qizingiz o'tgan yilgidagidek yaxshi o'qiyaptimi? 7. Men hozir uyga avvalgidek kech kelmayapman. 8. Men ertaga bugungichalik band bo'lmayman. 9. Agar ertaga bugungidek yomon havo bo'lsa biz shahar tashqarisiga bormaymiz.

**VIII. Har bir namunaga 5 tadan gap tuzing.**

1. This street will be as wide as Gorky Street.

2. Our house is not so high as theirs.

**IX. Quyidagi gaplarning (umumiy) so'roq va bo'lishsiz darak gap shakllarini yozing.**

a) 1. It's always cold in January. 2. It was simple to translate that letter. 3. It was warm yesterday. 4. It'll be interesting for you to read this book. 5. It'll be easy to find the railway station. 6. It's difficult for him to read this text.

b) 1. It rains in autumn. 2. It rained all day long yesterday. 3. It's raining now. 4. It was raining at five o'clock yesterday. 5. It snows in October. 6. It'll be raining very often soon. 7. It's going to rain.

**X. Kerakli payt hollaridan foydalanib, gaplarning o'tgan va kelasi zamon shakllarini yozing.**

1. It's easy to understand this text, isn't it? 2. It's interesting to listen to your stories. 3. Is it difficult for you to learn grammar rules? 4. It's dark in the room, isn't it? 5. It doesn't often snow here in winter. 6. It doesn't rain here very often at this time of year. 7. It's important for me to finish the work today.

**XI. Shaxsi noma'lum gaplarga e'tibor berib, gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.**

1. Bu masalani muhokama qilishga hali ancha erta.

2. Biz qachon ketishimizni unga bugun aytishimiz juda muhim.
3. Qish. Nihoyatda sovuq. Tez-tez qor yog'yapti, ba'zida men uydan chiqishni umuman xohlamayman.
4. Qishda erta turish juda qiyin, chunki ertalab hali qorong'i bo'ladi.
5. Boris fransuz va nemis tillarini biladi, shuning uchun ingliz tilini o'rganish unga oson.
6. Yurishga qiynalyapsizmi? Keling, taksi to'xtataylik.
7. Petrov institutni tamomlagani hech ajablanarli emas, u ko'p shug'ullandi.
8. Yomg'ir yog'ishni boshladimi? – Yo'q hali, biroq tez orada yog'a boshlaydi.
9. Men uydan chiqqanimda yomg'ir yog'ayotgan edi.
10. Bu yerda yomg'ir qanchalik tez-tez (ko'p) yog'adi?
11. Bugun ertalab yomg'ir yog'ayotgan edi, hozir esa qor yog'yapti.
12. O'tgan hafta ko'p qor yog'di.

**XII. Kerakli o'rinlarda ajratilgan so'zlarni o'rindosh so'zlar bilan almashtiring. (79-§.)**

1. This English book is too easy for me. Please give me a more difficult *book*.
2. My sister knows German much better than I *know it*.
3. I don't like these pictures. They're too dark. I saw better *pictures* in a shop in our street. Let's go and have a good look at them.
4. I think this show will be more interesting than the last *show*.
5. His work is more important than *your work*.
6. The examiner spoke faster than our teacher usually *speaks*.
7. We reached the wood earlier than our friends *reached it*.
8. I don't like this suit. Please show me another *suit*.
9. This book is less interesting than the *book* you gave me yesterday.

**LEKSIK-GRAMMATIK MASHQLAR**

- I. Quyidagi so'z birikmalarining o'qilishini mashq qilib, dars matnini ovoz chiqarib o'qing:**

at <u>the</u> \airport	'very \warm
at <u>this</u> 'time of \year	'very \fine
'reached <u>the</u> \airport	'warm \weather

**II. Quyidagi so'z birikmalarining o'qilishini mashq qilib, dialogni ovoz chiqarib o'qing:**

you 'like best and 'like boating in the summer  
is the best 'skiing or skating in the autumn

**III. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing:**

gale, gem, log, bigger, better, hotter, traffic, stopped, stagger, album, mummy, penny, gym, month, velvet, mixture, yard, exact, knave, whoop, wright, veal, plaster, goal, drew, whip, pond, whim, daddy, flask

**IV. Quyidagi so'zlar qaysi yo'l bilan va qaysi o'zakdan yasalganini, qaysi gap bo'lagiga tegishli ekanligini aniqlang va ularni o'zbek tiliga tarjima qiling:**

indefinite	unsuitable	invitation
impossible	mis-spell	unwritten
illegal	agreement	retirement
irregular	payment	unthinkable
	continuation	landing
	flowery	rainy
	playable	seaport
	parentless	driver

**V. Darsdagi yangi so'zlardan foydalanib, savollarga javob bering.**

- a) 1. Do you always get up at the same time?  
2. When do you get up later than usual (earlier than usual)?  
3. Would you like to start work at your office later than you do now or is it all the same to you?
- b) 1. Are you going to take part in our English show?  
2. Who else has been invited to take part in it?  
3. What will you have to learn by heart for it?
- c) 1. Do you like traveling by air?  
2. What kind of transport do you like best of all?  
3. How many airports are there in Moscow (in your home town)?  
4. How long does it take to get to the South by plane?

- d) 1. Does your son (daughter) spend enough time in the open air?  
 2. Why is it necessary for children to spend a lot of time out-of-doors (in the open air)?  
 3. Do you only take your son (daughter) out in nice weather like today?
- e) 1. What's the weather like today?  
 2. Is it cold (hot, warm) out (outside)?  
 3. Is it raining (snowing)? Is the air fresh? Is the sun shining?  
 4. Is it as cold (warm, hot) today as it was yesterday?

VI. Quyidagilarni bajaring:

Ask your friend	whether he minds	<ul style="list-style-type: none"> <li>if you smoke here.</li> <li>if you open the window.</li> <li>if you close the door.</li> <li>if you leave him for a minute.</li> <li>if you ring him up this morning.</li> </ul>
	whether he would mind	<ul style="list-style-type: none"> <li>opening the window.</li> <li>closing the door.</li> <li>bringing you the journal.</li> <li>telling you the way to his place.</li> </ul>
		<ul style="list-style-type: none"> <li>if it rained yesterday.</li> <li>if it's going to rain soon.</li> <li>if it snowed hard last winter.</li> <li>if it was warm yesterday.</li> <li>if it was raining when he went out.</li> <li>if it will be raining much this autumn.</li> </ul>

VII. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savollar qo'ying.

1. We reached the airport *early in the morning*. (1)
2. The *second* part of this book is more interesting. (1)
3. *My friend* invited *me* to dinner *on Sunday*. (3)
4. It often rains here *in autumn*. (1)
5. *I* like to be out-of-doors. (1)
6. *When we went out* it was snowing hard. (1)
7. I can see *several planes* high in the sky. (1)

**VIII. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardan oldin artikl ishlatilishiga e'tibor berib, gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.**

1. a) Bu xona *bahavo*. b) O'sha kuni *havo* juda toza edi.
2. a) Iyulda, odatda, *ob-havo* yaxshi bo'ladi. b) Men yomg'irli *ob-havoni* yoqtirmayman.
3. a) Uyimizdan uzoq bo'lmagan joyda *aeroport* bor. b) Biz *aeroportga* o'z vaqtida keldik.
4. a) Siz osmonda *samolyot* ko'ryapsizmi? b) Biz *aeroportga* kelganimizda *samolyot* qo'nayotgan ekan.
5. a) *Shahar* juda chiroyli edi. b) Sankt-Peterburg juda chiroyli *shahar*.
6. a) Mening akam – *haydovchi*. b) Biz *haydovchidan* tezroq yurishini so'radik.
7. a) *Choy* sovuq edi. b) Men sovuq *choyni* yoqtirmayman.
8. a) *Kastum* juda yaxshi, biroq menga uning rangi yoqmayapti. b) Men yangi *kastum* sotib oldim.
9. a) *Kun* issiq edi. b) Bu ishga (bir) *kun* ketadi.

**IX. Quyidagi so'zlarga sinonimlar toping:**

to return, to receive, to speak, quickly, expensive, to ask to dinner, in the open air, to start by plane, to like

**X. Quyidagi so'zlarga antonimlar toping:**

to buy, to get off, late, strong, better, cold, quickly, buyer, inside, the same thing, to put on, to disagree, possible, unnecessary

**XI. Nuqtalar o'rnini mos predlog bilan to'ldiring.**

1. Could you ask your friend to take part ... our meeting?
2. It's more difficult ... me to learn something ... heart now than it was a few years ago.
3. Do you mind if the children have part ... their classes ... the open air?
4. I enjoyed travelling ... ship.
5. We got ... the bus and ... five minutes it started.
6. Will you help the old woman to get ... the bus, please?
7. It's very cold outside. I think we'll have to put ... warm (warmer) things.
8. Shall we take ... our hats and coats? It's very warm in here.
9. I wonder what they were laughing ... when I came ... the room.
10. Are you going to invite any ... your friends ...

dinner ... Sunday? 11. Your friend will be pleased ... his new work. I'm quite sure ... it. I've talked ... him ... it and told him that the work is difficult, but very interesting, and he agreed ... me. 12. I wonder why you don't agree to go ... Batumi ... plane. It'll take you much less time.

**XII. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning tarjimalariga e'tibor berib, gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.**

a) 1. Mening bugun darslarga yaxshi tayyorgarlik ko'rishga yetarli vaqtim yo'q, shahar chetiga chiqishni *aytmasa ham bo'ladi*. 2. U (bola) u (qiz)ning ismini bilmasdi, uning manzilini-ku *aytmasa ham bo'ladi*. 3. Mening unga telefon qilishga ham vaqtim bo'lmadi, unikiga kirib o'tish *u yoqda tursin*.

b) 1. Ular, odatdagidek, erta yo'lga *otlanishdi*. 2. Ni-hoyat, avtobus o'rnidan *qo'zg'aldi*. 3. Ular kelishlari bilanoq biz muhokamani *boshlaymiz*.

c) 1. U allaqachon maqolaning (bir) *qismini* yozib bo'ldi. 2. Ular ishning (bir) *qismini* tugatishdi. 3. Ki-tobning ikkinchi *qismi* uning birinchi qismichalik qiziqarli emas. 4. Siz hammangiz muhokamada *ishtirok etishni* xohlaysizmi?

**XIII. Quyidagi gaplarda berilgan so'zlarni qo'llang:**

a) *may modal fe'li:*

1. Perhaps they'll come tomorrow morning. 2. Perhaps she's still in Moscow. 3. Perhaps he'll write to us one of these days. 4. Perhaps she won't agree with you. 5. Perhaps they'll be out when you get to their place.

b) *to enjoy fe'li:*

1. The film wasn't as good as the one we saw last week, and we didn't like it. 2. Did you like your last journey? 3. I'm sure you'll like the book.

**XIV. Iboralardan foydalanib, quyidagi fikrlarga o'z munosabatingizni bildiring:**

I quite agree with you.

I don't quite agree with you.

You're right.

I'm afraid you're not quite right.

1. It's as cold in March as it is in January. 2. February is the shortest month in the year. 3. It's as warm today as it was yesterday. 4. Little children shouldn't spend very much time out-of-doors. 5. It's very difficult to learn to drive a car. 6. We have to put on warm clothes in September. 7. It's impossible to learn a foreign language in two years.

**XV. Iboralardan foydalanib, suhbatdoshingizga iltimos bilan murojaat qiling.**

Could (can) you ..., please?

Will you ....., please?

I wonder if you can (could) ...?

Would you mind ...?

**XVI. Dialoglarni o'zlashtirma gapda aytib bering.**

1

*Ann:* Would you like to go shopping at once or a little later?

*Mary:* It's all the same to me.

*Ann:* Then let's go a little later, shall we? I'll do part of my homework before we go.

2

*John:* It's very hot in here. Do you mind if I open the window?

*Ann:* Of course not. I was just going to ask you to do so.

*John:* Look! It's stopped raining and the sun's shining again.

*Ann:* Yes, the weather's wonderful, isn't it? Shall we go out for a short time? Then we'll go on with our work.

*John:* I'm very pleased to see you, old man. Take off your hat and coat and leave them here. It's rather warm in here. Did you have a pleasant journey?

*Peter:* Yes, thank you. The journey was really wonderful. I came by plane, so I wasn't hot at all and it only took me an hour and a half to get here.

*Mary:* Haven't you invited Jane?

*Ann:* Yes, I have. I don't know why she hasn't come yet.

*John:* She may still come, you know. It's only six.

*Peter:* I'm sure she'll be coming soon. She's always late. It'll be strange if she isn't. Here she comes. What did I say?

**XVII. Darsning yangi so'zlaridan foydalanib, gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.**

1. Siz Nikolayni kutib olgani aeroportga borasizmi? – Albatta. U yana Moskvadaligidan men shunaqa (so) xursandmanki. – Sizlar bitta institutda o'qiganmisizlar? – Ha, va bundan tashqari 1981-yili bitta zavodda ishlaganmiz. 2. Siz professor Ivanovni taklif qildingizmi? – Ha, u olti yarimda bo'lishini aytdi. 3. Kecha juda yomon havo bo'ldi va biz o'rmonga bormadik. 4. Kecha shahar tashqarisida yomg'ir yog'dimi? – Yo'q. – Qiziq, Moskvada esa juda kuchli yomg'ir yog'di. 5. Bugun tashqari(da) juda iliq. Derazani ochsam qarshi emasmisiz? 6. Hozir men odatdagidan erta turyapman, chunki otam va aka-ukalarim uchun nonushta tayyorlashimga to'g'ri kelyapti. 7. Sizda yangi gazetalar bormi? 8. Bugun havo kechagidek yomon. Quyosh charaqlamayapti, juda sovuq va qor yog'ishi mumkin. 9. Agar biz vokzalga tramvayda borsak, biz kech qolamiz. Keling, taksi to'xtatamiz, maylimi? 10. Iltimos, bolalarga birorta kulgili hikoya



aytib bering. Ularga hammasidan kulgili hikoyalar yoqadi. 11. Bu soatlarni qayerdan sotib oldingiz? – Markaziy univermagdan. – (Ular) Qimmatmi? – Men ular uchun o‘ttiz besh rubl to‘ladim. – Juda chiroyli soatlar ekan. Menga ular o‘zimiridan ham ko‘proq yoqyapti. 12. Bu yerda fevral yilning eng qorli va sovuq oyidir. 13. Bu palto eskisidan ko‘ra issiqroq va men uni kiyib olaman. Bugun tashqari juda sovuq. 14. Siz ishni tamomladingizmi? – Yo‘q, men uning faqat (bir) qismini bajardim. 15. Yoz Moskvada issiqroqmi, yoki Sankt-Peterburgdami? – Albatta, Sankt-Peterburgda yoz Moskvadagichalik issiq emas. 16. Guruhimizning ko‘pgina talabalari ingliz tili ustida qattiq ishlamoqdalar.

## *OG 'ZAKI NUTQ KO 'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MASHQLAR*

### **I. Quyidagi vaziyatlarni shaxslar nomidan tasvirlang:**

- a) Boris Petrovning Verxoyanskdan ketishga tayyorgarligi;
- b) uning Suxumiga kelishi;
- c) Suxumiga kelgan kunning ertasi kuni (dengiz bo‘ylab sayr).

### **II. Dars matnidan keyingi dialogni yod oling.**

### **III. Boris Petrovning Verxoyanskdan ketish chog‘idagi va Suxumiga kelgan kunidagi ob-havoni tasvirlang.**

### **IV. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalaridan foydalanib, hikoyalar tuzing:**

1. to invite, to be pleased, to get the invitation, to agree to join, to put on one’s best dress, to start
2. to spend the week-end out-of-doors, to start early, to put on, fresh air, to shine, to get off a bus, to enjoy the walk, to tell funny stories, to laugh
3. to start early, to be cold, to have warm clothes on, to get warmer, to have to take off

4. a funny film, to laugh, to enjoy, to tell (not) to agree with smb.

5. to wait at the airport, to land, as usual, passengers, to get off (a plane), to enjoy the journey, to be pleased to see, to mind

V. "The season I like best" mavzusida insho yozing.

VI. Ramka ichidagi dialogni yod oling va sahnalashtiring.

VII. Quyidagi dialogning o'qilishini mashq qiling, uni yod oling va sahnalashtiring:

"I 'hope you're enjjoying your \stay \here, Mr Brown."

"Of \course, it's \wonderful. We've al'ready 'seen a \lot, and I 'must 'say I ↑ like your 'frosty \winter, \too."

"You've al'ready 'been to the \country, I 'haven't you?"

"Not \yet, I'm sorry to say."

"Then I'm a \fraid I 'don't 'really \know 'what a ↑ Russian \winter is \like. 'What about 'going to the \country with us, 'this \Sunday?"

"Oh, I'm 'all \for it, and my 'wife will be de \lighted, I'm \sure."

"We 'usually 'start ↑ rather \early, at a 'quarter to \eight, to be \exact. I 'hope it 'won't be ↑ too \early for you, will it?"

"Not at \all. It's 'quite all \right."

"Splendid! 'See you on ↑ Sunday 'morning in the ↑ hotel \hall then."

"Thank you ↑ very \much, Mr Petrov. It's 'really ↑ very \nice of you."

---

a stay – bo'lish, qolish

really ['ri:əli] – bu yerda chindan, rostdan

I'm all for it. – Men to'la qo'shilaman (og'zaki)

to be exact [ig'zækt] – bu yerda aniqrog'i

## LESSON SEVENTEEN (THE SEVENTEENTH LESSON)

Text: The United Kingdom.

Grammar: Atoqli otlar bilan artiklning ishlatilishi. (80-§, 727-bet.)

### THE UNITED KINGDOM

The UK (short for United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland) is situated on two large **islands** called the British Isles. The larger island is Great Britain, which **consists of** three parts: England,<sup>1</sup> Scotland and Wales, and the smaller is Ireland. Southern Ireland, now called Eire or the Irish Republic, is independent of the UK.

The country is **washed** by the Atlantic **Ocean**, the North Sea and the Irish Sea, which is between Great Britain and Ireland.

If you **travel** to England from the **Russian Federation**, it will take you two days to **pass through** several countries on the **Continent by train**, and six more hours to **cross** the English Channel by boat.<sup>2</sup> You can also **fly** there, and then the journey will only take you three and a half hours.

There are **mountain chains** in Scotland, Wales and North-West England, but they are not very high. North-West England is also **famous for** its beautiful **lakes**.

The longest river in England is the Severn, and the **deepest** is the Thames, on which stands the capital of England, London.

The UK is a highly-developed industrial country. She exports machinery, vessels, motors and other goods.<sup>3</sup> One of her **main** industries is the textile industry and a lot of British textiles are exported. The UK buys more goods than she sells because she has to import food products and

raw materials from many countries of the **world** including the **Russian Federation**.

## MATNGA IZOHLAR

1. **Great Britain** ko'pincha nafaqat orol nomi, balki, davlatning rasmiy nomi: **The United Kingdom of Great Britain and Northern Ireland** *Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligiga* sinonim tariqasida ham ishlatiladi. **England** so'zi geografik ma'noda butun davlatni ifodalash uchun ishlatiladi.

2. ... and six more hours to cross the **English Channel** by boat. ... va yana *La-Manshni* kemada kesib o'tish uchun olti soat.

O'zbek tilidagi *yana* so'zi ingliz tilida turlicha berilishi mumkin. Ko'plikdagi sanalmaydigan va sanaladigan otlar bilan qo'shimcha miqdorni ifodalashda **more** sifati ishlatiladi.

Please give me **three more** exercise books. Menga *yana uchta* daf-tar bering.

The boy wanted **some more** soup. Bola *yana sho'rvadan* xohlardi.

O'zbek va ingliz tillaridagi gapdagi so'z tartibiga e'tibor bering.

Taqqoslang:

Menga *yana* ikkita kitob bering. Please give me **two more** books.

Menga, marhamat qilib, *yana* biroz sut bering. Please give me **some more** milk.

Birlikda sanaladigan otlarga qo'shimcha miqdorni ifodalash uchun *yana bitta* ma'nosidagi **another** gumon olmoshi ishlatiladi:

Please give me **another** cup of tea. Iltimos, menga *yana* bir finjon choy bering.

**What qaysi?, qanaqa?** so'roq olmoshidan so'ng *yana* (*boshqa*) ma'nosida **other** so'zi ishlatilib, o'zidan keyin keluvchi otga aniqlovchi bo'lib keladi:

**What other** books by Jack London have you read? Jek Londonning *yana qaysi* (*boshqa*) kitoblarini o'qigansiz?

**What nima?** so'roq olmoshidan so'ng, va shuningdek, *boshqa* so'roq olmoshlaridan so'ng *yana* ma'nosida **else** so'zi ishlatiladi. Bunda *yana* so'zidan so'ng ot kelmaydi:

**What else** would you like to say? Siz *yana nima* demoqchisiz?

**Who else** knows this story? Bu hikoyani *yana kim* biladi?

**Where else** did you see him? Siz uni *yana qayerda* ko'rdingiz?

Bo'lishsiz darak va bo'lishsiz so'roq gaplarda *hali* ma'nosida **yet** so'zi ishlatiladi va qoida bo'yicha gap oxirida keladi:

He isn't here **yet**. U *hali* bu yerda emas.

Dinner isn't ready **yet**. Tushlik *hali* tayyor emas.

Aren't you free **yet**? Siz *hali* bo'shamadingizmi?

My son doesn't go to school **yet**, he's too young. Mening o'g'lim *hali* maktabga bormaydi, u juda kichkina.

I haven't seen the film **yet**. Men bu filmni *hali* ko'rmadim.

Ish-harakat yoki hodisa *hali* ham davom etayotganligini ko'rsatish uchun **still** ravishi ishlatiladi:

He's **still** here. U *hali ham* shu yerda.

He's **still** asleep. U *hali ham* uxlayapti.

He's still reading this  
book.

U *hali ham* bu kitobni  
o'qiyapti.

3. She exports machinery, vessels, motors and other goods. *U mashina uskunalari, kemalar, dvigatellar va boshqa mollarni eksport qiladi.* Mamlakat nomi ko'pincha she olmoshi bilan almashtiriladi.

#### ACTIVE WORDS AND WORD COMBINATIONS

an island	to cross
to call	to fly (flew, flown)
What d'you call ...?	to fly over
to consist of	to fly across
to wash	a mountain
an ocean	a mountain chain
between	to be famous for smth. (smb.)
to travel (about)	a lake
to travel on business (for pleasure)	deep
to pass through	main
a continent	world
by train	

(See Vocabulary for Lesson Seventeen, p. 572)

#### PROPER NAMES

**The United Kingdom** [ðə ju:'naitid 'kiŋdəm] Birlashgan Qirollik

**The British Isles** [aɪlz] Britaniya orollari

**Great Britain** ['greɪt 'brɪtɪn] Buyuk Britaniya

**England** ['ɪŋlənd] Angliya

**Scotland** ['skɒtlənd] Shotlandiya

**Wales** [weɪlz] Uels

**Ireland** ['aɪələnd] Irlandiya

**Southern Ireland** [ˈsʌðən] Janubiy Irlandiya.

**Eire** ['eərə] Eyre davlati

**the Atlantic Ocean** [ði ət'læntɪk 'oʊn] Atlantika okeani

**the North Sea** [ðə 'nɔ:θ 'si:] Shimoliy dengiz

**the Irish Sea** [ði 'aɪəriʃ 'si:] Irlandiya dengizi

**the English Channel** [tʃænl] La-Mansh

**the Severn** [ðə 'sevə:n] Severn (*daryosi*)

**the Thames** [ðə 'temz] Temza (*daryosi*)

## SOME GEOGRAPHICAL [ˌdʒiəɡ'ræfɪkəl] NAMES

**Africa** ['æfrɪkə] Afrika

**African** ['æfrɪkən] afrikalik

**America** [ə'merɪkə] Amerika

**North America** Shimoliy Amerika

**South America** Janubiy Amerika

**American** [ə'merɪkən] amerikalik

**Antarctica** [æn'ta:ktɪkə] Antarktida

**Asia** ['eɪʃə] Osiyo

**Asian** ['eɪʃən] osiyolik

**Australia** [ɔs'treɪljə] Avstraliya

**Australian** [ɔs'treɪljən] avstraliyalik

**Europe** ['juərəp] Yevropa

**European** [juərə'pi:ən] yevropalik

\* \* \*

**the Arctic** [ði 'ɑ:ktɪk] (Ocean) Shimoliy Muz okeani

**the Atlantic (Ocean)** Atlantika okeani

**the Indian** [ði 'ɪndjən] (Ocean) Hind okeani

**the Pacific** [ðə pə'sɪfɪk] (Ocean) Tinch okeani

\* \* \*

**the Baltic (Sea)** Boltiq dengizi

**the Black Sea** Qora dengiz

**the Mediterranean** [ðə,medɪ'teɪrɪnjən] O'rtayer dengizi

\* \* \*

**the Caucasus** [ðə 'kɔ:kəsəs] Kavkaz tog'lari

**the Crimea** [ðə kraɪ'mɪə] Qrim

**the Himalaya(s)** [ðə,hɪmə'leɪəz] Himolay tog'lari

**the Pamirs** [ðə pə'miəz] Pomir

**the Urals** [ðə 'jʊrəlz] Ural

\* \* \*

**Lake Baikal** [baɪ'kaɪl] Baykal ko'li

\* \* \*

**the Danube** [ðə 'dænju:b] Dunay

**the Dnieper** [ðə'dni:pə] Dnepr

**the Lena** [ðə 'leɪnə] Lena

**the Mississippi** [ðə 'misi'sipi] Missisipi  
**the Neva** [ðə 'neivə] Neva  
**the Volga** Volga

\* \* \*

**Siberia** [sai'biəriə] Sibir  
**The Ukraine** [ðə ju:'krein] Ukraina

\* \* \*

**Austria** ['ɔstriə] Avstriya (ot)  
**Austrian** ['ɔstriən] avstriya (sifat)  
**Vienna** [vi'enə] Vena  
**Bulgaria** [bʌlɡeəriə] Bolgariya  
**Bulgarian** [bʌlɡeəriən] bolgariya (sifat)  
**Sofia** ['soufiə] Sofiya  
**Belgium** ['beldʒəm] Belgiya  
**Belgian** ['beldʒən] belgiya (sifat)  
**Brussels** ['brʌslz] Brussel  
**Canada** ['kænədə] Kanada  
**Canadian** [kəneidiən] kanada (sifat)  
**Ottawa** ['ɒtəwə] Ottawa  
**China** ['tʃaɪnə] (**the Chinese People's Republic**) Xitoy (Xitoy Xalq Respublikasi)  
**Chinese** ['tʃai'ni:z] xitoy (sifat)  
**Beijing** ['beɪdʒɪŋ] Pekin  
**Czech** ['tʃek] Republic Chexiya  
**Czech** ['tʃek] chex (sifat)  
**Prague** [pra:g] Praga  
**France** [fra:ns] Fransiya  
**French** fransuz (sifat)  
**Paris** ['pæris] Parij  
**Germany** ['dʒə:məni] Germaniya  
**German** ['dʒə:mən] nemis (sifat)  
**Berlin** [bə:'lin] Berlin  
**Greece** [gri:s] Yunoniston (Gretsiya)  
**Greek** [gri:k] yunon (grek) (sifat)  
**Athens** ['æθinz] Afina  
**Holland** Gollandiya  
**Dutch** golland (sifat)  
**the Hague** [ðə 'heɪg] Gaaga



- Hungary** [ˈhʌŋgəri] Vengriya  
**Hungarian** [hʌŋˈgəriən] vengriya (sifat)  
**Budapest** [ˈbjuːdəˈpest] Budapesht
- India** [ˈɪndjə] Hindiston  
**Indian** [ˈɪndjən] hind  
**Delhi** [ˈdeli] Dehli
- Italy** [ˈɪtali] Italiya  
**Italian** [iˈtæljən] italyan  
**Rome** Rim
- Japan** [dʒəˈpæn] Yaponiya  
**Japanese** [dʒæpəˈniːz] yapon  
**Tokyo** [ˈtɒkjəʊ] Tokio
- Poland** [ˈpɒlənd] Polsha  
**Polish** [ˈpɒlɪʃ] polyak  
**Warsaw** [ˈwɔːsɔː] Varshava
- Rumania** [ruːˈmeɪnjə] Ruminiya  
**Rumanian** [ruːˈmeɪnjən] rumin  
**Bucharest** [ˈbjuːkərest] Buxarest
- Sweden** [ˈswiːdn] Shvetsiya  
**Swedish** [ˈswiːdɪʃ] shved  
**Stockholm** [ˈstɒkhoum] Stokgolm
- United States of America (the)** Amerika Qoʻshma Shtatlari  
**Washington** [ˈwɒʃɪŋtən] Vashington
- Viet-Nam** [ˈvjɛtˈnæm] Vyetnam  
**Vietnamese** [ˌvjɛtnəˈmiːz] vyetnam  
**Hanoi** [hæˈnoɪ] Xanoy

### Soʻz yasash

1. **-ese** [iːz] – millatni anglatuvchi sifat suffiksi boʻlib, mamlakat nomlarini bildiruvchi otlarga qoʻshiladi, masalan:

Japan [dʒəˈpæn] Yaponiya – Japanese [dʒæpəˈniːz] yapon (sifat)

Bu suffiks bilan kelgan otlardagi urgʻu ibora ritmiga bogʻliqligiga eʼtibor bering:

He's Japa'nese. U yapon.

Biroq:

a 'Japanese 'soldier yapon zobiti

**I z o h:** Millatni anglatuvchi sifatlar doim katta harf bilan yoziladi.

**-ic** [ik] – sifat suffiksi bo'lib, otlardan sifat yasashda ishlatiladi. **-ic** suffiksli so'zlarda urg'u, odatda, undan oldingi bo'g'inga tushadi:

history ['histəri] tarix – historic [his'tɔrɪk] tarixiy

**-ous** [əs] – sifat suffiksi bo'lib, odatda, mavhum otlardan sifat yasashda ishlatiladi:

fame shon, shuhrat – famous ['feiməs] taniqli

**-ship** [ʃɪp] – ot suffiksi bo'lib, ot va sifatlardan mavhum otlar yasashda ishlatiladi:

a friend do'st – friendship ['frendʃɪp] do'stlik

hard qiyin, og'ir – hardship ['hɑ:dʃɪp] qiyinchilik

I z o h: **-ous** va **-ship** suffikslariga hech qachon urg'u tushmaydi.

2. Urg'u o'rnini o'zgartirish orqali ham yangi so'z yasash mumkin. Masalan, export otida urg'u birinchi bo'g'inga tushadi ['eksɔ:t] *eksport*, to export *export qilmoq* fe'lida esa urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi [tu eks'ɔ:t]

## LEKSIK-GRAMMATIK MASHQLAR

I. Geografik nomlarning o'qilishini mashq qilib, dars matnini ovoz chiqarib o'qing.

II. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing:

gold, golden, knave, 'brutal, 'bluebird, storey, fear, fast, task, feather, mind, monthly, per'ceive, folding, cherry, lorry, married, horror, terror, merry, con'ceive, leather, famous, nervous, con'tinuous, jealous, his'toric, comic, e'lectric, hardship, 'leadership, membership, Chinese, Burmese

III. Quyidagi so'zlar qaysi o'zakdan va qaysi yo'l bilan yasalganligini, qaysi so'z turkumiga kirishini aniqlang va ularni o'zbek tiliga tarjima qiling:

Vietnamese	landless	enjoyment	heartless
historic	weakly	comradeship	endlessly
famous	islander	uncomfortable	snowy
hardships	passage	improbable	flyer
unimportant	crossing	unnecessary	starter

**IV. Quyidagi so'zlardagi urg'uning o'rniga e'tibor berib, ot va fe'llarni ovoz chiqarib o'qing:**

to export – exports, to import – imports, an increase – to increase, to present – a present, a contrast – to contrast, to contact – a contact

**V. Darsning yangi so'zlaridan foydalanib, matnga 10 ta savol tuzing.**

**VI. Kerakli joyga mos artikl qo'ying.**

There is more water than land on our planet ['plænit]. ... largest and deepest ocean in ... world is ... Pacific, then comes ... Atlantic. ... Indian ocean is only ... little smaller. ... smallest ocean is ... Artic.

... longest river in ... world is ... Mississippi, ... largest sea is Mediterranean, ... deepest lake is ... Lake Baikal.

Large masses ['mæsiz] of ... land are called ... continents. They are ... Europe and Asia, ... North and ... South America, ... Australia and ... Antarctica.

There are mountain chains in many parts of ... world. Some of them such as ... Urals are old, others like ... Caucasus are much younger. ... highest mountain chain, which is called ... Himalayas, is situated in Asia.

**VII. Geografik nomlar hilan artiklning ishlatilishiga e'tibor berib, savollarga javob bering.**

- a) 1. How many countries do you know? What are their names?  
2. Which European countries do you know?  
3. How many oceans are there in the world? What are their names?
- b) 1. Which is the largest island in the world?  
2. Which is the largest sea in Europe?  
3. How many countries are washed by this sea?  
4. Which is the deepest lake in the world? Where is it?

- c) 1. What do you call the people who live in England?  
 2. Is England larger or smaller than France?  
 3. What language do they speak in England?  
 4. What's the capital of England?  
 5. Have you ever been to England?
- d) 1. Have you ever travelled about the Russian Federation?  
 2. Did you travel on business or for pleasure?  
 3. Where have you been? When was it? What did you see there?  
 4. Which mountain chain in the Russian Federation do you know?
- e) 1. Have you ever spent a holiday in the Caucasus (in the Crimea)?  
 2. What's the Caucasus famous for?  
 3. Why are there so many holiday centres in the Caucasus (in the Crimea)? Where are they situated?  
 4. Where else can you go for a holiday?
- f) 1. Which countries do you fly over if you go from Moscow to London by plane?  
 2. How many rivers do you cross if you travel to Holland by train?  
 3. Which countries do you pass through on your way to England?
- g) 1. What's the Volga famous for?  
 2. Which cities on the Volga do you know?  
 3. Which of them is the biggest?  
 4. Are there any holiday centres on the Volga?  
 5. Did you go to the Volga or the Dnieper for a holiday last year?  
 6. Which of these two rivers is more beautiful?  
 7. Is the Lena as long as the Volga?
- h) 1. Are the Urals between the Volga and the Lena?  
 2. Where are the Urals?

3. Are the Urals very high?
4. Are the Pamirs higher than the Urals?
5. What important industrial centres in the Urals do you know?
6. Which of them have you been to?

**VIII. Berilgan sifatlarni *as ... as, not so ... as* konstruksiyasida ishlatib, namunada ko'rsatilganidek taqqoslang.**

**N a m u n a :** Riga is as beautiful as Tallinn.

The Neva is not so long as the Thames.

1. The Artic (Ocean), the Atlantic (Ocean) – *cold*.  
 2. The Baltic (Sea), the Black Sea – *large*. 3. The Caspian (Sea), Lake Baikal – *beautiful, deep*. 4. The mountains in the Caucasus, the mountains in the Crimea – *high*. 5. The Dnieper, the Volga – *long*. 6. The Urals, the Caucasus – *old*. 7. The Mediterranean, the Black Sea – *large*.

**IX. *Yana, hali, yana bitta* so'zlarining tarjimasiga e'tibor berib, gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.**

1. Men yana bitta galstuk sotib olmoqchiman. 2. Siz yana kimni kutyapsiz? 3. Sizga Peter yana nima dedi? 4. Men bu haqida hali bilmayman. 5. Hali ham yomg'ir yog'yapti. 6. O'tgan yili siz yana qaysi shaharlarda bo'ldingiz? 7. U hali ham telefonda gaplashyapti. 8. Siz hali ham mening do'stimni tanimaysizmi? 9. Magazinga boring va yana non sotib oling. 10. Biz qaytganimizda u hali ham ishlayotgan edi. 11. Ma'ruzasini tugatish uchun unga yana biroz vaqt kerak edi. 12. Mamlakatimizning sharqiy qismidagi yana qaysi daryolarni bilasiz? 13. Menga ingliz adabiyotidan yana bitta kitob bering, iltimos. 14. Yana choy xohlaysizmi? 15. Iltimos, yana biroz kuting. Men hali tayyor emasman. 16. Hali soat yetti bo'lmabdi. Biz vokzalga o'z vaqtida yetib boramiz. 17. Bir chashka kofe xohlaysizmi?

**X. Kerakli joyga mos predloglardan qo'ying.**

1. The Caucasus is famous ... its holiday centres.

2. When we were travelling ... the Crimea, we stopped one day ... a nice little village ... the mountains. 3. Are you travelling ... business or ... pleasure? 4. I like travelling ... train, because when the train passes ... beautiful places, I can see them ... the window. 5. As we were flying ... my home town, I could see how large it had become. 6. ... the way ... Italy the plane flew ... many European countries. 7. The book I advise you to read consists ... three parts.

#### **XI. Dialogni o'zlashtirma gapda aytib bering.**

"You travel a lot, don't you?"

"Oh, yes, I love travelling, and I spend much of my time visiting different parts of the world, sometimes on business and sometimes for pleasure."

"Have you ever travelled by plane?"

"Yes. I always go by air on my business journeys, but when I travel for pleasure, I usually go by train and ship. It's so interesting getting to know the other passengers, and of course, I enjoy being on the sea in any kind of weather."

"Very many of my journeys have been made by train. I find it quite pleasant, but not in the holiday season when there are so many people that you have to stand all the way."

"I quite agree with you. Then, of course, it's better to go by car."

#### **XII. Gaplarni ingliz tiliga tarjima qiling.**

1. Rossiyada katta daryolar ko'p: Volga, Lena va boshqalar. 2. Dnepr Lenadan tor. Biroq u Ukrainadagi eng keng va eng chiroyli daryo. 3. Har yili men ta'tilni Qrimda o'tkazardim, biroq kelasi yili men Volga bo'yidagi dam olish uyiga boraman. 4. Singlimning eri yozda Kavkazga bormaydi, u yer uning uchun juda issiq.

U Boltiq dengizida dam olishni yoqtiradi. 5. Kelasi yili bizning talabalarimiz Uralga borishadi. 6. Qayerda daryo ko'p: mamlakatimizning g'arbiy qismidami yoki sharqiy qismidami? 7. Mamlakatimizning shimoliy qismida janubiy qismidagiga qaraganda o'rmonlar ko'p. 8. O'tgan yili biz tog'da sayohat qilib yurganimizda, biz u yerda yuz yoshga kirgan kishini uchratdik. 9. Bu yer (o'zining) ajoyib ko'llari va musaffo tog' havosi bilan mashhur. 10. Siz u yerga samolyotda uchasizmi yoki poyezdda borasizmi? – Bir necha kun ketishiga qaramasdan, men poyezdda boraman. Samolyotda (uchganimda) men o'zimni yomon his qilaman. 11. O'tgan yili biz Sibir bo'ylab sayohat qilayotganimizda, biz Novosibirskda bir necha kun bo'ldik. Bu Sibirning eng yaxshi shaharlaridan biridir.

### *OG'ZAKI NUTQ KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MASHQLAR*

**I. Yangi so'zlardan foydalanib dars matnini aytib bering.**

**II. Quyidagi so'z va so'z birikmalaridan foydalanib, qisqa hikoyalar (situatsiya) tuzing.**

1. to travel on business, by train, to take a lot of time, to fly

2. to travel by sea, to feel bad, not to enjoy the journey

3. to go to the Far East, to pass through, a pleasant journey, to see the Pacific, to write to

4. Lake Baikal, to be situated, deep, to be famous for its beauty

5. to invite, to cross a river, in a boat, an island, in the middle of the river, to spend a day, to enjoy

III. Darsning yangi so'zlaridan foydalanib, ikkita hikoya tuzing.  
O'z hikoyangizni quyidagicha boshlang:

1

Once when we were travelling in the mountains, a friend of mine felt bad ...

2

I had my holiday in the summer last year and decided to travel about our country. It was early morning when my friend and I ...

IV. a) Mamlakatimiz; b) Uzoq Sharq; c) Kavkaz va Qrim; d) mamlakatimiz shimoli haqida bir necha geografik axborotlarni bering.

V. a) Mamlakatimizga; b) chet elga qilingan turistik sayohat haqida gapirib bering.

VI. Quyidagi dialogning o'qilishini mashq qiling, uni yod oling va sahnalashtiring.

"So the 'time has 'come to 'say good /bye, Mr Brown?"

"Yes, and I'm \sorry about it. I've e'njoyed my 'stay here\ very much. Un\fortunately\ the 'time has 'passed \up very \quickly."

"Are you 'going by \plane?"

"No, 'this \time I'll be 'travelling by \train. I'll 'have to 'stop in \Paris for a 'day or \two."

"And 'when shall we 'see you in \Moscow again?"

"In 'six \months, I \think. I 'hope the 'watches will be \up selling \well \up and in 'six 'months' \time we'll 'start dis'cussing a \new contract."

"Let's 'hope for the \best. I 'wish you a \up pleasant \journey, Mr Brown."

"\Thank you, Mr Petrov. I 'do 'hope I'll \up see you in 'London be\fore I 'come to \Moscow again."



## LESSON EIGHTEEN (THE EIGHTEENTH LESSON)

Text: The Childhood and Youth of Dickens.

Grammar: **some, any, no, every** lardan yasalgan gumon olmoshlari va ravishlari. (81-§, 728-bet.)

### THE CHILDHOOD AND YOUTH OF DICKENS

Charles Dickens, one of the **greatest** and most **popular** English **novelists**, was born on the 7<sup>th</sup> of February, 1812, in a small English town. He was a weak child and did not like to take part in **noisy** and active **games**.<sup>1</sup> The little boy was very **clever** and learnt to read **at an early age**. He read a lot of books in his childhood. When he was about six, someone took him to the theatre for the first time. He saw **a play** by Shakespeare and liked it so much that he decided to write a play of his **own**. When it was ready, he **performed** it with some of his friends. Everybody enjoyed the **performance**, and the little writer felt very happy.

· When Dickens was nine years old, the family **moved** to London where they lived in an old house in the suburbs.

They had a very hard life. There were several younger children in the family **besides** Charles. The future writer could not even go to school, because at that time his father was in the Marshalsea Debtors' Prison. There was nobody in London to whom Mr Dickens could **go for money**, and his wife with all the children **except** Charles went to join him in the prison. The family lived there until Mr Dickens could pay his **debts**. Those were the most unhappy days

of all Charles' life. The boy worked from early morning till late at night to help his family.

Charles was only able to start going to school when he was **nearly** twelve, and his father was out of prison. He very much wanted to study, but he did not finish his schooling. After two years of school he began working again. He had to work hard to **earn his living**, and tried very many trades, but he did not like any of them. His **ambition** was to study and become a **well-educated** man. At the age of fifteen he often went to the famous library of the British Museum. He spent a lot of time in the library reading-room. He read and studied there and **in this way** he got an **education**.

Later Dickens **described** his childhood and youth in some of his famous **novels**, among them "Little Dorrit" and "David Copperfield".

The great writer **died** more than a hundred years ago (in 1870), but everybody still enjoys reading his books.

"Are you an ↑ only child?"	– Siz oilada yakka farzandmisiz?
"No, I've got a brother."	– Yo'q, mening akam bor.
"Who does he look like?"	– U kimga o'xshaydi?
"Everybody says he ↑ looks like Mother."	– Hamma uni oyimga o'xshatadi.
"Is he grown up?"	– U katta bo'lib qolganmi?
"Yes, he goes to uni'versity. He's taking History."	– Ha, u universitetda o'qiydi. U tarix (fakulteti)da o'qiydi.
"What's his hobby?"	– U nimaga qiziqadi?
"Fishing, I think."	– Menimcha, baliq ovlashga.

## MATNGA IZOHLAR

Men nazorat ishida xato qilmaslik uchun bu qoidalarni yod olmoqchiman.

(kimningdir) tug'ilgan kun(i)  
Ertaga mening tug'ilgan kunim.

Tug'ilgan kunga bag'ishlangan kecha

tamom, oxiri

boshi, boshlanishi

nimaningdir oxirida (boshida)

boshida (yilning, oyning)

U Moskvaga yilning boshida keldi.

eshitmoq

kimdandir axborot (xat) olish

Umid qilamanki, sizdan tez orada xabar keladi.

## LESSON ELEVEN

**to retire** [tə ri'taɪə]

*e. g.* He has **retired**.

*Prep.* to retire at 65

**to travel** [tə 'trævəl]

*e. g.* You've **travelled** a lot, haven't you?

**travelling**

*e. g.* Do you like **travelling**?

**journey** ['dʒə:nɪ]

*e. g.* Did you have a good **journey**?

**as**

**a tourist** [ə 'tuərist]

**a hotel** [ə 'hou'tel]

nafaqaga chiqmoq

U nafaqada

65 yoshdan nafaqaga chiqmoq

sayohatga chiqmoq

Siz ko'p sayohatga borgan-siz, to'g'rimi?

sayohat (sayohat jarayoni)

Siz sayohat qilishni yoqtirasizmi?

sayohat

Yaxshi yetib oldingizmi?

bo'lib, sifatida

turist, sayyoh

mehmonxona

e. g. Which **hotel** is Mr Smith staying at?

**a hall**

*W. comb.* an exhibition hall

**a concert hall**

**a conference hall**

Janob Smit qaysi mehmonxonaga joylashdi?

zal, vestibul, kiraverish

ko'rgazmalar zali

konsert zali

konferensiya zali

### Taqqoslang:

Palto va shlapangizni *kiraverishda* qoldiring.

Biz kino *zaliga* kirganimizda, u yerda ko'pgina odamlar bor edi.

Ular sport *zalida*.

Kitoblar № 5 ko'rgazmalar *zalida* namoyish etilyapti (agar ko'rgazmada zallar ko'p bo'lsa).

Leave your coat and hat in the **hall**.

When we went into the **cinema (theatre)** there were a lot of people there.

They're in the **gym (gymnasium [dʒim'neizjəm])**.

The books are in Exhibition **Room No. 5**.

**a guide** [ə'gaid]

**a visit** [ə'vizit]

*Prep.* a visit to a place

e. g. Is this your first **visit** to this country?

**a revolution** [ə'revə'lʊ:n]

e. g. It was before the **Revolution**.

**a capital** [ə'kæpitəl]

e. g. London is the **capital** of England.

**to become (became, become)**  
[tə bi'kəm, bi'keim, bi'kəm]

e. g. He's going to **become** a doctor.

**to change** [tə'tʃeindʒ]

e. g. The weather is **changing**.

e. g. She got married, but didn't want to **change** her name.

**hardly**

gid, ekskursovod

vizit, tashrif

biron-bir joyga borish, tashrif

Siz mamlakatimizda birinchi marta bo'lishingizmi?

revolutsiya, inqilob

Bu revolutsiyagacha bo'lgan edi.

poytaxt

London – Angliyaning poytaxti.

bo'lmoq (*bog'lovchi fe'l*), erishmoq

U doktor bo'lmoqchi.

1. o'zgarmaq

Ob-havo o'zgaryapti.

2. o'zgartirmoq

U qiz turmushga chiqdi, lekin familiyasini o'zgartirishni xohlamadi.

zo'rg'a, qiyinchilik bilan

e. g. The sick man could hardly walk.	Kasal zo'rg'a harakatlanardi.
<b>to recognize</b> [tə'rekɔgnəiz]	tanimoq
e. g. He said he didn't recognize me.	U meni tanimaganligini aytdi.
<b>a street</b>	ko'cha
e. g. "Which street do you live in?"	Siz qaysi ko'chada yashaysiz?
"I live in Kirov Street."	Men Kirov ko'chasida yashayman.
<b>a square</b> [ə'skwɛə]	maydon
<i>Prep.</i> in a square	maydonda
e. g. The Kremlin is in Red Square.	Kreml Qizil maydonda joylashgan.
<b>like</b>	kabi, o'xshash
<b>dirty</b> ['dɜ:ti]	iflos, chang bilan qoplangan, kir
<i>W. comb.</i> a dirty street	iflos ko'cha (axlat tashlangan)
dirty hands	iflos qo'llar
But:	
a muddy street	iflos ko'cha (yomg'irdan so'ng), loy ko'cha
<b>narrow</b>	tor
<b>a suburb</b> [ə'sʌbɜ:b]	shahar cheti
<i>Prep.</i> in the suburbs	shahar chetida
<b>to wonder</b> [tə'wʌndə]	bilishni xohlamoq
e. g. I wonder what they're doing now.	Qiziq, hozir ular nima qilishyapti ekan.
<b>a district</b> [ə'dɪstrɪkt]	rayon, tuman
e.g. There are several factories in this district.	Bu rayonda bir necha fabrikalar (zavodlar) bor.
<b>South-West</b>	Janubi-g'arbiy ( <i>bu yerda: Moskvadagi rayon</i> )
<b>beautiful</b> ['bjʊ:tɪfəl]	go'zal, chiroyli
<i>W. comb.</i> a beautiful place	chiroyli joy
a beautiful woman	chiroyli ayol, go'zal ayol
<b>wide</b>	keng
<i>W. comb.</i> a wide street (river)	keng ko'cha (daryo)
<b>straight</b> [streɪt]	to'g'ri
<i>W. comb.</i> a straight street	to'g'ri ko'cha

*Ant.* a crooked ['krukid] street  
a garden

**gardens** (pl.)

**a way**

*W. comb.* on the (one's) way to

on the (one's) way  
home

*e. g.* He met a friend **on the**  
**(his) way home.**

**a building** [ə 'bildiŋ]

**to build** (built, built) [tə 'bild,  
bilt]

**a picture gallery** [ə 'piktʃə  
'gæləri]

**would like**

*e. g.* He'd (= **he would**) **like**  
to talk to you.

I'd **like** to go to the  
cinema this evening.

**to plan**

*Syn.* to intend

to be going

*e. g.* When do you **plan** (**are**  
**you planning**) to see the  
factory?

**a village** [ə 'viliɪdʒ]

**a collective farm** [ə kə'lektiv  
fɑ:m]

*Prep.* to work **on** a collective  
farm

**a museum** [ə mju:'ziəm]

**an exhibition** [ən ,eksɪ'biʃn]

**other** ['ʌðə]

*e. g.* I've been to Kiev, Minsk  
and many **other** cities in  
our country.

egri ko'cha

bog' (*odatda uy oldida joy-  
lashgan*)

jamoat parki, skver, xiyobon  
yo'l

qayoqqadir ketayotib, -ga  
ketayotib

uyga ketayotib, uyga keta-  
verishda

Uyga ketayotib u do'stini  
uchratib qoldi.

bino, imorat

qurmoq

kartinalar galereyasi

xohlardimki

U siz bilan gaplashishni xoh-  
lardi.

Men bugun kechqurun kino-  
ga borishni xohlardim.

rejalashtirmoq, hozirlanmoq  
hozirlanmoq, taraddud ko'r-  
moq

hozirlanmoq, -moqchi

Siz zavodga qachon bor-  
moqchisiz?

qishloq

kolxoz

kolxozda ishlamoq

muzey

ko'rgazma

1. boshqa

Men mamlakatimizning Kiyev,  
Minsk va boshqa ko'p sha-  
harlarida bo'lganman.

2. yana (so'roq so'z va ko'p-  
likdagi ot o'rtasida keladi)



e. g. What **other** films have you seen?

Siz yana qanaqa kinolarni ko'rgansiz?

Taqqoslang:

What **other** books have you read?

Siz *yana* qanaqa kitoblarni o'qigansiz?

What **else** have you read?

Siz *yana* nima o'qigansiz?

**important** [im'pɔ:tənt]

**industrial** [in'dʌstriəl]

*W. comb.* an industrial city (centre, exhibition, etc.)

**industry** ['ɪndəstri]

**agricultural** [ægrɪ'kʌltʃərəl]

**in addition to**

kerakli, muhim

sanoatlashgan

sanoatlashgan shahar (markaz, sanoat ko'rgazmasi va boshqalar)

ishlab chiqarish

qishloq xo'jaligi

bundan tashqari, -ga qo'shimcha tarzda

## LESSON TWELVE

**lunch**

*W. comb.* (the) lunch hour

*Prep.* in the lunch hour

**a meal**

e. g. I usually have three meals a day.

*W. comb.* a morning meal  
a midday meal  
an evening meal

e. g. Lunch is the **midday meal** in England, in our country dinner is the **midday meal**.

In England dinner is the **evening meal**, in our country supper is the **evening meal**.

(a) half [ha:f]

1. ikkinchi nonushta;

2. tushlik

tushlik vaqti, tushlik tanafusi

tushlik tanaffusida, tushlik vaqtida

ovqatlanish payti, ovqat

Men, odatda, kuniga uch mahal ovqatlanaman.

ertalabki ovqat

kunduzgi ovqat

kechqurungi ovqat

Angliyada kunduzgi ovqat lanch (ikkinchi ovqat), bizda esa tushlik deyiladi.

Angliyada kechki ovqat tushlik, bizda esa kechki ovqat deyiladi.

yarmi, yarim

*W. comb.* half an hour  
an hour and a half  
[ən 'aʊər ənd ə ha:f]

yarim soat  
bir yarim soat

**Yodda saqlang:**

yarim yil	six months
yarim oy	a fortnight
bir yarim oy	six weeks
bir yarim yil	eighteen months

**a quarter** [ə 'kwɔ:tə]

*W. comb.* a quarter of an hour

**past** [pa:st]

*e. g.* I always get up at half  
past seven.

**without** [wɪ'ðaʊt]

*e. g.* We aren't going to the  
country **without** you.

**tea**

*W. comb.* a cup of tea

**hungry** ['hʌŋgri]

*Gr.* to be hungry

*e. g.* "Will you have lunch with  
us?"

"No, thank you. I'm not  
**hungry** yet."

**thirsty** ['θɜ:sti]

*Gr.* to be thirsty

**alone** [ə 'ləʊn]

*e. g.* He was **alone** in the  
house.

He can't do it alone.

**to join**

*e. g.* He'll **join** us in a few  
minutes.

I'll **join** you for lunch.

**a canteen** [ə kæn'ti:n]

chorak

15 daqiqa, chorak soat

keyin, o'tganda (soat aytish-  
da) (*vaqt predlogi*)

Men doim yetti yarimda tu-  
raman.

-siz

Biz shahardan tashqariga  
sizsiz bormaymiz.

choy

bir piyola choy

och

(qor) ni och bo'lmoq

Siz biz bilan ovqatlangani  
borasizmi?

Rahmat, mening hali qomim  
ochmadi.

chanqamoq

ichishni xohlamoq, chanqa-  
gan bo'lmoq

bir o'zi, yakka, yolg'iz

U uyda yolg'iz edi.

U bir (yakka) o'zi buni qi-  
lolmaydi.

qo'shilmoq

U bizga bir necha daqiqadan  
so'ng qo'shiladi.

Men sizlar bilan tushlik qil-  
gani boraman.

oshxona

## Taqqoslang:

Bizning zavodimizda yaxshigina  
*oshxona* bor.

Mening (uydagi) *oshxonamning*  
devorlari och yashil rangda.

There's a good **canteen** at  
our factory.

The walls in my **dining-**  
**room** are light-green.

**a restaurant** [ə 'restɔŋ]

**a ticket**

*W. comb.* a ticket for a theatre  
a ticket to Saint Pe-  
tersburg

*e. g.* I've got two tickets for  
"Hamlet".

*Syn.* a check

**to call**

*e. g.* Will you **call** the children  
in, please?

**a waitress** [ə 'weɪtrɪs]

**a waiter** [ə 'weɪtə]

**a knife** (*pl.* knives)

**a fork**

**a plate**

**soup** [su:p]

*e. g.* Will you have any soup  
today?

**water**

*W. comb.* mineral water

**salad** ['sæləd]

*W. comb.* vegetable ['vedʒɪtəbl],  
fruit [fru:t] salad

**meat**

*W. comb.* meat salad

**potatoes** [pə'teɪtəʊz] (*pl.*)

**a potato** [ə pə'teɪtəʊ]

**ice-cream**

*e. g.* I want an **ice-cream**  
(= I want an ice).

restoran

1. chipta

teatrga chipta

Sankt-Peterburgga (temir-  
yo'l.) chipta

Menda «Gamlet» filmiga  
ikkita chipta bor.

2. kassa cheki

chaqirmoq, chaqirtirmoq, ata-  
moq

Iltimos, bolalarni ichkariga  
chaqiring.

ofitsiant qiz

ofitsiant

pichoq

vilka, sanchqi

tarelka, likopcha

sho'rva (birinchi ovqat)

Sen bugun sho'rva (birinchi  
ovqatni) ichasanmi (yey-  
sanmi)?

suv

mineral suv, ma'danli suv

salat

sabzavotli salat, vinegret,

mevali salat

go'sht

go'shtli salat

kartoshka (*umumiy nom*)

bir dona kartoshka

muzqaymoq (ice – muz,  
cream – qaymoq)

Muzqaymoq yegim kelyapti.  
(*alohida upakovka qilin-  
gan porsiyada*)

Two ices, please.

I want some ice-cream.

**the sweet**

*Prep.* for the sweet

*e. g.* What will you have for the sweet?

**a dish**

**enough** [ʔnʌf]

*e. g.* We've got enough time to do the work.

We haven't enough time to do the work now.

Ikkita muzqaymoq bering, iltimos.

Mening muzqaymoq yegim kelyapti. (*Na kofe, na choy va boshqa narsa emas.*)

uchinchi ovqat (sweet – shirinlik)

uchinchisiga, shirinlikka

Siz uchinchisiga (shirinlikka) nima olasiz?

1. ovqat, tarelka, miska, idish

2. ovqat, yemish

yetar, yetarli

Bizda bu ish uchun yetarlicha vaqt bor.

Hozir bizning bu ish uchun vaqtimiz oz (yetmaydi).

**Enough ning gapdagi o'rniga diqqatingizni qarating:**

This article is interesting enough for our newspaper.

Please dictate more slowly. I can't write fast enough.

(Sifat va ravishdan so'ng urg'usiz talaffuz qilinadi)

You had enough time to finish the work. (= You had time enough, to finish the work.)

(Otdan oldin va keyin kelganda urg'u bilan talaffuz qilinadi)

I've got enough free time today.

(Otdan oldin, agar undan so'ng infinitiv kelmasa)

Bu maqola bizning gazetamiz uchun yetarlicha qiziqarli.

Iltimos, sekinroq aytib bering, men yetarlicha (*uncha*) tez yoza olmayman.

Sizda bu ishni yakunlash uchun yetarlicha vaqt bo'ldi.

Mening bugun yetarlicha bo'sh vaqtim bor.

**salt** [sɔ:lt]

**to pass**

*e. g.* Will you pass me the salad, please.

**bread**

*W. comb.* white bread  
rye bread

tuz

uzatmoq (*qo'ldan qo'lga*)

Iltimos, menga salatni uzatib yuboring.

non

oq non

qora non

brown bread

**a course** [ə'kɔ:s]

*W. comb.* a dinner of four courses (= a four-course dinner)

the meat (fish) course

*Prep. for* the second course

*W. comb.* a course of lectures

But:

to be in one's first (second, third, etc.) year

*e. g.* Are you **in your third year** yet?

**to come up (to)** = to go up (to)

*e. g.* The man **came up to** me and said, "Don't you recognize me?"

**I went up** to the picture to have a good look at it.

**coffee** ['kɒfi]

**milk**

**a cake**

**strong**

*Ant.* weak

*W. comb.* a strong man

strong coffee (tea)

**sugar** ['ʃʊgə]

*W. comb.* a lump of sugar

**to smoke**

*W. comb.* to have a smoke

**a cigarette** [ə'sigə'ret]

**later**

*W. comb.* two days later

qizg'ish non

1. ovqat, taom, tushlik qismi (nonushtani, kechki ovqatni)

to'rta ovqatdan iborat tushlik, to'rt taomlik tushlik

ikkinchi (go'shtli yoki baliqli), go'shtli, baliqli taom

ikkinchiga

2. kurs

ma'ruza kursi

birinchi (ikkinchi, uchinchi va boshq.) bosqichda o'qimoq

Siz uchinchi bosqichdamisiz?

(oldiga) bormoq, yaqinlashib kelmoq

Bir kishi mening oldimga keldi-da, «Siz meni tanisapsizmi?» – dedi.

Men rasmni yaxshilab ko'rish uchun uning oldiga yaqinlashdim.

kofe

sut

tort, keks

1. kuchli

kuchsiz

kuchli inson

2. o'tkir (*ichimliklar haqida*)

o'tkir kofe (achchiq choy)

oq qand

oq qand bo'lagi

chekmoq

chekmoq

sigareta

keyinroq

ikki kundan keyin (*odatda hikoyada ishlatiladi, dialogda emas*)

Taqqoslang:

He went to see his parents and came back a fortnight later (in a fortnight).

"I'll be back in a fortnight," he said.

U ota-onasini ko'rgani ketdi va ikki haftadan keyin qaytib keldi.

U: «Men ikki haftadan keyin qaytaman», — dedi.

### LESSON THIRTEEN

a shirt

trousers ['trauzəz] (pl.)

a dress

a hat

a suit [ə 'sju:t]

a coat

clothes [klouðz] (pl.)

a shoe

*W. comb.* a pair of shoes

a boot [ə 'bu:t]

a high boot

all over the place

ready

*Syn.* prepared

*e. g.* Are you ready yet?

*Prep.* to be ready for ...

*e. g.* Are you ready for the examination?

*W. comb.* to get ready

*Syn.* to prepare

*e. g.* Will you get all the letters and telegrams ready, please?

*e. g.* He's preparing for his holiday.

a home town [ə 'houm taun]

to pack

*e. g.* Have you packed (up) your things?

He packed his books into a big box.

ko'ylak

shim

ayollar ko'yilagi

shlapa

kastum

pidjak, palto

kiyim

tufli

bir juft tufli

botinka

etik

*bu yerda:* xonaning hamma yerida

tayyor

tayyor

Siz tayyormisiz?

nimagadir tayyor turish

Imtihonga tayyormisiz?

tayyorlanmoq

tayyorlamoq

iltimos, hamma xat va telegrammalarni tayyorlab qo'ying.

U ta'tilga tayyorlanmoqda.

ona shahar

joylamoq, yig'ishtirmoq

Narsalaringizni yig'ishtirib bo'ldingizmi?

U o'zining kitoblarini katta qutiga joylashtirdi.

the rest (of)

*W. comb.* the rest of the things  
the rest of the work  
(book, day, etc.)

**about**

*e. g.* He's **about** forty.  
That's **about** all I was  
going to say.

**a siut-case** [ə 'sju:tkeis]

**food** [fu:d]

**a shop**

**to shop**

*W. comb.* to go (out) shopping

to do some (one's)  
shopping

*e. g.* Will you **go shopping**  
after breakfast?

I've got **some shopping**  
to do this afternoon.

**an address** [ən ə'dres]

**a railway station**

**a taxi** [ə 'tæksi]

*W. comb.* to take a taxi

**to wait**

*Prep.* to wait for...

*e. g.* "Who are you **waiting**  
**for?**"

"I'm **waiting** for a  
friend."

**to be in a hurry**

*e. g.* He couldn't talk to all of  
us because he **was in a**  
**hurry** to leave.

You shouldn't do the  
work **in a hurry**.

qolgani

qolgan buyumlar

ishning qolgan qismi (kitob-  
ni, kunni va boshq.).

atrofida, taxminan

U qirq yosh afrofida

Bu men aytadigan narsaning  
deyarli hammasi.

chamadon

yemish, ovqat

magazin (sanalmaydigan ot)

bozor qilmoq, xarid qilmoq

magazinga xarid qilgani  
bormoq

bozor qilmoq, xarid qilmoq

Siz nonushtadan keyin ma-  
gazinga borasizmi?

Men ba'zi bir narsalarni  
tushlikdan so'ng sotib  
olishim kerak.

adres, manzil

vokzal, temiryo'l stansiyasi,  
bekat

taksi

taksi to'xtatmoq

kutmoq

kimnidir (nimanidir) kutmoq

Kimni kutyapsiz?

Do'stimni kutyapman.

nimanidir tezlik bilan, sho-  
shib qilmoq

U hammamiz bilan gaplasha  
olmadi, chunki u juda  
shoshib turgandi.

Bu ishni siz shoshma-sho-  
sharlik bilan qilishingiz  
kerak emas.

**Taqqoslang:**

He is hurrying home.

U uyiga *shoshilyapti* (= tez harakatlanayapti).

He is in a hurry to go home.

U uyiga *shoshilyapti* (= vaqti tig'iz).

to make breakfast (dinner, supper)

nonushta tayyorlamoq (tushlik, kechki ovqat)

to say good-bye (to)

kim bilandir xayrlashmoq

e. g. He said good-bye to us and hurried away (off).

U biz bilan xayrlashdi-da, tez ketdi.

to wish

tilamoq

*W. comb.* to wish ... a pleasant journey

kimgadir oq yo'l tilamoq

e. g. He wished us all a pleasant journey.

U bizning hammamizga oq yo'l tiladi.

**Yodda saqlang:**

I wish you a pleasant journey.

Sizga oq yo'l tilayman.  
(*rasmiy*)

I hope you (will) have a pleasant journey.

Sizga oq yo'l tilayman (*og'zaki*), safaringiz bexatar bo'lsin.

happy

baxtli

e. g. They are a happy family.

Ular baxtli oila.

I'm happy to see you again.

Sizni yana ko'rganimdan xursandman.

**Yodda saqlang:**

*Uchrashganda:*

Very happy to meet you.

Siz bilan tanishganimdan xursandman.

*Xayrlashayotganda:*

I'm happy to have met you.

Siz bilan tanishganimdan xursandman.

It was nice meeting you.

Siz bilan tanishganim yaxshi bo'ldi.

by heart [bai 'hɑ:t]

yoddan

wonderful ['wʌndəfʊl]

mo'jizakor, ajoyib



- e. g. We had wonderful weather during the holidays.  
**to go sightseeing** [tə 'gou 'sait,si:ɪŋ] (= to see the sights)  
 e. g. Let's go sightseeing tomorrow.

Have you seen all the sights here?

- a place of interest**  
**a palace** [ə 'pælis]  
**a monument** [ə 'mɒnjumənt]

*Prep.* a monument to ...

**pity** ['piti]

*W. comb.* That's a pity. (= It's a pity.)

- e. g. It's a pity you can't join us.

Bizning ta'tilimiz paytida ob-havo ajoyib bo'ldi.

Diqqatga sazovor joylarni ko'rish

Keling, ertaga diqqatga sazovor joylarni ko'rgani boramiz.

Siz bu yerdagi hamma diqqatga sazovor joylarni ko'rib bo'ldingizmi?

diqqatga sazovor joy

qasr, saroy

yodgorlik

kimningdir yodgorligi

afsuslanmoq

Afsus.

Afsus, siz biz bilan borolmas ekansiz.

## LESSON FOURTEEN

**a story** [ə 'stɔ:ri]

*W. comb.* a short story

- e. g. We asked the old captain to tell us his story.

**a captain** [ə 'kæptɪn]

*W. comb.* the captain of a ship

**something** ['sʌmθɪŋ]

**a voyage** [ə 'vɔɪdʒ]

*Prep.* a voyage to Africa

*W. comb.* to make a voyage (to)

1. hikoya

novella, qisqa hikoya

2. hikoya, tarix

Biz qari kapitandan hayoti haqida hikoya qilib berishini so'radik (o'zining hayot tarixi haqida).

kapitan

kema kapitani

nimadir, biror nima

(to'laroq "Grammatika"

bo'limining 81-§, 514-

betiga qarang).

dengiz bo'ylab sayohat (okean, daryo, ko'pincha uzoq)

Afrikaga sayohat

- (ga) sayohat qilish

e. g. He's going to make a voyage to South America.

(the) following [ðə 'fɒləʊɪŋ]

e. g. He told us the following story. (= This is the story he told us.)

(a) mate

a ship

*W. comb.* to travel by ship

a steamer (= steamship)

such ... that

strange [streɪndʒ]

*W. comb.* a strange thing (story, man)

e. g. They spoke in a strange language.

a stranger

e. g. I'm a stranger here.

to sleep (slept, slept)

*W. comb.* to go to sleep

e. g. I slept very badly last night.

I only went to sleep at four in the morning.

a voice [ə 'vɔɪs]

*Prep.* in a loud (low) voice

an ear [ən 'iə]

to sail

e. g. We'll be sailing tomorrow.

U Janubiy Amerikaga sayohat qilishga hozirlik ko'ryapti.

quyidagi

U bizga quyidagi hikoyani aytib berdi. (Mana u bizga aytib bergan hikoya).

kapitan yordamchisi

kema

paroxodda bormoq

paroxod

shu qadar (*to'laroq "Grammatika" bo'limining 71-§, 719-betiga qarang*)

1. g'alati, g'aroyib

g'alati buyum (g'alati hikoya, odam)

2. notanish

Ular notanish tilda gaplashishdi.

1. notanish kishi

2. chet ellik

Men bu yerlik emasman (men bu yerlarni bilmayman).

uxlamoq

uyquga ketmoq

Kecha men juda yomon uxladim.

Men ertalabki soat to'rt-dagina uxlab qoldim.

ovoz

baland (past) ovoz bilan

quloq

1. yelkanlar ostida yurmoq

2. suzib ketmoq (*dengiz bo'ylab sayohatga chiqqan paroxod va odamlar haqida*).

Biz ertaga kemada jo'nab ketamiz.

sailor

the North [ðə 'nɔ:θ]

the South [ðə 'saʊθ]

the West [ðə 'west]

the East [ði 'i:st]

the Far East

*Prep.* in the North (South, West, East)

*e. g.* There are a lot of new cities in the North of our country.

*Prep.* to the north (south, west, east) of

*e. g.* Kiev is to the south-west of Moscow.

*W. comb.* to go (sail) north (south, west, east)

dengizchi

Shimol

Janub

G'arb

Sharq

Uzoq Sharq

shimolda (janubda, g'arbda, sharqda)

Bizning mamlakatimiz shimolida juda ko'p yangi shaharlar bor.

nimadandir shimolda (janubda, g'arbda, sharqda), shimolroqda (janubroqda, g'arbroqda, sharqroqda)

Kiyev Moskvadan Janubiy-g'arbda joylashgan.

shimolga bormoq, suzmoq (janubga, g'arbiga, sharqqa).

**Taqqoslang:**

The travellers went north-east.

Sayohatchilar *Shimoliy-sharqqa* ketishdi.

a direction

*W. comb.* in the direction of

to find out (found out, found out)

*e. g.* We found out that he was away on holiday.

to eat (ate, eaten) [tə 'i:t, 'et, 'i:tn]

yo'nalish

-ga yo'nalish bo'yicha, -ga tomon

(surishtirib) bilmoq, aniqlamoq

Biz uning ta'tildaligini (surishtirib) bildik.

yemoq (ovqatlanmoq)

**Taqqoslang:**

I don't eat eggs. I don't like them.

Don't eat so quickly.

Lekin:

He had two eggs and a cup of coffee for breakfast.

Men tuxum *yemayman*, men ulami yoqtirmayman.

Bunchalik tez *yema*.

U nonushtaga ikkita tuxum *yedi* va bir chashka kofe ichdi.

**that's why**

*e. g.* You read too much last night, **that's why** you couldn't go to sleep at once.

**angry** ['æŋgri]

*Syn.* cross

*Gr.* to be angry (cross) with smb.

**Don't be angry with us.**

*e. g.* **Why are you so cross with me?**

**sir**

**through** [θru:]

*e. g.* We saw them **through** the window.

*W. comb.* to look through

*e. g.* When I came into the room the director was **looking through** the telegrams.

**glasses** (pl.)

**a boat**

*Syn.* a ship (a steamship, a steamer)

**to save**

**to reach**

mana nimaga, shuning uchun

Siz kecha kechqurun juda ko'p o'qib yubordingiz (mana), shuning uchun dartov uxlay olmadingiz.

jahli chiqmoq, xafa bo'lmoq

xafa bo'lmoq

kimdandir xafa bo'lmoq

Bizdan xafa bo'lmang.

Nimaga mendan bunchalik xafa bo'lyapsiz?

ser, janob

orqali

Biz ularni derazadan ko'rdik.

ko'rib chiqmoq (tanishib chiqmoq)

Men xonaga kirganimda, direktor telegrammalarni ko'zdan kechirayotgan edi.

bu yerda: durbin

1. qayiq

2. kema

qutqarmoq

erishmoq, -gacha yetib

bormoq, -gacha olib

bormoq

— **Fe'ldan so'ng predlog ishlatilmasligiga e'tibor bering:** —

Biz *shaharga* kechqurun *yetib keldik*.

We **reached** the town late at night.

**to go on** [tə'gou'ɔn]

*Syn.* to continue

*Gr.* go on (continue) doing smth. (to do smth.)

*e. g.* He **went on reading**. (= He continued reading)

davom etmoq

davom etmoq

nimanidir bajarishda davom etmoq

U o'qishda davom etdi.

*Prep.* to go on with smth.

*e. g.* You can go on with your work. (= You can continue your work.)

**towards** [tə'wɔ:dz]

*Syn.* in the direction of *Lit.*

*e. g.* He told us to go towards (= in the direction of) the station.

**aboard** [ə'bo:d]

*W. comb.* to be aboard  
to go aboard  
to take smth. aboard

*e. g.* They went aboard (the ship).

**suddenly** ['sʌdnli]

*e. g.* The train stopped suddenly.

**an eye** [ən'ai]

**to cry**

*e. g.* Why is the child crying?

*e. g.* "Come here," he cried.

*Syn.* to shout at smb.

*e. g.* Why was he shouting at John?

**to cry out**

*e. g.* "What a pity," he cried out.

**loudly**

*e. g.* He said the last words very loudly (= in a loud voice).

**to be pleased**

*Prep.* to be pleased with smb. (smth.)

nimanidir davom ettirmoq  
Siz ishni davom ettirishingiz mumkin.

-ga yo'nalish bo'yicha, tomonga

U bizga stansiya tomonga borishimizni aytdi.

(kema yoki samolyot) bort(i)ga, bort(i)da

(kema) bortida bo'lmoq

bortga ko'tarilmoq

bortga nimanidir ko'tarib olmoq

Ular (kema) bort(i)ga ko'tarildilar.

birdan, kutilmaganda, to'satdan

Poyezd birdan (kutilmaganda) to'xtab qoldi.

ko'z

1. yig'lamoq

Bolakay nimaga yig'layapti?

2. qichqirmoq

«Bu yoqqa kelinglar», – deb qichqirdi u.

biror kishiga baqirmoq

Nimaga u Jonga baqirdi.

hayajon bilan gapirmoq

«Qanday afsus», – hayajonlanib dedi u.

baland (yo'g'on, qattiq) ovozda

U oxirgi so'zlarni juda baland ovoz bilan aytdi (juda qattiq).

qoniqmoq, qoniqish hosil qilmoq

kimdandir (nimadandir) qoniqmoq, xursand bo'lmoq

e. g. I am pleased with you.

Pleased to meet you.

to order

Gr. to order smb. to do smth.

Men sizlardan qoniqish hosil qildim.

Siz bilan tanishganimdan xursandman.

1. buyurmoq

kingadir nimanidir qilishni buyurmoq

**Taqqoslang:**

The captain ordered them to go aboard.

Kapitan ularga bortga ko'tarilishni buyurdi.

W. comb. to order a new suit

to order dinner

to be asleep

Syn. to sleep

W. comb. to be fast asleep

of course [əf kɔ:s]

2. buyurtma bermoq

kastum (tikish)ga buyurtma bermoq

tushlik buyurtirmoq

uxlamoq (uyquda bo'lmoq)

uxlamoq

qattiq uxlamoq

albatta

**Taqqoslang:**

"Have you seen the new film yet?"

"Of course I have."

"Can I use your pen?"

"Certainly."

– Siz yangi filmni ko'rdingizmi?

– Albatta.

– Sizning ruchkangizdan foydalanish mumkinmi?

– Albatta. (Iltimosga, iltifotli javob, ruxsat)

to be drowned [draund]

(a) record

cho'kib ketmoq

1. rekord (ot), eng yuqori natija

2. rekord (sifat)

**LESSON FIFTEEN**

a department [ə di'pɑ:tmənt]

e. g. There are several departments in this shop.

a department store

to buy (bought, bought)

bo'lim

Bu magazinda bir necha bo'limlar bor.

Universal magazin

sotib olmoq

e. g. Please **buy me** a few exercise-books. (= Please buy a few exercise-books for me.)

**to sell (sold, sold)**

e. g. They **sold us** their piano. (= They sold their piano to us.)

**though** [ðou]

**early** ['æ:li]

e. g. It's too **early** to go there.

Have we come too **early**?

**a customer** [ə 'kʌstəmə]

**a counter** [ə 'kauntə]

**to look round**

**to excuse** [tu iks'kju:z]

e. g. **Excuse me.**

e. g. **Excuse me**, can I get to Kirov Street by the 16<sup>th</sup> bus?

**a shop-assistant**

**over there**

e. g. I can see a nice table for two **over there**. Let's take it.

**a pair** [ə 'peə]

**boots**

**a size**

*W. comb.* size 39 shoes  
size 8 gloves  
two sizes too large (small)

e. g. I'm afraid it isn't my **size**.

Iltilmos, menga bir nechta daftarlar sotib olib bering.

sotmoq

Ular bizga pianino sotishdi.

- ga qaramasdan

1. erta (*sifat*)

U yerga borishga hali erta.

2. erta (*ravish*) (5-darsga qarang)

Biz juda erta keldikmi?

xaridor

rasta

*bu yerda:* tomosha qilmoq, ko'rmoq

kechirim so'ramoq

Kechirasiz. (*ko'pincha suhbatdoshning e'tiborini o'ziga qaratish uchun ishlatiladi*)

Kechirasiz, men Kirov ko'chasiga 16-avtobusda bora olamanmi?

sotuvchi

ana u yerda (*gapiruvchidan biroz uzoq masofada*)

Men ana u yerda ikki kishilik yaxshi stol ko'ryapman. Ketdik, uni band qilamiz.

juftlik

etik

razmer, kattalik, o'lcham

39-o'lchamli tufli

8-o'lchamli qo'lqop

ikki o'lcham katta (kichik)

Bu mening o'lchamim bo'lmasa kerak, deb qo'rqaman.

\* Yulduzcha bilan avval o'rganilgan so'z yoki so'z ma'nolari belgilangan

I want a size larger.

warm [wɔ:m]

*Ant.* cold [kould]

*e. g.* It's warmer today than it was yesterday.

one (ones) [wʌn, wʌnz]

outside ['aʊt'saɪd]

*e. g.* Is it cold outside?

terrible ['terɪbl]

terribly ['terɪbli]

a foot (*pl.* feet) [fʊt, fi:t]

a leg

a hand

an arm

Menga bir o'lcham (razmer) kattasidan kerak.

iliq

sovuq

Bugun kechagidan issiqroq.

*olmosh (otlarni gapda takrorlamaslik uchun ishlatiluvchi o'rindosh so'z)*

tashqarida, ko'chada, binoda emas

Ko'cha sovuqmi? (Ob-havo sovuqmi?)

dahshatli (*sifat*)

dahshat (*ravish*)

oyoq, tovon

oyoq (*sondan tovongacha*)

qo'l, barmoqlar

qo'l (*barmoqlardan yelkagacha*)

#### Taqqoslang:

U qizning *qo'lida* sumka bor edi.

She had a bag **in her hand**.

U ayol bolani *qo'lida* ko'tarib olgan edi.

She had a baby **in her arms**.

suitable ['sju:təbl]

*W. comb.* a suitable place (thing, day)

*Gr.* to be suitable for smb. or smth.

*e. g.* Is this time suitable for you?

to try on

*e. g.* Let me **try on** that grey coat, please. (= Let me **try it on**.)

qulay, mos

qulay joy (huyum, kun)

mos tushmoq, kimgadir yoki nimagadir mos tushmoq

Bu vaqt sizga qulaymi? (ma'qulmi?)

o'lchab ko'rmoq, kiyib ko'rmoq

Iltimos, menga mana hu kulrang paltoni kiyib (o'lchab) ko'rish uchun olib bering.

to feel (felt, felt)

1. o'zini his qilmoq (*9-darsga qarang*)



*Phr.* to feel comfortable

*e. g.* "How do they (the shoes) feel?"

"Thank you, they feel quite comfortable."

Will you try this coat on?

Does it feel comfortable?

### different ['difərənt]

*e. g.* This pen isn't mine. Mine is quite **different**.

That's quite **different**.

The brothers are more **different** than you think.

*e. g.* A department store sells very many **different** things.

*Syn.* various

*W. comb.* various books  
various people

### just

*e. g.* I don't want to buy anything. I'm **just** looking round.

*e. g.* **Just** a moment, please.

*e. g.* He has **just** gone out.

*e. g.* I'm **just** coming.

2. his qilmoq, sezmoq qulay bo'lmoq (*kiyim, poyabzal haqida*)

Siz unda (tuflida) o'zingizni qanday his qilyapsiz?

Rahmat, ular juda qulay.

Siz bu paltoni kiyib ko'rasizmi?

Sizga u yaxshi tushdimi (qulaymi)?

1. boshqacha, bunaqa emas; farqli, boshqalardan ajralib turadigan

Bu mening ruchkam emas. Meniki umuman boshqacha edi. (Bunaqa emasdi)

Bu umuman boshqa gap.

Aka-ukalar siz o'ylaganingizdan boshqacharoq.

2. har xil, turlicha

Univermagda har xil buyumlar sotiladi.

har xil, turli xil

turli xil kitoblar

har xil odamlar

1. faqat, oddiy

Men hech narsa sotib olmoqchi emasman, faqat ko'rmoqchiman, xolos.

2. *buyruq gaplarda ko'pincha fe'lsiz ishlatiladi*

Bir daqiqa!

3. *endigina (tugallangan zamon guruhi bilan ishlatiladi, 50-§ga qarang)*

U endigina chiqib ketdi.

4. *Hozir (ko'pincha harakat fe'llari bilan ishlatiladi)*

Hozir boraman.

**a moment**

*e. g.* Please wait **a moment**.

Sorry I can't see you. I'm  
busy **at the moment**.

**At that moment** he  
stopped.

**lucky** ['lʌki]

*Gr.* to be lucky

*e. g.* I hope we'll be lucky.

You were lucky enough to  
get tickets.

**lovely** ['lʌvli]

**expensive** [iks'pensiv]

*Ant.* cheap

*Syn.* dear

moment, daqiqa, lahza

iltimos, bir daqiqa kutib  
turing.

Kechirasiz, men hozir sizni  
qabul qila olmayman, men  
hozir bandman.

Shu daqiqada u to'xtab  
qoldi.

baxtli, omadli

omadli kelmoq, omadli bo'l-  
moq

Umid qilamanki, bizga omad  
kulib boqadi.

Omadingiz bor ekan, chip-  
tani qo'lga kiritdingiz.

chiroyli, go'zal, oromijon,  
ajoyib

qimmat

arzon

1. qimmat (*arzon emas*)

2. qimmatli (*sevimli, qadrli*)

**Taqqoslang:**

This dress is too **dear**  
(= **expensive**) for me.

This is an **expensive** suit.

(**expensive** ham kesimning ot qismi, ham ot oldidan aniqlovchi  
sifatida ishlatiladi, **dear qimmat** ma'nosida faqat kesimning ot  
qismi bo'lib kela oladi)

Bu kiyim men uchun juda  
qimmat.

Bu qimmat kastum.

**to matter**

*e. g.* It (that) doesn't **matter**  
(to me).

**How much is it?**

**to pay (paid, paid)**

*e. g.* How much did you **pay**  
for these shoes?

**cash-desk**

**inside** ['in'said]

*Ant.* outside

ahamiyatli bo'lmoq

Buning (men uchun) aha-  
miyati yo'q. (Menga bari-  
bir)

Bu qancha turadi?

(pul) to'lamoq

Bu poyabzallar uchun siz  
qancha to'ladingiz?

kassa

ichkarida, binoda

tashqarida, ochiq havoda

e. g. The children are still  
**outside.**

**a glove** [ə 'glʌv]

**along** [ə 'lɒŋ]

*W. comb.* to go (come) along  
with smb.

e. g. "Please let me **go along**  
**with you.**"

"Certainly. **Come along**".

*W. comb.* along a street (river)

**dark**

*W. comb.* dark-brown  
dark-blue  
dark-green

**to match**

e. g. Your gloves **match** your  
hat.

I want a tie to **match** my  
suit.

She had a blue suit on,  
with a bag and shoes to  
**match.**

**a watch** [ə 'wɒtʃ]

**rather** ['rɑ:ðə]

e. g. It's **rather** cold here.

He did **rather** badly in  
his exam.

This is a **rather** good  
book. I think you'll like  
it.

**late**

*Ant.* early

e. g. It's better to be too early  
than too **late.**

Bolalar hali ham ko'chada.

qo'lqop

birgalikda, bilan, bo'ylab  
kim bilandir birga ketmoq

iltimos, menga siz bilan  
(birga) borishga ruxsat  
eting.

Albatta, ketdik.

ko'cha (daryo) bo'ylab

qorong'i, to'q

to'q jigarrang

ko'k

to'q yashil

nimagadir mos tushmoq (*bi-  
chimi, rangi*)

Sizning qo'lqopingiz shla-  
pangizga mos tushdi.

Menga kastumga mos tu-  
shadigan galstuk kerak.

U qizda ko'k kastum, o'sha  
rangdagi sumka va tuffi  
bor edi.

soat (*cho'ntak, qo'l soati*)

yetarli, juda, ancha (*daraja  
ravishi, ko'pincha salbiy  
ma'nodagi, ba'zan ijobiy  
ma'nodagi sifat va ravish-  
lar bilan ishlatiladi*)

Bu yer yetarlicha (ancha)  
sovuq.

U imtihonni ancha yomon  
topshirdi.

Bu ancha qiziq kitob. Me-  
ni o'ylashimcha u sizga  
yoqadi.

1. kech (*sifat*)

erta

Juda kech kelgandan (qil-  
gandan) ko'ra, juda erta  
kelgan (qilgan) yaxshi (ni-  
manidir). (Juda kechdan  
ko'ra, juda erta yaxshi.)

*Prep.* to be late for (to)  
*e. g.* Nick was late for (to)  
classes yesterday.

*e. g.* Better late than never.

**quickly** ['kwikli]

*Ant.* slowly

*Syn.* fast

*W. comb.* to speak fast

qayergadir kech qolmoq  
Kecha Nik darsga kech  
qoldi.

2.\* kech (*ravish*) (5-darsga  
qarang)

Hechdan ko'ra kech bo'lgani  
yaxshi

tez, chaqqon

sekin

tez

tez gapirmoq

## LESSON SIXTEEN

**usual** ['ju:ʒul]

*W. comb.* than usual  
as usual

**an airport** [an 'æpɔ:t]  
**(the) same**

*W. comb.* the same book (story,  
city, man, ect.)

*e. g.* Fred and I left Moscow  
on the same day.

*Phr.* all the same

*e. g.* "Would you like to go  
to the theatre or to the  
cinema?"

"It's all the same to me."

**(a) part**

*e. g.* Did you like the second  
part of this book?

I only did part of the  
work yesterday.

*W. comb.* to take part in smth.

*e. g.* Will you take part in the  
discussion?

**to invite**

odatiy

odatdagiga qaraganda

odatdagiday, har doimgiday

aeroport

xuddi o'zi, o'sha

o'sha kitob (hikoya, shahar,  
odam va boshq.)

Fred bilan men Moskvadan  
bir kunda jo'nadik.

baribir, bir xil, farqi yo'q

Siz kinoga borasizmi yoki  
teatrgami?

Menga baribir

1. qism

Sizga bu kitobning ikkinchi  
qismi yoqdimi?

Kecha men ishning bir  
qismini qildim, xolos.

2. qatnashmoq, ishtirok et-  
moq

nimagadir qatnashmoq, biror  
narsada ishtirok etmoq

Siz muhokamada qatnasha-  
sizmi?

taklif qilmoq

e. g. I invited a lot of my friends  
to dinner on Sunday.

### an invitation

to mind [tə 'maɪnd]

e. g. Do you mind if I smoke?  
(= Do you mind my  
smoking?)

I don't mind if you come  
at 12.

Phr. Would you mind (doing  
smth.)?

e. g. Would you mind opening  
the window?

### air

W. comp. in the open air  
(= out-of-doors)

e. g. You should spend more  
time in the open air (out-  
of-doors).

Prep. (to travel) by air

### fresh

W. comb. fresh air  
a fresh newspaper  
fresh bread (meat,  
etc.)

### the sky

Prep. in the sky

e. g. The sun was shining in  
the blue sky.

to shine (shone [ʃɔn], shone)

### rain

to rain

### hot

e. g. It's too hot in here.  
I like my food hot.

to start

e. g. We must start early.

Yakshanba kuni men ko'p-  
lab do'stlarimni tushlikka  
taklif qildim.

taklifnoma

nimagadir e'tiroz bildirmoq,  
biror narsaga qarshi chiq-  
moq

Men cheksam siz qarshi  
emasmisiz?

Agar 12 da kelsangiz men  
qarshi emasman.

Marhamat qilib... (*muloyim-  
lik bilan iltimos qilish*)

Marhamat qilib, derazani  
ochib yuboring.

havo

ochiq havoda (binoda emas,  
tashqarida)

Siz ko'p vaqtingizni ochiq  
havoda o'tkazishingiz ke-  
rak.

samolyotda (sayohat qilish)

yangi, toza

toza havo

yangi gazeta

yangi non (go'sht va  
boshq.)

osmon

osmonda

Moviy osmonda quyosh  
charaqlar edi.

porlamoq

yomg'ir

yomg'ir yog'moq (78-§ga  
qarang)

issiq, qaynoq

Bu yer juda issiq

Men issiq taomni yoqtira-  
man.

I. jo'namoq, qo'zg'almoq

Biz erta jo'nashimiz kerak.

At last the train started.	Nihoyat poyezd o'rnidan qo'zg'aldi.
<i>Prep.</i> to start off	jo'namoq, yo'lga chiqmoq
<i>e. g.</i> We started off after breakfast.	Nonushtadan keyin biz yo'lga chiqdik.
<i>e. g.</i> We must start work at once.	2. boshlamoq
The girl started crying (to cry).	Biz hoziroq ishni boshla- shimiz kerak.
may	Qizcha yig'lashni boshladi.
<i>e. g.</i> He may come or he may not.	Mumkin (ruxsat, taxmin)
They may still be here.	U kelishi ham (mumkin), kelmasligi ham mumkin.
a driver	Ular hali ham shu yerda bo'lishi mumkin.
to drive [draiv] (drove [drouv], driven ['drivn])	haydovchi, shofyor
<i>W. comb.</i> to drive a car	boshqarmoq (mashinani hay- damoq)
a plane	avtomashinani boshqarmoq, haydamoq
<i>Prep.</i> by plane	samolyot
<i>e. g.</i> I'll be going to Saint Petersburg by plane.	samolyotda
to land	Men Sankt-Peterburgga sa- molyotda uchaman.
a passenger [ə'pæsɪŋdʒə]	qo'nmoq ( <i>samolyot</i> ), sohilga kelmoq ( <i>kema</i> )
to get on (a bus, a plane)	yo'lovchi
to get off (a bus, a plane)	chiqmoq, o'tirmoq, kirmoq (avtobus, samolyotga)
to get into (a car)	tushmoq, chiqmoq (avtobus, samolyotdan)
to get out of (a car)	o'tirmoq (mashinaga chiq- moq)
a group [ə'gru:p]	tushmoq (mashinadan tush- moq)
funny	guruh
<i>W. comb.</i> a funny story (film, etc.)	kulgili, qiziqarli
to look funny	kulgili hikoya (film va boshq.)
to have smth. on	kulgili ko'rinmoq
	nimanidir kiymoq, kiyib ol- gan bo'lmoq

e. g. She had a beautiful dress on.

**to put on smth.**

e. g. It's cold outside (out-of-doors). Put on your warm coat.

**clothes** [klouðz] (pl.)

U qizning egnida chiroyli ko'ylak bor edi.

kiymoq

Ko'cha sovuq. Issiq paltoni kiyib oling.

kiyim-kechak (faqat ko'plikda ishlatiladi)

**Taqqoslang:**

All our warm clothes are in that room, aren't they?

Bizning hamma issiq kiyimlarimiz narigi xonada, to'g'rimi?

**old man**

**a bit**

**to agree**

*Prep.* to agree with smb.

e. g. I don't quite agree with you.

**to laugh** [tə 'la:f]

*Prep.* to laugh at smth. (smb.)

e. g. What are you laughing at?

**snow**

**to snow**

**a degree**

**frost**

**to believe** [tə bi'li:v]

e. g. They didn't believe him.

**almost** ['ɔ:lmo:st]

e. g. It's almost dark outside.

**below zero** [bi:lou 'zi:rou]

**let alone**

e. g. John has no time for a journey to France, let alone the money.

**the biting winds**

qariya (do'stiga murojaat)

biroz

kelishmoq, rozi bo'lmoq

kim bilandir kelishmoq

Men sizning fikringizga unchalik qo'shilmayman.

kulmoq

nimanidir (kimningdir) ustidan kulmoq

Nimaga kulyapsizlar?

qor

qor yog'moq (78-§ga qarang)

*bu yerda:* gradus, daraja

sovuq, ayozli

ishonmoq

Ular unga ishonmadilar.

deyarli

Ko'chaga deyarli qorong'i tushdi.

noldan past

u haqida gapirmasa ham, u yoqda tursin

Fransiyaga borish uchun Jonda vaqt ham yo'q, pulni esa gapirmasa ham bo'ladi.

izg'irin shamol

**to take off**

*Ant.* to put on smth.

*e. g.* You can **take off** your coat. It's warm in here.

**to be sure** [juə]

*e. g.* He's **sure** they will be coming soon.

*Prep.* to be sure of smth.

*e. g.* He is right. I'm quite **sure** of it.

**a heart** [ə 'hɑ:t]

**heartily** ['hɑ:tili]

**a season** [ə 'si:zn]

**to go boating**

**fruit** [fru:t]

**to enjoy** (smth.)

*e. g.* Are you **enjoying** your journey?

**olmoq, yechmoq**

**kiymoq**

Siz paltoingizni yechishingiz mumkin. Bu yer issiq.

**ishonmoq**

U ularning kelishiga aniq ishonadi.

**nimagadir aniq ishonmoq**

U haq. Men bunga aniq ishonaman.

**yurak**

**yurakdan**

**fasl**

qayiqda suzishga bormoq

mevalar

nimadandir zavq olish, bahra olmoq

Sayohatingiz sizga yoqyap-timi?

## LESSON SEVENTEEN

**short for**

**to be situated** ['sitʃueitid]

*e. g.* The village is **situated** in a very beautiful place.

**an island** [ən 'aɪlənd]

**to call**

*e. g.* What d'you **call** ...?

**to consist**

*Prep.* to consist of smth.

*e. g.* The novel **consists of** three parts.

**independent (of)** [indi'pendənt]

**to wash**

**an ocean** [ən 'ouʃn]

**between** [bi'twi:n]

*e. g.* The Mediterranean Sea is **between** Europe and Africa.

-ning qisqartmasi

joylashgan

Qishloq juda chiroyli joyda joylashgan.

orol

nomlamoq, atamoq

Qanday nomlanadi ...?

tashkil topmoq, iborat bo'lmoq

nimadandir tashkil topmoq, -dan iborat bo'lmoq

Roman uch qismdan iborat

(- dan) mustaqil

yuvmoq

okean, ummon

(ikki predmet) orasida, oralig'ida, o'rtasida

O'rtayer dengizi Yevropa va Afrika o'rtasida joylashgan.



**to travel**

*Prep.* to travel **about** a country

to travel **by plane** (by air, by ship)

to travel **on business**

to travel **for pleasure**

**to pass through**

**a continent** [ə'kɒntinənt]

*Art.* the continent

**train**

*Prep.* **by train**

**to cross**

*W. comb.* to cross a country  
to cross a street

**to fly** [ta'flai] (**flew** [flu:], **flown**)

*Prep.* to fly **over**  
to fly **across**

**a mountain** [ə mauntɪn]

*W. comb.* a mountain chain  
[tʃeɪn]

**famous** ['feɪməs]

*Gr. Prep.* to be famous **for**

*e. g.* Finland is **famous for** its lakes.

**a lake****deep****highly developed** ['haɪli di'veləpt]**to export** [tu ɪks'pɔ:t]**machinery** [mə'ʃi:nəri]**a vessel** [ə'vesəl]**a motor** [ə'məʊtə]**goods** [gudz] (*pl.* goods)**main****1. sayohat qilmoq**

biron-bir davlat bo'ylab sayohat qilmoq.

**2. transportda yurmoq**

samolyotda uchmoq (sayohat qilmoq) (paroxodda suzmoq)

ish yuzasidan sayohat qilmoq, xizmat safariga bormoq

dam olish uchun sayohat qilmoq

orqali o'tmoq

qit'a, materik

Yevropa qit'asi (Buyuk Britaniya oroliga nisbatan ishlatiladi)

poyezd

poyezd bilan, poyezdda

kesib o'tmoq, orqali o'tmoq

mamlakat orqali o'tmoq

ko'chani kesib o'tmoq

uchmoq

ustidan uchib o'tmoq

orqali uchib o'tmoq

tog'

tog' tizmasi

taniqli, mashhur

biron nimasi bilan mashhur bo'lmoq

Finlandiya o'zining ko'llari bilan mashhur.

ko'l

chuqur

taraqqiy etgan, yuqori darajada rivojlangan

eksport qilmoq

mashina, mashina jihozlari

yuk kemasi, kema

motor, dvigatel

mol, tovar

bosh, asosiy

<b>an industry</b> [ən 'ɪndəstri]	ishlab chiqarish sohasi, og'ir sanoat
<b>textile</b> ['tekstail]	1. to'qima, yengil sanoat 2. to'qimachilik
<b>food products</b> (pl.)	oziq-ovqat mahsulotlari
<b>raw materials</b> ['rɔ: mə'tiəriəlz]	xomashyo
<b>world</b>	dunyo, borliq
<b>including</b> [in'kludɪŋ]	o'z ichiga olmoq

## LESSON EIGHTEEN

<b>youth</b> [ju:θ]	yoshlik
<b>great</b>	buyuk
<b>popular</b> ['pɒpjulə]	taniqli, mashhur
<i>Gr. Prep.</i> to be popular with smb.	orasida mashhur bo'lmoq
<i>e. g.</i> Professor N. is popular with the students.	Professor N. talabalar orasida mashhur.
<b>a novelist</b> [ə 'nɒvəlɪst]	yozuvchi-romanist, roman yozuvchi
<b>noisy</b> ['nɔɪzi]	shovqinli
<b>(a) noise</b>	shovqin
<i>W. comb.</i> to make a noise	shovqin qilmoq
<i>e. g.</i> The children are making so much noise that I can't work here.	Bolalar shunday shovqin qilishmoqdaki, men bu yerda ishlay olmayapman.
<b>a game</b>	o'yin
<b>clever</b> ['klevə]	qobiliyatli, aqlli
<i>e. g.</i> Ann is a clever girl. She's doing very well at school.	Anna – qobiliyatli qiz. U maktabda juda yaxshi o'qiydi.
<i>Gr. Prep.</i> to be clever (good) at smth. (doing smth.)	nimagadir qobiliyati bo'lmoq
<i>e. g.</i> He's clever (good) at foreign languages.	Uni chet tillarga qobiliyati bor.
<b>an age</b>	yosh
<i>Prep.</i> at the age of ...	... yoshda
<i>e. g.</i> Many children begin reading at the age of five or six.	Ko'pgina bolalar o'qishni besh-olti yoshlarida boshlashadi.
<i>W. comb.</i> at an early age	yoshlik chog'ida, erta yoshda
<i>e. g.</i> Mozart began playing the piano at an early age.	Motsart royalda kuy chalishni yoshlik chog'ida-noq boshlagan.

a play

own [oun]

e. g. I saw it with **my own** eyes.

to perform [tə pə'fɔ:m]

*W. comb.* to perform a play  
a performance [ə pə'fɔ:məns]

to move [tə 'mu:v]

e. g. The train was **moving** very slowly.

e. g. In 1978 our family **moved** to Saint Petersburg.

besides [bi'saidz]

e. g. In order to know English well you should read a lot **besides** your text book.

to go to smb.

*Prep.* to go to smb. for smth.

e. g. I often **go to** Peter for help when I can't do my work alone.

money

**Taqqoslang:**

"Where is the **money**?" "It's on the writing-table."

Did you spend **much money** on books last week?

pyesa, spektakl

xususiy, o'z

Men buni o'z ko'zim bilan ko'rdim.

ijro etmoq, o'ynameq (pyesa haqida)

pyesa ijro etmoq  
tomosha, spektakl

1. harakatlanmoq

Poyezd juda sekin harakatlanardi.

2. ko'chib o'tmoq

1978-yilda bizning oilamiz Sankt-Peterburgga ko'chib o'tdi.

bundan tashqari

Siz ingliz tilini yaxshi bilishingiz uchun darslikdan tashqari ko'plab boshqa kitoblarni ham o'qishingiz kerak.

kingadir murojaat qilmoq

kingadir biror nima uchun murojaat qilmoq

Men ishimni o'zim qilolmaganimda, ko'pincha Peterga yordam so'rab murojaat qilaman.

pul

*Pul qayerda turibdi. - U yozuv stolida.*

O'tgan haftada siz kitoblar uchun *ko'p pul* sarfladigizmi?

except [ik'sept]

*Syn.* but

e. g. I enjoyed all the stories in this book **except** (but) the last one.

I've spoken to everybody **but** him.

- dan tashqari

Menga bu kitobdagi oxirgisidan tashqari, boshqa barcha hikoyalar yoqdi.

Men, undan tashqari, boshqa hamma bilan gplashdim.

**a debt** [ə 'det]  
*W. comb.* to be in debt to smb.  
to pay one's debts

**a debtor** [ə 'detə]  
**The Marshalsea Debtors' Prison**  
**nearly**  
*e. g.* It's nearly ten o'clock.

qarz (pul)  
kimdandir qarzdor bo'lish  
qarzni to'lamoq, qarzini to'-  
lamoq  
qarzdor  
Marshalsi qarzdorlar qamog'i  
deyarli, atrofida  
Soat deyarli 10 bo'ldi.

**Taqqoslang:**

She's nearly ninety.

U ayolning yoshi deyarli  
(salkam) to'qsonda.

She's about forty.

U ayolning yoshi qirqlar  
atrofida.

**schooling** ['sku:lɪŋ]  
**to earn** [tu 'ə:n]  
*Phr.* to earn one's living

**a trade**  
**ambition** [æm'biʃən]

*W. comb.* to realize [ta 'riəlaiz]  
one's ambitions

**well-educated** ['wel'edjukeitɪd]  
**a way**  
*W. comb.* on one's way

*e. g.* I met an old friend of  
yours **on my way** home  
yesterday.

*Phr.* in this way

*e. g.* My brother often goes  
to museums and picture  
galleries and **in this way**  
he learns a lot.

*Phr.* by the way

*e. g.* **By the way**, won't your  
brother join us?

*bu yerda:* maktabda o'qi-  
moq, savodlilik

ishlab topmoq  
yashash uchun pul ishlab  
topmoq  
hunar, kasb

intilish, kimdir bo'lishni  
orzu qilmoq, nimadir qil-  
moq

orzusiga erishmoq

savodli, yaxshi ta'lim olgan  
yo'l  
yo'l bo'ylab, yo'lda, - ga  
ketaverishda

Kecha men uyga kelayotib,  
yo'lda sening qadrdon do's-  
tingni uchratib qoldim.

shunday qilib (shu yo'l, usul  
bilan)

Mening akam muzey va  
rasmlar ko'rgazmasiga tez-  
tez borib turadi va shu yo'l  
bilan ko'p narsalarni bilib  
oladi.

aytgandek, darvoqe

Darvoqe, akangiz biz bilan  
borishni xohlaydimi?

**education** [ˌedʒuˈkeɪʃən]  
*W. comb.* a higher education  
*e. g.* He received a good education.

**to describe** [tə dɪsˈkraɪb]

ta'lim, ma'lumot  
oliy ta'lim, oliy ma'lumot  
U yaxshi ta'lim oldi.

ta'riflamoq, tasvirlamoq

**Diqqatingizni qarating:**

**to describe** fe'lidan so'ng predlogli to'ldiruvchi doim to predlogi bilan ishlatiladi:

**Describe the man to me.**

Menga bu odamni *ta'riflab bering.*

**Describe to me the man who saved you.**

Menga sizni qutqarib qolgan odamni *tasvirlab bering.*

**a description** [ə dɪsˈkrɪpʃən]

*W. comb.* to give a description of smth.

*e. g.* Can you give me a description of the thing?

**a novel** [əˈnɒvl]

**among** [əˈmɒŋ]

*e. g.* He was among friends.

*e. g.* The Volga is among the longest rivers in the world.

**to die (died, died)**

*e. g.* My father died when I was a child.

ta'rif, tasvir

biror narsaga ta'rif bermoq

Siz menga bu narsani tasvirlab bera olasizmi?

roman

1. orasida

U do'stlari orasida edi.

2. qatoriga, sirasiga

Volga dunyodagi eng katta daryolar qatoriga kiradi.

o'lmoq, vafot etmoq

Mening otam bolaligimda vafot etgan.

**LESSON NINETEEN**

**to happen** [təˈhæpən]

*e. g.* It happened ten years ago.

*Syn.* to take place

*e. g.* When did this take place?

*Prep.* to happen to smb.

*e. g.* She asked whether anything had happened to him.

sodir bo'lmoq

Bu o'n yil oldin sodir bo'lgan edi.

sodir bo'lmoq, bo'lib o'tmoq

Bu qachon sodir bo'ldi?

kim bilandir sodir bo'lmoq

U qiz unga hech narsa bo'lmadimi, deb so'radi.

Taqqoslang:

*Unga nimadir bo'ldimi? U nima-ga kelmadi?*

Did anything **happen** to him? Why didn't he come?

*Sizga bugun nima bo'ldi? Siz ko'plab xatolar qilyapsiz.*

What's **happened** to you today? You're making a lot of mistakes.

*Sizga nima qildi? Rangingiz oqarib ketibdi?*

What's the **matter** with you? You're very pale.

*Soatingizga nima bo'ldi?*

What's **wrong** with your watch?

**war** [wɔ:]

*Ant.* peace

*Prep.* at war

at peace

*e. g.* We want to live **at peace** with other peoples.

*W. comb.* the Second World War (= World War II (Two))

**to fight** [tə 'faɪt] (**fought** [fɔ:t], **fought**)

*Prep.* to fight **against** smb. (smth.) **for** smth.

*e. g.* The people's of the world **fight for peace against** war.

**a fascist** [ə 'fæʃɪst]

**to defend** [tə di'fend]

*Prep.* to defend smth. (smb.) **from** smth. (smb.)

Keling, unga imtihon topshirish uchun yana bitta imkoniyat beraylik.

bormoq (*hozirda qo'yilayotgan pyesa, film haqidada*), qo'yilmoq

Bu film endi boshqa qo'yilmayapti. Bilmaysizmi, uni qachon to'xtatishdi?

Bugun qaysi kino bo'ladi?

bormoq (*ma'lum vaqt oralig'i davomida bo'ladigan pyesa, film haqida*), davom etmoq, bo'lmoq

Yangi film, odatda, ikki-uch hafta davom etadi.

uzoq (qisqa) davom etmoq (*pyesa, film haqida*)

Bu pyesa anchadan beri davom etmoqda.

*bu yerda:* rol

bosh rol

rolini ijro etmoq

Gamletni kim o'ynadi?

afisha

shu kunlarda, yaqinda (*o'tgan*), kuni kecha

shu kunlarda (*kelajakda*), qachondir, bugun-erta

**Taqqoslang:**

I saw him **the other day**.

Men uni *kuni kecha* ko'rdim (*o'tgan kunlarning birida*).

I'll be seeing him **one of these days** (in a day or two).

Men uni *bugun-erta* ko'raman (*kelajakda*)

**to manage** [tə'mæniɔ]

- e. g.* I wonder how she'll **manage** the work.

1. nimanidir eplamoq, uddalamoq

Qiziq, u qiz bu ishni qanday uddalar ekan.

*e. g.* Where did you **manage** to get this book?

**a curtain** [ə 'kə:tn]

*W. comb.* to go up (= to rise)  
to fall (= to drop)

**the house**

**packed**

*Gr.* to be packed

*e. g.* Though the play has had a long run, the house is always **packed**.

**a row** [ə 'rou]

*e. g.* I don't like to sit in the first **row**.

**the stalls** [ðə 'stɔ:lz]

**the pit**

**the (dress) circle**

**the balcony** [ðə 'bælkəni]

**the gallery** [ðə 'gæleri]

*Prep.* in the stalls (the pit, the dress-circle, the balcony, the gallery)  
in a box

**light** [lait]

*e. g.* There's a lot of **light** in this room.

*Phr.* Will you give me a **light**?

*e. g.* The **light** is good (bad) for reading.

**the lights**

*e. g.* The **lights** go down.  
But:  
The **lights** went out.

2. erishmoq

Siz bu kitobni qayerdan to-pishga erishdingiz?

1. parda

2. darparda (*teatrda*)

ko'tarilmoq (*parda*)

tushirmoq (*parda*)

*bu yerda:* teatr (tomosha-binlar zali)

to'ldirilgan, liq to'la

to'lib-toshib ketmoq, liq to'la bo'lmoq

Bu pyesa anchadan beri qo'yilayotgan bo'lsa ham teatr doimo liq to'la edi.

qator

Men birinchi qatorda o'tirishni yoqtirmayman.

parter

amfiteatr

belyetaj

1- yarus balkoni

galereya (galerka)

parterda (amfiteatrda, belyetajda, 1-yarus balkonida, galerkada)

lojada

1. nur

Bu xona nurga to'la.

2. olov

Olovni bering. Sigaretni tutatib olay.

3. yoritish qurilmasi

O'qish uchun bu yetarlicha (yetarli bo'lmagan) yorug'lik.

*bu yerda:* chiroqlar (*teatr haqida*)

Chiroqlar (*asta-sekin*) o'chdi.

Chiroqlar (*birdaniga*) o'chib qoldi.

**performance** [pa'fɔ:məns]

*e. g.* Everybody enjoyed the young actor's **performance** as Hamlet.

**talented** ['tæləntɪd]

*W. comb.* a **talented** writer (actor, composer [kəm'pou'zə], painter, poet ['pouit])

**an impression** [ən im'preʃn]

*W. comb.* a deep impression  
a good (wonderful) impression  
a strange impression  
to make an impression on (upon) smb.  
to be under the impression that (= to get the impression that)

*e. g.* The new novel **made a deep impression** on everybody.

**I was under the impression** that you were out of town.

**to applaud** [tu ə'plɔ:d] smb. *Lit.*  
*Syn.* to clap (one's hands) *Coll.*

*e. g.* Everybody **clapped** (him) when he finished speaking.

**an act**

**to act**

*e. g.* The girl's life was saved because the doctors **acted** very quickly.

*W. comb.* to act as

*e. g.* Many students **acted as** guides [gaidz] during the festival.

*bu yerda:* ijro

Yosh aktyorning Gamlet rolini ijro etishi hammaga ma'qul bo'ldi.

iste'dodli, iqtidorli

iste'dodli yozuvchi (aktyor, bastakor, rassom, shoir)

taassurot

chuqur (katta) taassurot  
yaxshi (go'zal) taassurot

g'alati taassurot

kimdadir taassurot qoldirmoq

taassurotda qolmoq, taassurot ostida bo'lmoq

Yangi roman hammada katta taassurot qoldirdi.

Men sizni shaharda yo'q degan fikrga bordim.

kimnidir olqishlamoq

qarsak chalmoq

U o'z so'zini yakunlaganda, hamma uni olqishladi.

akt (*pyesa qismi*)

1. harakat qilmoq

Qizchanning hayoti shifokorlar juda tez harakat qilganliklari tufayli saqlab qolindi.

bo'lib (sifatida) ishlamoq

Festival davrida ko'pgina talabalar gid bo'lib ishlashdi.

2. o'zini tutmoq, harakat qilmoq



*e. g.* He acted like a hero  
[ˈhɪərəʊ].

*Syn.* to play

*e. g.* Who's acting (playing)  
Higgins today?

**acting**

*e. g.* Did you like his acting?

**a cast** [ə ˈkɑːst]

*e. g.* The cast of the play was  
very good.

**a company** [ə ˈkʌmpəni]

**an interval** [ən ˈɪntəvəl]

**local** [ˈləʊkəl]

*W. comb.* a local theatre (news-  
paper, etc.)

**favourite** [ˈfeɪvərɪt]

*e. g.* Tolstoy is my favourite  
writer.

**a chance** (*See* an opportunity)

**a scene** [ə ˈsiːn]

*e. g.* How many scenes are  
there in the first act?

**a rehearsal** [ə riˈhɜːsəl]

*W. comb.* a dress rehearsal

**doubt** [daʊt]

*e. g.* I've no doubt that you'll  
manage the work (very  
well).

There's no doubt about  
it.

There's not much doubt  
about it.

*Phr.* no doubt

*e. g.* You've no doubt heard  
the news.

No doubt he meant to  
help, but he has made  
things worse.

U o'zini qahramonlarcha  
tutdi.

3. rol ijro etmoq

Bugun Higginsni kim ijro  
etarkan?

ijro (*aktyorlar*)

Sizga uning ijrosi yoqdimi?

ijrochilar ro'yxati (tarkibi)  
(*ushbu spektakldagi*)

Ijrochilar tarkibi juda yaxshi  
edi.

*bu yerda:* truppa  
antrakt, tanaffus  
mahalliy  
mahalliy teatr (gazeta va  
boshq.)

sevimli

Tolstoy — mening sevimli  
yozuvchim.

imkoniyat, sharoit

sahna (*pyesadagi akt qismi*),  
parda, ko'rinish

Birinchi aktda nechta sahna  
bor? (Birinchi akt nechta  
pardadan iborat?)

repititsiya, tayyorgarlik

asosiy tayyorgarlik, oxirgi  
(so'nggi) tayyorgarlik

gumon, shubha

Sizning bu ishni uddala-  
shingizga menda shubha  
yo'q.

Bunga hech qanday shubham  
yo'q.

Bunga deyarli shubha yo'q.

shubhasiz, so'zsiz

Siz, shubhasiz, bu yangilikni  
eshitgansiz.

U, shubhasiz, yordam be-  
rishni xohlagan edi, lekin  
hammasini rasvo qildi.

**success** [sək'ses]  
*Phr.* to be a success

muvaqqiyat  
muvaqqiyatga erishmoq

**Taqqoslang:**

The new play is a great success.

Yangi pyesa katta muvaqqiyatga erishdi.

My son has made good progress in music (= is doing well in music).

Mening o'g'lim musiqada katta muvaqqiyatlarga erishdi.

My son is doing well at school.

Mening o'g'lim o'qishda muvaqqiyatlarga erishmoqda.

**to do a play**

*bu yerda:* pyesa qo'yimoq

**a ticket**

chipta (12-darsga qarang)

*Prep.* a ticket for a theatre  
(a play)

teatrga chipta (pyesaga)

**to book seats**

chiptaga buyurtma bermoq

**beforehand** [bi'fɔ:hænd]

oldindan

*e. g.* I made all the necessary preparations beforehand.

Kerak bo'lgan hamma tay-yorgarlikni oldindan qildim.

**a production** [ə prə'dʌkʃən]

*bu yerda:* sahnalashtirish,  
rejissura

**a box-office** [ə 'bɒksɔ:fis]

teatr kassasi

**LESSON TWENTY-FOUR**

**a bench**

skameyka

**to hide (hid, hidden)**

berkitmoq, berkinmoq

*e. g.* Let's hide the toy (away) from the boy.

Kelinglar o'yinchoqni bolakaydan bekitib qo'yamiz.

They hid in the forest.

Ular o'rmonga bekinishdi.

**behind** [bi'haind]

1. ortida, orqasida (*predlog*)

*e. g.* He was hiding behind the door.

U eshik ortiga bekindi.

*W. comb.* to be behind

2. orqada qolmoq

*e. g.* Harry is behind Tom in his work at school.

orqada qolmoq

Garri maktabda Tomdan orqada qolib ketmoqda.

Don't look behind you!

Orqangizga qaramang!

**a bush** [ə 'buʃ]

buta

**to set (set, set)**

o'tirmoq, botmoq (*quyosh haqida*)

*Ant.* to rise (rose, risen)

chiqmoq (*quyosh haqida*)

**a face**

yuz, chehra, bet, aft

**a philosopher** [ə fɪ'ləsəfə]  
**to throw** [tə'θrou] (**threw** [θru:],  
**thrown** [θroun])

*Prep.* to throw smth. **at** smb.,  
to throw smth. **to** smb.

**well-dressed**  
**to look like**

*e. g.* His mother looks like a  
girl of twenty.  
Who does he **look like**?  
What does he **look like**?  
It **looks like** rain.

**to sigh** [tə'sai]  
**silent** ['saɪlənt]

*Gr.* to be silent

*Syn.* to be (keep) quiet

*e. g.* Everybody **was silent**.

**an expression** [ən iks'preʃn]

*e. g.* Is this **expression** often  
used?

*Prep.* the expression **of** (on)  
one's face  
the expression **in** one's  
eyes

*e. g.* There was an **expression**  
of joy **in** her eyes (on  
her face).

**silly**

*e. g.* It **was silly** of him to do  
the work in a hurry.

It's a **silly** mistake.

**whisper** ['wɪspə]

*W. comb.* to speak (say smth.)  
in a whisper

**one's people**

faylasuf  
irg'itmoq

kingadir nimanidir irg'it-  
moq, kingadir nimanidir  
irg'itib yubormoq

yaxshi kiyingan

kingadir o'xshamoq (ko'ri-  
nishi)

Uning onasi yigirma yashar-  
lik qizga o'xshaydi.

U kimga o'xshaydi?

Uning ko'rinishi qanaqa?

Yomg'ir yog'adiganga o'x-  
shaydi.

xo'rsinmoq

sukut, ovoz chiqarmay, tinch

indamaslik, jim o'tirmoq

tovush chiqarmaslik, tinch  
o'tirmoq

Hamma jim edi.

1. ibora, gap

Bu ibora ko'p qo'llanila-  
dimi?

2. ko'rinish, yuz tuzilishi,  
ko'z va bosh.

yuz tuzilishi

ko'z ifodasi

Uning ko'zlari (yuzi) quv-  
noq edi.

tentak

Bu ishni shoshib bajarish u  
tomonidan qilingan ten-  
taklik edi.

Bu ahmoqona xato.

pichirlash

pichirlab gapirmoq

*bu yerda:* ota-onalar

- e. g. I'll write to my people in Minsk about it.
- to suppose** [ta sə'pouz]
- Gr.* to be supposed to do smth.
- e. g. I'm supposed to be there at five.
- Everybody is supposed to know it.
- We weren't supposed to do it yesterday.
- People are not supposed to smoke here.
- to drink (drank, drunk)**  
**to have a drink**  
**a bar**  
**a shilling**  
*twopence* ['tʌpəns]  
**to lend (lent, lent)**  
*Ant.* to borrow  
*Prep.* to lend smb. smth.
- to borrow smth. from smb.
- a point**  
*W. comb.* a point of view [vju:]  
 from smb.'s point of view
- e. g. It's quite a different point of view.
- e. g. I don't see your point.
- W. comb.* The point is that...
- Men bu haqda ota-onamga Minskka yozib yuboraman.
- o'ylamoq, taxmin qilmoq, nazarda tutmoq (*kelishuv, reja bo'yicha*)
- nimanidir qilishga majbur bo'lmoq (*shartnoma, reja bo'yicha*)
- Men u yerda beshda bo'lishim kerak (*kelishib qo'rganman, va'da berganman*)
- Buni hamma bilishi kerak.
- Biz kecha buni qilmasligimiz kerak edi. (*Biz kecha buni qilishimiz nazarda tutilmagan edi*)
- Bu yerda chekish mumkin emas.
- ichmoq  
 ichib olmoq  
*bu yerda:* bar  
 shilling  
 2 penslik tanga  
 qarz bermoq  
 qarz olmoq  
 kimgadir biror narsani qarzga bermoq  
 kimdandir biror narsani qarzga olmoq  
 1. nuqta, punkt  
 nuqtayi nazar  
 kimning nuqtayi nazaridan
- Bu umuman boshqacha nuqtayi nazar
2. asosiysi  
 Men sizni nima demoqchiligingizni tushunmayapman.
- Gap shundaki, ...

e. g. **The point is that** we haven't enough time now.

e. g. **His strong point is that** he has travelled a lot.

I love the way she always finds **good points** in people.

**to produce** [tə prə'dju:s]

e. g. We **produced** our tickets.

e. g. How many machines does the factory **produce** a year?

**to lose** [tə 'lu:z] (lost [lɒst], lost)

*Ant.* to find

*W. comb.* to lose things (money, one's health, etc.)

**simple**

*W. comb.* a simple text (rule, story, etc.)

But:

ordinary people

**a packet** [ə 'pækit]

**evidently** ['evidəntli]

e. g. He has **evidently** read a lot.

**to pick up**

e. g. The wind blew off his hat, and he quickly **picked it up**.

**to allow** [tu ə'laʊ]

e. g. Will you **allow** me to use your books while you are away?

**a gate**

**to obey** [tu ə'bei]

e. g. You must make the child **obey** you.

Gap shundaki, bizning hozir vaqtimiz yo'q.

3. ustunlik, afzallik

Uning ustunligi shundaki, u ko'p sayohat qilgan.

Menga uning odamlardan har doim yaxshilik topa olishi yoqadi.

4. ball (sport)

1. ko'rsatmoq

Biz chiptamizni ko'rsatdik.

2. ishlab chiqarmoq

Zavod yiliga nechta mashina ishlab chiqaradi?

1. yo'qotmoq

topmoq

buyumlarni yo'qotmoq (pulni, sog'liqni, va boshq.)

2. yutqazmoq

oddiy, murakkab emas, sodda sodda matn (qoida, tarix va boshq.)

oddiy odamlar

paket, xalta

ko'rinib turish, aniq bo'lish

Uning ko'p o'qishi aniq.

ko'tarib olmoq, termok

Shamol uning shlapasini uchirib yubordi va u tezda shlapasini ko'tarib oldi.

ruxsat bermok

Siz yo'qligingizda menga kitoblaringizdan foydalanishga ruxsat berasizmi?

darvoza

itoat etmoq

Siz bolani o'zingizga itoat etishga majbur qilishingiz kerak.

**a pound** | ə'paund] (= £1)

**a card**

**to look for smth.**

e. g. What are you looking for?

funt

bu yerda: tashrif qog'ozi  
nimanidir qidirmoq, istamoq  
Siz nima qidiraysiz?

## LESSON TWENTY-FIVE

**post** [poust]

e. g. Has the **post** come yet?

*W. comb.* by ordinary post  
by registered post

**mail**

e. g. Has there been any **mail**  
today?

*W. comb.* the morning mail  
(post)  
the evening mail  
air mail

*Prep.* by the morning mail  
(post)

by air mail

e. g. Please send the letter **by**  
**air mail.**

**a post-office**

1. pochta (*pochta xizmati*)

2. korrespondensiya, xat-  
xabarlar (*xususiy*)

Pochtani olib kelishdimi?

oddiy pochta orqali

buyurtma pochta orqali

pochta, korrespondensiya,  
xat, telegramma (*odatda*  
*xizmat yuzasidan*)

Bugun (biron-bir) pochta  
keldimi?

ertalabki pochta

kechki, oqshom pochtasi  
havo pochtasi

ertalabki pochta bilan

havo pochtasi orqali

Iltimos, bu xatni havo  
pochtasi orqali jo'nating.  
pochta idorasi, pochta  
bo'limi

### Taqqoslang:

There's a **post-office** in our street.

A lot of **mail** comes to our  
office.

The letter will go by ordinary  
**post.**

Bizning ko'chamizda *pochta*  
*idorasi* bor.

Bizning idoramizga ko'p-  
gina *pochta* keladi.

Xat oddiy *pochta* orqali  
jo'natiladi.

**a postman**

**postage** ['poustidʒ]

*W. comb.* to pay double [dʌbl]  
postage

pochtachi

pochta to'lovlari, pochta  
xarajatlari

pochta to'lovlarini ikki ba-  
ravar to'lamoq

to post

e. g. Have you **posted** your letter yet?

a letter-box

Syn. a mail-box  
a pillar-box

once

twice

pochta orqali jo'natmoq

Siz xatingizni jo'natib yubor-  
dingizmi?

pochta qutisi

1. bir kuni

2. bir marta

ikki marta

**Yodda saqlang:**

once

twice

bir marta

ikki marta

But:

three times

four times

five times, etc.

uch marta

to'rt marta

besh marta va shu kabi.

e. g. Sometimes it's not enough to read the text **once**. One has to read it **twice** or even **three** or **four times** to understand it well.

Ba'zida matnni bir marta o'qish yetarli bo'lmaydi. Uni yaxshilab tushunish uchun ikki marta, hattoki uch marta o'qishga ham to'g'ri keladi.

a stamp

to stamp

*W. comb.* to stamp a letter  
an unstamped letter

e. g. I had no time to buy a **stamp** and my letter went **unstamped**.

pochta markasi

marka yopishtirmoq

xatga marka yopishtirmoq

markasiz xat

Mening marka sotib olgani vaqtim bo'lmadi va xat markasiz ketdi.

an automatic stamp-machine

[ən ɔ:tə'mætɪk 'stæmpməʃi:n]

change [tʃeɪndʒ]

*W. comb.* small change

e. g. Can you give **change** for a £1 note?

I haven't got any **small change** about me.

marka sotadigan avtomat

*bu yerda:* qaytim

mayda (pul)

Siz menga 1 funtni maydalab bera olasizmi?

Mening maydam yo'q.

maybe ['meɪbi]

e. g. **Maybe**, they'll write to us one of these days.

bo'lishi mumkin

Ular bizga shu kunlarda xat yozishlari mumkin.

**both**

- e. g. "Shall I give you an English or a Russian book?"  
 "Both, please."

har ikkovi

- Sizga inglizcha kitob beraymi yoki ruschami?  
 Iltimos, ikkovini ham bering.

**Taqqoslang:**

**They can both speak English.**

**Both of them can speak English.**

**They both left Moscow.**

**Both of them left Moscow.**

**They are both here.**

**Both of them are here.**

*Ularning ikkovi ham inglizcha gapira olishadi.*

*Ularning ikkovi ham Moskvadan ketishgan.*

*Ularning ikkovi ham shu yerda.*

**an envelope** [ən 'enviləʊp]

**to need**

- e. g. "Do you still need the book?"  
 "No, I don't need it any longer."

konvert

1. nimagadir zoriqmoq (*asosiy fe'l*)

Sizga bu kitob hali ham kerakmi?

Yo'q, u kitob menga endi kerak emas.

- e. g. You needn't come here again.

2. (*modal fe'l sifatida bo'lishsiz gaplarda "kerak emas", "hojati yo'q" ma'nosida*)

Sizning bu yerga yana kelishingiz shart emas.

**to trouble** [tə 'trʌbl]

- e. g. He was troubled about his son's poor progress.

1. xavotirlanmoq, hayajonlanmoq, xafa qilmoq, bezovta qilmoq

U o'g'lining muvaffaqiyatsizligidan xavotirda edi.

2. bezovta qilmoq, azob bermoq

- e. g. Does your tooth still trouble you?

Sizni tishingiz hali ham bezovta qilyaptimi?

3. noqulaylik yaratmoq, xalaqit bermoq, joniga tegmoq

**Syn. to bother** [tə 'bɒðə]

xalaqit bermoq, joniga tegmoq



e. g. You can work in this room. I'm sure nobody will **trouble (bother)** you here.

Siz mana bu xonada ishlashingiz mumkin. Men amin-manki, bu yerda sizni hech kim bezovta qilmaydi.

**Taqqoslang:**

Siz bunaqangi arzimagan narsalarga *xavotir olmasligingiz* kerak.

You shouldn't **worry** about unimportant things like that.

Sizni bu shovqin *bezovta qilyaptimi?*

Does the noise **bother** you?

Men sizni *bezovta qilmoqchi* emasdim, lekin sizning yordamingizsiz men bu yerda hech narsaga tushunmayman.

I didn't want to **trouble (bother)** you, but I can't make out anything here without your help.

**to lead (led, led)**

*W. comb.* to lead the way

a coin

a result [ə ri'zʌlt]

**to drop**

e. g. The little boy was crying because he had **dropped** his toy on the floor and broken it.

boshlamoq

ergashtirmoq

tanga

natija

tashlab, tushirib yubormoq

Kichkina bola yig'lar edi, chunki u o'yinchog'ini polga tushirib yuborib sindirib qo'ygan edi.

**to drop in**

e. g. I'll **drop in** at your place on my way home.

kirib o'tmoq

Men uyga ketayotib siznikiga kirib o'taman.

**the ground** [ðə 'graʊnd]

*Prep.* on the ground

a spot

a face

yer, yerusti

yerda, yerga

dog'

*bu yerda:* old (yuza) tomoni (matoning, xatning)

**collection** [kə'lekʃn]

*W. comb.* the midnight collection

e. g. What a fine **collection** of stamps!

1. xatlarni yig'ishtirish

xatlarni yarim kechada oxirgi yig'ishtirilishi

2. kolleksiya, to'plam

Markalarning qanaqa zo'r kolleksiyasi (to'plami)!

**to collect** [tə kə'lekt]

e. g. Will you **collect** your papers ['peipəz], please?

1. to'plamoq, tartib bilan taxlamoq

iltimos, qog'ozlaringizni yig'ishtiring.

e. g. Many schoolchildren collect stamps.

**firm**

*W. comb.* a firm voice (decision, answer)

**a job**

2. tegishlisini olmoq  
3. yig' moq, to'plamoq, kolleksiya qilmoq

Ko'pgina o'quvchilar marka yig'adilar.

qat'iy, qat'iyatli

qat'iy ovoz (qaror, javob)

ish, ish qismi

**Artikl ishlatilishiga e'tibor qarating:**

That's an interesting job.  
That's interesting work.

Bu qiziqarli ish

**wounded** ['wu:ndid]

**a goldfish**

**ahead**

e. g. Go straight ahead.

*Gr.* to be ahead of

e. g. The boy was so clever that he was soon ahead of the other children in the class.

**a turning**

*W. comb.* to take the first (second) turning to the left (right)

**to register** [tə'redʒɪstə] **a letter**

**a registered letter**

*W. comb.* to send a registered letter (= to send a letter by registered post)

**an ordinary** ['ɔ:dinəri] **letter**

**a clerk** [ə'kla:k]

**a telegram**

*W. comb.* to send a telegram

yarador

oltin baliq

oldinda, oldinga, to'g'riga

To'g'riga yuring (hech qayoqqa burilmang).

oldinda bo'lmoq

Bolakay shunaqa iqtidorli ediki, tezda sinfdagi boshqa bolalardan oldinga o'tib oldi.

burilish

chap (o'ng) tomondagi birinchi (ikkinchi) burilishga burilmoq

buyurtma xat orqali jo'natish

buyurtma xat

buyurtma xat jo'natish

oddiy xat

*bu yerda:* xizmatchi

telegramma

telegramma jo'natmoq (*ni-manidir telegrammada xabar qilmoq*)

to send off a tele-  
gram

**extra** ['ekstrə]

*e. g.* You'll get **extra** pay for  
**extra** work.

*W. comb.* to work (pay, etc.)  
extra

**a money-order**

*W. comb.* to make out a  
money-order

**a form**

*W. comb.* to fill in a form

**a desk**

**a present** [ə 'preznt]

*W. comb.* to give (make) smb.  
a present  
a birthday present  
a wedding present

**to hand**

*e. g.* I **handed** him the parcel.

But:

I **handed in** the parcel.

**a parcel** [ə 'pɑ:sl]

**next**

*W. comb.* next door

*e. g.* They live **next door** to us.

But:

Parcels are taken in the  
**next room**.

**a receipt** [ə ri'si:t]

telegramma jo'natmoq (*tele-  
grammani pochta orqali  
jo'natmoq*)

1. qo'shimcha (*sifat*)

Siz qo'shimcha ish uchun  
qo'shimcha haq olasiz.

2. qo'shimcha (*ravish*)

qo'shimcha ishlamoq (to'la-  
moq va boshq.)

pul o'tkazish

pul o'tkazmoq

bu yerda: blanka, forma,  
shakl

blankani to'ldirish

parta, yozuv stoli

sovg'a

sovg'a qilmoq

tug'ilgan kun sovg'asi

to'y sovg'asi

topshirmoq, bermoq

Men unga jo'natma top-  
shirdim (*vositali to'ldi-  
ruvchi bilan*).

Men jo'natma topshirdim.  
(*vositali to'ldiruvchisiz*)

jo'natma (posilka)

navbatdagi (2-darsga qarang)

yonma-yon (*qo'shni uyda,  
qo'shni xonada*)

Ular bizning yonimizda  
yashashadi.

Jo'natmalarni qo'shni xo-  
nada qabul qilishadi.

kvitansiya

## LESSON TWENTY- SIX

**ice** [ais]

**papers** (pl.)

**to publish** [tə 'pʌbliʃ]

*Syn.* to print

*e. g.* The book was first published (printed) in 1950.

**an adventure** [ən əd'ventʃə]

**a servant** [ə 'sə:vənt]

**an extract** [ən 'eksrækt]

*Prep.* an extract from a book  
(a story, etc.)

**sport(s)**

*W. comb.* to go in for sport(s)

*e. g.* He's good at sports.

"Does your son go in for sports?"

"Oh, yes. He goes in for sports and games of all sorts."

**an athlete** [ən 'æθli:t]

**a sportsman**

**to reply** [tə ri'plai] *Lit.*

*Syn.* to answer

*Prep.* to reply to smth.

**muz**

*bu yerda:* yozuvlar

nashr qilmoq, chop qilmoq

chop qilmoq (*tipografiya yo'li bilan*), bosib chiqarmoq

Kitob birinchi marta 1950-yilda nashr qilingan.

sarguzasht

xizmatkor ayol

parcha

kitobdan parcha (hikoyadan va boshq.)

sport (*ko'pincha ko'plikda ishlatiladi*)

sport bilan shug'ullanmoq

U yaxshi sportchi.

Sizning farzandingiz sport bilan shug'ullandimi?

Ha, u ko'pgina sport va o'yin turlari bilan shug'ullanadi.

sportchi (*yengil atletika bilan shug'ullanuvchi*)

sportchi (*ov va boshq. shu kabi sport turlari bilan shug'ullanuvchi*)

javob bermoq

javob bermoq

nimagadir javob bermoq

### Taqqoslang:

They replied to our letter. }

They answered our letter. }

But:

in answer to our letter }

in reply to our letter }

Ular bizning xatimizga javob berdilar.

bizning xatimizga javoban

**practice** ['præktis]

amaliyot

*W. comb.* to be out of practice

*e. g.* It's difficult for him to speak French because he's out of practice.

to practise [ta 'præktis]

*W. comb.* to practise running (jumping, etc.)

to practise tennis (the piano, etc.)

to practise for an hour (two hours, etc.) every day

graceful

elegant ['eligənt]

to reddeñ

downstairs ['daunstceəz]

*e. g.* Someone's waiting for you downstairs.

*Ant.* upstairs

*e. g.* The Petrovs live upstairs.

*W. comb.* to go downstairs  
to go upstairs

a skating-rink [ə 'skeitɪŋrɪŋk]

to sweep (swept, swept)

successful [sək'sesful]

to raise (raised, raised)

*W. comb.* to raise one's hat

to raise one's glass

to raise a curtain

to raise a question (a point)

to raise one's voice (against)

yaxshi holatda bo'lmaslik, (sport) forma(si)dan chiqib qolish

Unga fransuz tilida gapirish qiyin, chunki u formadan chiqib qoldi.

mashq qilmoq, amaliy shug'ullanmoq

yugurishni mashq qilmoq (sakrashni va boshq.)

tennis o'ynashni mashq qilmoq (royalda o'ynashni mashq qilmoq)

har kuni bir (ikki va sh.k.) soat mashq qilmoq

hashamatli

jozibador

qizarmoq

pastga, quyi qavatga, zinadan pastga

Sizni kimdir pastda kutib turibdi.

yuqoriga, yuqori qavatda, zinadan tepaga

Petrovlar yuqorida yashashadi.

zinadan pastga tushmoq

zinadan yuqoriga ko'tarilmoq

konki uchish joyi

supurmoq

muvaqqiyatli

ko'tarmoq (pastroq darajadan yuqoriroq darajaga)

shlapani ko'tarmoq (salomlashganda)

qadah ko'tarmoq

pardani ko'tarmoq (teatrda)

savol tashlamoq, masala ko'tarib chiqmoq

qarshi ovoz bermoq (*e'tiroz, norozilik sifatida*)

Taqqoslang:

Men pardani *ko'tardim* va xona  
zudlik bilan yorishdi.

Agar savollaringiz bo'lsa, qo'-  
lingizni *ko'taring*.

Jomadon shunaqa og'ir ediki,  
men uni *ko'tara* olmadim.

Siz nimadir tushirib yubordingiz.  
Menga *ko'tarib* olishga ruxsat  
eting.

I **opened** the curtain and it  
was immediately light in  
the room.

If you've got a question,  
**raise** your hand.

The suit-case was so heavy  
that I couldn't **lift** it.

You've dropped something.  
Let me **pick** it up.

Taqqoslang:

They raised the curtain.  
(o'timli fe'l)

The curtain rose.  
(o'timsiz fe'l)

Ular pardani *ko'tarishdi*.

Parda *ko'tarildi*.

**to tremble**

*Syn.* to shiver

*e. g.* She **trembled** at the sound  
of a shot.

His voice **trembled** with  
anger.

**to hold (held, held)**

*Prep.* to hold smth. in one's  
hands

to hold smth. (smb.) in  
one's arms

*e. g.* She came into the room  
**holding her baby in her  
arms.**

*Prep. Art.* to hold smb. by the  
hand (by the shoul-  
der, etc.)

titramoq (qo'rquvdan, jahl-  
dan)

titramoq (sovuqdan)

U qiz o'q ovozidan titrab  
ketdi.

Uning ovozi jahli chiqqa-  
nidan titrab ketardi.

1. ushlamoq

nimanidir qo'lda (kaftda)  
ushlab turmoq

nimanidir (kimnidir) ushlab  
turmoq

U ayol bolasini qo'lida  
ko'tarib xonaga kirdi.

kimningdir qo'lidan (bilagi-  
dan) ushlamoq (yelkasidan  
va sh.k.)

Taqqoslang:

U chiqish qilayotganda, yozuv  
kitobchasini qo'lida *ushlab  
turdi*.

Kitob sizda chorshanbagacha  
*tursa bo'ladi*.

He **held** a note-book in his  
hand as he spoke.

You can **keep** the book till  
Wednesday.

*W. comb.* to hold a meeting  
(a conference, a  
championship, etc.)

*e. g.* Will the meeting be held  
tomorrow afternoon?  
When was the meeting  
held?

**to catch (caught, caught)**

*Prep.* to catch hold of smth.

*e. g.* The boy caught hold of  
the life-belt and got out  
of the water.

*Phr.* to catch (a) cold

*e. g.* Don't sit so close to the  
window. You may catch  
cold.

**grasp** [gra:sp]

**drowning** ['draunɪŋ]

**slippery**

**common** ['kɒmən]

*W. comb.* a common mistake  
(thing)  
common people

*e. g.* The common people in  
every country want peace.

*Ant.* uncommon

*e. g.* Children of the same age  
have common interests.

**to free oneself**

**to touch** [tə'tʌtʃ]

*e. g.* Visitors were asked not  
to touch the exhibits  
[ig'zibits].

**to take no notice of smth.**

(= not to take any notice of smth.)

*e. g.* He took no notice of the  
warnings.

**to pay attention to smth.**

*e. g.* You must pay more at-  
tention to your spelling.

2. o'tkazmoq

yig'ilish o'tkazmoq (konfe-  
rensiya, chempionat va  
boshq.)

Yig'ilish ertaga kunduzi o't-  
kaziladimi?

Yig'ilish qachon bo'ldi?

tutmoq, ushlamoq

nimanidir ushlab olmoq

Bolakay qutqarish ayla-  
nasidan ushlab suvdan  
chiqib oldi.

shamollab qolmoq

Derazaga bunchalik yaqin  
o'tirmang. Shamollab qo-  
lishingiz mumkin.

mahkam ushlamoq, tashlan-  
moq

cho'kib ketayotgan

toyg'ich

1. oddiy, sodda

odatiy, keng tarqalgan xato  
(buyum)

oddiy odamlar (amalsiz)

Barcha mamlakatlardagi od-  
diy odamlar tinchlik istay-  
dilar.

g'alati, o'ziga xos

2. umumiy

Bir xil yoshdagi bolalar umu-  
miy qiziqishga egalar.

ozod bo'lmoq, chiqib ketmoq  
nimagadir tegmoq, tegib ket-  
moq

Mehmonlardan eksponatlar-  
ga tegmasliklarini so'-  
rashdi.

nimagadir e'tibor bermaslik

U ogohlantirishga e'tibor  
bermadi.

nimagadir e'tibor bermoq

Siz imloga katta e'tibor be-  
rishingiz kerak.

	But:	
	You should <b>take better care</b> of your health.	Siz sog'lig'ingizga katta e'tibor berishingiz kerak.
<b>to push</b> [tə'puʃ]		itarmoq, surmoq (o'zidan)
<b>to pull</b> [tə'pul]		tortmoq (o'ziga)
<i>e. g.</i> You <b>push</b> (the box) and I'll <b>pull</b> (it).		Siz (qutini) suring, men esa tortaman.
<b>a liar</b> [ə'laɪə]		yolg'onchi
<b>to lie</b> (lied, lied, lying)		aldamoq
<b>a stadium</b> [ə'steɪdɪəm]		stadion
<i>W. comb.</i> the Dynamo [dəɪnə'maʊ] Stadium at the stadium		Dinamo stadioni
<b>a fan</b>		stadionda
<i>W. comb.</i> a hockey fan [ə'hɒki'fæn]		muxlis, tomoshabin, ishqiboz
a football fan		xokkey muxlisi, xokkey ishqiboz
<b>a match</b>		futbol muxlisi, futbol ishqiboz
<i>W. comb.</i> a thrilling (exciting) match		o'yin, sport uchrashuvi (bellashuvi)
<b>a team</b>		hayajonli uchrashuv
<i>W. comb.</i> a football (hockey) team		brigada, jamoa, komanda
a team of workers		futbol (xokkey) komandasi
team-work		ishchilar brigadasi
<i>Syn.</i> a crew [ə'kru:]		jamoaviy ish
<i>Gr.</i> All the crew are on deck.		komanda, ekipaj ( <i>kema, samolyot</i> )
<i>e. g.</i> It's a very good crew.		Hamma komanda palubada.
<b>a score</b> [ə'skɔ:]		Bu juda yaxshi komanda.
<i>e. g.</i> "What's the score?" "Two nil."		hisob ( <i>o'yin, musobaqa</i> )
<b>to score a goal</b>		Hisob qanaqa? – Ikki-yu nol.
<i>e. g.</i> No goals were scored.		gol urmoq
<b>a draw</b> [ə'drɔ:]		Bitta ham gol urilmadi.
<i>W. comb.</i> to end in a draw		durang
<i>e. g.</i> The match ended in a draw.		durang bilan tugamoq
The teams <b>drew four all.</b>		Uchrashuv durang bilan yakunlandi.
<b>to win</b> [wɪn] ( <b>won</b> [wɒn], <b>won</b> )		Uchrashuv 4:4 hisobida durang bilan yakunlandi.
		yutmoq, g'olib chiqmoq



*Ant.* to lose [ta'lu:z] (lost, lost)

*W. comb.* to win (to lose) a battle (a match, a game of chess, etc.)

*e. g.* They lost two points.

They lost the game.

a **champion** [ə'tʃæmpjən]

yutqazmoq

jangni yutmoq (yutqazmoq) (o'yinni, shaxmat partiyasini va sh.k.)

Ular ikki ball (ochko) yo'qotishdi.

Ular o'yinni yutqazishdi.  
champion, g'olib

### Yodda saqlang:

a **championship** [ə'tʃæmpjənʃɪp]

*W. comb.* World Championship  
a football (hockey) championship

a **competition**

sporting events

*W. comb.* to win (lose) in the first (second, etc.) event

a **tournament** [ə'tuənəmənt]

*W. comb.* a chess tournament  
a tennis tournament

a **race**

*W. comb.* a horse race  
a boat-race

to have a race

chempionat, birinchilik  
Jahon chempionati  
futbol (xokkey) bo'yicha  
chempionat, birinchilik

musobaqa (*har qanaqa*)

yengil atletikaning alohida turlari bo'yicha musobaqa

birinchi (ikkinchi) turda g'alaba qozonmoq (yutqazmoq)

turnir

shaxmat turniri

tennis bo'yicha musobaqa

yugurish bo'yicha musobaqa (suzish, mototsiklda poyga va sh.k.), poyga

otlar poygasi

eshkak eshish bo'yicha musobaqa, poyga

yugurishda musobaqalashmoq, poyga o'ynamoq (konkida yugurish bo'yicha va sh.k.)

to **beat** (beat, beaten)

*e. g.* Spartak beat Dynamo three two.

1. urmoq

2. yutmoq (sportda), g'olib chiqmoq

"Spartak" "Dinamo" ustidan 3:2 hisobida g'alaba qozondi.

# GRAMMATIK MAVZULAR

## KIRISH KURSI

### 1-DARS

**1-§. Buyruq gap.** Bevosita suhbatdoshga yoki uchinchi bir shaxsga qaratilgan buyruq yoki iltimos buyruq gap bilan beriladi. Buyruq gapdagi fe'l buyruq maylida keladi. Fe'ning buyruq maylidagi shakli uning o'zak shakli bilan bir xil bo'ladi. Fe'ning o'zak shaklini yasash uchun uning noaniq shaklidagi *to* yuklamasi tushirib qoldiriladi.

M.: *to meet* – uchratmoq (infinitiv shakli)

*meet* – uchrat (fe'l o'zagi va buyruq mayli shakli)

Ingliz tilida buyruq maylidagi fe'l ham birlik, ham ko'plik uchun taalluqlidir.

M.: *Tell* – Ayt. *Aytinglar*. *Ayting*.

Ingliz tilida buyruq gap *kesim* bilan boshlanadi. Bunday gaplarda, odatda, gapning egasi ko'rsatilmaydi. To'ldiruvchi kesimdan so'ng ikkinchi o'rinda keladi.

M.: *Meet Ted* – Tedni uchrat.

*Tell Ben* -- Benga ayt.

**2-§. Ingliz tilidagi ot va olmoshlarning kelishi haqida tushuncha.** Ingliz tilida otlarning ikkita kelishi bor: Umumiy kelishik va qaratqich kelishi. Umumiy kelishikda otlar hech qanday qo'shimcha olmaydi.

M.: *Send Peter a book* – Peterga kitobni jo'nat.

Umumiy kelishikdagi otlar gapda *ega*, *to'ldiruvchi*, *hol*, *aniqlovchi* bo'lib keladi.

Qaratqich kelishigidagi otlar birlikda – 's ko'plikda esa – ' oladi.

M.: *My friend's book* – Do'stimning kitobi.

*My friends' books* – Do'stlarimning kitoblari.

Biroq, ko'plikda – s bilan tugallanmaydigan otlar ko'plikda qaratqich kelishigida -'s oladi. Masalan: *Women's dresses*.

### Kishilik olmoshlarining kelishiklari.

Kishilik olmoshlarining ikkita kelishigi bor: bosh kelishik va obyekt kelishigi.

<b>Bosh kelishik</b>			
<i>Shaxs</i>	<i>Birlik</i>		
<i>Savol</i>	<b>Who?</b>	[hu:]	Kim?
I	<b>I</b>	[ai]	Men
II	<b>You</b>	[ju:, ju:, ju]	Sen
	<b>He</b>	[hi:, hi:, hi]	U (m.r.)
III	<b>She</b>	[ʃi:, ʃi:, ʃi]	U (j.r.)
	<b>It</b>	[it]	U (s.r.)
<i>Shaxs</i>	<i>Ko'plik</i>		
I	<b>We</b>	[wi:, wi:, wi]	Biz
II	<b>You</b>	[ju:, ju:, ju]	Sizlar
III	<b>They</b>	[ðei]	Ular
<i>Gapda</i>	Ega		
<i>Predlog</i>	ishlatilmaydi		

<b>Obyekt kelishigi</b>				
<i>Shaxs</i>	<i>Birlik</i>			
<i>Savol</i>	<b>Whom?</b>	[hu:m]	Kimni?	Kimga?
I	<b>Me</b>	[mi:, mi:, mi]	Meni	Menga
II	<b>You</b>	[ju:, ju:, ju]	Seni	Senga
	<b>Him</b>	[him]	Uni	Unga
III	<b>Her</b>	[hə:, hə]	Uni	Unga
	<b>It</b>	[it]	Uni	Unga
<i>Shaxs</i>	<i>Ko'plik</i>			
I	<b>Us</b>	[ʌs, əs]	Bizni	Bizga
II	<b>You</b>	[ju:, ju:, ju]	Sizlarni	Sizlarga
III	<b>Them</b>	[ðem, ðəm]	Ularni	Ularga
<i>Gapda</i>	To'ldiruvchi, hol			
<i>Predlog</i>	ishlatilishi mumkin			

## 2-DARS

### 3-§. Otlarning rodi va soni.

1. Ingliz tilida faqat kishilarning nomini anglatuvchi otlargina o'z tabiiy jinsiga qarab mujskoy va jenskiy rodlarga ajratiladi.

M.: mother ['mʌðə] ona → she – u j.r.

father ['fa:ðə] ota → he – u m.r.

Qolgan barcha jonsiz predmetlarni anglatuvchi otlar, mavhum tushunchalar nomlari, hayvon nomlarini anglatuvchi otlar sredniy rodgga kiradi va it olmoshi bilan almashtirilishi mumkin.

bed [bed] karavot → it pen [pen] ruchka → it

2. Ingliz tilida otlar birlik va ko'plik shakliga ega. Ko'plikda otlar -s qo'shimchasini oladi. M.: a son – two sons.

-s qo'shimchasi quyidagicha o'qiladi:

a) [z] jarangli undosh va unlilardan so'ng:

bed karavot – beds [bedz] karavotlar

pen ruchka – pens [penz] ruchkalar

tie galstuk – ties [taiz] galstuklar

b) [s] jarangsiz undoshlardan so'ng:

list ro'yxat – lists [lists] ro'yxatlar

3. Birlikda -s, -ss, -x, -sh, -ch va -o harflari bilan tugagan otlar ko'plikda -es qo'shimchasini oladi va u [iz] talaffuz qilinadi:

match gugurt – matches ['mætʃiz] gugurtlar

4. So'z oxirida undoshdan so'ng keladigan -y ko'plikda -es olganda -y → i ga o'tadi:

a city shahar – cities shaharlar

a baby chaqaloq – babies chaqaloqlar

Biroq:

a day kun – days kunlar

5. Ingliz tilidagi bir qator otlar ko'plik shaklini o'ziga xos tarzda yasaydi.

a man	[mæn]	erkak	men	[men]	erkaklar
a woman	['wʊmən]	ayol	women	['wɪmɪn]	ayollar
foot	[fʊt]	oyoq	feet	[fi:t]	oyoqlar
tooth	[tu:θ]	tish	teeth	[ti:θ]	tishlar

goose	[gu:s]	g'oz	geese	[gi:s]	g'ozlar
mouse	[maus]	sichqon	mice	[mais]	sichqonlar
sheep	[ʃi:p]	qo'y	sheep	[ʃi:p]	qo'ylar

4-§. To'ldiruvchi haqida tushuncha. Predlogsiz (vositali va vositasiz) to'ldiruvchining gapdagi o'rni.

1. Kesimni ma'no jihatidan to'ldirib keluvchi ikkinchi darajali gap bo'lagiga to'ldiruvchi deyiladi. To'ldiruvchi *kimni?*, *nimani?*, *kimga?*, *nimaga?*, *kim haqida?* va boshqa savollarga javob bo'ladi. To'ldiruvchi gapda quyidagicha ifodalanadi:

a) ot bilan:

Meet Peter.

*Peter bilan tanishing.*

b) olmosh bilan:

Send me ...

*Menga ... jo'nating.*

2. Ingliz tilida to'ldiruvchi **preglogli** va **predlogsiz** to'ldiruvchilarga ajratiladi. Predlogsiz to'ldiruvchi o'z navbatida **vositali** va **vositasiz** to'ldiruvchilarga bo'linadi.

Ingliz tilidagi vositali to'ldiruvchi *kimga?*, *nimaga?* so'rog'iga javob bo'ladi. O'zbek tilidagi **jo'nalish** kelishigiga to'g'ri keladi.

Vositasiz to'ldiruvchi esa *kimni?*, *nimani?* so'rog'iga javob bo'ladi. O'zbek tilidagi **tushum** kelishigiga to'g'ri keladi.

Ingliz tilidagi vositali va vositasiz to'ldiruvchilar gapda bir xil ifodalanadi, ya'ni umumiy kelishikdagi ot yoki obyekt kelishigidagi olmosh bilan. Shuning uchun ular o'rtasidagi farq ularning gapdagi tartibiga qarab aniqlanadi. Vositali to'ldiruvchi kesimdan keyin keladi, so'ngra vositasiz to'ldiruvchi keladi.

Send *Bess* five pens. *Bessga beshta ruchka jo'nating.*  
(kimga?) (nimani?)

Send **me** my tie. *Menga galstugimni jo'nating.*  
(kimga?) (nimani?)  
(vositali) (vositasiz)

**Bordi-yu**, gapda vositali to'ldiruvchi bo'lmasa, vositasiz to'ldiruvchi kesimdan keyin keladi.

Send *Bess*. (kimni?)

*Bessni yuboring.*

Send **me**. (kimni?)


*Meni yuboring.*

**Predlogli** to'ldiruvchi gapda vositasiz to'ldiruvchidan keyin keladi. To'ldiruvchilarning gapdagi umumiy tartibi quyidagicha:

T O' L D I R U V C H I			
	Predlogsiz		Predlogli
Kesim	Vositali	Vositasiz	
	Kimga? Nimaga?	Kimni? Nimani?	
	Jo'nalish kelishigi	Tushum kelishigi	
Send	Tom	a book.	Send a book to Tom.
Send	Ben	a doctor.	Send a doctor to Ben.

5-§. **Aniqlovchi.** O'tga izoh berib keluvchi II darajali gap bo'lagi *aniqlovchi* deyiladi. Son, sifat, olmosh bilan ifodalangan aniqlovchi o'zi aniqlayotgan otdan oldin keladi.

M.: my life – mening hayotim  
 nine pens – to'qqizta ruchka



*My* brother goes to school.  
 He is *my* brother.  
 Give it to *my* brother.  
 She entered *her* office.

### 3-DARS

6-§. **Infinitiv haqida tushuncha.** Infinitiv fe'lining noaniq shaklidir. Ingliz tilida fe'lining infinitivi uning o'zagi bilan bir xil bo'ladi, faqat infinitiv to' yuklamasi bilan beriladi.

M.: to send – yubormoq  
 to spell – harflab aytmoq

7-§. **To be fe'lining tuslanishi.** to be – bo'lmoq, dir, -. Tuslanishi.

\* to yuklamasi unli bilan boshlanuvchi fe'llar oldidan [tu], undosh bilan boshlanuvchi fe'llar oldidan [tə] o'qiladi

Birlik		Ko'plik	
I.	I am = I'm	I.	we are = we're
II.	you are = you're	II.	you are = you're
III.	he } = he's	III.	they are = they're
	she } is = she's		
	it } = it's		

Og'zaki nutqda qisqartma shakllar ishlatiladi. *to be* fe'lining shakllari nafaqat olmoshlar, balki otlar bilan ham qisqaradi.

M.: My name is Ann = My name's Ann.

### 8-§. Gap. Umumiy tushuncha.

1. Maqsadga ko'ra gaplar 4 xil bo'ladi.

- |                     |                    |
|---------------------|--------------------|
| 1) Darak gap.       | My name is Bess    |
| 2) So'roq gap.      | Is it a map?       |
| 3) Buyruq gap.      | Give me a book.    |
| 4) His-hayajon gap. | What fine weather! |

Darak, so'roq va buyruq gaplar bo'lishli va bo'lishsiz bo'ladi. Gapda bosh va II darajali gap bo'laklari farqlanadi. Bosh gap bo'laklariga ega va kesim, II darajali gap bo'laklariga esa to'ldiruvchi, aniqllovchi, hol kiradi.

2. Sodda gap. (yig'iq va yoyiq). Sodda gap yig'iq va yoyiq bo'ladi. Yig'iq sodda gap faqat bosh gap bo'laklaridan iborat bo'ladi, ya'ni ega va kesimdan.

It	is a map.	<i>Bu xarita.</i>
(ega)	(kesim)	

Yoyiq sodda gap tarkibida II darajali gap bo'laklaridan biri ishtirok etadi.

My	pen	is bad.	<i>Mening ruchkam yomon.</i>
(aniqllovchi)	(ega)	(ega)	

Send	me	my	map.
(kesim)	(vositali to'ldiruvchi)	(aniqllovchi)	(vositasiz to'ldiruvchi)

*Menga xaritamni jo'nating.*

3. Bosh gap bo'laklari. *Ega* bosh gap bo'lagi bo'lib, grammatik jihatdan hech qanday boshqa gap bo'lagiga tobe bo'lmaydi va predmetni ifodalaydi. *Ega kim?, nima?* so'rog'iga javob bo'ladi. *Ega* gapda ot yoki olmosh bilan ifodalanishi mumkin.


- a) ot bilan:  
His *name* is Peter. Uning ismi Peter.
- b) olmosh bilan:  
*It* is a flat. Bu xonadon.

**Kesim.** Bosh gap bo'lagi bo'lib, grammatik jihatdan egaga tobe bo'ladi va ega ifodalagan predmetning harakatini, holatini, o'ziga xosligini, sifatini ko'rsatadi. Kesim *ega nima qilyapti?*, *egaga nima bo'lyapti?*, *ega nima?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Shaklan kesim ikki xil bo'ladi:

a) Sodda fe'l-kesim. Bitta fe'l bilan ifodalanadi va shu fe'lning o'zi har qanday shaxsni, zamonni, nisbatni, maylni ifodalay oladi.

- Please **send** me a pen. Menga marhamat qilib ruchka yuboring.
- Please **tell** Ann my name. Marhamat qilib Annaga mening ismimni ayting.

b) Qo'shma ot-kesim. Predmetning holatini, sifatini va qaysi sinfga taalluqliligini bildiradi. Qo'shma ot kesim ikki qismdan iborat bo'ladi. Birinchi qismi bog'lovchi fe'l (masalan, *to be*), ikkinchi qismi ot, sifat, olmosh, sonidan iborat bo'ladi.



4. **Darak gapda so'z tartibi.** Ingliz tilida gapdagi so'z tartibi qat'iy hisoblanadi. Gapdagi so'z tartibining buzilishi ma'noni o'zgartirib yuboradi yoki xatolikka olib keladi. Ingliz tilida darak gapning so'z tartibi quyidagicha:

<i>Tartib</i>	1	2	3
<i>Gap bo'laklari</i>	ega	kesim	to'ldiruvchi



Masalan:            I                            see                            Ann.

Hol gapning oxirida keladi. Biroq payt holi gap boshiga (nolevoy holatda) kelishi mumkin.

Tartib	0	1	2	3	4	5	6
Gap bo'laklari	Hol	Ega	Kesim		To'ldiruvchi		Hol
				vositali	vositasiz	predlogli	

Masalan    0            | 1            | 2            | 3            | 4            | 5            | 6

                 Sometimes | I | give | him | books | about students | at school.

9-§. It **olmoshi**. It olmoshi birlik uchinchi shaxs sredniy rod kishilik olmoshi hisoblanadi. Uni o'zbek tiliga «u» deb tarjima qilinadi, agar u ot o'miga ishlatilayotgan bo'lsa.

M.: *My pen is bad. It is bad.*

*Bu nima?* Savoliga javob bo'lganda *it* ni «*bu*» deb tarjima qilinadi.

M.: *It is a map. (What is it?)*

## 10-§. Artikl.

1. Umumiy tushuncha.

Artikl maxsus yuklama shakli bo'lib, ot bilan ishlatiladi. Artikl ikki xil bo'ladi: noaniq artikl va aniq artikl. O'zbek tilida artikl tushunchasi yo'q. Noaniq artikl ikki xil fonetik shaklga ega: *a*, *an*. *a* shakli undosh tovush bilan boshlanuvchi otlar bilan ishlatiladi.

M.: *a pen, a tie, a text.*

*an* shakli unli tovush bilan boshlanuvchi ot bilan ishlatiladi.

M.: *an apple, an uncle.*

2. Noaniq artikl tarixan qadimgi ingliz tilidagi *an (one)* so'zidan kelib chiqib, *bir* ma'nosini beradi. Shuning uchun u faqat donalab sanaladigan otlar oldidan birlikda ishlatiladi. Aniq artikl faqat *the* ko'rinishiga ega. Aniq artikl *the* → *that* (*u*, o'*sha*) ko'rsatish olmoshidan kelib chiqib birlik va ko'plikdagi otlar bilan ishlatiladi.

### Artiklning asosiy vazifalari.

Ot bilan noaniq artikl ishlatiladi, agar biz predmetga tegishli bo'lgan sinfdan xohlaganimizni nazarda tutsak.

M.: *This is a table. – Bu stol.*

Masalan, *I need a pencil* gapida har qanday qalam sinfiga taalluqli bo'lgan istalgan bir predmet nazarda tutiladi. Noaniq artikl kasb nomlaridan oldin ham ishlatiladi.

M.: *His father is a doctor. – Uning otasi shifokor.*

Bu yerda uning otasi o'qituvchi emas, ishchi emas, balki shifokor deb nomlanadigan kasbdagi kishilardan biri ekanligi nazarda tutiladi.

## 4-DARS

### 11-§. Aniq artikl.

1. Aniq artikl aniq biror predmet haqida gap borganda, ya'ni predmet o'zi tegishli bo'lgan sinfdan ajratib ko'rsatilganda ishlatiladi. Aniq artikl o'quvchiga yoki tinglovchiga qaysi predmet haqida gap borayotganligi sharoitdan ma'lumligini ko'rsatadi.

M.: My book is on the table. *yoki* The pencil is hard.

*Qalam qattiq* degan kishi qalam sinfiga tegishli bo'lgan har qanday predmetni emas, balki aniq bir predmetni, ya'ni qattiq qalamni nazarda tutyapti. Yoki yana bir misol:

The doctor examined John.

– *Shifokor Jonni tekshirdi*, – deyilganda shifokor kasbiga ega bo'lgan barcha kishilar bir vaqtning o'zida Jonni tekshirmagan, balki shu kasb egalaridan biri (aniq bir shifokor) uni tekshirgan, ya'ni gapiruvchi barcha shifokorlar sinfidan Jonni tekshirgan shifokorni ajratib ko'rsatmoqda. Shuning uchun doktor so'zi oldidan aniq artikl qo'llanmoqda.

Aniq artikl alohida urg'u bilan aytilganda [ði:] kabi talaffuz qilinadi. Gapda aniq artikl, odatda, urg'usiz keladi va ikkita reduksiyaga uchragan (qisqargan) talaffuz shakli bor: agar ot unli tovush bilan boshlansa [ði-, ði], undosh tovush bilan boshlansa [ðə]:

The apple [ði'æpl] olma

The pen [ðə'pen] ruchka

2. Artikl (noaniq va aniq artikl) qoida bo'yicha quyidagi hollarda ishlatilmaydi:

a) Atoqli ot bilan:

Klin Klin (*shahar nomi*)

Peter Peter (*kishi nomi*)

b) Sifat yoki ko'rsatish olmoshlari va sanoq son bilan aniqlanib kelayotgan turdosh otlardan oldin:

My pen's bad.

Mening ruchkam yomon.

That man's nice.

U odam yaxshi.

Page seven is clean.

Yettinchi sahifa toza.

3. **Artiklning gapdagi o'rni.** A:tikl (noaniq va aniq artikl) o'zi tegishli bo'lgan ot oldidan keladi. Agar ot oldidan sifat yoki tartib son bilan ifodalangan aniqlovchi kelsa, unda artikl aniqlovchidan oldin keladi:

the black pen

qora qalam

the first plan

birinchi reja

## 12-§. *This, that (these, those)* ko'rsatish olmoshlari.

1. **This** [ðis] ko'rsatish olmoshi *bu, shu, ushbu* ma'nosini berib, gapiruvchiga yaqin turgan predmetga ko'rsatishda ishlatiladi.

**That** [ðæt] ko'rsatish olmoshi *u, o'sha, anavi, narigi* ma'nosida gapiruvchidan uzoqda turgan predmetga ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Masofa	Birlik	Ko'plik
Yaqin	this – [ðis] – bu	these – [ði:z] – bular
Uzoq	that – [ðæt] – u, o'sha	those – [ðouz] – ular, o'shalar

Ko'rsatish olmoshlari gapda: ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi bo'lib keladi.

a) Ega:

**This** is a map. – *Bu* xarita.

**That** is a pen. – *U* ruchka.

b) Aniqlovchi:

**This** pen is bad. – *Bu* ruchka yomon.

**That** man is nice. – *U* odam yaxshi.

c) To'ldiruvchi:

Send me **this**. – Menga *buni* jo'nat.

Send Peter **that**. – Peterga *uni* jo'nat.

2. **This** ko'rsatish olmoshining ko'plik shakli **these** [ði:z] *bular*:

**these** plans ['ði:z \plænz] *bu* rejalar

**these** pens ['ði:z \penz] *bu* ruchkalar

3. **That** ko'rsatish olmoshining ko'plik shakli **those** [ðouz] *ular, anavilar*:

**those** maps ['ðouz \mæps] *u* xaritalar

**those** pencils ['ðouz \pensilz] *u* qalamlar

4. Ko'rsatish olmoshi aniqlovchi vazifasida kelganda, o'zbek tilida ko'plikdagi ot oldidan ko'rsatish olmoshining birlik shakllari *bu, u*, ishlatiladi, ingliz tilida esa bu o'rinda ko'rsatish olmoshlarining ko'plikdagi shakllari **these, those** ishlatilishi kerak. Masalan:

*Bu* qalamlar qisqa.

**These** pencils are short.

*U* ruchkalar qizil.

**Those** pens are red.

## 5-DARS

13-§. So'roq gap. Umumiy so'roq gap. *To be* fe'li bilan.

Ingliz tilida umumiy so'roq gapning shakli darak gap shaklidan gapdagi so'z tartibi bilan bir-biridan farq qiladi:

bog'lovchi fe'l

ega

ot-kesim yoki o'rin holi

Is

my name

Ann?

Is

Ann

in Kiev?

*Ha* yoki *yo'q* ni talab qiluvchi so'roq gaplarga umumiy *so'roq gap* deyiladi. Ingliz tilida ular fe'l bilan boshlanadi:

- Is the pen black? Ruchka qorami?
- Yes it is. Ha.
- No, it is not. Yo'q.

Umumiy so'roq gaplar ko'tariluvchi ohang bilan talaffuz qilinadi. Bunday savollarda so'roq gap boshidagi fe'lga, odatda, urg'u tushadi:

- 'Is 'Minsk a *big* city? Minsk katta shaharmi?
- 'Is 'this a *pen*? Bu ruchkami?

**14-§. Umumiy so'roq gaplarga qisqa javoblar.** Umumiy so'roq gaplarga qisqa bo'lishli va bo'lishsiz javob berish mumkin.

1. **Qisqa bo'lishli javob.** Qisqa bo'lishli javob *yes ha* so'zidan, bosh kelishikda turgan kishilik olmoshi yoki ot bilan ifodalangan egadan, *to be* fe'lining mos shaklidan iborat bo'ladi.

- 'Is 'this a *pen*? - Bu ruchkami?
- \Yes, | it is. - Ha (u ruchka).
- 'Is 'this 'pen *bad*? - Bu ruchka yomonmi?
- \Yes, | it is. - Ha (yomon).

Biroq, og'zaki nutqda qisqa bo'lishli javob faqat *yes* so'zidan iborat bo'lishi mumkin (xuddi o'zbek tilidagi kabi).

2. **Qisqa bo'lishsiz javob.** Qisqa bo'lishsiz javob *no yo'q* so'zidan, bosh kelishikda turgan kishilik olmoshi yoki ot bilan ifodalangan egadan, *to be* fe'lining mos shaklidan va *not* inkor yuklamasidan iborat.

- 'Is 'this a *pen*? - Bu ruchkami?
- \No, | it is not. - Yo'q (bu ruchka emas).
- 'Is 'this 'pen *black*? - Bu ruchka qorami?
- \No, | it is not. - Yo'q (u qora emas).

*Is not* ning qisqargan *isn't* ['iznt] shakli ishlatilishi mumkin. U doim urg'u ostida bo'ladi:

- 'Is 'this 'bag *clean*? - Bu sumka tozami?
- \No, it isn't. - Yo'q (u toza emas).

Biroq, og'zaki nutqda qisqa bo'lishsiz javob faqat *no* so'zidan iborat bo'lishi mumkin (xuddi o'zbek tilidagi kabi).

15-§. **Artikl.** Otdan so'ng sanoq son aniqlovchi bo'lib kelsa shu ot oldidan artikl ishlatilmaydi. Bunda ot ham, sanoq son ham katta harf bilan yoziladi.

M.: Find Text Seven and read it.

O'zbek tiliga tartib son bilan tarjima qilinadi:

Yettinchi matnni toping va uni o'qing.

## 6-DARS

16-§. **Bo'lishsiz darak gap.** To be fe'li bilan bo'lishsiz darak gap **not** inkor yuklamasi yordamida yasaladi. Bunda **not to be** ning mos shaklidan keyin keladi:

Those pens are not black.

U ruchkalar qora emas.

That page is not clean.

U sahifa toza emas.

Kate is not in Kiev.

Keyt Kiyevda emas.



1

2

3

4

Ega



ot-kesim

That page

is

not

clean.

### 17-§. Alternativ so'roq gap.

1. Ikki yoki undan ortiq predmet, ish-harakat yoki sifat o'rtasida tanlovni nazarda tutuvchi so'roq gapga tanlov yoki alternativ *so'roq gap* deyiladi. Tanlash uchun bir xil gap bo'laklari beriladi va ular **or** (**yoki**) bog'lovchisi bilan bog'lanadi.

Is this pen red or black? (= Is this pen red or is it black?)

Bu ruchka qizilmi yoki qorami?

Javobda ulardan biri tanlanadi:

It's red. (yoki: It's black.)

**Or** bog'lovchisining ikki xil talaffuz shakli bor: to'la shakli [ɔ:] (undosh tovushdan oldin) yoki [ɔ:r] (unli tovushdan oldin) va qisqa (reduksiyaga uchragan) shakli [ɔ] (undosh tovushdan oldin) yoki [ɔr] (unli tovushdan oldin).

So'z tartibi xuddi umumiy so'roq gapdagidek.

Taqqoslang:

Is Ben in Kiev? (umumiy so'roq gap)

Ben Kiyevdami?

Is Ben in Kiev or in Minsk?

Ben Kiyevdami yoki

(tanlov so'roq gap)

Minskdami?

2. Agar tanlov so'roq gap egaga tegishli bo'lsa, or so'zidan keyin ham yana to be shakli or dan keyin qaytariladi.

**Is Ben in Kiev or is Peter?** Ben Kiyevdami yoki Petermi?

Egaga berilgan tanlov so'roq gapga qisqa javob beriladi. Iboradagi urg'u egaga tushadi:

"Is Nick at the blackboard or is Peter?" – Doska oldidagi Nikmi yoki Petermi?

"Peter is." – Peter.

3. **Tanlov so'roq gapda ohang.** Tanlov so'roq gapning birinchi qismi ko'tariluvchi, ikkinchi qismi esa pasayuvchi ohangda talaffuz qilinadi:

'Is this 'pencil red or black? Bu qalam qizilmi yoki qorami?

**18-§. Predlogli to'ldiruvchi.** Predlog bilan kelgan to'ldiruvchi-ga predlogli to'ldiruvchi deyiladi.

This is a blackboard. Look at it. Bu doska. Unga qarang.

Predlogli to'ldiruvchi vazifasida kelgan ot umumiy kelishikda, kishilik olmoshi esa obyekt kelishigida bo'ladi.

Please look at the blackboard. Marhamat qilib, doskaga qarang.  
Please look at me. Marhamat qilib, menga qarang.

## 7-DARS

**19-§. Kishilik olmoshlarining kelishiklari.**

Kishilik olmoshlarining ikkita kelishigi bor: bosh kelishik va obyekt kelishigi.

	Bosh kelishik		
<i>Shaxs</i>	<i>Birlik</i>		
<i>Savol</i>	<b>Who?</b>	[hu:]	Kim?
I	<b>I</b>	[ai]	Men
II	<b>You</b>	[ju:, ju, ju]	Sen
III	<b>He</b>	[hi:, hi, hi]	U (m.r.)
	<b>She</b>	[ʃi:, ʃi, ʃi]	U (j.r.)
	<b>It</b>	[it]	U (s.r.)

<i>Shaxs</i>	<i>Ko'plik</i>		
I	<b>We</b>	[wi:, wi·, wi]	Biz
II	<b>You</b>	[ju:, ju·, ju]	Sizlar
III	<b>They</b>	[ðei]	Ular
<i>Gapda</i>	Ega		
<i>Predlog</i>	ishlatilmaydi		

<b>Obyekt kelishigi</b>				
<i>Shaxs</i>	<i>Birlik</i>			
<i>Savol</i>	<b>Whom?</b>	[hu:m]	Kimni?	Kimga?
I	<b>Me</b>	[mi:, mi·, mi]	Meni	Menga
II	<b>You</b>	[ju:, ju·, ju]	Seni	Senga
III	<b>Him</b>	[him]	Uni	Unga
	<b>Her</b>	[hə:, hə]	Uni	Unga
	<b>It</b>	[it]	Uni	Unga
<i>Shaxs</i>	<i>Ko'plik</i>			
I	<b>Us</b>	[ʌs, əs]	Bizni	Bizga
II	<b>You</b>	[ju:, ju·, ju]	Sizlarni	Sizlarga
III	<b>Them</b>	[ðem, ðəm]	Ularni	Ularga
<i>Gapda</i>	To'ldiruvchi, hol			
<i>Predlog</i>	ishlatilishi mumkin			

Zamonaviy ingliz tilida *sen* shakli bilan *siz* shakli bir xil. Biz vaziyatdan gap birlikdagi shaxs haqidami yoki ko'plikdagi shaxs haqida borayotganini bilib olamiz. *Sizlash* bilan *sensirash* orasidagi farq ham vaziyatdan aniqlanadi.

Birinchi shaxs birlikdagi **I** olmoshi doim katta harf bilan yoziladi. Agar **I** olmoshi gapda boshqa egalar bilan kelsa, u boshqa egalardan keyin fe'l-kesim oldida keladi:

My sister and **I** are students.

Opam va men talabamiz.

Bunday hollarda o'zbek tilida ko'pincha *biz opam bilan, u Peter bilan* iborolari ishlatiladi. Aynan shunday so'z birikmalari ingliz tilida yo'q, shuning uchun ularni *My sister and I, Peter and I* deb tarjima qilish kerak:

Peter and I are friends. Biz Peter bilan do'stimiz.  
Jack and he are students. Jek bilan u talaba.

Uchinchi shaxs birlikdagi kishilik olmoshlari ingliz tilida rodlarga ajratiladi:

**he** – mujskoy rod olmoshi – erkak jinsiga mansub kishilarni ifodalovchi otlar o'miga ishlatiladi.

**she** – jenskiy rod olmoshi – ayol jinsiga mansub kishilarni ifodalovchi otlar o'miga ishlatiladi.

**it** – sredniy rod olmoshi – jonsiz predmetlar, agar hayvonning jinsi gapiruvchi uchun ahamiyatli bo'lmasa ularning nomlarini ifodalovchi otlar o'miga ishlatiladi, shuningdek, *baby chaqaloq, balakay* oti ham.

Nick is my friend. He's a doctor. Nik mening do'stim.  
U shifokor.

Kate is not a teacher. She's a student. Keyt o'qituvchi emas.  
U talaba.

This is a dog. It's a nice dog. Bu it. U yaxshi (yoqimli).  
This is a note. It's long. Bu eslatma. U uzun.

Ko'plikda har uchala rod uchun III shaxsda **they** kishilik olmoshi ishlatiladi.

Peter and Jack are friends. Peter bilan Jek do'stdirlar.  
They are good friends. Ular yaxshi do'st.

"Are these pens or are they pencils?" – Bular ruchkalarimi yoki qalamlarmi?

"They're pens." – Ular ruchkalar.

Bosh kelishikdagi kishilik olmoshlari gapda:

a) Ega: He is my friend. U mening do'stim.

b) Kesimning ot qismi: It is he. Bu u.

bo'lib kela oladi.

Bu qoida **I** olmoshiga tegishli emasligini aytib o'tish joiz. Kesimning ot qismi vazifasida uning obyekt kelishigidagi **me** shakli olinadi.

It is me. Bu men.



20-§. To be fe'lining tuslanishi. *to be* – *bo'lmoq, dir*, - fe'li hozirgi zamonda quyidagicha tuslanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
I	I	am	I'm	We	are	We're
II	You	are	You're	You	are	You're
III	He	is	He's	They	are	They're
	She		She's			
	It		It's			

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, *to be* fe'li hozirgi zamonda uch shaklga ega: **am** – birinchi shaxs birlik uchun, **is** uchinchi shaxs birlik uchun hamda **are** ikkinchi shaxs birlik va ko'plikdagi barcha shaxslar uchun.

“to be” fe'lining to'la va qisqa (reduksiyaga uchragan) shakllari

*To'la shakllari*

*Qisqa shakllari*

<b>be</b>		[bi:]	[bi:, bi]
<b>am</b>		[æm]	[æm, m]
<b>are</b>	undoshlardan oldin	[a:]	[a:, ə]
	unlilardan oldin	[a:r]	[ar, ər]

*So'roq shakli*

Shaxs	Son			
	Birlik		Ko'plik	
I	<b>am</b>	I?	<b>are</b>	we?
II	<b>are</b>	you?	<b>are</b>	you?
III	<b>is</b>	he?	<b>are</b>	they?
		she?		
		it?		

*Bo'lishsiz shakli*

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko'plik		
I	I	<b>am</b>	<b>not</b>	We	<b>are</b>	<b>not</b>
II	You	<b>are</b>	<b>not</b>	You	<b>are</b>	<b>not</b>
III	He	<b>is</b>	<b>not</b>	They	<b>are</b>	<b>not</b>
	She					
	It					

Og'zaki nutqda, qoida bo'yicha, to be fe'lining qisqa bo'lishsiz shakllari ishlatiladi. Xususan: **isn't** ['iznt], **aren't** [a:nt]. **Am not** tegishli qisqa shaklga ega emas, biroq **am** gapda ega bilan qo'shilib ketishi mumkin:


**No, I am not.** = **No, I'm not.**

**Urg'u qoidasi.** Bog'lovchi fe'l quyidagi hollarda urg'u ostida bo'ladi:

- a) So'roq gap boshida:  
 'Is this a pen? Bu ruchkani?
- b) Umumiy so'roq gapga qisqa bo'lishli javobda:  
 Yes, it is. Ha (ruchka).  
 Yes, they are. Ha (ruchkalar).
- c) Umumiy so'roq gapga qisqa bo'lishsiz javobda:  
 No, it isn't. Yo'q (ruchka emas).  
 No, they aren't. Yo'q (ruchkalar emas).

## 21-§. Predloglar.

### 1. O'rin-joy predloglari



**on** [ɒn] predlogi bir predmetning boshqa bir predmet *ustida* joylashganligini ko'rsatadi:

My bag's **on** the table. Sumkam stol ustida.

**under** ['ʌndə] predlogi bir predmetning boshqa bir predmet *tagida* joylashganligini ko'rsatadi:

My book's **under** the desk. Kitobim parta tagida.

**in** [in] predlogi bir predmetning boshqa bir predmet *ichida* joylashganligini ko'rsatadi:


My book is **in** my brief-case. Kitobim sumkam ichida.

**at** [æt, ət] predlogi bir predmetning boshqa bir predmet *yonida* joylashganligini ko'rsatadi:

I'm **at** the table. Men stol yonidaman.

The teacher is **at** the blackboard. O'qituvchi doska yonida (turibdi).

## 2. Yo'nalish predloglari



**to** [tu, tə] yo'nalish predlogi bir predmetning boshqa bir predmet tomoniga harakatini bildirib, o'zbek tiliga – *ga* deb tarjima qilinadi:

Go **to** the blackboard, please.

Marhamat qilib, doskaga chiqing.

**into** ['intu, intə] qo'shma predlogi bir predmetning boshqa bir predmet ichkarisiga harakatini bildirib, o'zbek tiliga – (*ichkari*)ga deb tarjima qilinadi:

Please go **into** that room.

Marhamat qilib, *ichkariga* kiring.

Put your book **into** your briefcase, please.

Kitobingizni, marhamat qilib, sumkangizning *ichiga* soling.

**from** [frɒm] yo'nalish predlogi bir predmetning boshqa bir predmet tomonidan, ba'zan, boshqa predmet tepasidan harakatini bildirib, o'zbek tiliga – *dan* deb tarjima qilinadi:

Take your book **from** the table, please, and open it.

Kitobingizni stoidan oling va uni oching.

Please take your book **from** Peter.

Marhamat qilib, kitobingizni *Peterdan* oling.

**off** [ɒf] yo'nalish predlogi bir predmetning boshqa bir predmet tepasidan harakatini bildirib, o'zbek tiliga – *ustidan* deb tarjima qilinadi:

Please take your book **off** the table.

Marhamat qilib, kitobingizni stol *ustidan* oling.

**out of** ['aut əv] yo'nalish predlogi bir predmetning boshqa bir predmet ichkarisidan tashqariga harakatini bildirib, o'zbek tiliga – (*ichi*)*dan* deb tarjima qilinadi:

Go **out of** the room, please.

Marhamat qilib, *xonadan* chiqing.

Take your pen **out of** your bag, Ann.

Anna, ruchkangni sumkang *ichidan* ol.

O'z ma'nosidan kelib chiqib bu predloglar ko'pincha harakatni, bir joydan ikkinchi joyga ko'chishni ifodalovchi fe'llar bilan birikib keladi:

Please go into that room.	Anavi xonaga kiring, marhamat.
Please go out of the room.	Marhamat qilib, xonadan chiqing.

3. **Predloglarning talaffuz qilinishi.** Ingliz tilida, odatda, gapda bir bo'g'inli predloglar urg'usiz talaffuz qilinadi va shuning uchun ko'p predloglardagi unli tovushlar qisqarib ketadi (reduksiyaga uchraydi).

Look at the blackboard, please. [ˈlʊk ət ðə ˈblækbɔːd  pli:z]	Marhamat qilib, doskaga qarang.
This is a book. Look at it. [ˈlʊk ət it]	Bu kitob. Unga qarang.

Eslatma. *on* [ɒn] va *off* [ɔf] predloglari hech qachon qisqarmaydi (reduksiyaga uchramaydi).

Predloglar bir-biriga qarshi qo'yilganda urg'u ostida turishi mumkin, masalan, tanlov so'roq gaplarda:

Is your pen on the table or under it? [ˈiz jɒ 'pen ɒn ðə teɪbl  ɔr ʌnder it]	Ruchkangiz stol ustidami yoki stol tagidami?
---	--

	<i>To'la shakli</i>	<i>Qisqa (reduksiyaga uchragan) shakli</i>
at	[æt]	[ət]
to	[tu:]	[tu, tə]
into	['intu:]	['intu, 'intə]
from	[frɒm]	{frəm, frm}
out of	['aʊt əv]	['aʊt əv]

## 8-DARS

22-§. **Bo'lishsiz buyruq gap.** Bo'lishsiz buyruq gap do ko'makchi fe'lining bo'lishsiz shaklidan va asosiy fe'ling to – siz infinitiv shaklidan yasaladi. *do ning* bo'lishsiz shakli – *do not*.

Please do not take this book.	Bu kitobni olmang, iltimos.
Do not read that text, please.	U matnni o'qimang, iltimos.

Og'zaki nutqda *do not* qisqartirilib, *don't* ['daʊnt] shaklida kelib, odatda, urg'u bilan talaffuz qilinadi:

Don't do it.

Bunday qilmang.

Eslatma: To be ko'makchi fe'lining bo'lishsiz buyruq shakli ham do ko'makchi fe'li yordamida yasaladi.

Don't be a bad boy!

Yomon bola bo'lma!

### 23-§. Maxsus so'roq gap (to be fe'li bilan).

1. Qo'shimcha axborotni, maxsus javobni talab qiluvchi so'roq gap *maxsus so'roq gap* deyiladi. Bunday so'roq gap biron bir gap bo'lagiga tegishli bo'lib, so'roq so'z bilan boshlanadi. Ot-kesimga tegishli bo'lgan savol *what* so'roq olmoshi bilan boshlanadi.

What's this? (agar predmet gapi-  
ruvchiga yaqin bo'lsa)

What's that? (agar predmet gapi-  
ruvchidan uzoqda bo'lsa)

} Bu nima?

It's a pen.

Bu ruchka.

Ot-kesimning kasbi va partiyaviyligi so'ralganda ham kishilarga nisbatan *what* so'roq so'zi ishlatiladi.

"What is he?" – Uning kasbi *nima*?

"He is a teacher." – U *o'qituvchi*.

Bunday savol II shaxsga nisbatan hurmatsizlik hisoblanadi.

*What* so'roq so'zi ot oldidan (*What + ot*) kelsa *qaysi* ma'nosini beradi.

"What book is this?" – Bu *qaysi* kitob?

"It's *Anna Karenina*." – Bu "*Anna Karenina*".

Demak, *What + ot* bilan predmetning sifati so'ralmaydi. Predmetning sifatini *What kind of + ot...? Qanday? Qanaqa?* so'roqlari yordamida so'raladi.

Taqqoslang:

"What city is this?" – Bu *qaysi* shahar?

"It's Kiev." – Bu *Kiyev*.

"What kind of city is Kiev?" – *Kiyev qanaqa* shahar?

"It is a big city." – U *katta* shahar.

Eslatma: *What* va *What kind of* so'roqlaridan so'ng kelgan ot bilan artikl ishlatilmaydi.

2. *Who* – so'roq olmoshi ism, familiya, qarindoshchilik munosabatlarini bildiruvchi ot-kesim bo'lib kelgan otga nisbatan ishlatiladi.

“Who is that girl?” } “She’s my sister.”  
 “She’s Miss Brown.”

– U qiz kim? } – U mening singlim.  
 – U miss Braun.

“Who are they?” – Ular kimlar?

“They are the British delegation – Bu Britaniya delegatsiyasi.  
 [,deli’gei[n].”

Bunday savol III – shaxsga nisbatan beriladi. II shaxsga nisbatan hurmatsizlik hisoblanadi. (O‘zbek tili bilan qiyoslang: *Sen kimsan?*)

**Whose** – kimning. Otning aniqlovchisiga nisbatan beriladi va bevosita o‘sha so‘z oldidan keladi, ya‘ni **Whose** + ot.

Taqqoslang:

“**Whose book** is this?” – Bu kimning kitobi?

“It is my book.” – Bu mening kitobim.

**Whose sister** is she? – U kimning singlisi?

**Where** – qayerda, qayerga. O‘rin holiga nisbatan beriladi.

“**Where’s** the book?” – Kitob qayerda?

“It is **on the table.**” – U stol ustida.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, maxsus so‘roq gaplarda so‘z tartibi deyarli xuddi umumiy so‘roq gapdagidek, faqat bog‘lovchi fe‘l oldidan, ya‘ni gap boshida so‘roq so‘z keladi.

1	2	3	4
so‘roq so‘z	bog‘lovchi fe‘l	ega	ikkinchi darajali bo‘lak
Where	is	Ann	on Sunday?

Eslatma: **Where** – so‘roq olmoshi bilan kelgan ot aniq artikl yoki egalik olmoshi bilan ishlatiladi.

“Where is the car?” – Mashina qayerda?

“Where is your desk?” – Sening partang qayerda?

Maxsus so‘roq gaplarga javob berishda ko‘rsatish olmoshlari takrorlanmasligi uchun uning o‘rniga kishilik olmoshlari (**he, she, it, they**) ishlatiladi.

“What are these?” – Bular nimalar?

“They’re my books.” – Bular mening kitoblarim.

“Whose bags are these?” – Bular kimning sumkalari?

“They’re our bags.” – Ular bizning sumkalarimiz.

3. Maxsus so'roq gaplarda ohang. Maxsus so'roq gaplar pasayuvchi ohang bilan talaffuz qilinadi:

'What's \this?	Bu nima?
'Where's \Kate?	Keyt qayerda?
'Who \is he?	U kim?

Maxsus so'roq gaplarda gap oxirida keluvchi urg'usiz kishilik olmoshidan oldin keluvchi bog'lovchi fe'lga urg'u tushadi. (3-punkt, 3-misolga qarang.)

**24-§. Sifatdosh I (Participle I) haqida tushuncha.** Sifatdosh I Infinitiv o'zagiga **-ing** qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. U o'zbek tilidagi *-yotgan* qo'shimchasiga to'g'ri keladi.

<b>to read</b> – o'qimoq	<b>reading</b> – o'qiyotgan
<b>to look</b> – qaramoq	<b>looking</b> – qarayotgan

**-ing** qo'shimchasini qo'yishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1) So'z oxiridagi o'qilmaydigan **-e** tushib qoladi:

<b>to take</b> – olmoq	<b>taking</b> – olayotgan
------------------------	---------------------------

(so'z oxiridagi **-e** o'qilmaydi)

Biroq:

**to see** – ko'rmoq      **seeing** – ko'rayotgan  
(so'z oxiridagi **-e** o'qiladi, ya'ni u **ee** harf birikmasi tarkibiga kiradi)

**to be** – bo'lmoq      **being**  
(so'z oxiridagi **-e** o'qiladi, ya'ni u so'z tarkibidagi yagona unli hisoblanadi)

2) Unli harflarning yopiq bo'g'inda qisqa o'qilishini saqlab qolish uchun so'z oxiridagi undosh ikkilanadi:

<b>to sit</b> – o'tirmoq	<b>sitting</b> – o'tirgan
--------------------------	---------------------------

3) O'zakdagi **-ie** → **y** ga o'tadi:

<b>to lie</b> – yotmoq	<b>lying</b> – yotgan
------------------------	-----------------------

Eslatma: So'z oxiridagi **-y** **-ing** qo'shilganda hech qachon o'zgarmaydi:

**to copy out** ko'chirib yozmoq – **copying out** ko'chirib yozayotgan.

**25-§. Hozirgi zamon davom fe'li (HZD) (The Present Continuous Tense).** Continuous atamasi to continue [kən'tinju:] *davom etmoq* fe'lidan olingan.

1. Davom zamonlari biron – bir aniq vaqtga nisbatan davom etayotgan, davom etgan va davom etadigan ish-harakatni bildiradi.

**HZD** nutq paytida davom etayotgan ish-harakatni ifodalaydi. Davom zamonlar ish-harakat jarayonini ko'rsatadi.

## 2. HZD ning yasalishi.

**to be** ko'makchi fe'lining hozirgi zamondagi mos shakli va asosiy fe'lining sifatdosh I (-ing) shakli yordamida yasaladi. Bunda **to be** o'zgaruvchan qism, sifatdosh I o'zgarmas qism hisoblanadi.



**I am reading a book now.** Hozir men kitob o'qiyapman.

So'roq gap shaklida **to be** ning mos shakli egadan oldinga o'tadi:

**Are you reading a book now?** Siz hozir kitob o'qiyapsizmi?

**What are you doing here?** Siz bu yerda nima qilyapsiz?

**Who is he looking at?** U kimga qarayapti?

Bo'lishsiz shaklda **to be** dan keyin **not** inkor yuklamasi keladi:

**I'm not reading now.** Hozir men oqimayapman.

## 3. Ishlatilishi.

1) **HZD** nutq paytida bo'lib o'tayotgan ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi.

**"What are you doing?"** – Siz nima qilyapsiz?

**"I am reading."** – Men o'qiyapman.

Eslatma 1: Bu zamon shaklining o'zi nutq paytidagi ish-harakatni ifodalagani uchun **now hozir, at this moment hozirda** kabi vaqt ko'rsatkichlari ishlatilishi shart emas. (Lekin ular **HZD**ning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi.)

Eslatma 2: His qilish, aqliy qobiliyatni anglatuvchi va boshqa ayrim fe'llar davom zamonda ishlatilmaydi. Bular: **to want xohlamoq, to like yoqtirmoq, to love sevmok, to wish tilamoq, istamoq, to see ko'rmoq, to hear eshitmoq, to feel his qilmoq, to notice sezmoq, to know bilmoq, to understand tushunmoq, to remember eslamoq, to recognize tanimoq, to forget unutmoq, to seem tuyulmoq, to be bo'lmoq** va boshqalar.

2) Harakat fe'llari yaqin kelajakdagi rejalashtirilgan ish-harakatni ifodalash uchun **HZD** shaklida keladi.

**They are going to the park tomorrow.** Ular ertaga xiyobonga ketishyapti.



## 9-DARS

**26-§. Egalik olmoshlari.** Egalik olmoshlari *Whose? Kimning?* so'rog'iga javob bo'lib, tegishlilikni bildiradi. Har bir kishilik olmoshiga mos egalik olmoshi mavjud.

Kishilik olmoshlari		Egalik olmoshlari		
I	men	my	[mai]	mening
you	sen	your	[jɔ:, jɔ]	sening
he	u ( <i>m.r.</i> )	his	[hiz]	uning
she	u ( <i>j.r.</i> )	her	[hə:, hə, hə:r, hər]	uning
it	u ( <i>s.r.</i> )	its	[its]	uning
we	biz	our	[auə]	bizning
you	siz(lar)	your	[jɔ:, jɔ, jɔ:r, jɔr]	siz(lar)ning
they	Ular	their	[ðeə]	ularning

Egalik olmoshlarining bunday shakli *sifatli shakl* deyiladi. Chunki u doim otdan oldin aniqlovchi vazifasida keladi. Egalik olmoshi bilan artikl ishlatilmaydi.

This is my bag.

Bu mening sumkam.

That is his pen.

Anavi uning ruchkasi.

Please give me your  
exercise-book.

Marhamat qilib, menga daftarin-  
gizni bering.

Agar ot oldidan boshqa aniqlovchilar kelsa, egalik olmoshi ularning hammasidan oldin keladi.

Where's your new red pencil?

Sizning yangi qizil qa-  
lamingiz qayerda?

## 10-DARS

**27-§. Qaratqich kelishigining of (-ning) predlogi bilan ifodalanishi.** O'zbek tilidagi otlarning kelishik munosabatlari ingliz tilida ko'pincha predloglar yordamida beriladi. Shunday qilib, agar ikkinchi ot birinchi otga aniqlovchi bo'lib kelsa, ular o'rtasidagi munosabat qaratqich kelishigidagi *of* predlogi bilan beriladi (to'la shakli – [ɔv], qisqargan shakli – [əv]).

*Of* predlogi har qanday ot (jonli va jonsiz) bilan ishlatila oladi.

the work of that engineer	o'sha injenerning ishi
the centre ['sentə] of the city	shahar markazi

*Of* predlogi aniqlovchi otdan oldin keladi. Yana boshqa aniqlovchilar bo'lsa, *of* o'sha aniqlovchilardan oldin keladi va *of* bilan kelgan barcha birikma birinchi otning aniqlovchisi hisoblanadi.

Eslatma: Agar ikkinchi ot birinchi otning aniqlovchisi bo'lib joyini bildirsa, *in (da)* yoki *from (dan)* predloglari ishlatiladi, masalan:

bu darslikning matnlari	the texts <b>in</b> this book
beshinchi darsning so'zlari	the words <b>from (in)</b> Lesson Five
bizning shahrimizning o'qituvchilari	the teachers <b>in</b> our city

## ASOSIY KURS

### 1-DARS

**28-§. Hozirgi zamon oddiy fe'li (HZO) (The Present Indefinite Tense).** Ma'lum vaqt oralig'ida davom etuvchi ish-harakatni ifodalovchi Continuous guruh zamonlaridan farqli o'laroq *Indefinite guruh zamonlari aniq vaqtga bog'liq emas*. Ular ish-harakatning o'tish xarakterini ko'rsatmaydi va biron bir boshqa ish-harakat yoki vaqtga nisbatan olinmaydi, **HZO** faqat ish-harakatning bo'lishini ta'kidlaydi, *xolos*.

1. **Yasalishi.** Fe'ling **HZO**dagi shakli uning **to** siz infinitiv (ya'ni o'zak) shakliga mos tushadi. Faqat III shaxs birlikda fe'l -s qo'shimchasini oladi.

I read	Men o'qiyman
You read	Sen o'qiysan
He (she, it) reads	U o'qiydi
We read	Biz o'qiyimiz
You read	Sizlar o'qiysizlar
They read	Ular o'qiydilar

So'roq shakli **do** ko'makchi fe'li bilan yasaladi. **Do** ko'makchi fe'li egadan oldin keladi, asosiy fe'l esa egadan keyin keladi. Uchinchi shaxs birlikda **-es** qo'shimchasini ko'makchi fe'l oladi – **does**, asosiy fe'l esa o'zgarmaydi.

<b>Do</b> I read?	Men o'qiymanmi?
<b>Do</b> you read?	Sen o'qiysanmi?
<b>Does</b> he (she, it) read?	U o'qiydimi?

Do we read?  
Do you read?  
Do they read?

Biz o'qiyimizmi?  
Sizlar o'qiysizlarmi?  
Ular o'qiydilarimi?

Eslatma: Og'zaki nutqda **you** olmoshidan oldin ko'makchi fe'lning qisqargan d'you shakli ishlatiladi.

D'you read English? Inglizcha o'qiysizmi?

Bo'lishsiz shakli **do** (III shaxs birlikda **does**) ko'makchi fe'li va **not** inkor yuklamasi yordamida yasaladi. **Do not (does not)** gapda egadan keyin, asosiy fe'l-kesimdan oldin keladi:

I do not read	Men o'qimayman
You do not read	Sen o'qimaysan
He (she, it) does not read	U o'qimaydi
We do not read	Biz o'qimaymiz
You do not read	Sizlar o'qimaysizlar
They do not read	Ular o'qimaydilar

Eslatma: Og'zaki nutqda **do** bilan **not** qisqarib **don't** shaklini, **does** bilan **not** qisqarib **doesn't** shaklini oladi.

I don't read English. Men inglizcha o'qimayman.  
She doesn't read French. U fransuzcha o'qimaydi.

## 2. Ishlatilishi.

1. **HZO** takrorlanadigan va ega bo'lib kelgan predmet yoki shaxsga xos bo'lgan ish-harakatlarni ifodalaydi. (Paragraf boshida keltirilgan Indefinite bilan **Continuous** guruhlarining qiyosiga qarang.)

Taqqoslang:

- |  |   |
|--|---|
| a) I go to the office every day.<br>(Present Indefinite)             | Men har kuni idoraga <i>boraman</i> (takrorlanadigan ish-harakat).                            |
| I am going to the blackboard now. (Present Continuous)               | Hozir men doskaga <i>chiq-yapman</i> (nutq paytida bo'lib o'tayotgan ish-harakat).            |
| b) These students read a lot.<br>(Present Indefinite)                | Bu talabalar ko'p <i>o'qishadi</i> (ega bo'lib kelgan shaxsga xos bo'lgan ish-harakat).       |
| These students are reading an English text now. (Present Continuous) | Hozir bu talabalar inglizcha matn <i>o'qishyapti</i> (hozirda bo'lib o'tayotgan ish-harakat). |

2. **HZO**da ko'pincha noaniq zamon ravishlari va shuningdek, *every day har kuni, every morning har tong, every evening har oqshom* kabi birikmalar ishlatiladi. Chunki, ular o'z leksik ma'nosiga ko'ra takrorlanishni ifodalaydi. *every day, every morning, every evening* so'z birikmalari, odatda, (bo'lishli va bo'lishsiz) darak va so'roq gap oxirida keladi:

We read newspapers <b>every day</b> .	Biz har kuni gazetalar o'qiy <span style="font-variant: small-caps;">miz</span> .
Do they go to the office <b>every morning</b> ?	Ular har kuni ertalab idoraga borishadimi?
I don't read <b>every evening</b> .	Men har oqshom ham o'qiy <span style="font-variant: small-caps;">vermayman</span> .

Biroq, bajariladigan ishlar birin-ketin sanab o'tilsa bu so'z birikmalari gap boshida keladi.

<b>Every day</b> we read texts, do exercises and write new words in our exercise-books.	Biz har kuni matnlar o'qiy <span style="font-variant: small-caps;">miz</span> , mashqlar bajaramiz va yangi so'zlarni daftarga yozamiz.
---	---

29-§. Noaniq zamon ravishlari. *usually* ['ju:zuəli], *odatda*, *sometimes* ['sʌmtaɪmz] *ba'zan*, *often* [ɒfn] *ko'pincha*, *seldom* ['seldəm] *kamdan kam*, *always* ['ɔ:lwəz] *har doim* lar noaniq payt ravishlari hisoblanadi. Gapda ular asosiy fe'ldan oldin keladi.

They <b>often</b> read English books.	Ular ko'pincha inglizcha kitoblar o'qishadi.
Do they <b>often</b> read books?	Ular inglizcha kitoblar ko'p o'qishadimi?
They don't <b>often</b> read English books.	Ular inglizcha kitoblar ko'p o'qishmaydi.
I don't <b>always</b> read in the evening.	Men har doim ham oqshomda o'qiy <span style="font-variant: small-caps;">vermayman</span> .

Biroq darak gapda *to be* fe'li bilan ishlatilganda, ular *to be* dan keyin keladi.

His marks are <b>always</b> good.	Uning baholari doim yaxshi.
He is <b>usually</b> at his office in the morning.	Ertalab u, odatda, o'z idorasida bo'ladi.

**Sometimes** ravishi esa gap boshida kelishi mumkin.

<b>Sometimes</b> we have dictations.	Biz ba'zan diktantlar yozamiz.
--------------------------------------	--------------------------------

**Seldom** faqat *very* daraja ravishi yoki boshqa aniqlovchilar bilan ishlatiladi. **Seldom** o'rniga uning ma'nosini berish ushuncha **often** bo'lishsiz shaklda ishlatilishi ham mumkin.

I very seldom meet him.

Men u bilan juda kam  
uchrashaman.

I don't often meet them now.

Men hozir ular bilan kam  
uchrashyapman.

## 2-DARS

### 30-§. HZOda fe'llarning III shaxs birlikda kelishi.

1. *to be*, modal fe'llar va ba'zi ko'makchi fe'llardan tashqari barcha fe'llar III shaxs birlikda -s qo'shimchasini oladi. -s qo'shimchasining o'qilishi s harfining o'qish qoidasiga binoan o'qiladi (3-§ ning 2,3-punktligiga qarang).

He works [wə:ks].

U ishlaydi.

She lives [livz].

U yashaydi.

It sits [sits].

U (masalan, bola) o'tiribdi.

2. *o* – harfi bilan tugagan fe'l -es qo'shimchasini oladi.

He goes [gouz].

U yuradi.

She does [dʌz].

U bajaradi.

3. -s, -ss, -se, -ch, -sh, -x bilan tugagan fe'llar -es qo'shimchasini oladi.

He closes ['klouziz].

U yopadi.

She teaches ['ti:tʃiz].

U dars beradi.

4. -y bilan tugagan fe'llarga -es qo'shilganda *y* → *i* ga o'tadi.

We copy out.

Biz ko'chirib yozamiz.

He copies out.

U ko'chirib yozadi.

31-§. Ega va uning aniqllovchilariga savollar. Ega va uning aniqllovchilariga *what nima*, *whose kimning*, *which qaysi* va boshqa so'roq so'zlar yordamida savollar beriladi. So'z tartibi xuddi darak gapdagidek. Chunki ega va uning aniqllovchisiga savol qo'yilganda so'roq so'zning o'zi ega bo'lib uning o'rnida keladi. *Who, what, which* so'roq so'zlari bilan fe'l-kesim III shaxs birlikda moslashadi.

Who knows this girl?

Bu qizni kim taniydi?

Which of you speaks German well?

Qaysi biringiz nemis tilida yaxshi gapirasiz?

What usually stands here?

Bu yerda, odatda, nima turadi?

What books are on that table?	U stolda qaysi kitoblar turibdi?
Which letter comes after "h"?	"h" harfidan so'ng qaysi harf keladi?
Whose son knows English?	Kimning o'g'li ingliz tilini biladi?
Whose sisters live here?	Kimning singillari bu yerda yashaydi?

Eslatma: **Which** so'roq olmoshi chegaralangan predmetlar yoki shaxslardan tanlash haqida gap borsa ishlatiladi. Ko'pincha **which** dan so'ng of -dan predlogi bilan ot yoki olmosh keladi. Bunda ot aniq artikl bilan, egalik yoki ko'rsatish olmoshi bilan keladi.

Which of your sisters lives in Moscow?	Singillaringizdan qaysi biri Moskvada yashaydi?
Which of the engineers speaks German?	Muhandislardan qaysi biri nemischa gapiradi?
Which of them speaks French?	Ulardan qaysi biri fransuz tilida gapiradi?

Bunday savollarga qisqa javob beriladi. Qisqa javob ega va tegishli shaxs, son va zamonda turgan ko'makchi fe'ldan iborat bo'ladi.

"Whose sister knows French?"	– Kimning singlisi fransuz tilini biladi?
"My sister does."	– Mening singlim.
"Who speaks English well in your office?"	– Idorangizda kim ingliz tilida yaxshi gapiradi?
"These engineers do."	– Bu muhandislar.
"Which of you works at the Ministry?"	– Qaysi biringiz vazirlikda ishlaysiz?
"I do."	– Men.

Egaga qo'yilgan savolga qisqa javob berganda urg'u egaga tushadi (ohang ham unda pasayadi), bunda ko'makchi fe'l yoki bog'lovchi fe'l urg'u olmaydi, biroq to'la shaklini saqlab qoladi:

"Who works in this office?" "We do." [wi: du:]

32-§. *To be going to ... (-moqchi)* oboroti kelasi zamondagi niyatni ifodalash uchun.

1. Ingliz tilida kelasi zamondagi harakat yoki holatni ifodalash uchun bir nechta shakllar mavjud. Ulardan ba'zilarini "modal tus

olgan" deb ta'riflash mumkin. Chunki ular kelasi zamondagi harakat yoki holatni ifodalashdan tashqari qo'shimcha ma'noga ham egadirlar (bular: niyat, xohish, ishonch). Ulardan biri **to be going to** oboroti bo'lib, u ega tomonidan rejalashtirilgan (niyat qilingan) ish-harakatni yaqin kelajakda bajarilishini ifodalaydi. Bunda ish-harakatning bajarilishiga qaysidir darajada ishonch bor.

- I am going to write a letter to my sister tomorrow.** Ertaga men singlimga xat yoza-man (yozmoqchiman). (Buni ertaga qilishga qaror qildim.)
- He is going to be a teacher.** U o'qituvchi bo'ladi. (U o'qituvchi bo'lish uchun o'qiyapti.)

Eslatma: Bu oborot **to go, to come** va boshqa harakat fe'llari bilan ishlatilmaydi. Bunday fe'llar yaqin kelajakdagi rejalashtirilgan ish-harakatni ifodalash uchun **HZD** da qo'llanadi. (O'zbek tilidagi hozirgi-kelasi zamon bilan qiyoslang.)

- "Where are you going tomorrow?" – Siz ertaga qayerga ketyapsiz?
- "We are going to the park." – Biz xiyobonga ketyapmiz.
- "When is he coming?" – U qachon kelyapti?
- "He is coming tomorrow." – U ertaga kelyapti.
- (25-§, 2-punkt.)

2. **To be going to** oboroti ham, **HZD** ham yaqin kelajakdagi ish-harakatni ifodalash uchun quyidagi payt ko'rsatkichlari bilan ishlatilishi mumkin: **tonight (this evening)** *bugun kechqurun*, **tomorrow** *ertaga*, **the day after tomorrow** *indinga*, **tomorrow morning** *ertaga ertalab*, **tomorrow evening** *ertaga kechqurun*, **in two (three, four) days** *ikki (uch, to'rt) kundan so'ng*, **in a week** *bir haftadan so'ng*, **in a month** *bir oydan so'ng*, **in a year** *bir yildan so'ng*, **next week** *kelasi hafta*, **next month** *kelasi oy*, **next year** *kelasi yil*, **soon** *tez orada*, **yaqinda** va boshqalar.

- "Are you coming tomorrow evening?" – Ertaga kechqurun kelasizmi?
- "I think I am." – Kelaman, deb o'ylayman.

**33-§. Holat ravishining gapdagi o'rni.** **Well** – holat ravishi o'zi aniqlanayotgan fe'ldan keyin keladi. Agar gapda to'ldiruvchi bo'lsa, **well** to'ldiruvchidan keyin keladi.

- My son is doing well.** Mening o'g'lim *yaxshi* o'qiydi.
- He speaks English well.** U ingliz tilida *yaxshi* gapiradi.

34-§. Daraja ravishining gapdagi o'rni. Very va boshqa daraja ravishlari o'zlari aniqlayotgan sifat yoki ravishdan oldin keladi.

She speaks English very well.

U ingliz tilida juda yaxshi gapiradi.

She is a very good student.

U juda yaxshi talaba.

### 3-DARS

35-§. Kishilik olmoshining obyekt kelishiklari. Ingliz tilida kishilik olmoshlari va who so'roq olmoshi bosh kelishikdan tashqari yana obyekt kelishigiga ham ega.

Bosh kelishik			
<i>Shaxs</i>	<i>Birlik</i>		
<i>Savol</i>	<b>Who?</b>	[hu:]	Kim
I	<b>I</b>	[ai]	Men
II	<b>You</b>	[ju:, ju·, ju]	Sen
III	<b>He</b>	[hi:, hi·, hi]	U (m.r.)
	<b>She</b>	[ʃi:, ʃi·, ʃi]	U (j.r.)
	<b>It</b>	[it]	U (s.r.)
<i>Shaxs</i>	<i>Ko'plik</i>		
I	<b>We</b>	[wi:, wi·, wi]	Biz
II	<b>You</b>	[ju:, ju·, ju]	Sizlar
III	<b>They</b>	[ðei]	Ular
<i>Gapda</i>	Ega		
<i>Predlog</i>	ishlatilmaydi		

Obyekt kelishigi				
<i>Shaxs</i>	<i>Birlik</i>			
<i>Savol</i>	<b>Whom?</b>	[hu:m]	Kimni?	Kimga?
I	<b>Me</b>	[mi:, mi·, mi]	Meni	Menga
II	<b>You</b>	[ju:, ju·, ju]	Seni	Senga
III	<b>Him</b>	[him]	Uni	Unga
	<b>Her</b>	[hə:, hə]	Uni	Unga
	<b>It</b>	[it]	Uni	Unga



<i>Shaxs</i>	<i>Ko'plik</i>			
I	Us	[ʌs, əs]	Bizni	Sizga
II	You	[ju:, ju, ju]	Sizlarni	Sizlarga
III	Them	[ðem, ðam]	Ularni	Ularga
<i>Gapda</i>	To'ldiruvchi, hol			
<i>Predlog</i>	ishlatilishi mumkin			

Obyekt kelishigidagi olmoshlar gapda (ham predlogli, ham predlogsiz) to'ldiruvchi vazifasida keladi:

- Do you know **him** well? Siz *uni* yaxshi taniysizmi?  
(Vositasiz to'ldiruvchi)
- Please send **him** a letter. Marhamat qilib, *unga* xat yuboring.  
(Vositali to'ldiruvchi)
- She often speaks English **to him**. U *unga* ko'pincha ingliz tilida gapiradi.  
(predlogli to'ldiruvchi)
- Whom** do you know well here? Bu yerda siz *kimni* yaxshi taniysiz?  
(vositasiz to'ldiruvchi)
- Whom** does he always speak **about**? U doim *kim haqida* gapiradi?  
(predlogli to'ldiruvchi)

Biroq ko'pincha to'ldiruvchi vazifasida **whom** so'roq olmoshi o'rniga **who** ishlatiladi.

- Who** do you know here? Siz bu yerda *kimni* taniysiz?  
**Who** is she speaking **to**? U *kim bilan* gaplashyapti?

### 36-§. *Much* (ko'p) va *little* (oz).

1. *Much* va *little* miqdor va daraja ravishlari bo'lib kelib, fe'lni aniqlashi mumkin. Bunday hollarda ular o'zlari aniqlayotgan fe'ldan keyin keladi. Bo'lishli darak gaplarda ular ko'pincha *very* daraja ravishi bilan ishlatiladi.

- My son reads **very much**. O'g'lim *juda ko'p* o'qiydi.  
He reads **very little**. U *juda oz* o'qiydi.

Biroq *very little* o'rniga ko'pincha bo'lishsiz gapdagi *very much* ishlatiladi.

- She **doesn't** read **very much**. U *kam* o'qiydi. (U ko'p o'qimaydi.)

- Og'zaki nutqda *very much* o'rniga *a lot* ishlatiladi.  
She reads **a lot**. U *ko'p* o'qiydi.

Bo'lishsiz va so'roq gaplarda bu ravishlar **very** siz ishlatiladi.

Do you read **much**?

Ko'p o'qiysanmi?

He doesn't read **much**.

U ko'p o'qimaydi.

2. **Much** – *ko'p*, **little** – *oz*. Odatda, bo'lishsiz va so'roq gaplarda donalab sanab bo'lmaydigan va mavhum otlar oldidan gumon olmoshi vazifasida ishlatiladi.

Does he usually do **much**  
homework?

U, odatda, *ko'p* vazifa  
qiladimi?

Bo'lishli darak gapda **much** va **little** daraja ravishlari so *shunday*, *very juda*, *too juda* bilan ishlatiladi.

He spends **too much**  
time on it.

U, odatda, bunga *juda ko'p*  
vaqt sarflaydi.

Bunday ravishlar bo'lmagan taqdirda **much** o'rniga **a lot of** ishlatiladi.

Taqqoslang:

He spends **a lot of** time on this  
kind of work.

U bunaqa ishga *ko'p* vaqt  
sarflaydi.

Biroq, o'z ma'nosida **little** o'rniga *ko'pincha* **much** ning bo'lishsiz gapdagi shakli ishlatiladi.

I **don't** usually spend **much**  
time on it.

Bunga men, odatda, *ko'p vaqt*  
sarflamayman.

**How much** iborasi *qancha* ma'nosini beradi.

**How much** time do you usually  
spend on this kind of work?

Bunaqa ishga siz, odatda,  
*qancha* vaqt sarflaysiz?

37-§. **Many** – *ko'p*, **few** – *oz*. **Many** va **few** gumon olmoshlari asosan bo'lishsiz va (umumiy) so'roq gaplarda ko'plikdagi sanaladigan otlar oldidan ishlatiladi.

Do you get **many** telegrams  
every day?

Siz har kuni *ko'p* telegramma  
olasizmi?

He doesn't usually ask **many**  
questions.

U, odatda, *ko'p* savol ber-  
maydi.

Bo'lishli darak gapda **many** faqat quyidagi hollarda ishlatiladi:

a) Egaga aniqlovchi bo'lib kelganda:

**Many** students know that. *Ko'p* talabalar buni bilishadi.

b) Vaqtni bildiruvchi otga aniqlovchi bo'lib kelganda:

**Many** days, weeks, months. *Ko'p* kunlar, haftalar, oylar.

c) Predlogli oborotlarda aniqlovchi bo'lib kelganda:

about many questions. ko'p masalalar xususida  
 on many tables ko'p stollarda

d) *Very juda, too o'ta, so shu qadar* daraja ravishlari bilan kelganda.

very many books juda ko'p kitoblar  
 too many questions o'ta ko'p savollar  
 so many students shu qadar ko'p talabalar

Vositasiz to'ldiruvchi vazifasida va boshqa holatlarda many bo'lishli darak gapda a lot of bilan almashtiriladi.

He usually asks me a lot of questions. U, odatda, menga ko'p savol beradi.

Few bo'lishli darak gaplarda so, very, too daraja ravishlari bilan kelganda ishlatiladi.

so few books shuncha oz kitoblar  
 very few questions juda kam savollar  
 too few days juda oz kunlar

Biroq ko'pincha oz ma'nosida bo'lishli darak gapdagi few o'rniga many ning bo'lishsiz gapdagi shakli olinadi.

He usually asks me very few questions. U, odatda, menga juda kam savol beradi.

He doesn't usually ask me very many questions. U, odatda, menga ko'p savol bermaydi.

	<b>much</b>	<b>little</b>	
<b>K</b>	1. Fe'lni aniqlab, ravish bo'lib keladi		<b>O</b>
	2. Otni aniqlab, gumon olmoshi bo'lib keladi (Sanalmaydigan otlar bilan)		
<b>O'</b>	<b>many</b>	<b>few</b>	<b>Z</b>
<b>P</b>	1. - 2. Otni aniqlab gumon olmoshi bo'lib keladi (Sanaladigan otlar bilan)		

## 4-DARS

**38-§. Fe'ning asosiy shakllari.** Ingliz tilida fe'lning 4 ta asosiy shakli bor: Infinitiv (fe'lning noaniq shakli), o'tgan zamon oddiy fe'li (O'ZO) shakli, sifatdosh-II shakli, sifatdosh I shakli. Bu shakllar ko'makchi fe'llar yordamida fe'lning barcha (zamon va nisbat, sodda va qo'shma) shakllarini yasash uchun xizmat qiladi.

**39-§. To'g'ri va noto'g'ri tuslanuvchi fe'llar (Regular [ˈregjələ] and Irregular Verbs).** O'tgan zamon oddiy fe'li (O'ZO) va sifatdosh II shakllarining yasashiga ko'ra barcha fe'llar ikki katta guruhga ajratiladi. To'g'ri va noto'g'ri tuslanuvchi fe'llar.

work – worked – worked	(to'g'ri tuslanuvchi)
write – wrote – written	(noto'g'ri tuslanuvchi)

Eslatma: Noto'g'ri tuslanuvchi fe'llarning asosiy shakllari lug'atlarda beriladi. Ularni yod olib borish lozim.

**40-§. O'tgan zamon oddiy fe'li (O'ZO) (The Past Indefinite Tense).**

1. To'g'ri tuslanuvchi fe'llarning O'ZO dagi bo'lishli darak gap shakli fe'l o'zagiga **-ed** qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. **-ed** qo'shimchasi quyidagicha o'qiladi:

a) [d] dan tashqari jarangli undosh va unilardan so'ng – [d] o'qiladi:

to open – opened [ˈoʊpnd]	ochmoq – ochdi
to answer – answered [ˈɑːnsəd]	javob hermoq – javob berdi

b) [t] dan tashqari jarangsiz undoshlardan so'ng – [t] o'qiladi:

to work – worked [wɜːkt]	ishlamoq – ishladi
to finish – finished [ˈfɪniʃt]	tugatmoq – tugatdi

c) [d] va [t] tovushlaridan so'ng – [id] kabi:

to last – lasted [ˈlɑːstɪd]	davom ettirmoq – davom etdi
to intend – intended [ɪnˈtendɪd]	taraddud ko'rmoq – taraddud ko'rdi

**O'ZO ni yasashda quyidagi orfografik qoidalarga amal qilinadi:**

a) o'qilmaydigan **-e** tushib qoladi.

live – lived	yashamoq – yashadi
--------------	--------------------

b) Undoshdan keyingi **-y – i** ga o'tadi.

study – studied	o'qimoq – o'qidi
-----------------	------------------

**Biroq, unidan keyingi -y o'zgarmaydi.**

stay – stayed	qolmoq – qoldi
---------------	----------------

c) Qisqa bo'g'in oxiridagi yagona undosh ikkilanadi.

stop – stopped	to'xtamoq – to'xtadi
----------------	----------------------

2. **Noto'g'ri tuslanuvchi fe'llarning O'ZO va sifatdosh II shakllari turli yo'llar bilan yasaladi. Ularni yoddan bilish kerak.**

to write – wrote [raʊt] – written [ˈrɪtɪn]
to go – went [went] – gone [gɒn]
to sit – sat [sæt] – sat

Barcha (to'g'ri va noto'g'ri tuslanuvchi) fe'llarning O'ZO darak gapdagi (A) so'z tarkibi xuddi HZO dagidek:

I wrote a letter to my friend  
last week.

Men o'tgan hafta do'stingga  
xat yozdim.

3. Barcha (to'g'ri va noto'g'ri tuslanuvchi) fe'llarning O'ZO so'roq gapdagi (B) shakli did ko'makchi fe'li va asosiy fe'lining to -siz infinitiv shakli bilan yasaladi. Bunda did egadan oldin keladi:

Did you write a letter to your  
friend last week?

Sen o'tgan hafta do'stingga  
xat yozdingmi?

Did he answer your letter?

U xatingga javob berdimi?

4. Barcha (to'g'ri va noto'g'ri tuslanuvchi) fe'llarning O'ZO bo'lishsiz darak gapdagi (C) shakli did ko'makchi fe'li, not inkor yuklamasi va asosiy fe'lining to -siz infinitiv shakli yordamida yasaladi. Bunda did dan keyin not keladi:

He did not write a letter to his  
friend last week.

U o'tgan hafta do'stiga xat  
yozmadi.

I did not answer his letter last  
week.

Men o'tgan hafta uning xatiga  
javob yozmadim.

Og'zaki nutqda did bilan not qisqarib didn't ['didnt] shaklini oladi.

5. Ishlatilishi. O'tgan zamonda bo'lib o'tgan ish-harakatni ifodalaydi. Bunda ish-harakat bo'lib o'tgan ketma-ketligi bo'yicha hikoya qilinadi. Ko'pincha hikoyalarda ishlatiladi. O'ZO da ish-harakatni o'tgan zamonda bo'lib o'tgan vaqti aniq ko'rsatiladi. O'ZO ni payt ravishlari quyidagilar – yesterday kecha, the day before yesterday avvalgi kun, last week o'tgan hafta, last month o'tgan oy, last year o'tgan yil, last night kecha kechqurun, last time o'tgan safar, last oxirgi marta, two days (three years) ago ikki kun (uch yil) oldin, in 1917 1917-yili va hokazo.

41-§. To be fe'lining O'ZO dagi shakli. to be fe'li O'ZO birlikda was [wɒz, wəz] va ko'plik va ikkinchi shaxs birlikda were [wə:, wə], [wə:r, wər] shakllariga ega.

Birlik			Ko'plik		
I	was	men edim	we	were	biz edik
you	were	sen eding	you	were	siz(lar) edingiz
he	was	u edi	they	were	ular edilar
she					
it					

So'roq gap shaklida xuddi HZO dagidek to be ning o'tgan zamondagi was, were shakli egadan oldin keladi.

Was he there? U u yerda bo'ldimi?

Were you there? Siz o'sha yerda edingizmi?

Bo'lishsiz gapda was, were dan keyin not inkor yuklamasi keladi.

I was not there. Men u yerda emasdim.

He was not there. U u yerda emasdi.

They were not there. Ular u yerda emasdilar.

Og'zaki nutqda ko'pincha was not → wasn't [wɒznt] ga, were not → weren't ['wɜ:nt] ga qisqaradi:

He wasn't there. U u yerda bo'lmadi.

They weren't there. Ular u yerda bo'lishmadi.

#### 42-§. Otlarning kelishiklari. Qaratqich kelishigi.

1. Avval aytib o'tilganidek, umumiy kelishikdagi ot (a man, a child va boshq.) gapda ega, qo'shma kesimning ot qismi, predlogsiz (vositali va vositasiz) va predlogli to'ldiruvchi, shuningdek, hol vazifasida ishlatiladi. Umumiy kelishikdagi otning gapdagi boshqa otlar bilan munosabati uning gapdagi o'rni va predlog bilan aniqlanadi:

Ann loves children. Anna bolalarni sevadi.

(Otning gapdagi o'rni uni vositasiz to'ldiruvchi ekanligini ko'rsatadi va u o'zbek tilida tushum kelishigidagi to'ldiruvchiga to'g'ri keladi.)

the workers of this factory bu zavodning ishchilari

(of predlogi o'zbek tilida qaratqich kelishigi bilan ifodalanuvchi munosabatni beradi.)

2. Qaratqich kelishigidagi ot predmetning tegishligini bildirib, whose? kimning? so'rog'iga javob bo'ladi. Gapda aniqlovchi vazifasida ishlatilib o'zi aniqlab kelayotgan otdan oldin keladi. Qaratqich kelishigida ot -'s qo'shimchasini oladi. Uning talaffuzi so'z oxiridagi s harfini o'qish qoidasiga mos (3-§, 2,3-punktlarga qarang).

Qoida bo'yicha qaratqich kelishigidagi shaklda jonli predmetlarni bildiruvchi otlar ishlatiladi:

this man's newspaper bu kishining gazetasi

Ko'plikdagi otlarning qaratqich kelishigi yozuvda apostrof (')

qo'shish orqali yasaladi, o'qish va nutqda esa birlikdagidan farq qilmaydi:

<b>my friend's sister</b>	do'stimning singlisi
<b>my friends' sisters</b>	do'stlarimning singillari

Ko'plik shakli -s bilan tugallanmaydigan **men, women** ['wimin], **children** kabi otlar qaratqich kelishigida xuddi birlikdagi kabi -'s qo'shimchasini oladilar:

<b>these men's newspapers</b>	<i>bu kishilarning gazetalari</i>
<b>his children's names</b>	<i>uning bolalarining ismlari</i>

Qoida bo'yicha qaratqich kelishigida kelgan so'z birliklarida artikl qaratqich kelishigida turgan otga tegishli bo'ladi, shuning uchun, agar qaratqich kelishigida atoqli ot tursa, artikl ishlatilmaydi:

<b>Peter's room</b>	<i>Peterning xonasi</i>
<b>Mary's children</b>	<i>Merining bolalari</i>
<b>Mary Brown's children</b>	<i>Meri Braunning bolalari</i>

3. Agar ot oldidan **Comrade, Mr (Mister)** va boshqa shu kabi otlar kelsa, u holda qaratqich kelishigida faqat ular aniqlab kelayotgan ot keladi (xuddi o'zbek tilidagidek):

<b>We liked Comrade Petrov's talk.</b>	<i>Bizga o'rtoq Petrovning dok-ladi yoqdi.</i>
--	--

## 5-DARS

43-§. Vositali va vositasiz to'ldiruvchining gapdagi o'rni. Ko'p o'timli fe'llar vositasiz to'ldiruvchidan tashqari yana **whom? kimga?** savoliga javob beruvchi ikkinchi predlogsiz vositali to'ldiruvchiga ham ega bo'ladilar va ish-harakat qaratilgan shaxsni bildiradilar. Bu predlogsiz vositali to'ldiruvchi o'zbek tilidagi jo'nalish kelishigidagi vositasiz to'ldiruvchiga mos keladi. U umumiy kelishikdagi ot yoki obyekt kelishigidagi olmosh bilan ifodalanib, gapda fe'l-kesim va vositasiz to'ldiruvchi orasida keladi:

<b>I often send them letters.</b>	<i>Men ularga ko'pincha xat jo'nataman.</i>
-----------------------------------	---

Ish-harakat qaratilgan shaxs to predlogi yordamida ham berilishi mumkin. Bunda predlogli to'ldiruvchi vositasiz to'ldiruvchidan keyin keladi.

<b>I often send letters to them.</b>	<i>Men ko'pincha xatlarni ularga jo'nataman.</i>
--------------------------------------	--

To predlogli to'ldiruvchi, odatda, quyidagi hollarda ishlatiladi:

a) Ish-harakat qaratilgan shaxsni ajratib ko'rsatish maqsadida:

Please send this letter to Comrade Klimov. (not to Comrade Petrov) Bu xatni o'rtoq Klimovga jo'nating. (o'rtoq Petrovga emas).

b) Agar vositali to'ldiruvchi olmosh bilan ifodalangan bo'lsa:

I wrote out a telegram for Mr Smith this morning. Please send it off to him now. Men ertalab janob Smitga telegramma yozdim. Marhamat qilib, uni hozir unga jo'nating.

I got an interesting letter yesterday, and I'm going to read it to you now. Men kecha qiziqarli xat oldim, va uni sizga hozir o'qib bermoqchiman.

T O' L D I R U V C H I				
		Predlogsiz		Predlogli
		Vositali	Vositasiz	
		Kimga? Nimaga?	Kimni? Nimani?	
		Jo'nalish kelishigi	Tushum kelishigi	
He	told	the students	a story	about his voyages.

## 6-DARS

44-§. *To have fe'li va have (has) got* oboroti.

1. Og'zaki nutqda *ega bo'lmoq, bor bo'lmoq* ma'nosida *have (has) got* oboroti ishlatiladi. O'zbek tiliga *menda ... bor, senda ... bor, mening ... bor* (va hokazo) deb tarjima qilinadi.

He has got (he's got) an interesting book. Unda qiziq kitob bor.

I have got (I've got) two sons. Mening ikkita o'g'lim bor.

She's got new skates. Uning yangi konkisi bor.

They've got a lot of English books. Ularda ko'pgina ingliz tilida kitoblar bor.

**Have (has) got** oborotining so'roq gap shaklida **have (has)** egadan oldinga o'tadi.

Has he got this book? Unda bu kitob bormi?

Have you got a large family? Sizning oilangiz kattami?

**Have (has) got** oborotining bo'lishsiz shaklida **have (has)** dan keyin not keladi.



**I have not got (I haven't got) ...** *Menda ... yo'q.*

**He has not got (He hasn't got) ...** *Unda ... yoq.*

2. **To have** fe'li *ega bo'lmoq, bor bo'lmoq* ma'nosini beradi.

She always **has** a lot of work to do. *Uning doim ishi ko'p.*

Agar gap predmetning doimiy borligi haqida borsa **to have** fe'lining so'roq va bo'lishsiz shakllarida **do** ko'makchi fe'li ishlatiladi.

**"Do you have much time for your lessons?"** – Sizning dars qilishga vaqtiniz ko'pmi? (umuman, odatda)

**"Yes, I usually have a lot of time for them."** – Ha, mening bunga yetarlicha vaqtim bor.

**"No, I don't have much time for them."** – Yo'q, mening bunga yetarli vaqtim yo'q.

**"Does she always have much work to do?"** – Uning doim ishi ko'pmi?

**"She doesn't always have much work to do."** – Uning har doim ham ishi ko'p emas.

Biroq, predmetning, hodisa yoki holatning bir martalik, aniq bir vaziyatdagi borligi (mavjudligi) nazarda tutilsa, **to have** bilan **do** ko'makchi fe'li ishlatilmaydi. Bunday holatlarda ko'proq **have (has)** got oboroti ishlatiladi.

**Have you got time for a game of chess? (= Have you time for a game of chess?)** Bir partiya shaxmat o'ynagani vaqtiniz bormi? (Hozir, shu tobda)

**I haven't got my text-book with me today. (= I haven't my text-book ... – ikkinchi variant kam ishlatiladi)** Bugun mening darsligim yo'q.

**I've got a lot of work to do today. (=I've a lot of work ...)** Bugun mening qiladigan ishim ko'p.

#### Taqqoslang:

**Do you often have colds [kouldz]?** Siz ko'p shamollaysizmi? (odatda)

**Have you got a cold?** Siz shamollab qoldingizmi? (hozir)

3. **To have** fe'li **dinner, supper, lesson, classes** va boshqa bir qator otlar bilan iboraga kirishganda o'zining *ega bo'lmoq* ma'nosini yo'qotadi va *tushlik qilmoq (to have dinner), kechki ovqat qilmoq (to have supper), shug'ullanmoq (to have a lesson, to have classes)* ma'nolariga ega bo'lib, jarayonni ifodalaydi.

<b>I have classes</b> in the morning.	<i>Mening ertalab darsim bor.</i>
<b>He has coffee</b> ['kɒfi] every morning.	U har kuni ertalab <i>qahva ichadi.</i>

Bunday holatlarda **to have** fe'li bilan so'roq va bo'lishsiz gaplarda do ko'makchi fe'li ishlatiladi.

<b>We don't have classes</b> every day.	Bizda har kun ham dars bo'lavermaydi.
<b>What time do you usually have dinner?</b>	Siz, odatda, qachon tushlik qilasiz?

Yuqorida aytib o'tilgan iboralarda **to have** fe'li davom zamonda ham ishlatiladi, chunki u jarayonni ifodalay oladi.

"Where's your son?"	– O'g'lingiz qayerda?
"He's <b>having</b> breakfast."	– U nonushta qilyapti.
<b>Are you having</b> a lesson tomorrow?	– Sizlarda ertaga dars bo'ladimi?

4. O'tgan zamoni ifodalash uchun **to have** fe'lining had shakli ushbu paragrafning 1 – 3-punktlarida tilga olingan oborot va birikmalarda ishlatiladi.

<b>I had</b> dinner at 5 yesterday.	Kecha men soat beshda tushlik qildim.
-------------------------------------	---------------------------------------

O'tgan zamondagi so'roq va bo'lishsiz shakllar **to do** ko'makchi fe'lining **O'ZO** dagi shakli **did** yordamida yasaladi.

<b>Did you have</b> classes yesterday?	Kecha sizlarda dars bo'ldimi?
<b>I didn't have</b> time to ask all my questions.	Hamma savollarni berishga menda vaqt bo'lmadi.

Eslatma: **To have** fe'li bilan bo'lishsiz gapda no *hech* qanday bo'lishsizlik olmoshi ham ishlatilishi mumkin. U ot oldidan, ko'pincha sanalmaydigan ot oldidan keladi. Bunda **have** fe'li bo'lishli shaklda bo'ladi:

"Why didn't you do it?"	– Nega siz buni bajarmadingiz?
" <b>I had</b> no time."	– Mening vaqtim bo'lmadi.

**45-§. Some [sʌm] va any [ˈeni] gumon olmoshlari.** Predmet yoki buyumlarning noaniq miqdorini ko'rsatishda *some* va *any* gumon olmoshlari ishlatiladi. Ular, odatda, otga aniqlovchi bo'lib kelib, artikl o'rniga ishlatiladi.

1. *Some*, odatda, bo'lishli darak gapda ko'plikda turgan sanaladigan otlar oldidan ishlatiladi va *bir necha*, *ba'zi* ma'nosini bildiradi.

I've got **some** interesting  
English books to read.

Menda o'qigani *bir necha*  
qiziqarli ingliz tili kitoblari  
bor.

**Some** children do not like  
washing.

*Ba'zi* bolalar yuvinishni yoqti-  
rishmaydi.

*Birorta* ma'nosida sanaladigan otlar oldidan birlikda noaniq artikl ishlatiladi.

Please give me **an** interesting  
book to read.

Menga o'qigani *birorta* qiziq  
kitob bering, iltimos.

(Bunday hollarda *some* ishlatilmaydi.)

Sanalmaydigan otlar bilan ham *some* *biroz* ma'nosida aniqlovchi vazifasida ishlatiladi.

He took **some** money [ˈmʌni]  
and went to the cinema.

U (*biroz*) pul olib kinoga  
ketdi.

*Some*, shuningdek, iltimos yoki taklifni ifodalaydigan so'roq gaplarda ham ishlatiladi. Bunda savol *some* tarkibida kelgan birikmaga tegishli bo'lmaydi.

Will you have **some** coffee?

Kofe ichasizmi?

2. *Any*, odatda, so'roq va bo'lishsiz gaplarda ishlatiladi.

Ko'plikda turgan sanaladigan otga aniqlovchi bo'lib kelganda *any* *qandaydir*, *birorta* ma'nosida ishlatiladi. Bo'lishsiz gapda *not* yuklamasi bilan kelganda *any* *hech qanday* ma'nosini beradi.

Have you got **any** interesting  
English books to read?

Sizda (o'qigani) *birorta* ingliz tili  
kitobingiz bormi?

They haven't got **any** mis-  
takes in this sentence.

Bu gapda ularning *hech qanday*  
xatosi yo'q.

Don't take **any** books from  
here, please.

Iltimos, bu yerdan *hech qanaqa*  
kitob olmang.

Sanalmaydigan otlar oldidan aniqlovchi bo'lib kelganda *any* *biroz* ma'nosini beradi.

Have you got **any** chalk here?

Bu yerda bo'r bormi?  
(*biroz bo'r*)

**Any** bo'lishli darak gaplarda **if** bog'lovchisidan so'ng yoki gumonsirashni ifodalashda ishlatiladi:

If I find **any** of your books,  
I'll send them to you.

Agar men kitoblaringizdan bi-  
rortasini topsam, men ularni:  
sizga jo'nataman.

I don't think I have **any** ink.

Siyohim bor deb o'ylamayman.  
(Siyohim yo'q deb o'ylay-  
man.)

**Any** bo'lishli darak gaplarda *har qanday, xohlagan* ma'nosida ishlatiladi.

Please take **any** book you  
like.

O'zing yoqtirgan (xohlagan)  
kitobingni ol.

3. **Any** *biroz, birorta* ma'nosida juda ko'p hollarda o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi.

Taqqoslang:

She didn't make **any** mistakes  
in her dictation this time.

Bu safar u diktantda xato qil-  
madi.

Have you got **any** new ma-  
gazines here?

Sizda bu yerda yangi jumallar  
bormi?

**Some** butunning bir qismini bildirish uchun ishlatilganda o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi (*menga siyohdan, bo'rdan va hokazo bering*).

Please give me **some** chalk.  
Please give me **the** chalk.

Iltimos, menga *bo'rdan* bering.  
Iltimos menga *bo'r* bering.

4. **Some** *hiroz miqdorda, bir nechta* ma'nosida ot oldida kelganda, unga urg'u tushadi va u qisqa (reduksiyaga uchragan) [s(ə)m] [sm] shakliga ega bo'ladi.

'Give me some [s(ə)m] \ chalk. Menga ozgina bo'rdan bering.

Agar **some** dan so'ng ot kelmasa, u urg'usiz bo'lsa-da, to'la talaffuz shakliga ega.

"Have you got any English books  
to read?" "Yes, I've got some  
[səm]."

Sizda o'qigani inglizcha  
kitoblar bormi? – Ha, (bir  
nechta) bor.

**Some of them, some of us** kabi so'z birikmalarida **some** so'zi urg'u ostida kelib to'la talaffuz shakliga ega bo'ladi:

'Some [SAM] of them 'know  
French.

Ularning ba'zilari fransuz  
tilini bilishadi.

46-§. *Of* predlogi *one of, some of* va boshqa so'z birikmalarida. *Of* predlogi *ma'lum predmetlar orasidan (miqdoridan)* ma'nosida *one, two, five* va hokazo sonlardan, *which* so'roq olmoshi va *many, few, little, some, any* gumon olmoshlaridan so'ng ishlatilishi mumkin, shuning uchun bu predmetlarni ifodalovchi otlar, albatta doim ko'plikda bo'lib, aniq artikl, egalik va ko'rsatish olmoshlari bilan keladi.

*many of the students*

talabalardan ko'plari

*one of your books*

kitoblaringizdan biri

*some of these mistakes*

bu xatolardan ba'zilari

Ko'plikdagi ot o'miga kishilik olmoshining ko'plikdagi obyekt kelishigi shakllari *us, you, them* kelishi ham mumkin:

*which of you*

qaysi biringiz

*five of us*

beshtamiz

*one of them*

ulardan bittasi

Ba'zan bu so'z birikmalari *-dan* qo'shimchasisiz tarjima qilinadi:

*any of Gogol's books*

Gogolning istalgan (har  
qanday) kitobi

*a lot of his time*

o'zining ko'p vaqtini

## 7-DARS

47-§. *There is (there are)* oboroti Indefinite guruhining hozirgi va o'tgan zamon shakllarida.

1. *There is* oboroti shaxs yoki predmetning biror joyda borligi yoki yo'qligini aytish uchun ishlatiladi. Boshqacha qilib aytganda, oldindan ma'lum bo'lgan joydagi predmetning nomini aytish uchun ishlatiladi. Gapda so'z tartibi quyidagicha:

<i>there is (are)</i>	<i>ega</i>	<i>o'rin holi</i>
<i>There is</i>	<i>a newspaper</i>	<i>on the table.</i>
<i>Stol ustida gazeta bor (yotibdi).</i>		

*There is (are)* oborotida joydan predmetga o'tiladi va (avvaldan) ma'lum joyda nima bor degan savolga javob bo'ladi.

a) *Stol ustida gazeta yotibdi* degan gap bilan b) *Gazeta stol ustida* degan gapning farqi shundaki, *a* – *gapda* avvaldan ma'lum joydan

predmetga o'tilyapti. Bu ingliz tilida **there is (are)** oboroti bilan beriladi. *B – gapda* esa avvaldan ma'lum predmet qayerda turganligi aytilyapti, ya'ni predmetdan joyga o'tilyapti. Bu yerda *to be* fe'li ishlatiladi.

Taqqoslang:

Avvaldan ma'lum	Joy	Predmet
Masalan	<b>There is</b> a newspaper on the table.	The newspaper is on the table.
Savollari	<b>What is there</b> on the table? Nima stol ustida?	<b>Where</b> is the newspaper? Gazeta qayerda?

Shuning uchun **there is (are)** oborotiga **where?** so'roq olmoshi bilan savol berib bo'lmaydi, chunki **there is (are)** oborotida joy avvaldan doim ma'lum bo'lishi kerak.

b) *The newspaper is on the table* gapimizda predmet nomi doim aniq artikl bilan beriladi.

2. **There is (are)** oboroti bilan bir necha ega kelsa, u o'zidan keyin kelayotgan birinchi ega bilan moslashadi.

There is a table and five chairs, Xonada stol va beshta stol  
in the room. bor.

There are five chairs and a Xonada beshta stol va stol  
table in the room. bor.

Hozirda ikkinchi ega ko'plikda bo'lgan taqdirda ham **there are** ishlatish holatlari kuzatilmoqda.

3. Bu oborotni **O'Z**odagi shakli **there was (were)**.

**There was a pen** here, but I Bu yerda ruchka bor edi, biroq  
don't see it. men uni ko'rmayapman.

**There were books** here. Have Bu yerda kitoblar bor edi. Ular  
you got them? sizdami?

4. **There is (are)** oboroti tarkibidagi **there** – *u yerda* degan ma'noni bermaydi. *U yerda* so'zini berish uchun biz gapning oxirida yana bitta **there** so'zini ishlatishimiz kerak.

There were a lot of students U yerda talabalar ko'p edi.  
**there.**

5. **To be** so'roq gapda **there** dan oldinga o'tadi.

**Is there** a map in your room? Xonangizda xarita bormi?

**Were there** many mistakes in Uning uy vazifasida xatolar  
his homework? ko'pmi?

Egaga savol berilganda *what?* so'roq olmoshi ishlatilib gapning egasi bo'lib keladi.

**What is there for supper tonight?** Bu kechki ovqatga nima bor?

Bunda is urg'u ostida bo'lib *what* bilan birikmaydi.

Bundan tashqari egaga yana boshqacha savol qo'ysa ham bo'ladi:

**What's that on the wall?** – Devorda nima bor?

**Who's that in the room?** – Xonada kim bor?

yoki:

**"What's in that box?"** – Qutida nima bor?

**"There are some books in it."** – Kitoblar.

**"Who's in the room?"** – Xonada kim bor?

**"There are some children in it."** – Bolalar.

Eganing aniqlovchisiga savol berilganda *how many + ot, how much + ot va what + ot* ishlatiladi.

**How many mistakes are there in his sentence?** Uning gapida nechta xato bor?

**How much money [ʼmʌni] was there in your bag?** Sumkangizda qancha pul bor edi?

**"What books were in your bag?"** – Sumkangizda qaysi kitoblar bor edi?  
(bunday savolda *there* tushirib qoldirilishi mumkin)

**"There were English and Russian books."** – Inglizcha va ruscha kitoblar.

Avval aytganimizdek, odatda, *there is* oboroti bilan kelgan gaplarda o'rin holiga savol qo'yilmaydi.

6. *there is* oborotining bo'lishsiz shaklda *to be* dan keyin *not* inkor yuklamasi keladi. Og'zaki nutqda bo'lishsiz shakllarning hozirgi zamonda: *there isn't* [iznt], *there aren't* [a:nt], o'tgan zamonda *there wasn't* [wɔznt], *there weren't* [wə:nt] kabi qisqa shakllari ishlatiladi.

**There isn't a book in my bag.** Sumkamda kitob yo'q.

**There aren't any books on the table.** Stol ustida (hech qanaqa) kitob yo'q.

Bo'lishsizlikni ifodalashda bu oborot bilan *no* bo'lishsizlik olmoshi ot oldidan aniqlovchi bo'lib kelishi mumkin.

**There is no time for this work.** Bu ishga vaqt yo'q.

**There is no ink in my pen.** Ruchkamda siyoh yo'q.

There is no bus in this town. Bu shaharda avtobus yo'q  
(avtobus qatnovi yo'q).

7. Ohang. There is (are) oboroti ishlatilgan gapda urg'u, odatda, predmet nomiga tushadi, o'rin holi esa ibora urg'usini olmaydi.

Ravon nutqdagi darak gapda there is, odatda, [ðeəz] yoki [ðəz] talaffuz qilinadi:

'There's a \book here. [ðeəz ə \buk hiə]

Oborotning so'roq gap shaklida [r] bog'lovchi tovushi paydo bo'ladi, ibora urg'usi to be mos shakliga va predmet nomiga tushadi:

'Is there a \book here? ['iz ðeə ə \buk hiə]

8. Agar umumiy so'roq gapda there is (are) oboroti va to have fe'li bilan any so'zi ishlatilsa, qisqa bo'lishli javobda some ishlatiladi. Qisqa bo'lishsiz javobda esa any ishlatiladi.

"Have you any interesting books to read at home?" – Sizning uyingizda qiziqarli kitoblar bormi?

"Yes, I have some." – Ha, bir nechta.

"No, I haven't any." – Yo'q, menda kitoblar yo'q.

#### 48-§. Can [kæn] modal fe'li va to be able to oboroti.

Ingliz tilida bir qator fe'llar mavjud bo'lib, ularning leksik ma'nosi ish-harakatni bildirmaydi. Ular ish-harakatga bo'lgan munosabatni bildiradi, ya'ni ish-harakat bajarilishiga bo'lgan imkoniyat, zaruriyat va ehtimollikni bildiradi. Bunday fe'llarni modal fe'llar deyiladi. Ish-harakatni ifodalovchi fe'llar esa modal fe'ldan keyin asosiy fe'lining to siz infinitivi shaklida keladi.

Modal fe'llar quyidagi o'ziga xosliklarga ega:

1. Ularning infinitiv va sifatdosh shakli yo'q. Ular doim ega bilan ishlatilib, asosiy fe'lining infinitiv shakli bilan gapning kesimini hosil qiladi.

2. Ular shaxs sonda o'zgarmaydi.

3. Ulardan keyingi fe'l to siz infinitivda ishlatiladi.

4. Ular ish-harakatni ifodalamagani uchun buyruqqa unday olmaydilar. Shuning uchun buyruq mayliga ega emaslar.

Shu kamchiliklarni hisobga olib modal fe'llarni to 'liqsiz fe'llar deyiladi.

Ingliz tilida eng ko'p ishlatiladigan modal fe'llarga: imkoniyat, qodirlik, qobiliyat, ruxsatni anglatuvchi can [kæn] qila olmoq, qila bilmoq, qo'ldan kelmoq, keraklilik, majburiyatni ifodalovchi must



[məst, məst, mst] *kerak, zarur* (52-§ga qarang) modal fe'llari kiradi.

1. **Can** modal fe'li quyidagi ma'nolarda ishlatiladi:

1) Aqliy va jismoniy qobiliyat:

He **can** do this work. U bu ishni *bajara oladi*.  
My son **can** read now. Mening o'g'lim o'qiy oladi.

2) Ruxsat:

You **can** go home. Uyga ketishingiz *mumkin*.  
(Sizga ruxsat.)

**Can** modal fe'li ko'pincha **who** bilan boshlangan egaga qo'yilgan savollarda ishlatiladi.

**Who can** come today? Bugun kim kela oladi?  
**Who can** speak French? Kim fransuzcha gapira oladi?  
**Who can** come with me? Kim men bilan bora oladi?

**Can** ning O'ZOdagi shakli **could** [kud].

He went to his parents in the country, where he **could** finish his work. U qishloqdagi ota-onasinikiga o'z ishini tugata olish uchun ketdi.

So'roq gapda **can** egadan oldinga o'tadi:

**Can** you do it now? Siz buni hozir qilib bera olasizmi?  
**Could** you read English books last year? Siz o'tgan yili inglizcha kitoblar o'qiy olarmidigiz?

Bo'lishsiz gapda **can** dan so'ng **not** inkor yuklamasi keladi va doim qo'shib **cannot** shaklida yoziladi.

My little son **cannot** write yet. Mening kichik o'g'lim hali yozishni *bilmaydi*.  
My son **could not** read when he was three. O'g'lim uch yoshida o'qishni bilmasdi.

Og'zaki nutqda **cannot** – **can't** [ka:nt] ga, **could not** – **couldn't** ['kudnt] ga qisqaradi:

You **can't** take this book. Bu kitobni olishga sizga ruxsat yo'q.  
I **couldn't** do it last week. I had no time. Men buni o'tgan hafta qila olmadim, vaqtim yo'q edi.

Qisqa javoblar, odatda, quyidagi tartibda bo'ladi:

- |  |  |
|--|--|
| "Can you do it for me?"                                | – Siz men uchun shu ishni qila olasizmi?         |
| "Yes, I think I can." ("Certainly [ˈsə:tʌnli] I can".) | – O'ylashimcha, ha. (Albatta.)                   |
| "No, I am afraid I can't." ("No, I am sorry I can't".) | – Yo'q, deb qo'rqaman. (Afsuski, qila olmayman.) |

Eslatma 1. Ruxsat ma'nosini may modal fe'li ham ifodalaydi, biroq u rasmiy xarakterga ega.

You **may** do it tomorrow.                       Siz buni ertaga bajari-  
shingiz *mumkin*.

May I come in?                                   Kirsam *maylimi*?

Hozirgi zamonaviy ingliz tilida **can** ko'proq ishlatiladi:

Can I come in?                                 Kirsam *bo'ladimi*?

Eslatma 2. Iltifot bilan ruxsat so'ralganda **can** o'rniga **could** ishlatiladi. Masalan "Please help me." "Yordam bering, iltimos" ni "Could you help me, please?" deyish mumkin.

**Please** so'zi **could you** birikmasidan keyin ham turishi mumkin, bunda u vergul bilan ajratilmaydi:

Could you please tell me the way to Kirov street?	Kirov ko'chasiga qanday borishni aytib yuborolmaysizmi?
---	---

2. **Intonatsiya.** Bo'lishli darak gapda, qoida bo'yicha, modal fe'llarga ibora urg'usi tushmaydi va ular qisqa (reduksiyaga uchragan) shaklda ishlatiladi:

I can \do it. [ai kn \du: it]

Modal fe'llar quyidagi hollarda urg'u ostida keladi:

a) Umumiy so'roq gap boshida kelganda:

'Can we \go now? ['kæn wi· \gou nau]

b) Inkori yuqumasi bilan birikib **can't**, **couldn't** kabi qisqa shaklda kelganda:

He 'can't \come. [hi 'ka:nt \kʌm]

c) Agar ulardan so'ng boshqa hech qanaqa fe'l kelmasa, masalan, umumiy so'roq gapga qisqa javob berilganda:

\Yes, I 'think you \can. [\yes, i ai 'θiŋk ju· \kæn]

3. Modal fe'llarning shakllari to'la bo'lmagani uchun ularning yo'q shakllarini qoplash maqsadida sinonim oborotlar ishlatiladi.

**Can** modal fe'lining sinonim oboroti **to be able to**. Biroq har qanday sinonim kabi **to be able to** ning ham **can** dan biroz farqi bor. **Can** umumiy imkoniyat va qobiliyatni bildiradi. **To be able to** esa aniq bir vaziyatdagi, aniq bir paytdagi, bir martalik imkoniyat, qobiliyatni beradi.

Taqqoslang:

I can play football, but I'm unable (I am not able) to play now, I don't feel well.

Men futbol o'ynay olaman, lekin hozir o'ynay olmayman, chunki, o'zimni yaxshi his qilmayapman.

Biroq hozirgi paytda **can** ham ko'pincha shu ma'noda ishlatiladi:

I can't go now, I don't feel well.

Men hozir borolmayman, men o'zimni yomon his qilyapman.

O'tgan zamonda bu ma'noni ifodalashda **can** bilan **to be able** orasidagi farq yaqqolroq seziladi.

Taqqoslang:

He was in London [l'landn] two years ago, so he could see English films every day.

Ikki yil oldin u Londonda bo'ldi va har kuni ingliz filmlarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi.

I am very glad you were able to come.

Siz kela olganingizdan men juda xursandman.

Were you able to finish the book before you gave it back to the library [l'aibrari]?

Siz bu kitobni kutubxonaga qaytarguncha o'qiy oldingizmi?

**To hear, to see** va boshqa his qilish fe'llari bilan shuningdek, bo'lishsiz shaklda, odatda, **could** modal fe'li ishlatiladi.

I could see him very well.

U menga yaxshi ko'rinardi.

I couldn't get that book yesterday.

Men bu kitobni kecha topa olmadim.

**Can** modal fe'li kelasi zamondagi ruxsatni ifodalashda ham ishlatiladi.

You can come at ten tomorrow.

Siz ertaga soat 10 da kelishingiz mumkin. (Sizga ertaga soat 10 da kelishga ruxsat)

Biroq imkoniyat, qobiliyat, qodirlik ma'nolarida **can** kelasi zamonda ishlatilmaydi. Uning o'rniga **to be able to** ishlatiladi. (55-§ga qarang).

## 8-DARS

### 49-§. Sifatdosh II (Participle II) haqida tushuncha.

Fe'ning uchinchi asosiy shakli sifatdosh II hisoblanadi (38-§). Sifatdosh II to'g'ri tuslanuvchi fe'llar o'zagiga **-ed** ni qo'shish bilan yasaladi. Bunda undoshdan keyin keluvchi *y – i* ga o'tadi.

study o'rganmoq – studied o'rganilgan

Noto'g'ri tuslanuvchi fe'llarning sifatdosh II shakli turli yo'llar bilan yasalgani bois ularni yoddan bilish kerak. Ko'p hollarda uning shakli O'ZO shakli bilan bir xil:

to send jo'natmoq – sent jo'natdi – sent jo'natilgan  
to bring keltirmoq – brought keltirdi – brought keltirilgan

O'timli fe'llarning sifatdosh II shakli majhullik ma'nosiga ega bo'lib, o'zbek tiliga – *gan* bilan tarjima qilinadi.

to discuss hal qilmoq – discussed hal qildi – discussed hal qilingan,  
qilinilgan.

to reach erishmoq – reached erishdi – reached erishilgan

Sifatdosh II ko'pincha otga aniqlovchi bo'lib keladi. Agar otidan so'ng izohlovchi so'zlar kelmasa u o'zi aniqlayotgan otidan oldin kelishi mumkin, biroq ko'pincha o'zi aniqlayotgan otidan keyin keladi, ayniqsa, undan so'ng izohlovchi so'zlar kelsa.

the discussed questions = the questions discussed (by them)  
(ular tomonidan) muhokama qilingan savollar.

### 50-§. Tugallangan hozirgi zamon (THZ) fe'li (The Present Perfect Tense).

1. Tugallangan zamon guruhlari (hozirgi, kelasi, o'tgan) biron-bir payt yoki ish-harakatga nisbatan bo'lib, o'tgan ish-harakatni ifodalaydi. Aniqrog'i, o'sha payt yoki ish-harakatdan *oldin* bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi.

#### 2. Tugallangan zamon guruhlarining yasalishi.

Tugallangan zamon guruhlari **to have** ko'makchi fe'li va asosiy fe'ning sifatdosh II shakli yordamida yasaladi.

to have + sifatdosh II

Bunda **to have** zamon, shaxs va sonni ko'rsatib tuslanuvchan qism hisoblanadi. Asosiy fe'ning sifatdosh II shakli esa o'zgar olmaydigan shakl hisoblanadi.

**He has (He's) written** a letter to his friend. U do'stiga xat yozdi.

So'roq shaklida **have (has)** egadan oldinga o'tadi.

**Have you written** to your friend? Siz do'stingizga xat yozdingizmi?

Bo'lishsiz darak gap shaklida **to have** ko'makchi fe'lidan keyin **not** keladi.

**He had not written** the article U kecha soat beshgacha maqolani yozib bo'lmadi.  
by five yesterday.

Tugallangan kelasi zamon shakli **shall/will** ko'makchi fe'li, **have + sifatdosh II** yordamida yasaladi. Bunda **shall/will** o'zgaruvchan shakl, **have + sifatdosh II** o'zgarmaydigan shakl hisoblanadi.

**They will have written** all the Ular barcha xatlarni ertangi  
letters by tomorrow. kungacha yozib bo'lishadi.

**Will they have written** all the Ular barcha xatlarni ertangi  
letters by tomorrow? kungacha yozib bo'lishadimi?

**They will not have written** all Ular barcha xatlarni ertangi kun-  
the letters by tomorrow. gacha yozib bo'lishmaydi.

3. Ishlatilishi. **THZ** nutq paytigacha sodir bo'lgan, biroq hozirgi zamonga aloqador ish-harakatni ifodalaydi. Bu aloqadorlik ikki xil ko'zga tashlanadi:

a) Nutq paytida seziluvchi hozirga qadar egallangan bilim yoki orttirilgan tajriba natijasi sifatida:

**He's written** a book. U kitob yozgan. (Natija – mana kitob, uni o'qishingiz mumkin.)

**He's read** this book. U bu kitobni o'qigan. (U kitobning mazmunini biladi.)

b) Hozirgi zamonnii ham o'z ichiga olgan, hali tugallanmagan vaqt oralig'ini ko'rsatish orqali, masalan: **today bugun, this morning bugun ertalab, this week shu hafta, this month shu oy, this year shu yil, this winter shu qish** va hokazo. (Ya'ni ish-harakat tugallangan, biroq vaqt oralig'i tugallanmagan.)

**I have (I've) seen** him **this week.** Men uni *shu hafta* ko'rdim.

Misoldan ko'rinib turibdiki, **THZ** bu ma'noda o'zbek tiliga o'tgan zamon bilan tarjima qilinadi.

Taqqoslang:

<p><b>I've seen him this morning.</b> (Suhbat ertalab bo'lib o'tyapti.)</p> <p><b>I saw him this morning.</b> (Suhbat kechqurun yoki kunduzi bo'lib o'tyapti.)</p>	}	Men uni bugun ertalab ko'rdim.
<p><b>I've been busy this afternoon.</b> (Bu gapni soat 6 gacha aytish mumkin.)</p> <p><b>I was busy this afternoon.</b> (Bu gapni soat 6 dan keyin aytish mumkin.)</p>	}	Men bugun kunduzi band edim.

Eslatma: Ish-harakatni o'tgan zamonda bo'lib o'tgan vaqti aniq ko'rsatilganda uning hozirgi zamon bilan aloqadorligi uziladi. Shuning uchun bunday hollarda **THZ** ishlatilmaydi, uning o'rniga **O'ZO** ishlatiladi.

4. **THZ ning O'ZO dan farqi.** **O'ZO** doim o'tgan zamondagi vaqt bilan bog'liq bo'ladi (bunga gapda ishora ko'rsatiladi yoki u vaziyatdan aniq bo'lishi mumkin), **THZ** da esa e'tibor asosan ish-harakat natijasiga, orttirilgan tajribaga qaratiladi.

Taqqoslang:

<p><b>We haven't read any books by this writer yet.</b> (Present Perfect)</p> <p>Last year we couldn't read English yet and <b>didn't read</b> English books. (Past Indefinite)</p> <p><b>Have you ever been to England [ingland]?</b> (Present Perfect)</p> <p><b>When were you in England?</b> (Past Indefinite)</p>	<p>Biz buyozuvchining kitoblarini hali <i>o'qimaganmiz.</i></p> <p>O'tgan yili biz inglizcha o'qiy olmasdik va biz ingliz tilida kitoblar <i>o'qimadik.</i></p> <p>Siz hech Angliyada <i>bo'lgan-misiz?</i></p> <p>Siz qachon Angliyada <i>bo'ldingiz?</i></p>
--	--

**THZ** ko'pincha suhbat boshida ishlatiladi. Agar suhbat oldin tilga olingan mavzuda davom etsa, hatto zamon aytilmasa-da, **O'ZO** ishlatiladi, chunki ish-harakat vaziyatdan o'tgan zamonga bog'langan bo'ladi:

<p>"You look brown, <b>have you been away?</b>"</p>	<p>– Siz qorayibsiz. Biror joyga bordingizmi?</p>
---	---

“Yes, I’ve been to the South.”

– Ha, men Janubda bo’ldim.

“Did you have a good time?”

– Vaqtigingizni yaxshi o’tkazdingizmi?

“Yes, I had a very good time.”

– Ha, juda yaxshi o’tkazdim.

“Did you go alone?”

– Bir o’zingiz bordingizmi?

“No, my daughter went with me.”

– Yo’q, qizim men bilan birga bordi.

Past Indefinite (O‘ZO)	Present Perfect (THZ)
1. Vaqt muhim I lost the key yesterday.	1. Natija muhim I have lost my key. I can’t open the door.
2. Hikoyada = Monolog.	2. Suhbatda = Dialog.
3. Ish-harakat ketma-ketligi buzilmaydi.  I got up at seven o’clock. I had my breakfast and went to school.	3. Bir ish-harakat (HZO) dan oldin sodir bo’lgan ish-harakatni ifodalaydi.  I have done my homework already. Now I can go to play football.

5. Tugallangan zamon guruhlari quyidagi payt ravishlari bilan ishlatiladi:

ever *qachondir*

recently *oxirgi oy, yil, yaqinda*

never *hech qachon*

often *ko’pincha*

already *allaqachon*

up to now *hozirgacha*

yet *hali (bo’lishsiz gapda)*

seldom *kamdan kam*

just *endigina*

once *bir kuni*

lately *oxirgi kun, hafta*

many times *ko’p marta*

Biroq bu, payt ravishlari bilan boshqa zamon ishlatilmaydi degani emas. Ikkinchi ustundagi ravishlar boshqa zamonda bemaolol ishlatiladi, faqat natija muhim bo’lgandagina ular bilan THZ ishlatilishi mumkin.

Taqqoslang:

I’ve never seen him.

Men uni hech qachon ko’rmaganman.

I never came late to my lessons last year.

O'tgan yili men darsga hech ham kech qolmadim.

I often see him in our club.

Men uni klubimizda ko'p ko'raman.

**Payt ravishlarining gapdagi o'rni.**

Ever, never, just, often, seldom gapda asosiy fe'ldan oldin keladi. Already ham bo'lishli darak gapda asosiy fe'ldan oldin keladi. Biroq so'roq gapda *buncha tez* ma'nosida ajablanishni anglatib doim gap oxirida ishlatiladi.

Have you translated the article already?

Maqolani *allaqachon* tarjima qilib bo'ldingmi?

Lately, recently, once va up to now, many times so'z birikmalari gap oxirida keladi. Yet ravishi esa bo'lishsiz gaplarda ishlatilib *hali* ma'nosini beradi va gap oxirida keladi. So'roq gapda yet *allaqachon* ma'nosida gap oxirida keladi.

He hasn't finished his work yet.

U *hali* ishini tugatmadi.

Has he come back yet?

U *allaqachon* qaytdimi?

6. THZ davom zamon shakliga ega bo'lmagan fe'llar bilan ishlatilganda o'tgan zamonda boshlanib hozirgacha davom etib kelayotgan ish-harakatni ifodalaydi. Bunday gapda vaqt oralig'ini bildiruvchi *for mobaynida*, – *dan beri* predlogi va ish-harakatning boshlang'ich nuqtasini ko'rsatishda *since* – *dan beri* predlogi ishlatiladi.

I have known him for two years.

Men uni *ikki yildan beri* (ikki yil mobaynida) bilaman.

"How long have you been in Moscow?" "For about a month."

Siz anchadan beri Moskvadamisiz?  
– *Bir oycha* (bo'ldi).

For predlogi ba'zan tushirib qoldiriladi:

We've been here an hour.

Biz bu yerda *bir soatdan beri* turibmiz.

He's known me since 1971.

U meni *1971-yildan beri* taniydi.

Have you seen Petrov since he went to Saint Petersburg?

Siz Petrovni *Sankt-Peterburgga ketganidan beri* ko'rdingizmi?

Since bog'lovchisi bilan kiritilgan payt ergash gapning fe'lesimi bu holatda O'ZO da turibdi.



Eslatma: to be THZ da to yo'nalish predlogi bilan *bormoq*, *bo'lmoq*, *tashrif buyurmoq* ma'nosida ishlatiladi.

I've never been to Kiev before. Men oldin Kiyevda hech bo'lmaganman (avval hech Kiyevga bormaganman).

51-§. Fan va o'quv predmetlari nomlari oldidan artikning ishlatilmasligi. Fan nomlari va o'quv predmetlarini ifodalagan ot artiklsiz ishlatiladi.

At the Institute we take Literature, Philosophy, History and Geography. Biz institutda *adabiyot*, *falsafa*, *tarix* va *geografiya* o'rganamiz.

Bu otlar sifat bilan aniqlanib kelganda ham artiklsiz ishlatiladi:

We take English Literature. Biz *ingliz adabiyoti* o'tamiz.

He loves Russian Literature. U *rus adabiyotini* sevadi.

*Fransiya davlati tarixi*, *Angliya tarixi* kabi fanlar ingliz tilida *French History*, *English History* kabi beriladi.

At Oxford he is reading English History. Oksford universitetida u *Angliya tarixini* o'rganmoqda.

## 9-DARS

52-§. Ingliz tilida keraklilik, shartlilikning berilishi. (Must).

1. **Must** modal fe'li bo'lishli darak gapda quyidagi ma'nolarga ega:

1) Burch, buyruq, ko'rsatma – bu ma'noda o'zbek tiliga *kerak* deb tarjima qilinadi:

I must go to work at eight o'clock. Men ishga soat 8 da borishim kerak (burch).

You must do it as I tell you. Siz bu ishni men aytganimdek qilishingiz kerak.

He must see you about it tomorrow. U bu masalada siz bilan ertaga gaplashib olishi kerak.

2) Qat'iy maslahat yoki taklif – bu ma'noda o'zbek tiliga (*albatta*) *kerak* deb tarjima qilinadi:

You must go and see this film. It is very interesting. Siz bu filmni (*albatta*) borib ko'rishingiz *kerak*. U juda qiziq.

All of you **must** read this book. (qat'iy maslahat)

You **must** come and have dinner with us some day. (taklif)

3) Ichki anglangan majburiyat – bu ma'noda o'zbek tiliga *kerak, zarur* deb tarjima qilinadi:

I **must** do it today. I can't leave it till tomorrow.

Do it if you **must**.

Siz hammingiz bu kitobni (albat-ta) o'qishingiz *kerak*.

Siz (albatta) biror kun biznikiga tushlik qilgani kelishingiz *kerak*.

Men buni bugun qilishim *kerak*. Men buni ertaga qoldirolmayman.

Agar zarur bo'lsa buni bajaring (agar buni zarur deb bilsangiz).

Bunda **must** ichki zaruriyatni bildirib, ish-harakatning hozirgi zamonda bajarilishi zarurligini bildiradi.

2. So'roq gaplarda **must** ning ishlatilishi chegaralangan. Masalan, umumiy so'roq gapda **must** *shart* ma'nosida kelib, gapiruvchini ish-harakatni bajarishga xohishi yo'qligini yoki bu ish-harakatni bajarish gapiruvchiga malol kelayotganligini ko'rsatadi.

**Must** I do it now?

Uni hozir bajarishim shartmi?

Eslatma: Agar gapiruvchi suhbatdoshdan faqat ko'rsatma yoki topshiriq olmoqchi bo'lsa, **shall** modal fe'li ishlatiladi.

**Shall** I repeat the sentence?

Gapni (yana bir) qaytaraymi?

3. Bo'lishsiz gapda **must** qat'iy taqiqni ifodalab, *kerak emas, taqiqlanadi* ma'nolarini beradi. Shuning uchun, ko'pincha, bolalarga nisbatan, ba'zan ko'rsatma va ogohlantirishlarda ishlatiladi.

You **mustn't** do that.

Bunday qilmaslik kerak.

You **mustn't** play with matches.

Gugurt bilan o'ynashmasligingiz kerak.

Visitors **must not** feed the animals ['æniməlz].

Tomoshabinlarning hayvonlarga ovqat berishlari taqiqlanadi (hayvonot bog'idagi ogohlantirish).

4. **Must** modal fe'li o'tgan zamon shakliga ega emas. Uning o'miga o'tgan zamonda **to have to** (**to have got to**) oboroti ishlatiladi.

5. **To have to**, **to have got to** *kerak, to'g'ri kelib qolmoq* oborotlari sharoitdan kelib chiqqan (tashqi) majburiyatni ifodalashda hozirgi zamonda ham ishlatiladi.

I can't play chess with you now, I **have to** (have got to) do my homework.

Men siz bilan hozir shaxmat o'ynay olmayman. Men darsimni qilishim kerak.

6. **To have to** ning so'roq shakli **do** ko'makchi fe'li yordamida yasaladi. **To have got** bilan esa **do** ishlatilmaydi. Bunda **have** egadan oldinga o'tadi, xolos. Bu shakl boshqa qo'shimcha ma'nolarga ega bo'lmagani uchun ko'proq ishlatiladi.

When **do I have to** do it?  
(= When **have I got to** do it?)

Buni qachon bajarishim kerak?

7. **to have to** oborotini bo'lishsiz shakli **do** ko'makchi fe'li yordamida yasaladi. **to have got to** da esa **do** ishlatilmaydi. **Not** inkor yuklamasi **do** ko'makchi fe'lidan keyin keladi. **to have got to** da esa **have** dan keyin keladi.

You **don't have to** stay.  
(= You **haven't got to** stay.)

Qolishingiz shart emas.

Eslatma: *Hojati yo'q* ma'nosini ifodalash uchun *needn't* modal fe'li (*need kerak bo'lmoq* fe'lining bo'lishsiz shakli) ishlatiladi:

You **needn't** do it today.

– Siz buni bugun qilishingizning hojati yo'q.

“Shall I do it now?”

– Buni hozir bajaraymi?

“No, you **needn't**. You can do it tomorrow morning.”

– Yo'q, hojati yo'q. Siz buni ertaga ertalab qilishingiz mumkin.

“Must I do it now?”

– Uni hozir bajarishim shartmi?

“No, you **needn't**.”

– Yo'q, hojati yo'q.

Darak va so'roq gaplarda **need** juda kam ishlatiladi.

8. **To have to** ni o'tgan zamon shakli – **had to** o'tgan zamondagi keraklilik va shartlilikni ifodalash uchun ishlatiladi:

I had very little time and I **had to** take a taxi.

Meni vaqtim oz edi va taksi olishimga to'g'ri keldi.

So'roq va bo'lishsiz shakllarda ishlatiladigan **do** ko'makchi fe'li o'tgan zamonda **did** shaklida keladi.

**Did you have to** write to him again?

Unga yana bir bor yozishingizga to'g'ri keldimi?

I'm glad you **didn't have to** do it again.

Sizga buni yana qilishga to'g'ri kelmaganidan xursandman.

9. **To have to** yuqorida ko'rsatilgan ma'nolarda kelasi zamonda ham ishlatiladi. (55-§).

10. **Should** modal fe'li to siz infinitiv bilan kelganda maslahat, ko'rsatmani ifodalab, o'zbek tiliga *kerak, yaxshi bo'lardi* deb tarjima qilinadi:

You **should** see a doctor. Siz doktorga uchrasangiz yaxshi bo'lardi.  
 He **shouldn't** work so hard. U buncha ko'p ishlamasligi kerak.

53-§. **Bo'lishsiz so'roq gaplar.** Maxsus so'roq gaplarning bo'lishsiz shakli not inkor yuklamasi bilan yasaladi. Not ko'pincha egadan oldin keluvchi ko'makchi yoki modal fe'l bilan birikib keladi.

Why **don't** you know your lessons? Nima uchun siz darsga tayyor emassiz?  
 Why **didn't** he come to see us yesterday? Kecha nega u biznikiga kelmadi?  
 Why **isn't** he coming to see us? Nimaga u biznikiga kelmayapti?

Umumiy so'roq gapning bo'lishsiz shakli ajablanish ma'nosini beradi. O'zbek tiliga *nahotki, hali* deb tarjima qilinadi.

**Didn't** you know about the meeting? *Nahotki* yig'ilishdan bexabar qolgan bo'lsangiz?  
**Didn't** you go to the library yesterday? *Hali* siz kecha kutubxonaga bormaganmidingiz?  
**Haven't** you heard? *Hali* siz eshitmadingizmi?

Eslatma 1. O'zbek tilida shunday umumiy so'roq gaplar borki, ularning bo'lishli va bo'lishsiz shakllardagi ma'nosi bir xil, ya'ni ular shaklan bo'lishsiz bo'lsa-da, hech qanday bo'lishsiz ma'noga ega emas. Bunday gaplarda ingliz tilida bo'lishli so'roq gap ishlatiladi.

O'rtoq Petrov qayerdaligini *bilmaysizmi?* } **Do you know** where comrade Petrov is?  
 O'rtoq Petrov qayerdaligini *bilasizmi?* }

Eslatma 2. Bunday bo'lishsiz ma'noga ega bo'lmagan so'roq gaplardagi ajablanish ingliz tilida "*oh*" undalmasi bilan kelgan bo'lishli so'roq gap orqali ham beriladi.

*Nahotki* o'rtoq Petrovni tanimasangiz? **Oh,** do you know comrade Petrov?

54-§. *That, if, when, as, because* bog'lovchilari bilan kelgan qo'shma gaplar.

1. Qo'shma gaplar bosh va ergash gapdan iborat bo'ladi. Ergash gap bosh gapni izohlab, u bilan bog'lovchilar yordamida birikadi.

Ular telegrammani bugun kechqurun olishadi,	
(bosh gap)	
agar siz uni hozir jo'natsangiz.	
(ergash gap)	

Agar bosh va ergash gaplarning egasi bir bo'lsa, rus va o'zbek tillarida ergash gapda ega tushib qoladi. Ingliz tilida esa bunday hollarda ergash gapda ham ega kelishi shart.

Taqqoslang:

He writes that he is coming to Moscow.	U Moskvaga kelishini yozadi.
--	------------------------------

Bosh gap ergash gapdan oldin kelsa, u vergul bilan ajratilmaydi. Ergash gap bosh gapdan oldin kelsa, vergul bilan ajratiladi:

I know that they are at home now.	Men ularni uydaliklarini bilaman.
When I was in Kiev, I met Comrade Petrov.	Kiyevdaligimda men o'rtoq Petrovni uchratdim.

2. **Ergash gap turlari.** Ergash gaplar (otning – ega, to'ldiruvchi, kesimning ot qismi vazifalarini bajaruvchi) ot ergash gaplar va hol ergash gaplarga bo'linadi:

a) Ot ergash gapga misol qilib to'ldiruvchi ergash gapni olishimiz mumkin. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga nisbatan vositasiz to'ldiruvchi vazifasini bajaradi va *nimani?* so'rog'iga javob bo'ladi. Bosh gap bilan ko'pincha **that** (o'zbek tilida *-ni* qo'shimchasini beruvchi) bog'lovchisi yordamida birikadi. **That** tushib qolishi ham mumkin. Unda ergash gap bosh gapga bog'lovchisiz bog'lanadi.

We know (that) they are doing well.	Biz ular yaxshi o'qishlarini bilamiz.
I know they are here.	Men ular bu yerdaligini bilaman.

b) Hol ergash gapga misol qilib payt ergash gapni olish mumkin. Payt ergash gaplar bosh gapdagi ish-harakat bo'lib, o'tgan paytni ko'rsatib, **when?** (*qachon?*) so'rog'iga javob bo'ladi. Bosh gap bilan ko'pincha **when** (*qachonki, -da*) va boshqa bir qator bog'lovchilar yordamida birikadi.

When I was a student, Talabaligimda men Kiyevda  
I lived in Kiev. yashaganman.

c) Payt ergash gap yana quyidagi bog'lovchilar bilan kiritilishi  
mumkin: **till (until)** – *gacha (guncha)*, **as soon as** – *bilanoq*, **before**  
– *oldin*, **after** – *keyin*, **so 'ng**, **while** – *mobaynida*.

Please stay here **until** I Men qaytgunimcha shu yerda  
return. tur.

Please wait for him here **till** Marhamat qilib, u kelguncha uni  
he comes back. shu yerda kutib turing.

d) Hol ergash gapga yana bir misol shart ergash gap bo'lib, u bosh  
gapdagi ish-harakat qanday shart-sharoitda bajarilishini ko'rsatadi.  
Bosh gap bilan ko'pincha **if (agar)** bog'lamasi bilan birikadi.

Can I have this book to read Agar bu kitob qiziqarli bo'lsa  
**if it's interesting?** uni o'qigani olsam maylimi?

d) Sabab ergash gap bosh gapdagi ish-harakat bo'lib, o'tish  
sababini ko'rsatadi va **why?** – *nimaga? nima uchun?* so'rog'iga  
javob bo'ladi. Bosh gap bilan **because** va **as** – *-ligi uchun, chunki*  
bog'lovchilari bilan birikadi.

I couldn't go to the institute Kecha men institutga bora  
yesterday **because** I was olmadim, chunki men kasal  
ill. edim.

**As** my lessons begin at half Darslarim sakkiz yarimda  
past eight, I have to get up boshlanganligi uchun men  
at seven in the morning. ertalab soat yettida turishimga  
to'g'ri keladi.

My friend works hard at his Do'stim ingliz tili bilan qattiq  
English, **as** he wants to shug'ullanyapti, chunki u  
speak the language well. ingliz tilida yaxshi gapirishni  
xohlaydi.

Eslatma. **Because** asosan faqat ergash gap bosh gapdan  
keyin kelganda ishlatiladi. **As** esa, ergash gap bosh gapdan oldin  
kelsa ham, keyin kelsa ham ishlatiladi.

3. **Ohang.** Agar ergash gap bosh gapdan oldin kelsa, u ko'pincha  
ko'tariluvchi ohang bilan talaffuz qilinadi:

If you are **ill**, you should Agar siz kasal bo'lsangiz, siz,  
'certainly 'stay in **bed**. albatta, yotishingiz kerak.



3. Bo'lishsiz shaklida **not** inkor yuklamasi bevosita ko'makchi fe'ldan keyin keladi:

I shall <b>not</b> work ...	Men ... ishlamayman
You will <b>not</b> work ...	Sen ... ishlamaysan.

Og'zaki nutqda ko'makchi fe'llarning qisqargan bo'lishsiz shakli ishlatiladi: **shall not** qisqarib **shan't** [ʃa:nt], **will not** qisqarib **won't** ['wɒnt] bo'lib keladi.

I <b>shan't</b> see them.	Men ularni ko'rmayman.
He <b>won't</b> be in till nine.	U soat to'qqizgacha bo'lmaydi.

4. **Ishlatilishi.** KZO asosan quyidagi holatlarda ishlatiladi:

a) Ish-harakatni tabiiy bo'lib o'tish vaqtini ko'rsatish uchun.

The winter holidays <b>will begin</b> on the 25 <sup>th</sup> of January this year.	Bu yil qishki ta'til 25-yanvarda boshlanadi.
---	--

b) Ma'lum shart-sharoitlarda bo'lib o'tadigan ish-harakatlarni ifodalashda. Ko'pincha bu shart-sharoit payt va shart ergash gaplarida **if, when** va boshqa bog'lovchilar bilan birga keladi. Payt va shart ergash gapning o'zida hech qachon **KZO** ishlatilmaydi, uning o'rniga **HZO** ishlatiladi.

<b>When I come</b> to see you, I'll bring you this book.	Seni ko'rgani kelganimda bu kitobni olib kelaman.
--	---

I'll do it tomorrow if I <b>have time</b> .	Agar vaqtim bo'lsa buni ertaga bajaraman.
---	---

<b>As soon as you finish</b> work, we'll go to the cinema.	Ishingni tamomlashing bilanoq, biz kinoga boramiz.
--	--

c) Ko'pincha taklif, ikkilanish, ehtimollik ma'nolariga ega bo'lgan **probably** ['prɒbəbli] – *bo'lishi mumkin*, **perhaps** [pə'hæps] – *bo'lishi mumkin, ehtimol* kabi modal so'zlar bilan ham ishlatiladi.

<b>Perhaps</b> he'll come.	U kelishi mumkin.
He <b>probably</b> won't find out.	Balki u bilmas.

d) **To be** va boshqa davom zamonda ishlatilmaydigan fe'llar bilan:

I'll <b>be</b> back soon.	Men tezda qaytaman.
I'm sure you'll <b>like</b> the play.	Sizga pyesa yoqishiga ishonaman.

I hope we <b>shall</b> soon <b>hear</b> from you.	Sizdan tez orada xabar keladi, deb umid qilaman.
---	--



I'll think about.

Men bu haqda o'ylab ko'raman.

We'll have a lot of work to do tomorrow.

Ertaga bizning ishimiz ko'p.

Eslatma 1: Umumiy so'roq gapda **shall** va **will** kelasi zamondagi ish-harakat ma'nosini bermaydi. **Shall** gapiruvchi suhbatdoshdan nima qilish kerakligi haqida buyruq yoki ko'rsatma olish istagi borligini bildiradi.

**Shall** I do it in class or at home?

Buni sinfda bajaraymi yoki uydami?

**Will** yoki **won't** iltifot bilan qilingan iltimos yoki taklifni ifodalash uchun ishlatiladi.

**Won't** you sit down, please?  
(= Sit down, please, won't you?)

Marhamat qilib, o'tiring.

**Will** you open the window, please?  
(= Open the window, please, will you?)

Derazani oching, iltimos.

Eslatma 2: Rasmiy xabarlarda boshqa kelasi zamoni ifodalovchi shakllardan **KZO** afzal ko'riladi.

The Prime Minister **will speak** on TV at five p.m. (gazetadagi xabar).

Kech soat 5 da Bosh vazir televideniya orqali chiqish qiladi.

The Prime Minister **is going to speak** on TV today (og'zaki nutqda).

Bugun televideniya orqali Bosh vazir gapiradi.

Eslatma 3: **KZO**da **will** ko'makchi fe'li ish-harakatni bajarishga bo'lgan niyat yoki qat'iylikni ifodalash uchun barcha shaxslarga nisbatan ishlatiladi. Bu shaklning **to be going to** oborotidan farqi shundaki, qaror nutq paytining o'zida, ya'ni oldindan rejalashtirilmagan holatda qabul qilinadi.

"Who will post [poust] this letter for me?"

– Bu xatni kim jo'natib keladi?

"I will."

– Men.

Masalan, "There isn't any coffee in the house" – *Uyda kofe qolmabdi*, gapiga vaziyatga qarab ikki xil javob bo'lishi mumkin:

1) "I'm going to get some today."

Bugun sotib olmoqchiman.

Bu yerda gapiruvchi uyida kofe qolmaganligini avvaldan o'zi ham bilgan va uni sotib olishni o'zi ham rejalashtirgan.

2) "I'll get some today."

Bugun sotib olaman.

Bunda gapiruvchi kofe yo'qligini oldindan bilmagan va bu haqda eshitgandan keyingina uni sotib olishga qaror qilgan.

5. **KZO** o'zbek tiliga kelasi zamon bilan tarjima qilinadi.

If you are going to read all the evening, I shall go to the cinema.

Agar sen butun oqshom kitob o'qimoqchi bo'lsang, men kinoga boraman.

When they get to the fifth form, they will learn foreign languages.

Beshinchi sinfga o'tganda ular chet tili o'tishadi.

**KZO** uzoq kelasi zamoni bildirgani uchun **some day** – *qachondir, one of this days* – *biror kun* va boshqa uzoq kelajakni anglatuvchi payt ravishlari bilan ishlatiladi.

6. Kelasi zamoni ifodalovchi barcha shakllarni ikki guruhga ajratish mumkin.

**Birinchi guruh:** Yaqin kelajakdagi ish-harakatni yoki holatni ifodalovchi shakllar:

**to be going to** (32-§ga qarang)

He's going to see the doctor tomorrow.

U ertaga doktorga bormoqchi.

What are you going to do this evening?

Bugun kechqurun nima qilmoqchisiz?

**Present Continuous (HZD)** (Kirish kursi, 25-§ ga qarang)

Where are you going in the summer?

Yozda qayerga borasiz?

She's coming to see me tomorrow evening.

U ertaga kechqurun meni ko'rgani kelyapti.

They're leaving Moscow in a week.

Bir haftadan so'ng ular Moskvadan ketishyapti.

**Future indefinite (KZO).** Davom zamonda ishlatilmaydigan fe'llar bilan.

I'll be at home at seven.

Men soat yettida uyda bo'laman.

She'll feel well tomorrow.

Ertaga u o'zini yaxshi his qiladi.

**Ikkinchi guruh:** Uzoq kelajak yoki noaniq kelajakdagi ish-harakatni ifodalovchi shakllar:

**Future indefinite (KZO)**

**We shall all die** [dai] some day. Qachondir biz hammamiz o'ladaymiz.

Ingliz tilida yana neytral shaklni ifodalovchi kelasi zamon davom fe'li mavjud. U yaqin hamda uzoq kelajakka nisbatan ham ishlatiladi. Bu haqda 69-§ ga qarang.

7. **There is (there are)** oboroti **KZO** shaklini **will** ko'makchi fe'li yordamida yasaydi:

**If the lecture is interesting, there will be a lot of people.** Agar ma'ruza qiziq bo'lsa, odam ko'p bo'ladi.

Umumiy so'roq shaklida **there** dan oldinga **will** o'tadi.

**Will there be many people at the meeting?** Majlisda odam ko'p bo'ladimi?

Bo'lishsiz shaklda **will** dan keyin **not** keladi.

**There won't be many people in the cinema today.** Bugun kinoteatrda ko'p odam bo'lmaydi.

8. Kelasi zamondagi qobiliyat imkoniyat **to be able to** bilan beriladi (can ning kelasi zamondagi o'rindoshi).

**I shall be able to do it tomorrow.** Men buni ertaga qila olaman.

**When will you be able to come and see us?** Siz biznikiga qachon kela olasiz?

**I won't be able (shan't be able) to go to the cinema today.** Men bugun kinoga bora olmayman.

9. Keraklilik shartlilik kelasi zamonda **to have to** bilan beriladi (must KZO da).

**You can't get the book now, you'll have to come tomorrow.** Kitobni hozir o'lmaysiz, ertaga kelishingizga to'g'ri keladi.

**Shall I have to come here again?** Nahot bu yerga yana kelishimga to'g'ri kelsa?

**I'm glad I shan't have to do this work again.** Bu ishni ertaga yana qilishimga to'g'ri kelmasligidan xursandman.

**56-§. Aniqlovchi ergash gap.** Aniqlovchi ergash gap *qanday?*, *qaysi?* so'roqlarga javob bo'lib, nisbiy olmoshlar va ravishlar bilan keladi. Aniqlovchi ergash gaplar o'zlari aniqlab kelayotgan so'zlardan keyin turadi.

1. Aniqlovchi ergash gaplar **who** – *qaysiniki*, **whom** – *kimgaki*, *kimniki*, **whose** – *kimningki*, *qaysiningki*, **which** – *qaysiki*, **that** – *qaysi(ni)ki* nisbiy olmoshlari bilan keladi. Bunda **who**, **whom** kishilar haqida gap borganda ishlatiladi. **Which** – hayvonlar va jonsiz predmetlar haqida gap borganda ishlatiladi. **That** har qanday ot yoki olmosh bilan ishlatiladi:

In our office there are a lot of people **who** speak English well?

The student **whose** exercise-book I've shown you is doing very well.

The book (**which**) you've given me to read is very interesting.

I don't know the engineer about **whom** you're speaking. (= I don't know the engineer (**whom**) you're speaking about.)

The book (**that**) I'm reading is not very interesting.

Xuddi maxsus so'roq gaplardagidek, aniqlovchi ergash gaplarda predlog nisbiy olmosh oldidan emas, o'zi tegishli bo'lgan fe'ldan keyin keladi.

Taqqoslang:

Who are you speaking **about**?

Eslatma 1: Aniqlovchi ergash gapning fe'l-kesimi shu ergash gap aniqlab kelayotgan ot bilan moslashadi:

D'you want to speak to the **students who** are here?

D'you want to speak to the **student who** is here?

Bizning idorada ingliz tilida yaxshi gaplashuvchi kishilar ko'p.

Men sizga daftarini ko'rsatgan talaba juda yaxshi o'qiydi.

Siz menga o'qigani bergan kitob juda qiziqarli ekan.

Siz gapirayotgan muhandisni men tanimayman.

Men hozir o'qiyotgan kitob unchalik qiziqarli emas ekan.

Siz kim haqida gapiryapsiz?

Siz shu yerdagi talabalar bilan gaplashishni xohlaysizmi?

Siz shu yerdagi talaba bilan gaplashishni xohlaysizmi?

Eslatma 2: Nisbiy olmoshlar to'ldiruvchi vazifasida ko'pincha tushib qoladi.

Here is the house we live in.  
(which tushirib qoldirilgan)

Mana biz yashayotgan uy.

Where's the student you told  
me about? (whom tushirib  
qoldirilgan)

Siz menga aytgan talaba  
qayerda?

2. Aniqlovchi ergash gaplar, shuningdek, yana **when**, **where** nisbiy ravishlari bilan ham keladi. Bunda **when** vaqtни ifodalagan otga nisbatan ishlatiladi. **Where** esa joyni ifodalagan otga nisbatan ishlatiladi.

I shall always remember the  
time when we went to the  
Institute.

Institutda o'qigan davrimiz  
doim mening yodimda.

He will not forget the city where  
he lived in his childhood.

U bolaligi o'tgan shaharni  
unutmaydi.

Eslatma: *time* so'zi *payt*, *vaqt* ma'nolaridan tashqari *marotaba*, *safar* ma'nosiga ham ega. *Marotaba*, *safar* ma'nosida *time* bilan **when** bog'lovchisi ishlatilmaydi.

Every time I see him I forget to  
tell him about it.

Har safar men uni ko'rga-  
nimda, unga bu haqida  
aytishni unutam.

He thinks of his childhood every  
time he hears this song.

Har safar bu qo'shiqni eshit-  
ganda, u o'z bolaligini es-  
laydi.

## 11-DARS

57-§. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap. Bog'lovchi olmosh va ravishlar to'ldiruvchi ergash gapda bog'lovchi vazifasida.

1. To'ldiruvchi ergash gaplar **that** dan tashqari yana quyidagi ravishlar **where** *qayerda*, *qayerga*, **when** *qachon*, **why** *nimaga*, *nima uchun*, **how** *qanday* va olmoshlar **what** *nima*, **which** *qaysi*, **who** *kim*, **whom** *kimni*, *kimga*, **whose** *kimning* bilan keladi. Ergash gapning o'zida bu bog'lovchilar biror bir gap bo'lagi bo'lib keladi: *who* – *ega*, *what* – *to'ldiruvchi*, *whom* – *to'ldiruvchi*, *which* – *aniqlovchi*, *where* – *o'rin holi*, *when* – *payt holi*, *why* – *sabab holi*.

Do you know <b>who</b> wrote this book? (ega)	Bu kitobni kim yozganini bilasizmi?
Show me <b>what</b> you have done. (to'ldiruvchi)	Nima qilganingizni menga ko'rsating.
Do you know <b>whom</b> he always helps? (= Do you know <b>who</b> he always helps?) (to'ldiruvchi)	U doim kimga yordam berishini bilasizmi?
Show me <b>which</b> book you've read. (aniqlovchi)	Menga qaysi kitobni o'qiganingizni ko'rsating?
I don't know <b>where</b> he lives. (o'rin holi)	U qayerda turishini men bilmayman.
I don't know <b>when</b> she will be back. (payt holi)	U qachon kelishini men bilmayman.
I don't know <b>why</b> he is not here yet. (sabab holi)	U nimaga hali ham bu yerda emasligini men bilmayman.
I don't know <b>how</b> he did it. (vaziyat holi)	Buni qanday bajarishni men bilmayman.

Eslatma 1: Ingliz tilida **what** yoki **that** bog'lovchilaridan birini qo'llash talabalarda biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Agar o'zbek tilida *nimani*, *nima* kelsa, ingliz tilidagi gapda **what** ishlatiladi.

Tell him **what** you have done. Unga *nima* qilganingni ayt.

Agar o'zbek tilida *-ni* qo'shimchasi kelsa, ingliz tilida **that** ishlatiladi.

Tell him **that** she has already done this work. U bu ishni qilib bo'lganini unga aytig.

Eslatma 2: **When** bog'lovchisi payt ergashgan qo'shma gapda ham bog'lovchi vazifasida ishlatiladi. Unda **KZO** o'rninga **HZO** ishlatiladi (55-§, 4-b punktga qarang). **When** bog'lovchisi to'ldiruvchi ergash gapda kelganda esa u bilan **KZO** ning o'zi ishlatiladi.

Taqqoslang:

I'll tell you **when** he will be back. (to'ldiruvchi ergash gap) Uning qachon kelishini men sizga aytaman. (*Nimani* aytaman?)

I'll tell you all about it when he comes. (payt ergash gap)

Men bu haqda hammasini u kelganda aytaman. (Qachon aytaman?)

2. To'ldiruvchi ergash gapda so'z tartibi. To'ldiruvchi ergash gapda so'z tartibi bog'lovchidan keyin xuddi oddiy darak gapdagidek. Faqat ergash gap bosh gapga bog'lovchili birikkanda u bog'lovchi va bog'lovchiga tegishli bo'lgan so'zlar bilan boshlanadi:

Bosh gap	Bog'lovchi	Ega	Kesim	II darajali gap bo'laklari
I am sorry	(that) bog'lovchi	he	is	not here.
<b>Tarjimasi:</b> Uning bu yerda yo'qligidan afsusdaman.				
I shall show him	what bog'lovchi olmosh	he	did	yesterday.
<b>Tarjimasi:</b> U kecha nima qilganini ko'rsataman.				
I don't know	who bog'lovchi olmosh-ega		was	here yesterday.
<b>Tarjimasi:</b> Kecha bu yerda kim bo'lganini bilmayman.				

58-§. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplarda zamonlar moslashuvi.

1. Agar bosh gapdagi fe'l-kesim hozirgi yoki kelasi zamonda kelsa, ergash gapda mazmunan mos keladigan har qanday zamon shakli ishlatiladi.

Do you know { where he lives now?  
that he lived in Kiev last year?  
that he will soon be in Moscow?

U hozir qayerda yashashini }  
O'tgan yili u Kiyevda yashaganini } bilasizmi?  
U tez orada Moskvada bo'lishini }

2. Agar bosh gapning fe'l-kesimi o'tgan zamonlarning birida kelsa, u holda ergash gapdagi fe'l-kesim ham zamonlar moslashuviga ko'ra o'tgan zamonlardan birida bo'lishi shart.

a) Bosh gap bilan ergash gapning kesimi ifodalagan ish-harakat bir xil paytda sodir bo'lsa, ergash gapda o'tgan zamon guruhi (O'ZO) ishlatiladi.

I **didn't know you lived** here. Sizning bu yerda *yashashingizni* *bilmasdim*.

Eslatma: **Must** modal fe'li buyruq va majburiyat ma'nosida ergash gapda o'zgarib qoladi; keraklilik, shartlilik ma'nosida to **have to O'ZO** da ishlatiladi.

Taqqoslang:

He knew he **had to stay in**. U uyda qolishi *kerakligini* bilardi.  
His friend was going to ring him up. (keraklilik) Unga do'sti telefon qilmoqchi edi.

I said he **must stay in**. He's ill. (buyruq) Men u uyda qolishga majburligini aytdim. U kasal.

He said that all children **must go to school when they are 7**. (umumiy tan olingan majburiyat) U hamma bolalar 7 yoshda maktabga borishlari *kerakligini* aytdi.

Biroq, **can** modal fe'lining **O'ZO** shakli bo'lganligi uchun u zamonlar moslashuvi qoidasiga bo'ysunadi. **Can** ning **O'ZO** shakli **could**.

I **didn't know you could get** tickets for me. Siz bizga chipta topa olishingizni bilmagandim.

I **didn't know I could take** the book home. Bu kitobni uyga olish mumkinligini bilmagandim.

b) Agar, ergash gapdagi ish-harakat bosh gapdagi ish-harakatdan oldin sodir bo'lgan bo'lsa, u holda ergash gapda **tugallangan o'tgan zamon (TO'Z)** ishlatiladi.

### Tugallangan o'tgan zamon fe'li (TO'Z)

I. Yasalishi: **had** + asosiy fe'lining sifatdosh II shakli

I heard that Comrade Petrov **had left** Moscow. Men o'rtoq Petrov Moskvaga ketganini eshitdim.

So'z tartibi:

Bo'lishli darak gap: I **had left** Moscow when you came to see me last month.

Umumiy so'roq gap: **Had you left** Moscow when I came to see you last month?



Bo'lishsiz darak gap: I had not left Moscow when you came to see me last month.

## II. Ishlatilishi.

O'tgan zamondagi ma'lum bir payt yoki boshqa ish-harakatgacha tugallangan ish-harakatni ifodalaydi.

I had done my homework already by ten o'clock yesterday.  
(o'tgan zamondagi aniq bir vaqtgacha)

Kecha soat o'ngacha men uy vazifamni qilib bo'ldim.

I had translated the text when my friend rang me up yesterday.  
(o'tgan zamondagi boshqa bir ish harakatgacha)

Kecha do'stim menga telefon qilganda, men matnini tarjima qilib bo'lgan edim.

c) Agar ergash gapdagi ish-harakat bosh gapdagi ish-harakatdan keyin sodir bo'lsa, ergash gapda o'tgan kelasi zamon (O'KZO) ishlatiladi. O'KZO o'tgan zamonda kelasi zamonga nisbatan ishlatiladigan maxsus shakl.

### O'tgan kelasi zamon Oddiy fe'li (O'KZO)

1. Yasalishi. O'KZO shall va will ko'makchi fe'llarining o'tgan zamondagi shakllari, yani: should [ʃud] – 1-shaxs uchun hamda would [wud] – 2- va 3- shaxslar uchun va asosiy fe'lning to siz infinitiv shaklidan yasaladi. Would ba'zan 1- shaxsga nisbatan ham ishlatiladi:

I shaxs *should (would)*  
II, III shaxs *would* } + to siz infinitiv


I didn't know that you would get home soon.


Siz tez orada uyga qaytishingizni bilmagandim.

He wanted to know what time I would be back home.

Men uyga qachon kelishimni u bilmoqchi edi.

Taqqoslang:

He didn't know  where I lived.  
where I had gone.  
when I would be in.

Qayerda yashashimni  
Qayerga ketganimni  
Qachon uyda bo'lishimni  u bilmasdi.

3. O'zgaralar nutqini berish uchun to say, to ask, to tell va boshqa fe'llar ishlatiladi, ulardan so'ng ergash gap keladi. Agar bu fe'llar o'tgan zamonlardan birida bo'lsa, zamonlar moslashuvi qoidasiga rioya qilinadi. Ko'rsatish olmoshlari, payt va joy ravishlari o'zlashtirma gapda quyidagicha o'zgaradi:

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap
this <i>bu, shu</i>	that <i>u, o'sha</i>
these <i>bular, shular</i>	those <i>ular, o'shalar</i>
here <i>shu yerda</i>	there <i>u yerda</i>
now <i>hozir</i>	then <i>o'shanda</i>
yesterday <i>kecha</i>	that day <i>o'sha kuni,</i> the day before <i>bir kun oldin</i>
tomorrow <i>ertaga</i>	the next day, the following day <i>keyingi kun</i>
ago <i>oldin</i>	before <i>ungacha, earlier ertaroq</i>
last week <i>o'tgan hafta</i>	the week before <i>bir hafta oldin</i>
last year <i>o'tgan yili</i>	the year before <i>bir yil oldin</i>
next week <i>kelasi hafta</i>	the next week, the following week <i>keyingi hafta</i>
next year <i>kelasi yili</i>	the next year, the following year <i>keyingi yil</i>

Taqqoslang:

He said he would begin <b>now</b> .	U <i>hozir</i> boshlashini aytdi.
He said he hadn't known about it <b>then</b> .	Bu haqda u <i>o'shanda</i> bil-maganligini aytdi.
He said he would be back here <b>tomorrow</b> .	U bu yerga <i>ertaga</i> qaytishini aytdi.
He told me he would be there <b>next day</b> .	U yerda u <i>kelasi kuni</i> bo'lishini aytdi.

4. Agar ergash gapning o'zi ham qo'shma gap bo'lsa, uning tarkibiga kiruvchi barcha gaplar zamonlar moslashuvi qoidasiga bo'ysunadi.

Taqqoslang:

He says that he <b>will go</b> for a walk as soon as he <b>has had</b> dinner.	U tushlik qilib bo'liboq sayrga chiqishini aytadi.
He <b>said</b> that he <b>would go</b> for a walk as soon as he <b>had had</b> dinner.	U tushlik qilib bo'liboq sayrga chiqishini aytdi.

5. Agar o'zlashtirma gapda bir necha ketma-ket sodir bo'lgan ish-harakatlar berilsa, unga birinchi ergash gap **TO'Z** da bo'ladi, qolganlari **O'ZO** da bo'ladi (agar ish-harakat tartibi buzilmasa).

Peter told me that he **had been** to the theatre, where he **met** an old friend named Nick. After the play they went home together and **talked** about the friends with whom they **had been** on the front [frant]. Nick **gave** Peter a lot of interesting news of their friends. They **were** both very glad to see each other and **decided** to meet again.

Peter teatrda bo'lib, u yerda qadrdon do'sti Nikolayni uchratib qolganligini menga aytdi. Pyesadan so'ng ular birga uyga borishibdi va frontda birga bo'lgan do'stlari haqida gaplashishibdi. Nikolay Peterga ularning do'stlari haqida ko'p qiziqarli narsalar aytib beribdi. Ular bir-birlarini ko'rishganidan juda xursand bo'lishibdi va yana uchra-shishga qaror qilishibdi.

#### 59-§. Tasdiq so'roq gap.

1. Tasdiq so'roq gap savolda ishlatilgan fikrni tasdiq yoki inkor etilishini talab qiladi. U ikki qismdan iborat: birinchi qismi (bo'lishli yoki bo'lishsiz) darak gap, ikkinchi qismi esa – tegishli shakldagi ko'makchi (yoki modal) fe'l va bosh kelishikdagi kishilik olmoshidan iborat bo'lgan qisqa umumiy so'roq gap. Savolning darak gap qismi bo'lishli bo'lsa, so'roq gap qismi bo'lishsiz bo'ladi va aksincha.

You bought the tickets, didn't you?

Siz chipta sotib oldingiz, shundaymi?

You had a good time in the country last week-end, didn't you?

Siz o'tgan dam olish kunlarini shahar tashqarisida yaxshi o'tkazdingiz, shunday emasmi?

He hasn't come back from Saint Petersburg yet, has he?

U hali Sankt-Peterburgdan qaytmadi, shundaymi?

Bunday gaplar o'zbek tiliga *shundaymi? shunday emasmi?* deb tarjima qilinadi.

He didn't read all day, did he?

U kun bo'yi o'qimadi, shundaymi?

You were on duty yesterday, weren't you?

Siz kecha navbatchi edingiz, shunday emasmi?

The sick man can't go out yet, **can he?**

Bemor hali tashqariga chiqa olmaydi, shundaymi?

2. Tasdiq so'roq gapdagi ohang, gapiruvchi o'z savoliga qanday javob kutishiga bog'liq. Agar gapiruvchi o'z savoliga bo'lishli javob olishni kutsa, tasdiq so'roq gapning har ikki qismi pasayuvchi ohangda talaffuz qilinadi.

He **hasn't** been there, **has he?**

U u yerda bo'lmagan, shundaymi?

Agar savolda javob haqida taxmin bo'lmasa, ikkinchi qism ko'tariluvchi ohangda talaffuz qilinadi.

It's **clear**, **isn't it?**

Siz buni tushundingiz, shundaymi?

You are **ready**, **aren't you?**

Siz tayyorsiz, shundaymi?

Eslatma 1: Ko'pincha ko'makchi yoki modal fe'l bilan *not* inkor yuklamasi birikib keladi: *isn't, aren't, wasn't, weren't, shan't, won't, hasn't, haven't, can't, mustn't*. Biroq, "*am*" qisqartirilgan shaklda ishlatilmaydi, uning o'rniga *aren't* ishlatiladi.

I'm right, **aren't I?**

Men haqman, shundaymi?

I'm late, **aren't I?**

Men kech qoldim, shundaymi?

Eslatma 2: Bunday savolning darak gap qismi bilan so'roq gap qismi orasiga doim vergul belgisi qo'yiladi.

Eslatma 3: Qisqa javobda o'zbek tilidagi *ha* va *yo'q* ingliz tilidagi *yes* va *no* ko'pincha bir-biriga mos kelmaydi.

"Your factory has a good football team, hasn't it?"

– Sizning zavodingizda yaxshi futbol komandasi bor, shundaymi?

"Yes".

– Ha, bor.

"Your factory hasn't got a football team, has it?"

– Sizning zavodingizda futbol komandasi yo'q, shundaymi?

"No".

– Ha, yo'q.

"Your factory hasn't got a football team, has it?"

– Sizning zavodingizda futbol komandasi yo'q, shundaymi?

"Yes, it has, and a very fine one."

– Yo'q, bizda bor va juda yaxshi komanda.

60-§. *To speak, to talk, to say, to tell* fe'llari.

1. *To speak* fe'li quyidagi ma'nolarga ega:

1) *Gapirmoq, tili chiqmoq, biror kishiga (to), biror kishi bilan biron narsa haqida (about) gapirmoq, gaplashmoq.*

Did you speak to him about it yesterday?      Siz bu haqda u bilan gaplashdingizmi?

My friend always speaks very quickly.      Do'stim doim tez gapiradi.

I saw him, but I didn't speak to him.      Men uni ko'rdim, biroq u bilan gaplashmadim.

Bu ma'noda **to speak** fe'li vositasiz to'ldiruvchi bilan quyidagi birikmalarda ishlatiladi:

**to speak the truth**

haqiqatni aytmoq

**to speak a word**

so'z aytmoq.

Masalan:

I never spoke a word to him all evening.      Men butun oqshom unga biror so'z aytmadim.

He doesn't always speak the truth.      U har doim ham rost gapiravermaydi.

To speak the truth, I don't really like it.      Ochig'ini aytsam, bu menga uncha yoqmayapti.

2) (Biror tilda) *gapirmoq.* Bu ma'noda **to speak** fe'li o'timli bo'lib, vositasiz to'ldiruvchi bilan ishlatiladi:

Can your son speak English?      O'g'lingiz ingliz tilida gapiraoladimi?

How many languages do you speak?      Siz nechta til bilasiz?

3) *Gapirmoq, nutq so'zlamog va hokazo:*

Who spoke at the meeting yesterday?      Kecha yig'ilishda kim gapirdi?

Who's going to speak at the meeting?      Kim majlisda so'zga chiqadi?

Comrade Petrov is going to speak now.      Hozir o'rtoq Petrov nutq so'zlaydi.

2. **To talk** fe'li *gapirmoq, gaplashmoq, suhballashmoq* ma'nosini bildiradi. **To speak** dan farqi **to speak** rasmiy holatlarda ishlatiladi, **to talk** esa og'zaki nutqda ishlatiladi.

Stop talking.      Gaplashmang.

(bu o'rinda faqat **to talk** ishlatiladi, **to speak** ni ishlatib bo'lmaydi.)

My son talked (or learnt to talk) very early.	O'g'lim ancha erta gapira boshladi.
Who did you talk to?	Kim bilan gaplashdingiz?
What did they talk about?	Ular nima haqida gaplashishdi? (norasmiy holatda)
He talks too much.	U juda ko'p gapiradi.

3. To say fe'li *demoq*, *aytmoq*, *fikr bildirmoq* ma'nolarida kelib, quyidagicha ishlatiladi:

a) *Ko'chirma gapni kiritishda*. Bunda u *ko'chirma gapdan oldin* ham, keyin ham kelishi mumkin:

He said to me, "if you like, I'll get some tickets for the cinema".	"Agar xohlasangiz kinoga chipta olaman", – dedi u menga.
"If you like," he said to me, "I'll get some tickets for the cinema."	"Agar xohlasangiz, – dedi u menga, – men kinoga chipta olaman".
"The lesson is over", the teacher said.	"Dars tugadi", – dedi o'qituvchi.

b) *To'ldiruvchi ergash gap bilan vositali to'ldiruvchi bo'lmasa*:

He said he liked the city.	U shahar unga yoqishini aytdi (fikr bildirdi).
He says he wants to go to the country on Sunday.	U yakshanba kuni shahar tashqarisiga chiqishini aytdi.

c) *Vositasiz to'ldiruvchi bilan ishlatiladi, agar vositali to'ldiruvchi bo'lmasa*.

Please say it again.	Iltimos, buni takrorlang.
Did he say that?	Buni u aytdimi?
Who said that?	Buni kim aytdi?

4. To tell fe'li *aytmoq*, *xabar bermoq*, *kimgadir aytmoq* ma'nosida ishlatiladi va faqat vositali to'ldiruvchi bilan ishlatiladi, ya'ni fikr kimga aytilganligi ko'rsatilishi kerak.

I'm not just saying it. I'm telling you.	Men buni shunchaki aytayotganim yo'q, men senga yetkazib qo'yapman.
He told me the story of his life.	U menga hayoti haqida gapirib berdi.

Father told me about it yesterday. Otam menga bu haqida kecha aytdi.

Ko'pincha to tell fe'li bilan vositali to'ldiruvchidan tashqari, biron alohida so'z, so'z birikmasi yoki to'ldiruvchi ergash gap bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchi ham kelishi mumkin:

I told him my name. (alohida so'z) Men unga ismimni aytdim.

The engineer told me what to do. (so'z birikmasi) Muhandis menga nima qilishni aytdi.

He told me I must go and see her at once. (to'ldiruvchi ergash gap) U menga hoziroq u qizni borib ko'rishim kerakligini aytdi.

Eslatma: To tell fe'li vositali to'ldiruvchisiz quyidagi iboralarda ishlatiladi:

- to tell a story (a tale) – hikoya qilmoq
- to tell the truth [tru:θ] – rostini gapirmoq
- to tell a lie [lai] – yolg'on gapirmoq

Masalan:

He likes telling stories. U hikoyalar aytib berishni yoqtiradi.

He told a lie. U yolg'on gapirdi.

You must tell the truth now. Siz endi haqiqatni aytishingiz kerak.

5. Agar vositali to'ldiruvchidan so'ng bo'lishli yoki bo'lishsiz shakldagi infinitiv kelsa, to tell fe'li *aytmoq*, *buyurmoq* ma'nosida keladi.

My wife told me to get some coffee. Xotinim menga kofe olib kelishni aytdi.

Please tell your son not to go out. O'g'lingizga chiqmaslikni aytting.

## 12-DARS

61-§. I va III shaxsga qaratilgan buyruq yoki iltimosning ifodalanishi. Ingliz tilida I va III shaxsga qaratilgan buyruq yoki iltimos let fe'li va umumiy kelishikdagi ot yoki obyekt kelishigidagi olmosh bilan ifodalanadi. Asosiy fe'l to siz infinitivda keladi:

Let us (let's) go to the cinema.

Kelinglar, kinoga boramiz.

Let my son do it.

Keling, shu ishni mening o'g'lim bajarsin.

Let them answer this letter.

Keling, bu xatga ular javob berishsin.

**62-§. If yoki whether bog'lovchisi bilan kiritilgan to'ldiruvchi ergash gap (Umumiy so'roq gap o'zlashtirma gaplarda). If yoki whether bog'lovchisi bilan kiritilgan to'ldiruvchi ergash gaplar – o'zbek tiliga -ligini, -masligini deb tarjima qilinadi:**

I didn't know if he would be at home. (= I didn't know whether he would be at home.)

U uyda bo'lishligini bilmas edim. (U uyda bo'lish-bo'lmasligini bilmas edim.)

He didn't remember if she had taken the text-book with her or if she had left it at home.

U qiz darslikni o'zi bilan olgani yoki uyda qoldirgani uning esida yo'q edi.

**63-§. Buyum nomlarini ifodalagan otlar bilan artiklning ishlatilishi.**

1. Buyum miqdori aniq bo'lmaganda ular bilan artikl ishlatilmaydi. Bu o'rinda ularning (predmetning) turi tilga olinadi, xolos.

I like milk.

Men sutni yoqtiraman. (sut deb ataluvchi mahsulotni)

Bunda ko'pincha bir ot ikkinchisiga qarshi qo'yiladi.

I like coffee after dinner, but I don't like tea.

Men tushlikdan keyin kofe ichishni yoqtiraman, lekin choy menga yoqmaydi.

2. Agar buyum miqdori aniq bo'lsa, ular oldidan aniq artikl ishlatiladi, ayniqsa, gapiruvchi ma'lum joydagi mahsulotning barcha miqdorini nazarda tutsa:

Will you pass me the salt, please?

Menga tuzni uzatib yuborolmaysizmi?

Taqqoslang:

Snow [snou] is white.

The snow is dirty.

Qor oq. (Qor umuman buyum sifatida shu rangga ega.)

Qor iflos. (Chegaralangan miqdordagi qorga sifat berilyapti)

Milk is good for babies.

The milk is hot.



Chaqaloqlarga sut foydali.  
(Umuman sut, ya'ni shu  
mahsulot turi)

Sut issiq. (ma'lum, chegaralangan  
miqdordagi sut)

**64-§. A little va a few birikmasi.** A little birikmasi *biroz* ma'nosini bildirib, sanalmaydigan otlar oldidan aniqlovchi vazifasida ishlatiladi, shuningdek, fe'ldan so'ng holat va daraja ravishi bo'lib keladi:

I have got a little free time  
today.

Bugun mening *biroz* bo'sh vaqtim  
bor.

He can read a little and he's  
only four.

U *biroz* o'qiy oladi, u esa endi to'rt  
yoshda.

A few birikmasi *bir nechta* ma'nosini berib, sanaladigan otlar oldidan aniqlovchi ma'nosida keladi:

My friend has got a few  
pictures of this city.

Do'stimda bu shaharning *bir  
nechta* rasmi bor.

He learnt a few English  
words, and now he can  
read telegrams from  
foreign firms.

U bir nechta inglizcha so'zlarni  
o'rganib oldi va u endi  
chet el firmalaridan kelgan  
telegrammalarni o'qiy oladi.

## 13-DARS

**65-§. Majhul nisbat (The Passive Voice).** Ingliz tilida fe'ning ikkita nisbati bor: Aniq nisbat va majhul nisbat. Aniq nisbatda gapning egasi ish-harakatni bajaruvchisi (ijrochisi) bo'ladi. Majhul nisbatdagi fe'l egani ifodalab kelayotgan shaxs yoki predmet ta'sir ostida ekanligini, ya'ni ish-harakat unga qaratilganini bildiradi.

I. **Majhul nisbatning yasalishi.** Ingliz tilida majhul nisbat **to be** ko'makchi fe'li va asosiy fe'ning sifatdosh II shakli yordamida yasaladi. Uni quyidagicha berish mumkin:

to be + sifatdosh II

Bunda asosiy fe'ning sifatdosh II shakli o'zgarmaydi, **to be** ko'makchi fe'li ega bilan shaxs, son va zamonda (o'zgaradi) moslashadi.

**To show fe'lining Indefinite guruhi majhul nisbatdagi shakllari**

1- shaxs birlik	HZO	am	}	shown
3- shaxs birlik	HZO	is		
Barcha shaxslar ko'plik	HZO	are		
Barcha shaxslar birlik	O'ZO	was		
Barcha shaxslar ko'plik	O'ZO	were		
1- shaxs	KZO	shall be		
Qolgan shaxslar	KZO	will be		

Majhul nisbatning so'roq shakli birinchi ko'makchi fe'lni egadan oldinga qo'yish bilan yasaladi:

Am I	}	shown ... ?	Menga ... ko'rsatishyaptimi?
Is he			Unga ... ko'rsatishyaptimi?
Are we			Bizga ... ko'rsatishyaptimi?
Was she			Unga ... ko'rsatishdimi?
Were they			Ularga ... ko'rsatishdimi?
Shall I be			Menga ... ko'rsatishadimi?
Will it be			Unga (bolaga) ... ko'rsatishadimi?

Bo'lishsiz shaklda not birinchi ko'makchi fe'ldan keyin keladi.

I am	}	not shown ...	Menga ... ko'rsatishmayapti.
He is			Unga ... ko'rsatishmayapti.
We are			Bizga ... ko'rsatishmayapti.
She was			Unga ... ko'rsatishmadi.
They were	}	not be shown ...	Ularga ... ko'rsatishmadi.
I shall			Menga ... ko'rsatishmaydi.
It will			Unga (bolaga) ... ko'rsatishmaydi?

2. **Obyektli va obyeksiz fe'llar.** O'zidan keyin har qanday to'ldiruvchini qabul qiluvchi fe'l *obyektli fe'l* deyiladi. O'zidan keyin hech qanday to'ldiruvchi qabul qilmaydigan fe'llarni *obyeksiz fe'llar* deyiladi. Xuddi o'zbek tilidagi o'timli va o'timsiz fe'llar kabi:

I saw him yesterday. (vositasiz to'ldiruvchi)	}	obyektli fe'l	Men uni kecha ko'rdim.
I've sent a letter to my friends. (vositasiz to'ldiruvchi)			Men do'stlarimga xat jo'natdim.
Have you talked to him about it? (predlogli to'ldiruvchi)			Siz u bilan bu haqida gaplashib oldingizmi?

Come tomorrow.  
I'll go to the library  
at once and get this  
book out.

Who's sitting over  
there?

} obyektivsiz fe'l

Ertaga keling.  
Men hoziroq ku-  
tubxonaga borib  
shu kitobni ola-  
man.  
U yerda o'tirgan  
kim?

O'zbek tilidagi o'timli va o'timsiz fe'llar bilan solishtiring.

### 3. Majhul nisbatning ishlatilishi.

1) Gapiruvchi ish-harakat bajaruvchisini tanimaganda yoki unga ahamiyat bermaganda gapda majhul nisbat ishlatiladi. Biroq ish-harakat bajaruvchisini *by* (*tomonidan*) – predlogi bilan ko'rsatish mumkin.

This play was written  
by B. Shaw.

Bu pyesa B. Shou tomonidan  
yozilgan.

Ingliz tilida majhul nisbat o'zbek tiliga qaraganda kengroq ishlatiladi. Masalan, "*He gave a book.*" – "*U kitob berdi*" aniq nisbatdagi gapni majhul nisbatda ikki xil berish mumkin.

The book was given (to) me. Kitob menga berildi. (1)  
I was given a book. Menga kitob berildi. (2)

(2) – misoldagi gapni o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilsak "*Men kitob berildim*" bo'ladi. Vaholanki o'zbek tilida bunday shakl yo'q.

2) Predlog bilan keladigan fe'llar ham majhul nisbat bilan keladi. Bunda predlog o'zining leksik ma'nosini saqlab qolib, gapda fe'ldan keyin keladi:

They were much talked about.

Ular haqida ko'p gapirildi.

The doctor was sent for at once.

Shu ondayoq doktorga odam  
jo'natildi.

O'zbek tilida bu o'rinlarda shaxsi noma'lum gap ishlatiladi.

Eslatma: Ingliz tilida bir qator fe'llar guruhi borki, ular bilan faqat majhul nisbatning (1)- shakli ishlatilishi mumkin. Ular quyidagilar: *to explain smth. to smb. tushuntirmoq, to translate smth. to smb. tarjima qilmoq, to dictate smth. to smb. uqtirmoq, to describe smth. to smb. tasvirlab bermoq va hokazo.*

This rule was explained to me twice.

Bu gapni o'zbek tiliga ikki xil tarjima qilish mumkin:

Bu qoida menga ikki marta *tushuntirildi.* (majhul nisbat) Bu qoidani menga ikki marta *tushuntirishdi.* (shaxsi noma'lum gap)

3) Ingliz tilida HZO majhul nisbatdagi fe'l vaziyatga qarab ish-harakat jarayonini yoki shu jarayon natijasida yuzaga kelgan holatni ifodalashi mumkin. Ingliz tilida ular gapda shaklan farqlanmaydi.

Taqqoslang:

Tables are usually made of wood. Odatda, stollar taxtadan *yasaladi.* (jarayon)

This one is made of steel. Bunisi po'latdan *yasalgan.* (holat)

Agar ikkinchi gapda jarayonni ta'kidlamoqchi bo'lsak, u holda ingliz tilida tugallangan hozirgi zamon majhul nisbat shakli ishlatiladi.

This table has been made of steel. Bu stolni po'latdan *yasashdi.* (jarayon)

4) **Majhul nisbatning tugallangan (Perfect) guruh zamonlari.** Majhul nisbatning tugallangan guruh zamonlari *to be* fe'lining tugallangan hozirgi, o'tgan va kelasi zamonlardagi shakli va asosiy fe'lining sifatdosh II shakli yordamida *yasaladi.*

#### to have been + sifatdosh II

Bunda *to have* o'zgaruvchan qism, *been* + *sifatdosh-II* o'zgar-mas qism.

I have been asked two difficult questions today so I must do something about it. Menga bugun ikkita qiyin sa-vol berishdi va men (ularga javob berish uchun) nimadir qilishim kerak.

Majhul nisbatning tugallangan guruh zamonlarining ishlatilishi xuddi aniq nisbatdagidek (50-§ ga qarang).

Majhul nisbatning tugallangan guruhining o'tgan va kelasi zamonlari juda kam ishlatiladi, tugallangan hozirgi zamon shakli ko'pincha *to ask, to send, to tell* va boshqa fe'llar bilan ishlatiladi.

I've been asked to play in next week's football match. Mendan kelasi haftada bo'-ladigan futbol o'yinida qat-nashishimni so'rashdi.

He's been told to work harder.

Unga ko'proq shug'ullanishni aytishdi.

He's been sent to help them.

Uni ularga yordamga jo'natishdi.

**5. Majhul nisbatning infinitiv shakli.** Majhul nisbatning infinitiv shakli to be fe'lining infinitiv shakli va asosiy fe'lining sifatdosh II shaklidan yasaladi, masalan: **to be shown** *ko'rsatilmoq*.

Majhul nisbatning infinitiv shaklini har qanday obyektli fe'ldan yasasa bo'ladi:

to give	–	to be given
to send for	–	to be sent for
to talk about	–	to be talked about

Majhul nisbatning infinitivi aniq nisbatning infinitivi ishlatilgan joylarda ishlatiladi, masalan, **to want**, **to like** va modal fe'llardan so'ng maqsad holi va boshq. vazifasida. (Modal fe'llardan so'ng kelganda to siz infinitiv shakli ishlatiladi.)

Nobody likes to be sent for at night.

Hech kim tunda uni olib ketgani odam kelishini xohlamaydi.

This must be done at once.

Bu hoziroq bajarilishi kerak.

He can't be given a holiday now. We have a lot of work to do.

Unga hozir ta'til berib bo'lmaydi. Bizning ishlarimiz ko'p.

He will have to be asked about it tomorrow.

Ertaga bu haqda undan so'rashga to'g'ri keladi.

**66-§. Maxsus so'roq gaplar o'zlashtirma gapda.** Maxsus so'roq gaplar o'zlashtirma gapda **to ask** fe'li bilan kiritilib, to'ldiruvchi ergash gap bo'lib keladi. Bog'lovchi olmosh yoki ravish bo'lib so'roq so'zning o'zi keladi. Bog'lovchidan so'ng so'z tartibi xuddi darak gapdagidek. O'zlashtirma gapda **do** tushib qoladi.

He asked me where I came from.

U mendan qayerdanligimni so'radi.

He asked us what we should do if we didn't get tickets.

U bizdan chipta ololmasak nima qilishimizni so'radi.

Agar to ask fe'li o'tgan zamonda kelsa, zamonlar moslashuvi qoidasiga amal qilinadi. (To'ldiruvchi ergash gap – 57-§, zamonlar moslashuvi – 58-§)

67-§. Egalik olmoshlarining mustaqil (absolut) shakli. Egalik olmoshlarining ingliz tilida ikki xil shakli bor: sifatli shakl, xuddi sifat kabi ot oldidan aniqlovchi vazifasida ishlatiladi va mustaqil (absolut) shakl, ot o'rniga mustaqil tarzda gapda ega, ot-kesim, to'ldiruvchi va boshqa vazifalarda ishlatiladi.

KISHILIK OLMOSHLARI	EGALIK OLMOSHLARI	
	Sifatli shakli	Mustaqil shakli
I – men	my – mening	mine [main] – meniki
you – sen	your – sening	yours [jɔ:z] – seniki
he – u (m.r.)	his – uning	his [hiz] – uniki
she – u (j.r.)	her – uning	hers [hæ:z] – uniki
it – u (jonsiz.)	its – uning	its [its] – uniki
we – biz	our – bizning	ours [auəz] – bizniki
you – siz (lar)	your – siz (lar) ning	yours [jɔ:z] – siz (lar) niki
they – ular	their – ularning	theirs [ðeəz] – ularniki

Here's my exercise-book,  
where is yours?

A friend of mine told me  
about it yesterday.

We met an old friend of his  
at the theatre yesterday.

Mening daftarim bu yerda, *seniki*  
qayerda?

Kecha do'stlarimdan biri menga bu  
haqda aytdi.

Kecha biz teatrda uning qadrdon  
do'stlaridan birini uchratdik.

Eslatma 1: a friend of mine so'z birikmasi *do'stlarimdan biri* ma'nosini beradi, my friend esa *mening do'stim* ma'nosini berib, undan so'ng kopincha atqli ot keladi.

Taqqoslang:

A friend of mine came to  
see me yesterday.

My friend Peter and I love  
Tchaikovski.

Do'stlarimdan biri kecha meni  
ko'rgani keldi.

Men bilan do'stim Peter Chay-  
kovskiyning musiqasini sevamiz.

Eslatma 2: of mine, of his va hokazolar, ko'pincha gapda tushirib qoldiriladi, agar vaziyatdan kimning do'sti haqida gap borayotgani ma'lum bo'lsa:

He met an old friend on  
his way home.

She's going to see a friend  
tomorrow morning.

Uyga ketayotib u qadrdon do'stini  
uchratib qoldi.

Ertaga ertalab u do'stlaridan bi-  
rinikiga bormoqchi.

Biroq:

When I was away in the South on holiday, I met a friend of yours and we talked a lot about you. Janubda dam olganimda men do'stlaringizdan birini uchratdim va biz siz haqingizda ko'p gaplashdik.

Eslatma 3: O'zbek tilidagi o'z olmoshiga mos olmosh ingliz tilida yo'q. Shuning uchun uni ingliz tiliga gapning egasi shaxsiga mos egalik olmoshi bilan tarjima qilinadi.

Taqqoslang:

Mening ruchkam yomon. Menga o'zingizning (sizning) ruchkangizni berib turing, iltimos. My pen is bad one. Will you give me yours, please?

## 14-DARS

68-§. O'tgan zamon davom (O'ZD) fe'li (The Past Continuous Tense).

1. O'tgan zamon davom fe'li to be ko'makchi fe'lining o'tgan zamondagi shakli (was, were) va asosiy fe'ning sifatdosh I shakli (-ing) yordamida yasaladi.

I was writing a letter to my sister at seven o'clock. Men soat yettida singlimga xat yozayotgan edim.

What were you doing at five yesterday? Kecha soat beshdanima qilayotgan eding?

They were having dinner when I came. Men kelganda ular tushlik qilishayotgan ekan.

2. Ishlatilishi. O'tgan zamon davom fe'li quyidagi hollarda ishlatiladi:

1) O'tgan zamonda aniq bir paytda bo'lib o'tayotgan ish-harakatni ifodalaydi. Bu payt ikki xil ko'rsatiladi:

a) Aniq vaqt, soat ko'rsatilishi orqali:

I was waiting for you at ten o'clock yesterday. Why didn't you come? Men seni kecha soat o'nda kutayotgan edim. Nega kelmading?

b) O'tgan zamondagi ish-harakat bilan.

My son was doing his lessons when his friend came to see him. Do'sti kelganda o'g'lim dars qilayotgan edi.

What were you doing when I came in? Men kirganda nima qilayotgan eding?

Eslatma. O'tgan zamon davom fe'li o'zbek tiliga *-yotgan edi* deb tarjima qilinadi.

2) O'tgan zamondagi ma'lum bir paytdagi holat, vaziyatni tasvirlashda, hikoya boshlanishida, fon (voqea, hodisa ro'y beradigan muhit, tevarak-atrof)ni tasvirlashda ishlatiladi:

I went out. There were a lot of people in the street. Some of them were hurrying home from work. A boy was walking across the street with an evening paper in his hand. Some other children were playing near their house. An old woman was walking to the park with a little girl. I went to the park, too, and sat down on a bench.

Last night we stayed at home. We didn't want to go to the cinema or to the park. My wife was playing the piano, I was playing chess with my son, my little daughter was building a toy house on the sofa. We heard a knock at the door and I went to open it...

Men ko'chaga chiqdim. Ko'chada odam ko'p edi. Ba'zilar ishdan uyga shoshilishardi. Oqshom qo'lida gazeta ko'tarib olgan bola ko'chadan o'tardi. Bir nechta boshqa bolalar o'z uylari oldida o'ynashardi. Bir keksa ayol bir qizaloq bilan xiyobon tomon borardi. Men ham xiyobonga borib bir o'rindiqqa o'tirdim.

Kecha oqshom biz uyda edik. Biz kinoga ham, xiyobonga ham borishni xohlamadik. Xotinim pianino chalardi. O'g'lim bilan men shaxmat o'ynardik, kichkina qizim esa divanda o'yinchoq uy yasardi. Biz eshik taqilaganini eshitdik va men uni ochgani bordim...

69-§. Kelasi zamon davom (KZD) fe'li (The Future Continuous Tense).

1. Kelasi zamon davom fe'li to be ko'makchi fe'lining kelasi zamondagi shakli shall (will) be va asosiy fe'lining sifatdosh I (-ing) shakli yordamida yasaladi.

What will you be doing tomorrow?

They will not be playing chess at 12 on Sunday, they will be in the park.

Ertaga nima qilayotgan bo'lasan?

Ular yakshanba kuni soat 12 da shaxmat o'ynayotgan bo'lishmaydi, ular xiyobonda bo'lishadi.



2. Kelasi zamon davom fe'li quyidagi hollarda ishlatiladi:

1) Gapda payt holi bormi yoki u faqat nazarda tutilganligiga qaramasdan yaqin yoki uzoq kelajakdagi ish-harakatni ifodalash uchun ishlatiladi:

He'll be taking his exam next week.

Kelasi hafta u imtihon topshiradi.

What time will you be coming home?

Uyga qachon kelasiz? (bugun nazarda tutilyapti)

He won't be coming to our place this month.

Bu oy u biznikiga kelmaydi.

Bu shakl qo'shimcha ma'noga (niyat, xohish, qat'iylik va boshqa ma'nolarni ifodalamaydi) ega emas. U faqat ish-harakat kelasi zamonda bo'lib o'tishini bildiradi.

Yaqin kelajakdagi ish-harakatni ifodalashda, ayniqsa, payt holi ko'rsatilganda, gapda hozirgi zamon davom fe'li (Present Continuous) ishlatiladi. Kelasi zamon oddiy fe'li (Future Indefinite) uzoq kelajakdagi ish-harakat yoki shart va payt ergash gaplari bilan kelgan ish-harakat, yoki bo'lmasa, gapda gumon, ehtimollik, taxmin va boshqa ma'nolar ifodalanganda ishlatiladi.

Taqqoslang:

I'll be meeting him tomorrow.

Biz u bilan ertaga uchrashamiz. (bizning uchrashishimiz tabiiy, chunki biz birga ishlaymiz)

I'm meeting him tomorrow.

Biz u bilan ertaga uchrashamiz. (oldindan rejalashtirilgan ish-harakat – uchrashuv haqida kelishuv bor)

I shall meet him some day.

Biz u bilan qachondir uchrashamiz. (uzoq, noaniq kelajakda)

Eslatma: **KZD** da ko'pincha *to see* fe'li *uchratmoq* ma'nosida ishlatiladi.

I shall be seeing him tomorrow.

Biz u bilan ertaga *uchrashamiz*.

2. Kelasi zamondagi aniq bir paytda davom etadigan (etayotgan) ish-harakatni ifodalashda ishlatiladi. Bu payt vaziyatdan aniq bo'lishi mumkin yoki aniq ko'rsatiladi:

a) Kelajakdagi vaqt (soat) aniq ko'rsatiladi:

I shall be doing my homework at eight o'clock tomorrow again.

Men darslarimni yana ertaga soat sakkizda qilaman.

b) Biror ish-harakatga nisbatan davom etayotgan bo'ladi, ko'pincha payt va shart ergash gaplarda.

I shall be working when you come to see me.

Sen meni ko'rgani kelganingda men ishlayotgan bo'laman.

If you come back at 11, I'll still be working.

Agar siz 11 da qaytsangiz, men hali ham ishlayotgan bo'laman.

**70-§. Buyruq yoki iltimosning o'zlashtirma gapda berilishi.** Buyruq yoki iltimos o'zlashtirma gapda *to ask, to tell, to order (buyurmoq)* fe'llari bilan kiritiladi va fe'lining bo'lishli yoki bo'lishsiz infinitiv shakli bilan ifodalanadi (*to go, not to go*). Agar ko'chirma gapda buyruq yoki iltimos kimga qaratilgani ko'rsatilmagan bo'lsa, o'zlashtirma gapda uni vaziyatdan ma'lum bo'lgan ot yoki olmosh bilan berib ketish kerak.

Taqqoslang:

He said, "Please go away".

U dedi: "Marhamat ketavering".

He asked her to go away.

U uning ketishini so'radi.

She said, "Stop making that noise."

U dedi: "Shovqinni bas qiling".

She told me to stop making that noise.

U menga shovqinni to'xtatishni aytdi.

She said, "Don't come tomorrow, please, as I won't be here."

U dedi: "Men bu yerda bo'lmaganim bois, iltimos, ertaga kelmang".

She told me not to come (the) next day as she wouldn't be there.

U menga ertaga o'sha yerda bo'lmaganim bois u yerga bormasligimni aytdi.

(So'zlarni o'zgarishlariga doir 58-§, 3-punktga qarang)

Eslatma 1: Quyidagi gaplarning farqiga e'tibor bering:

He asked me not to come at five.

U mendan soat beshda kelmasligimni so'radi. (Soat 5 da kelmasligimni ogohlantirdi.)

He didn't ask me to come at five.

U mendan soat beshda kelishimni so'ramagandi. (Men o'zim xohlab keldim.)

Eslatma 2: Ingliz tilida buyruqni o'zlashtirma gapda berishning ko'proq ishlatiladigan shakli bor. Ayniqsa, buyruqni kirituvchi gap HZO da kelganda bu **to say** fe'li va undan keyin keluvchi ergash gap. Bu ergash gapda fe'l-kesim **to be + infinitiv** bilan beriladi.

Ko'chirma gapda:

He says, "Meet me at the station."

U dedi: "Meni bekatda kutib oling".

O'zlashtirma gapda:

1) He tells us to meet him at the station.

1) Uni bekatda kutib olishimizni aytdi.

2) He says that we are to meet him at the station. (to tell ga qaraganda oddiyroq shakl)

2) Uni bekatda kutib olishimizni aytdi.

Ikkinchi shakl buyruq uchinchi shaxs orqali berilganda ko'proq ishlatiladi.

He said that she was to leave at once.

U uning hoziroq ketishi kerakligini aytdi.

71-§. Natija ergash gapli qo'shma gap. Natija ergash gap bosh gap mazmunidan kelib chiqadigan natijani ifodalaydi. U bosh gap bilan **such ... that shu qadar, so ... that shuning uchun** bog'lovchilari yordamida bog'lanadi:

The children made such a noise that I couldn't work.

Bolalar shu qadar to'polon qilishdiki, men ishlolmadim.

A tall man stood in front of me so that I couldn't see the picture well.

Oldimga novcha kishi turib oldi, shuning uchun men rasmni ko'ra olmadim.

So kuchaytirish yuklamasi bosh gap tarkibiga kirib ketishi ham mumkin, **such** esa faqat bosh gap tarkibida keladi.

The book was so difficult that I couldn't read.

Kitob shu qadar qiyin ediki, men uni o'qiy olmadim.

He spoke in such a low voice that we didn't (couldn't) hear him.

U shu qadar past ovozda gapirdiki, biz uni eshitmadik.

Natija ergash gapda **can** modal fe'lining ko'p ishlatilishiga e'tibor bering.

My friend was so busy yesterday that he <b>couldn't</b> go to the country with me.	Kecha do'stim shu qadar band ediki, men bilan shahar tashqarisiga chiqa olmadi.
Eslatma. Sodda gapda ravish yoki sifatni kuchaytirish uchun ingliz tilida <b>very, most, that</b> ishlatiladi. Otni kuchaytirish uchun esa <b>this, like this, of this type (kind, sort)</b> so'zlari ishlatiladi.	
I don't like <b>this</b> weather. (= I don't like bad weather like <b>this</b> .)	Men bunaqangi havoni yoqtirmayman.
<b>This kind (this type) of</b> machine(s) is not sold by us. (= Machines of <b>this type (of this kind)</b> are not sold by us.)	Biz bunaqa mashinalar sotmaymiz.
These are <b>very</b> difficult exercises.	Bular shunaqa qiyin mashqlar.
These are <b>very</b> (= <b>most</b> ) interesting books.	Bular shunaqangi qiziq kitoblar.
The talk was <b>most</b> interesting.	Ma'ruza shunaqa qiziq bo'ldiki!
Is it <b>that</b> important?	Bu shunaqa muhimmi?

## 15-DARS

72-§. **Sifat darajalari.** Ingliz tilida sifatlar rod, son va kelishik kategoriyalariga ega emaslar. Ingliz tilida sifatning xuddi o'zbek tilidagidek 3 ta darajasi mavjud: oddiy, qiyosiy va ortirma. Sifat darajalarining shakllari (bo'g'in soniga qarab) ikki xil yo'l bilan yasaladi.

1. Bir bo'g'inli va **-y, -e, -er, -ow** harflari bilan tugallangan ikki bo'g'inli sifatlar qiyosiy darajada **-er** [ə] qo'shimchasini oladi. Ortirma darajada esa **-est** [ist] oladi.

small – kichkina	smaller – kichikroq	smallest – eng kichik
easy – oson	easier – osonroq	easiest – eng oson
simple – sodda	simpler – soddaroq	simplest – eng sodda
narrow – tor	narrower – torroq	narrowest – eng tor

2. **Imlo qoidalari.** **-er** va **-est** qo'shimchalari yordamida sifat darajalarini yasashda quyidagilarni esda tutish kerak:

a) Agar sifat oddiy darajada o'qilmaydigan -e bilan tugallansa, -er va -est qo'shimchalari olganda o'qilmaydigan -e tushib qoladi:

large – katta (keng) larg + er – kattaroq larg + est – eng katta

b) Agar sifat oddiy darajada yagona undosh bilan tugallanuvchi qisqa bo'g'indagi unliga ega bo'lsa, so'z oxiridagi yagona undosh ikkilanadi:

big – katta big + g + er – kattaroq big + g + est – eng katta

c) Agar sifat oddiy darajada undoshdan keyin keluvchi -y bilan yakunlansa, -y → i ga o'tadi:

busy – band busier ['bizia] – bandroq busiest ['biziist] – eng band

Biroq, unidan keyin keluvchi -y o'zgarmaydi:

gay – quvnoq gayer ['geia] – quvnoqroq gayest ['geiist] – eng quvnoq

3. Ingliz tilida shunday sifatlar mavjudki, ular o'z darajalarini o'ziga xos tarzda yasaydilar. Bular **good yaxshi**, **bad yomon**, **little kichik**, **oz**, **many va much ko'p**, **far uzoq**.

Oddiy daraja		Qiyosiy daraja		Ortirma daraja	
good	yaxshi	better	yaxshiroq	best	eng yaxshi
bad	yomon	worse	yomonroq	worst	eng yomon
little	kichik	less	kichikroq	least	eng kichik
many	} ko'p	more	ko'proq	most	eng ko'p
much		farther	} uzoqroq	furthest	} eng uzoq
far	uzoq	farther		farthest	

Eslatma: *Ozroq* ma'nosida ingliz tilida sanaladigan otlar bilan **smaller**, **fewer** ishlatiladi.

This room is **smaller** than that one. Bu xona narigisiga qaraganda *kichikroq*.

4. Ikki va undan ortiq bo'g'inli sifatlarning qiyosiy darajasi **more**, **less**, ortirma darajasi esa **most**, **least** yordamida yasaladi.

Oddiy daraja	Qiyosiy daraja	Ortirma daraja
active faol	more active faolroq less active faolsizroq	most active eng faol least active eng faolsiz
interesting qiziqarli	more interesting qiziqarliroq less interesting qiziqarsizroq	most interesting eng qiziqarli least interesting eng qiziqarsiz

**Eslatma 1:** *Orttirma* darajadagi sifat bilan aniqlanib kelgan otlar aniq artikl bilan ishlatiladi, agar biror olmosh talab qilinmasa.

Moscow is the largest city in our country.	Moskva mamlakatimizdagi eng katta shahar.
My best friend lives in Saint Petersburg.	Mening eng yaxshi do'stim Sankt-Peterburgda yashaydi.

**Eslatma 2:** Ba'zan *orttirma* darajadagi sifatdan keyin *eluvchi* ot tushirib qoldirilishi mumkin, shunda ham *orttirma* darajadagi sifat oldidan aniq artikl ishlatiladi. Chunki, nazarda tutilgan ot kontekstdan ma'lum bo'ladi.

The Moscow underground is the most beautiful in the world.	Moskva metrosi dunyoda eng chiroyli.
--	--------------------------------------

**Eslatma 3:** Qiyosiy darajadagi sifatlar bilan *than* (-ga qaraganda) bog'lovchisi ishlatiladi.

My son is younger than yours.	Mening o'g'lim siznikidan yoshroq.
-------------------------------	------------------------------------

**Eslatma 4:** Agar *than* (-ga qaraganda) so'zidan so'ng III shaxs olmoshlari (**he, she, they**) kelsa, unda fe'llarning shu shaxslardagi tegishli shakli ham takrorlanadi.

I have more English books, than she has.	Menda unikidan ko'proq kitoblar bor.
We're taller than they are.	Biz ulardan novcharoqmiz.
I'm busier than he is.	Men undan bandroqman.

Bordi-yu *than* dan so'ng I va II shaxs kishilik olmoshlari kelsa, fe'l tushib qolishi mumkin. Og'zaki nutqda bunda I o'rniga *me, we* o'rniga *us* kelishi mumkin.

He has more time than I. (= than me)	Uni mendan vaqti ko'proq.
I'm older than you.	Mening sendan yoshim kattaroq.
She's younger than we. (= than us)	U bizdan yoshroq.

**73-§. Ot shaxsi noma'lum gaplar.** O'zbek tilidagi shaxsi noma'lum gapdan ingliz tilidagi shaxsi noma'lum gapning farqi shuki, ingliz tilida doim ega bo'lishi kerak. Gapning egasi (bo'lmaganda ham) – *it* – shartli ega ishlatiladi.

It	is dark.	Qorong'i.
(ega)	(kesim)	(kesim)

Shaxsi noma'lum gap it olmoshi, to be ko'makchi fe'li va kesimning ot qismi ko'pincha sifatdan iborat bo'ladi. Kesimning ot qismi ot yoki son bilan ifodalanishi ham mumkin. Bunday shaxsi noma'lum gaplarni ot shaxsi noma'lum gap deyiladi. to be bog'lovchi fe'li tegishli zamoni ifodalaydi.

**It's summer now.**

Hozir yoz.

**It was nine o'clock when we got home.**

Biz uyga kelganda soat to'qqiz bo'lgandi.

Bunday gaplar ko'pincha tabiat hodisasini, ob-havo holatini, vaqtni, masofani bildiradi.

So'roq gap shaklida to be egadan oldinga o'tadi. Bo'lishsiz shaklida not birinchi ko'makchi fe'ldan keyin keladi.

**Is it winter now in that part of the country?**

Mamlakatning u qismida hozir qishmi?

**It isn't spring yet.**

Hali bahor emas.

**It wasn't dark yet when we got back.**

Biz qaytganda hali qorong'i tushmagan edi.

**It won't be cold in September, I hope.**

Sentabrda sovuq bo'lmaydi, deb umid qilaman.

**74-§. To'siqsiz ergash gap.** To'siqsiz ergash gaplar har qanday sharoitga qaramay, bosh gapdagi ish-harakat sodir bo'lganligini ko'rsatadi va bosh gap bilan **though** [ðou], **although** [ɔ:l'ðou] (-ga qaramasdan) – bog'lovchilari bilan birikadi.

**It was quite dark, though it was only five in the afternoon.**

Soat endi 5 bo'lishiga qaramasdan juda qorong'i edi.

## 16-DARS

**75-§. Ravish darajalari.** Darajaga asosan holat ravishlari ega bo'ladilar. Bir bo'g'inli ravishlarning va **early, quickly, slowly** kabi ikki bo'g'inli ravishlarning darajalari xuddi ularning sifat shakllaridek yasaladi.

quicker – bu ham **quick** sifatining, ham **quickly** ravishining qiyosiy darajasi.

quickest – ularning ortirma darajasi.

better }  
best } – good sifati va well ravishining qiyosiy va ortirma darajalari.

Taqqoslang:

Comrade Petrov gave a <b>better</b> talk today. ( <i>What kind of?</i> – Savoliga javob beruvchi sifat)	O'rtoq Petrov bugun yaxshiroq ma'ruza qildi.
Comrade Petrov read <b>better</b> today. (ravish – <i>How?</i> )	O'rtoq Petrov bugun ma'ruzani yaxshiroq o'qidi.
This is the <b>best</b> answer. (sifat – <i>what kind of?</i> )	Mana eng yaxshi javob.
You read <b>best</b> of all today. (ravish – <i>How?</i> )	Siz bugun hammadan yaxshi javob berdingiz.

Eslatma: of all ko'pincha tushirib qoldiriladi.

Which of you skates **fastest**? Qaysi biringiz konkida eng tez uchasiz?

**Esda saqlang:**

badly yomon (ravish)	} worse (yomonroq)	worst eng yomon
bad yomon (sifat)		

Qolgan -ly bilan tugallanuvchi ravishlar o'z darajalarini **more** va **most** so'zlari yordamida yasaydilar:

**correctly** to'g'ri

**more correctly** to'g'raroq                      **most correctly** eng to'g'ri

76-§. *As ... as, not so ... as* qiyoslash konstruksiyalari. Sifati bir xil bo'lgan ikki predmetni qiyoslashda *as ... as xuddi, kabi* qiyos bog'lovchisi ishlatiladi.

This book is **as** interesting **as** that one. Bu kitob *xuddi* narigi kitob *kabi* qiziq.

Qiyoslanuvchi ikki predmetning sifatida farq bo'lsa *not so ... as -chalik emas* ishlatiladi. Bunda *not* fe'l bilan keladi.

This book is **not so** interesting **as** that one. Bu kitob narigisichalik qiziqarli *emas*.

Eslatma: Bu bog'lovchilar ravishlar bilan ham ishlatiladi.

My friend reads English **as well as** I do. Mening do'stim ingliz tilida mendek yaxshi o'qiydi.



My friend doesn't read  
English as well as I do.

Mening do'stim ingliz tilida  
menchalik yaxshi, o'qimaydi. (= Do'stim ingliz tilida men kabi yaxshi o'qiy olmaydi.)

**77-§. Ot shaxsi noma'lum gaplar (Davomi).** It is difficult to find kabi gaplar shaxsi noma'lum gaplarning ikkinchi turi hisoblanib, birinchisidan shunisi bilan farq qiladiki, infinitiv bilan ifodalanadigan ish-harakatga gapiruvchi o'z munosabatini bildiradi.

It is easy to read this book. Bu kitobni o'qish oson.

Infinitiv ifodalagan ish-harakatni bajaruvchi shaxs *for* predlogi bilan ko'rsatiladi.

It is easy for him to read this book. Unga bu kitobni o'qish oson.

Bunday shaxsi noma'lum gaplarda ko'pincha quyidagi **difficult qiyin, easy oson, strange g'alati, possible imkoni bor, impossible imkoni yo'q, necessary kerak** va boshqa sifatlar ishlatiladi.

**78-§. Fe'l shaxsi noma'lum gaplar.** Ot shaxsi noma'lum gaplardan tashqari ingliz tilida fe'l shaxsi noma'lum gaplar ham mavjud. Ularning ot shaxsi noma'lum gaplardan farqi shundaki, ularda **to rain yomg'ir yog'moq, to snow qor yog'moq** kabi shaxssiz fe'llar bilan ifodalangan sodda fe'l-kesim bo'lib keladi. Bu fe'llar III shaxs birlikda moslashib keladi.

It often rains in autumn. Kuzda yomg'ir ko'p yog'adi.

It snowed a lot (= a great deal) last winter. O'tgan qish qor ko'p yog'di.

**To rain, to snow** kabi fe'llarni o'zbek tilida mos fe'l shakli yo'q. Bunday fe'llar kelgan gaplarning bo'lishsiz va so'roq shakllari asosiy fe'llar kabi do ko'makchi fe'li yordamida yasaladi.

Taqqoslang:

Does it often rain in autumn?

Kuzda ko'p yomg'ir yog'adimi?

Does he go to school?

U maktabda o'qiydimi?

Did it snow much last winter?

O'tgan yili qor ko'p yog'dimi?

Did he go to school last year?

O'tgan yili u maktabda o'qidimi?

Is it raining now?

Hozir yomg'ir yog'yaptimi?

Is he writing now?

U hozir yozyaptimi?

It doesn't often rain here in summer.

Bu yerda yozda yomg'ir ko'p yog'maydi.

He doesn't go to school.

U maktabda o'qimagan.

It didn't snow much last winter.

O'tgan qish qor ko'p yog'magan.

He didn't go to school last year.

U o'tgan yili maktabda o'qimadi.

**79-§. O'rindosh so'zlar.** Ingliz tilida bir so'zni, gap bo'lagini yoki butun bir gapni takrorlamaslik uchun o'rindosh so'zlar ishlatiladi.

1. Omi gapda takrorlamaslik uchun birlikda "one", ko'plikda "ones" ishlatiladi.

I haven't got a text-book. I must buy one.

Mening darsligim yo'q, bitta sotib olishim kerak.

I don't like these yellow flowers. Let me have some red ones.

Menga bu sariq gullar yoqmaydi. Qizilidan bering.

This story is more interesting than that one.

Bu hikoya narigisidan ancha qiziqarliroq.

This exercise is more difficult than the one we did yesterday.

Bu mashq kecha biz bajarganimizdan qiyinroq.

My television set is old. I must buy a new one.

Mening televizorim eski, yangisini sotib olishim kerak.

4- va 5- misollarda artiklning ishlatilishiga e'tibor bering.

**One** – olmoshi bunda yo umuman tarjima qilinmaydi, yoki boshqa vositalar orqali tarjima qilinadi. **One** – olmoshi egalik olmoshi bilan ishlatilmaydi. Bunday hollarda egalik olmoshining absolut shakli ishlatiladi.

This is your pencil. Where's mine?

Bu sening qalaming. Meniki qayerda?

My suit is darker than yours.

Mening kastumim senikidan to'qroq.

My flat is large, but Petrov's is larger.

Mening kvartiram Petrovnikiga qaraganda katta.

2. Fe'lni takrorlamaslik uchun gapda tegishli shakldagi "do" ishlatiladi:

He translates from Russian into English better than I do.

U rus tilidan ingliz tiliga mendan yaxshiroq tarjima qiladi.

**Eslatma:** Infinitiv shaklidagi fe'lni takrorlamaslik uchun to yuklamasi ishlatiladi.

"Did you go to the theatre last night?" – Kecha teatrga bordingmi?

"I wanted to, but I couldn't." – Borishni xohlagandim, biroq bora olmadim.

3. Butun bir gapni yoki biron bir gap bo'lagini takrorlamaslik uchun *so so'zi* ishlatiladi:

"Did Paul leave Moscow yesterday?" – Kecha Pavel Moskvadan chiqib ketdimi?

"I think so, but I am not quite sure." – Menimcha, shunday, biroq aniq bilmayman.

## 17-DARS

### 80-§. Atoqli otlar bilan artiklning ishlatilishi.

1. Qoida bo'yicha atoqli otlar bilan artikl ishlatilmaydi.

a) Davlat va materik nomlari bilan:

Europe	['juərəp]	Yevropa
South Africa		Janubiy Afrika
North America		Shimoliy Amerika
Asia	['eiʃə]	Osiyo
Central Asia		Markaziy Osiyo
Siberia	[sai'biəriə]	Sibir
Japan	[dʒə'pæn]	Yaponiya

b) Shahar nomlari bilan:

Moscow		Moskva
London	['lændən]	London
Washington		Vashington

**Biroq:** Gollandiya poytaxti **Gaaga** bilan aniq artikl ishlatiladi: **the Hague** [heig]

c) Ko'cha va maydon nomlari bilan:

Kirov Street	Kirov ko'chasi
Mayakovsky Square	Mayakovskiy maydoni

d) Ism va familiya bilan:

Mary	['meəri]	Meri
Petrov		Petrov

2. Quyidagi geografik nomlar bilan aniq artikl ishlatiladi:

a) Qutb tomonlari nomi oldidan – **the South** [ðə 'sauθ] *Janub*, **the North** [ðə 'nɔ:θ] *Shimol*, **the West** [ðə 'west] *G'arb*, **the East** [ðə 'i:st] *Sharq*.

b) Davlat, okean, dengiz va boshqa ayrim geografik nomlar oldidan, agar uning tarkibida **union** - *ittifoq*, **state** - *shtat*, **ocean**, **sea** kabi so'zlar bo'lsa:

the United States of America	Amerika Qo'shma Statlari
the Pacific Ocean	Tinch okeani
the Black Sea	Qora dengiz

d) Okean, dengiz, daryo va tog' tizmalari nomlari oldidan.

the Atlantic	Atlantika okeani
the Baltic	Boltiq dengizi
the Don	Don daryosi
the Urals	Ural tog'lari

3. Ko'plikda turgan familiya nomi oldidan aniq artikl ishlatilsa butun bir oila ifodalangan bo'ladi.

the Lavrovs	Lavrovlar (oilasi)
the Browns	Braunlar (oilasi)

## 18-DARS

81-§. *Some, any, no, every* – olmoshlaridan yasalgan gumon olmoshlari va ravishlari.

1. *Some, any, no, every* olmoshlari *thing, body, one, where* larga qo'shilib gumon olmoshlari va ravishlarini yasaydi:

something	nimadir
somebody	kimdir
someone	
somewhere	qayerdadir
anything	nimadir
anybody	kimdir, biror kishi
anyone	
anywhere	har qayerda, qayerdadir
nothing	hech narsa
none	hech bir (kishi)
nobody	hech kim
no one	

nowhere	hech qayerda
everything	hamma narsa
everybody	hamma, har kishi
everyone	
everywhere	har qayerda

Eslatma: **no one** doim ajratib yoziladi.

2. Bu yasama shakllar sodda shakllar ishlatilgan o'rinlarda ishlatilaveriladi (45-§ ga qarang).

Agar ikkinchi qismi **thing** bo'lsa, jonsiz predmetlarga, **body** bilan **one** esa kishilarga, **where** o'rin-joyga nisbatan ishlatiladi. **Nowhere** asosan qisqa javobda ishlatiladi.

"Where are you going?" – Qayerga ketyapsan?

"Nowhere." – Hech qayerga.

3. Ushbu gumon olmoshlarining sodda shakllari, odatda, gapda otning aniqlovchisi bo'lib kelsa, ularning qo'shma shakllari mustaqil gap bo'lagi (ega yoki to'ldiruvchi) bo'lib kela oladi.

Taqqoslang:

Will you give me <b>some</b> bread, please? (aniqlovchi)	Biroz non bering, iltimos.
Please give me <b>something</b> to read. (to'ldiruvchi)	O'qigani biror narsa ber.
Did you read <b>any</b> interesting books last month? (aniqlovchi)	O'tgan oy birorta qiziqarli kitob o'qidingmi?
Did you read <b>anything</b> interesting last month? (to'ldiruvchi)	O'tgan oy biron bir qiziqarli narsa o'qidingmi?
Do <b>any</b> engineers work here? (aniqlovchi)	Bu yerda muhandislar ishlaydimi?
Was <b>anybody</b> here yesterday? (to'ldiruvchi)	Kecha bu yerda biror kishi bo'ldimi?
There are <b>no</b> pictures in that room. (aniqlovchi)	Xonada rasm yo'q.
There's <b>nothing</b> in that room. (to'ldiruvchi)	U xonada hech nima yo'q.

4. **Somebody, someone, something, anybody, anyone, anything, nobody, no one, nothing, everybody, everyone, everything** lar gapda ega bo'lib kelsa, ular bilan fe'l-kesim III shaxsda birlikda moslashadi.

Taqqoslang:

Everybody was there in time.

Hamma u yerda o'z vaqtida bo'ldi.

All of them were in time.

Ular hammasi o'z vaqtida keldi.

Is everybody here now?

Are you all here now?

Endi hamma shu yerdami?

Everybody was listening to Comrade Semenov's talk with great interest.

Hamma o'rtoq Semyonovning nutqini katta qiziqish bilan tinglayotgan edi.

Eslatma 1: **Anybody, anyone, anything** bo'lishsiz gaplarda ega vazifasida ishlatilmaydi. Bunday hollarda **nobody, no one, none, nothing** ishlatiladi.

Taqqoslang:

Nobody saw him here yesterday.

Kecha uni bu yerda *hech kim* ko'rmadi. (ega)

I didn't see anybody here yesterday.

I saw nobody here yesterday.

Men kecha bu yerda *hech kimni* ko'rmadim. (to'ldiruvchi)

Eslatma 2: Shart ergash gaplarda **if** bog'lovchisi bilan **anybody, any one, anything** ishlatiladi:

If anybody rings me up, tell them I'll be home after six.

Agar *biron kishi* telefon qilsa, 6 dan keyin uyda bo'lishimni ayt.

5. Ikkinchi qismi **body** va **one** bo'lgan (**somebody, someone, anybody, anyone, nobody, no one, everybody, everyone**) qo'shma gumon olmoshlari bilan **of predlogi** ishlatilmaydi. Bu o'rinda ularning sodda shakli **some, one, any, none, each** *har bir* ishlatiladi:

Some of them spoke about it at the meeting.

Ulardan kimdir majlisda bu haqda gapirdi.

One of them spoke about it at the meeting.

Ulardan biri majlisda bu haqda gapirdi.

Can any of you go and see Comrade Petrov today?

Birortangiz bugun o'rtoq Petrovni ko'rgani bora olasizmi?

None of us could answer his question.	Hech birimiz uning savoliga javob berolmadik?
Each of us spoke at the meeting yesterday.	Kecha majlisda har birimiz gapirdik.

6. **Somebody, some one, anybody, anyone, nobody, nothing, something, anything** olmoshlari **anywhere, nowhere, somewhere** ravishlari bilan ko'pincha **else so'zi** yoki sifat bilan ifodalangan aniqlovchi bilan ishlatiladi:

Is there <b>anybody</b> else here?	Bu yerda yana biror kishi bormi?
Please give me <b>something interesting</b> to read.	Menga o'qigani biror qiziqroq narsa bering.

Eslatma: Gumon olmoshiga tegishli bo'lgan aniqlovchi olmoshdan keyin keladi.

There is <b>nothing strange</b> about his question.	Uning savolida hech qanday g'ayritabiiy narsa yo'q.
---	---

7. **Somebody, some one, anybody, nobody, everybody** qaratgich kelishigi qo'shimchasini olishi mumkin:

I found <b>somebody's</b> book yesterday, is it yours?	Kecha men kimningdir kitobini topib oldim, u sizniki emasmi?
--	--

## 19-DARS

82-§. **Aniqlovchi vazifasida kelgan sifatdosh I va II.** Sifatdosh fe'lning shaxssiz shakli bo'lib, u bir tomondan fe'l, ikkinchi tomondan esa sifat va ravish o'rtasidagi tushuncha. Sifatdoshlar ingliz tilida sifatdosh I va sifatdosh II ga bo'linadi:

**writing** (sifatdosh I) yozayotgan

**written** (sifatdosh II) yozilgan

1. Sifatdosh II shakli har qanday fe'ldan yasaladi, o'timli fe'l (tushum kelishigini qabul qiluvchi) va o'timsiz fe'l (tushum kelishigini qabul qilmaydigan)lardan ham.

**taken** (to take o'timli fe'ldan) olingan

**swum** (to swim o'timsiz fe'lidan) – o'zbek tilida mos shakli yo'q

Biroq, mustaqil ravishda faqat o'timli fe'llarning sifatdosh II shakli ishlatiladi. Chunki o'timli fe'l majhullik ma'nosiga ega.

**discussed** – muhokama qilingan.

2. Sifatdosh I har qanday fe'ldan yasala oladi: vositasiz to'ldiruvchi qabul qiluvchi va qabul qilmaydigan fe'llardan ham. Uning ko'p ishlatiladigan shakli aniq nisbatdagi sodda shakli bo'lib, uni yana **-ing form** ['iŋ'fɔ:m] ham deyiladi:

<b>reading</b>	o'qiyotgan
<b>discussing</b>	muhokama qilinayotgan

Bu shakl (sifatdosh I) bilan gapning kesimi ifodalagan ish-harakat bir xil paytda sodir bo'ladi.

3. Sodda sifatdosh I va sifatdosh II sifatlar kabi aniqlovchi vazifasida ishlatiladi. Izohlovchi so'zlarisiz kelganda sifatdosh (I va II) o'zi aniqlab kelayotgan otdan oldin keladi:

the <b>rising sun</b>	chiqayotgan quyosh
the <b>approaching train</b>	yaqinlashib kelayotgan poyezd

Biroq, ko'pincha sifatdosh izohlovchi so'zlar bilan keladi va o'zi aniqlayotgan otdan keyin keladi:

The woman <b>standing at the window</b> is my sister.	Deraza yonida turgan ayol mening singlim.
---	---

Eslatma 1: Sifatdosh II ifodalayotgan ish-harakatning bajaruvchi shaxs yoki predmetni ko'rsatishda *by tomonidan* predlogi ishlatiladi:

Yesterday we received a letter <b>sent by Mr Brown on the 20<sup>th</sup> of November.</b>	Kecha biz janob Braun tomonidan 20 noyabrda jo'natilgan xatni oldik.
--	--

Eslatma 2: O'zbek tilida izohlovchi so'zlar bilan kelgan sifatdosh, ya'ni, aniqlovchi bo'lib kelgan sifatdoshli oborot o'zi tegishli bo'lgan so'zdan oldin keladi. Ingliz tilida esa bunday tartib ishlatilmaydi.

Taqqoslang:

Men <i>bizning oldimizda o'ynayotgan bolani</i> tanidim.	I recognized the boy playing near us.
--	---------------------------------------

Eslatma 3: Ingliz tilida aniqlovchi vazifasida faqat sodda sifatdosh I ishlatilib, u gapning kesimi ifodalagan ish-harakat bilan bir paytdagi harakatni beradi. O'zbek tiliga *-yotgan* deb tarjima qilinadi. O'zbek tilidagi *yo'zgan, aytgan* kabi o'tgan zamon sifatdoshlari ingliz tiliga aniqlovchi ergash gap bilan tarjima qilinadi, chunki aniqlovchi vazifasida ishlatiladigan aynan shunday shakl ingliz tilida yo'q.

Taqqoslang:



Bu kitobni *yoʻzgan* odam talabalar hayotini yaxshi biladi.

The man **who wrote** this book knows the life of students well.

Deraza oldidagi stolda nima-dir *yoʻzayotgan* odam – mening akam.

The man **writing** something at the table near the window is my brother.

Eslatma 4: Ingliz tilida aniqlovchi vazifasida ishlatilgan sifat-doshli oborot xuddi o'zbek tilidagi kabi vergul bilan ajratilmaydi.

Eslatma 5: Ingliz tilida aniqlovchi vazifasida ishlatilgan sifat-doshli oborot xuddi aniqlovchi ergash gap kabi o'zi aniqlayotgan so'zdan keyinq kelishi kerak, aks holda ma'no buziladi:

This is the sister of my **friend living** next door to me.

Bu qo'shni xonada yashovchi do'stimning singlisi.

This is my **friend's sister living** next door to me.

Bu (mening) do'stimning qo'shni xonada yashovchi singlisi.

Agar vositasiz to'ldiruvchini ko'p uzun aniqlovchisi bo'lsa, o'rin holi gap boshida keladi.

In the underground yesterday we met a group of tourists speaking English.

Kecha biz metroda ingliz tilida gaplashayotgan sayyohlarni uchratdik.

In one of the Moscow museums last year I saw a book written about 500 years ago and recently received by the museum.

O'tgan yili Moskva muzeylaridan birida men muzey tomonidan yaqinda qo'lga kiritilgan, 500 yil ilgari yozilgan kitobni ko'rdim.

83-§. Hol vazifasidagi sifat-dosh I oborotlari. Hol vazifasidagi sifat-dosh I oborotlari quyidagi vazifalarda ishlatiladi:

1. Payt holi vazifasida:

**Travelling** in Africa, he saw a lot of interesting things.

Afrika bo'ylab sayohat qila turib, u ko'p qiziqarli narsalarni ko'rdi.

Sifat-dosh I payt holi vazifasida kelganda **when** (*qachonki*) -da bog'lovchisi ko'p martalik ish-harakatni ifodalaydi. **While** (*mobaynida*) -da bir martalik ish-harakatni ifodalaydi, bunda harakat jarayoni ta'kidlanadi. Bu tegishli ergash gapning Continuous shaklda turgan fe'l-kesim bilan ifodalanishi mumkin.

Taqqoslang:

**When crossing** the street, first look to the left. (= **When you cross** the street, first look to the left.)

**While crossing** the street, he heard somebody call out to him. (= **While he was crossing** the street, he heard...)

**When reading** books, he always wrote out interesting expressions. (= **When he read** books, he always wrote out...)

**While reading** this book, I had to use the dictionary very often. (= **While I was reading** this book, I had to...)

Eslatma: **to be** ning sifatdosh I shakli payt holi vazifasida ishlatilmaydi. Bunday holda **when** va **while** bilan kelgan payt ergash gap ishlatiladi.

**When he was a child**, he liked to read books about voyages.

Shuni esda tutingki, kesimi majhul nisbatda turgan payt ergash gapni sifatdosh II bilan almashtirilsa, **when** bog'lovchisi sifatdosh II dan oldin kelishi mumkin:

**When asked about** it, he didn't say a word. (= **When he was asked about it...**)

2. Sabab holi vazifasida:

**Knowing** the subject well, the student was not afraid of the coming exam.

**Having** a lot of time before the beginning of the performance, they decided to walk to the theatre.

Ko'chani kesib o'tishda avval chap tomonga qarang.

Ko'chadan o'tib ketayotganda kimdir uni chaqirganligini eshitdi.

Kitob o'qiganda u doim qiziqarli iboralarni yozib oladi.

Bu kitobni o'qib chiqayotganimda bu lug'atdan tez-tez foydalanishimga to'g'ri keldi.

Bolaligida u dengiz sayohatlari haqidagi kitoblarni o'qishni yoqtirardi.

Undan bu haqda so'ralganda, u hech nima demadi.

Fanni yaxshi bilganligi bois, talaba topshirilajak imtihonlardan qo'rqmasdi.

Pyesa boshlanishiga ko'p vaqt borligi bois, ular teatrga piyoda borishga qaror qilishdi.

Sabab holi vazifasida sifatdosh I ning bo'lishsiz shakli ham ishlatilishi mumkin.

<b>Not knowing the language,</b> he couldn't understand the conversation.	<b>Tilni yaxshi bilmaganligi</b> uchun u suhbatni tushuna olmadi.
---	---

Eslatma: **to be** fe'lining sifatdosh I shakli sabab holi vazifasida ishlatiladi.

<b>Being busy, the director could</b> not see me.	<b>Band bo'lganligi</b> uchun direktor meni qabul qila olmadi.
--	--

3. Sifatdosh I vaziyat holi bo'lib keladi:

<b>He stood at the window,</b> <b>thinking of his future.</b>	<b>U deraza oldida kelajagi haqida</b> o'ylab turar edi (qaysi holatda).
--	---

Eslatma: Shuni aytib o'tish kerakki, sifatdoshli oborotlar asosan kitob tiliga mansub, og'zaki nutqda ko'pincha ergash gaplar ishlatiladi.

## 20-DARS

84-§. *to want xohlamoq, to expect taxmin qilmoq fe'llari hamda should (would) like xohlardimki iboralaridan so'ng murakkab to'ldiruvchili konstruksiyaning ishlatilishi.*

1. Ingliz tilda "murakkab to'ldiruvchi" deb ataluvchi konstruksiya mavjud bo'lib, u ikki qismdan iborat bo'ladi: **birinchi qismi** shaxs yoki predmetni bildiruvchi umumiy kelishikdagi ot yoki obyekt kelishigidagi olmosh, **ikkinchi qismi** infinitiv bilan ifodalangan, birinchi qismdagi shaxs tomonidan bajarilgan ish-harakat. Butun konstruksiya gapda to'ldiruvchi vazifasini bajaradi va ayrim fe'llardan keyingina ishlatiladi.

<b>I want him to go home.</b> (shaxs) (harakat)	<b>Men uning uyga ketishini</b> xohlayman.
--	---

2. **to want, to expect** fe'llari va **should/would like** dan so'ng murakkab to'ldiruvchili konstruksiyaning ikkinchi qismida **to li** infinitiv ishlatiladi.

<b>I want you to understand me.</b>	<b>Sen meni tushunishingni</b> xohlayman.
-------------------------------------	--

<b>What do you want him to do for</b> you?	<b>Siz uchun u nima qilishini</b> xohlaysiz?
---	---

He doesn't want us to do it now.

I expect you to write to me.

I'd like you to read this book.

He would like us to begin learning French.

Buni *biz* hozir qilishimizni u xohlamaydi.

*Menga xat yozishingizni* kutaman.

*Siz bu kitobni o'qib chiqishingizni* xohlardim

U *biz fransuz tilini o'rganishni* boshlashimizni xohlardi.

85-§. Qiyosiy darajalarning qo'sh shakllari. Ingliz tilida bir qator sifatlar mavjudki, ularning darajalari ikki xil bo'lib, bir-biridan ishlatilishi va ma'no jihatdan farq qiladi:

1. far – uzoq  $\left\{ \begin{array}{l} \text{farther} - \text{uzoqroq} \\ \text{further} - \text{1. uzoqroq} \\ \text{2. keyingi,} \\ \text{qo'shimcha} \end{array} \right. \begin{array}{l} - \text{farthest} - \text{eng uzoq} \\ - \text{furthest} - \text{eng uzoq} \end{array}$

Masofadan tashqari **further** *uzoqroq* yana "keyingi, qo'shimcha" ma'nosida ham ishlatiladi:

You will be receiving **further** information later.

Siz *qo'shimcha* ma'lumotlarni keyinroq olasiz.

2. old – eski, qari  $\left\{ \begin{array}{l} \text{older} - \text{qariroq,} \\ \text{eskiroq} \\ \text{elder} - \text{kattaroq} \\ \text{(oiladagi)} \end{array} \right. \begin{array}{l} - \text{oldest} - \text{eng qari,} \\ \text{eng eski} \\ - \text{eldest} - \text{eng kattasi} \\ \text{(to'ng'ich)} \end{array}$

**Elder** kattaroq va **eldest** eng katta so'zlari faqat oila a'zolariga nisbatan son, **daughter**, **sister**, **brother** so'zlari bilan ishlatiladi:

My **elder sister** is five years older than I.

*Opam* mendan besh yosh katta.

3. near – yaqin  $\left\{ \begin{array}{l} - \text{nearer} - \text{yaqinroq} \\ \text{nearest} - \text{eng yaqin} \\ \text{next} - \text{1. keyingi} \\ \text{(navbat bo'yicha)} \\ \text{2. keyingi} \\ \text{(vaqt bo'yicha)} \end{array} \right.$

What's the nearest station?

*Eng yaqin* bekat qaysi?

We are getting off at the next stop. Biz *keyingi* bekatda tushamiz.

4. **late** – kech **later** – kechroq, keyinroq **latest** – oxirgi, so'nggi (paydo bo'lishiga ko'ra)

**latter** – ikkitadan keyingisi (ikkinchisi) **last** – 1. oxirgi (tartib bo'yicha)  
2. o'tgan (vaqt bo'yicha)

What's the **latest** news? So'nggi yangiliklar qanaqa?

When does the **last** train leave? *Oxirgi* poyezd qachon jo'naydi?

**Latter** so'zi *former* (*oldingisi, ikkovidan birinchisi*) so'zi bilan ishlatiladi. Bunda har ikki so'z ham aniq artikl bilan ishlatiladi:

Two specialists were invited: *Ikkita mutaxassislar taklif qilindi: Janob Braun va janob Mr Brown and Mr Smith. Smit. Birinchisi muhandis, ikkinchisi iqtisodchi.*  
**The former** is an engineer,  
**the latter** is an economist.

Biroq, og'zaki nutqda **the former** → o'rniga **the first**; **the latter** → o'rniga **the second** ishlatilsa bo'ladi.

86-§. *To stop to'xtatmoq, to finish tugatmoq, to continue davom ettirmoq, to begin boshlamoq, to go on davom ettirmoq, to mind qarshi chiqmoq fe'llaridan so'ng gerundiyning ishlatilishi.* Gerundiy (the Gerund ['dʒerənd]) fe'lining shaxssiz shakli bo'lib, u fe'l bilan ot o'rtasidagi shakl hisoblanadi. Shaklan sifatdosh I ga o'xshaydi.

Gapda gerundiy otga xos vazifalarda ishlatiladi:

**Reading books is necessary for anyone.** (ega) Har bir kishi kitob o'qishi kerak.

Do you mind **our working in this room?** (to'ldiruvchi) Biz bu xonada *ishlashimizga* qarshi emas-siz?

**To stop, to go on, to finish, to mind** fe'llaridan so'ng (so'roq va bo'lishsiz) gaplarda gerundiy ishlatiladi:

He didn't **stop smoking** although I asked him to. Men iltimos qilishimga qaramasdan u chekishni to'xtatmadi.

Please **go on reading.** Marhamat qilib, o'qishda davom eting.

He's already **finished reading** this book. U bu kitobni o'qib tugatdi.

Do you *mind* waiting for him?

Uni biroz kutishga qarshi emasmissiz?

I don't *mind* your smoking here.

Sizning bu yerda chekishingizga men qarshi emasman.

Oxirgi misoldan ko'rinib turibdiki, gerundiy bilan ifodalangan ish-harakatni bajaruvchi shaxs egalik olmoshi bilan beriladi.

Eslatma: **Mind** fe'li **would you mind** – iborasida muloyimlik bilan so'ralgan iltimosni ifodalaydi:

**Would you mind waiting a moment?** (= Please wait a moment.)

Biroz kutib turing, iltimos.

**Would you mind not smoking?** (= Please don't smoke.)


Iltimos, chekmang.

Agar gerundiydan oldin egalik olmoshi kelsa, **would you mind** – iltimosni emas, balki savolni anglatadi.


**Would you mind my smoking?** (= Do you mind if I smoke?)

Men cheksam qarshi emasmissiz?

**To begin** va **to continue** fe'llaridan so'ng gerundiy ham, infinitiv ham ishlatilishi mumkin:

He began  this book yesterday.

U bu kitobni o'qishni kecha boshladi.

We continued  till 7 o'clock.

Biz soat yettigacha ishlashda davom etdik.

Biroq, aqliy faoliyatni bildiruvchi **to know**, **to understand** kabi fe'llar bilan infinitiv ishlatilishi ma'qulroq:

I am beginning **to understand** the situation.

Men vaziyatni tushuna boshlayapman.

Gerundiy o'zbek tiliga ish-harakatning nomi bilan tarjima qilinadi:

**Smoking is bad for one's health.**

*Chekish sog'liq uchun zarar.*

He stopped **reading** and looked at us.

U *o'qishni* to'xtatdi va bizga qaradi.

Do you mind **taking** this subject for your talk?

Bu mavzuni ma'ruzangizga *ki-ritishga* qarshi emasmisiz?

**87-§. Tugallangan o'tgan zamon (TO'Z) fe'li (The Past Perfect Tense).**

1. **TO'Z** o'tgan zamondagi ma'lum bir paytgacha sodir bo'lib, o'sha o'tgan zamondagi paytga aloqadorligini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Shuning uchun uni *nisbiy shakl* deyiladi. O'tgan zamondagi ma'lum payt **by** predlogi bilan kelgan aniq vaqt yoki o'tgan zamondagi biror ish-harakat bilan ko'rsatiladi.

**TO'Z** da **to have** ko'makchi fe'lining shakli **had**.

I **had written** the letter by five o'clock yesterday.

Kecha soat 5 gacha xatni yozib bo'ldim.

I **had** already **written** the letter when my friend rang me up.

Do'stim menga telefon qilganda, men xatni yozib bo'lgan edim.

2. Ingliz tilida o'tgan zamonda ketma-ket sodir bo'lgan ish-harakatlarni bayon qilishda **O'ZO** ishlatiladi. Biroq, ish-harakat ketma-ketligi buzilsa, ya'ni avval bayon etilgan ish-harakatdan oldinroq sodir bo'lgan ish-harakatni aytish lozim bo'lsa, yana **TO'Z** ishlatiladi.

We **hurried** to the theatre. We **got** there at a quarter to eight and **took** our seats near the door. The show **had** already **begun**. My friend **looked** around. He **had** never **been** to this theatre before and **wanted** to see what it **looked** like...

Biz teatrga shoshib ketdik. Biz u yerga soat chorakta kam sakkizda yetib bordik va eshik oldidagi joyimizni egalladik. Pyesa allaqachon boshlangan edi. Do'stim atrofga qaradi. U avvallari hech teatrdan bo'lmagan va uni qanaqa ekanligini ko'rishni xohlardi...

3. Payt ergashgan qo'shma gaplarda **TO'Z** bosh gapda ham, ergash gapda ham kelishi mumkin. Bu qaysi ish-harakat oldin bo'lib o'tganligiga bog'liq. Agar bosh gapdagi ish-harakat ergash gapdagi ish-harakatdan oldin sodir bo'lgan bo'lsa, bosh gapning fe'li kesimi **TO'Z** da keladi. Payt ergash gaplar bosh gap bilan **before** (*oldin, gacha, qadar*) va **when** (*qachonki, -da*) bog'lovchilari bilan birikadi:

My friend **had rung** me up *before* he went home.

Do'stim uyiga ketishidan oldin menga telefon qilgan edi.

We had already reached the village when it began raining.

Yomg'ir yog'ishni boshlaganda, biz qishloqqa allaqachon yetib olgandik.

Agar ergash gapdagi ish-harakat bosh gapdagi ish-harakatdan oldin sodir bo'lgan bo'lsa, ergash gapning fe'l-kesimi **TO'Z** da keladi va **after** (*keyin, so'ng*), **as soon as** (*bilanoq*), **when** (*qachonki, -da*), bog'lovchilari bilan birikadi.

As soon as they had finished dinner, they went for a walk.

Ular tushlik qilib bo'liboq, sayrga chiqishdi.

They went for a walk after they had finished the work.

Ular ishni tugatgandan keyin sayrga chiqishdi.

Eslatma: Agar bir ish-harakatdan keyinoq, ikkinchi bir ish-harakat juda qisqa vaqt ichida sodir bo'lsa, ayniqsa, **to come, to go, to finish** kabi fe'llar bilan **when, as soon as, after** bog'lovchilaridan so'ng **O'ZO** ishlatilaveriladi:

As soon as I finished work, I went home.

Ishni tugatiboq uyga ketdim.

As soon as we got to the theatre, the performance began.

Biz teatrga kirishimiz bilanoq pyesa boshlandi.

4. O'tgan zamondagi voqea va hodisalar bayonida **TO'Z** dialog nutqda **THZ** ishlatiladigan holatlarda ishlatiladi.

As I was going along the street, I met an old friend whom I hadn't seen since I left Moscow.

Ko'chada ketayotib, Moskvadan ketganimdan beri ko'rmagan qadrdon do'stimni uchratdim.

## 21-DARS

**88-§. His qilish fe'llaridan so'ng murakkab to'ldiruvchili konstruksiya.** Sezgi organlari tomonidan his qilishni ifodalovchi fe'llardan so'ng, ya'ni **to see** (*ko'rmog*), **to watch** (*kuzatmog*), **to notice** (*sezmog*), **to hear** (*eshitmog*), **to feel** (*his qilmog*) va boshqa fe'llardan so'ng murakkab to'ldiruvchili konstruksiyaning ikkinchi qismida **to** siz infinitiv yoki sifatdosh **I** ishlatiladi. O'zbek tiliga to'ldiruvchi ergash gap bilan tarjima qilinadi:



I've seen **them** go into the room.

I saw **him** writing something.

I saw **him** fall while getting off the bus.

I fell **someone** watching me.

We watched **the ship** approaching the shore.

We didn't notice **him** going into the room.

Did you hear **him** singing yesterday.

Murakkab to'ldiruvchili konstruksiyadan so'ng sifatdosh I ishlatilsa, ish-harakat tugallanmagan bo'ladi. Infinitiv ishlatilsa, ish-harakat tugallangan bo'ladi, ya'ni sifatdosh I gapning fe'l-kesimi ifodalagan ish-harakat bilan bir paytda sodir bo'lgan ish-harakatni ifodalaydi. Infinitiv esa, birin-ketin sodir bo'lgan ish-harakatlarni ifodalaydi.

I saw **him** come into the room, sit down at the table, open the book and begin reading.

Men ularning xonaga kirishganini ko'rdim.

Men uni nimadir yozayotganini ko'rdim.

Men uni avtobusdan tushayotib yiqilganini ko'rdim.

Kimdir meni kuzatayotganini sezdim.

Biz kema qirg'oqqa yaqinlashayotganini ko'rdik.

Biz uni xonaga kirayotganini ko'rmadik.

Siz uni kecha ashula aytayotganini eshitdingizmi?

Men uni xonaga kirib stolga o'tirganini, kitobni ochib o'qiy boshlaganini ko'rdim.

Eslatma: to see – fe'li *tushunmoq* ma'nosida, to hear – esa *bilmoq* ma'nolarida ishlatilishi mumkin, bunda ulardan so'ng to'ldiruvchi ergash gap ishlatiladi.

I see that you are right.

Haqligingizni men tushunaman.

I heard that the Petrovs had left Moscow.

Men Petrovlarni Moskvadan chiqib ketishganini bildim (eshitdim).

## 22-DARS

### 89-§. O'zlik olmoshlari.

1. Ingliz tilida har bir kishilik olmoshining o'ziga mos o'zlik olmoshi mavjud. Ular birlik shaklida **-self**, ko'plik shaklida **-selves** qo'shimchalari yordamida yasaladi.

Kishilik olmoshlari	O'zlik olmoshlari
I	myself [mai'self]
you	yourself [jɔ·'self]
he	himself [him'self]
she	herself [hə·'self]
it	itself [it'self]
we	ourselves [auə'selvz]
you	yourselves [jɔ·'selvz]
they	themselves [ðəm'selvz]

Bundan tashqari, **oneself** o'zlik olmoshi ham mavjud bo'lib, u **one** gumon olmoshining shakli hisoblanib, infinitivda turgan fe'l o'zlik olmoshi bilan ishlatilishini ko'rsatadi: **to enjoy oneself vaqtini yaxshi o'tkazmoq.**

2. O'zlik olmoshlari quyidagi hollarda ishlatiladi:

1) Fe'ning qismi bo'lib (uning o'zlik ma'noga egaligini bildiradi):

At last he found himself in a big room with large windows and ... Nihoyat, u derazalari katta va ... bo'lgan xonada o'ziga keldi.

O'zlik olmoshlari qoida bo'yicha quyidagi ingliz tilidagi fe'llar bilan ishlatilmaydi. **to wash yuvinmoq, to dress kiyinmoq, to bathe cho'milmoq, to shave soqol olmoq, to hide berkinmoq.**

Do you like **bathing** in the sea. Siz dengizda cho'milishni yoq-tirasizmi?

How dirty you are! Go and **wash (yourself).** Kirligingni qara! Bor, yuvinib kel.

**Hide (yourselves)** in that forest. Shu o'rmonga bekinib ol.

2) Mustaqil holda biror gap bo'lagi bo'lib keladi (vositasiz to'ldiruvchi, predlogli to'ldiruvchi):

Do you want to buy **yourself** a new hat? Siz o'zingizga yangi shlapa so-tib olishni xohlaysizmi?

He never speaks of **himself.** U hech o'zi haqida gapirmaydi.

Eslatma 1: O'zbek tilidagi *o'zimni* ingliz tilidagi o'zlik olmoshlariga mos kelmasligi mumkin.

Siz *o'zingiz* bilan birga bolalarni qishloqqa olib borasizmi? Will you be taking your children with you to the country.

to feel fe'li bog'lovchi fe'l bo'lganligi uchun u bilan to'ldiruvchi yoki o'zlik olmoshi kela olmaydi:

U *o'zini* yomon his qilyapti. He feels ill.

Eslatma 2: O'zlik olmoshi o'zbek tilida *o'zim* olmoshi kelganda ishlatiladi:

U *o'zidan* juda xursand. He is too pleased with himself.

3) Ega yoki to'ldiruvchi bo'lib kelgan ot yoki olmoshni kuchaytirish vositasi bo'lib ishlatiladi va o'zbek tilidagi *o'zi*, *o'zimga* to'g'ri keladi. Bunda o'zlik olmoshi egadan so'ng yoki gap oxirida, to'ldiruvchi kuchaytirilsa to'ldiruvchidan so'ng keladi.

They themselves were surprised. Ularning o'zlari ham ajablanishdi.

Leave that alone. I'll do it myself. Tegma. Buni o'zim bajaraman.

I enjoyed the music, but I didn't like the play itself. Men musiqadan bahra oldim, biroq pyesaning o'zi menga yoqmadi.

They've heard a lot about his books but they have never met the man himself. Ular uning kitoblari haqida ko'p eshitishgan, biroq uning o'zini hech ko'rishmagan.

Eslatma: Ingliz tilida o'zlik olmoshlari bilan ifodalilikni oshirish maqsadida *by* predlogi ishlatiladi.

He did it all by himself. U ularning hammasini yakka o'zi bajargan.

90-§. *to make* fe'ldan so'ng murakkab to'ldiruvchili konstruksiya. *to make* *majbur qilmoq*, *zo'r'lamoq* ma'nosida murakkab to'ldiruvchili konstruktsiyada *to* siz infinitiv bilan ishlatiladi:

What makes you hurry like that? Nima sizni bunchalik shoshilishga majbur qilyapti?

What makes you think so? Nima sizni bunday o'ylashga majbur qilyapti?

Nothing will make her work at night. Hech narsa uni tuni bilan ishlashga majbur qilolmaydi.

Eslatma: to make fe'lidan so'ng murakkab to'ldiruvchi kelganda ikkinchi qism sifat bilan ifodalanishi mumkin va bunda make bilan birgalikda butun konstruksiya o'zbek tiliga fe'l bilan tarjima qilinadi.

to make smb. sorry

– xafa qilmoq

to make smb. angry (cross)

– jahlini chiqarmoq

to make smb. happy

– xursand qilmoq

Masalan:

"Don't make Mother angry, Bob, go to bed at once," said the elder sister.

"Oyimning jahlini chiqarma, Bob, hoziroq joyingga bor," – dedi opasi.

## 23-DARS

91-§. *Neither ... nor na...na* – bog'lovchilari. *Neither ... nor* bog'lovchisi bo'lishsiz bog'lovchi bo'lib, har qanday gap bo'lagini bog'lab kelishi mumkin.

*Neither my friend nor I am fond of skating.* (egalarni bog'layapti)

Na mening do'stim, na men konki uchishni yoqtirmaymiz.

*My daughter could neither read, no write when she went to school.* (kesimlarni bog'layapti)

Maktabga borganida qizim na o'qishni bilardi, na yozishni.

*I like neither football nor hockey.* (to'ldiruvchilarni bog'layapti)

Men na futbolni yoqtiraman, na xokkeyni.

*I like neither green nor red coats.* (aniqlovchilarni bog'layapti)

Menga na yashil, na qizil palto yoqadi.

Eslatma I. *Neither ... nor* bog'lovchisi ko'pincha egani bir-biri bilan bog'lashda ishlatiladi. Bunda fe'l-kesim o'ziga yaqinroq ega bilan moslashadi. Biroq hozirgi zamonaviy ingliz tilida bu qoidaga doim ham amal qilinmaydi va fe'l ko'plikda ham ishlatilishi mumkin.

*Neither his parents, nor he intends to stay here for another week.* (*Neither he, nor his parents intend to...*)

Na uning ota-onasi, na u bu yerda uzoq qolishni xohlamas edilar.

Eslatma 2. Ingliz tilida gapda faqat bitta inkor bo'ladi. Shuning uchun **neither ... nor** bilan fe'l-kesim bo'lishli shaklda keladi. (Tepadagi misollarga qarang.)

Eslatma 3. Agar **neither** egaga tegishli bo'lmasa, u asosiy fe'ldan oldin kelishi mumkin.

**I neither liked the entertainment nor the club itself.** Menga na teatr yoqdi, na klub.

**92-§. Either ... or** [ʼaiðə...ɔ:] bog'lovchilari. *yoki ... yoki* ma'nosini bildirib, bir xil gap bo'laklarini bir-biri bilan bog'lashda darak gaplarda ishlatiladi. Bunda fe'l-kesim o'ziga yaqin ega bilan moslashadi.

**Either your children, or my son has broken this vase.** Bu vazani yo sizning bolalar-ingiz, yoki mening o'g'lim sindirgan.

Agar **either** egaga tegishli bo'lmasa, u fe'l-kesimdan oldin kelishi mumkin.

**We'll either be going to the theatre or the cinema this week-end.** Hafta oxirida biz yo teatrga, yo kinoga boramiz.

**Either ... or** bo'lishsiz gapda **neither ... nor** ning ma'nosini beradi.

**This old woman never learnt either history or geography.** Bu kekxa ayol na geografiyani, na tarixni o'rgangan.

**93-§. Both ... and** bog'lovchisi. **Both ... and ham ... ham** bog'lovchisi bo'lishli gaplarda bir xil gap bo'laklarini bog'lashda ishlatiladi. Bunda fe'l-kesim doim ko'plikda keladi.

**Both my friend and I like the opera.** Mening do'stinga ham, men-ga ham opera yoqadi.

**They liked both the acting and the music of the play.** Ularga pyesadagi ijro ham, musiqa ham yoqdi.

**94-§. So shall I, Neither did he** kabi qisqa bo'lishli va bo'lishsiz gaplar. Bunday gaplar oldin aytilgan fikrni boshqa bir shaxsga ham taalluqli ekanini aytishda ishlatiladi. (Taqqoslang: Peter ungliz tilini yaxshi biladi. *Anna ham.*)

Agar birinchi gap bo'lishli bo'lsa, so li shakl olinadi. Undan so'ng tegishli ko'makchi fe'l (yoki modal fe'l), shuningdek, bosh kelishikdagi kishilik olmoshi yoki umumiy kelishikdagi ot keladi.

Bunda fe'l-kesim o'sha olmosh yoki ot bilan shaxs sonda moslashadi. Fe'l-kesimning zamoni esa oldingi gapdagi kesimning zamoni bilan bir xil bo'ladi.

My friends enjoyed themselves in the country yesterday. **So did I.**

I'm fond of reading. **So is my son.**

Agar birinchi gap bo'lishsiz bo'lsa, qisqa bo'lishsiz gap ishlatiladi. U **neither** (yoki **nor**) so'zi bilan boshlanadi. Keyin tegishli ko'makchi fe'l kishilik olmoshi yoki ot bilan moslashgan holda keladi. Bunda kishilik olmoshi bosh kelishikda, ot esa umumiy kelishikda keladi.

I **haven't heard** him sing.  
**Neither has my friend.**  
(= **Nor has my friend.**)

My friend **can't** go to the theatre tonight. **Neither can I.** (= **Nor can I.**)

Mening do'stlarim kecha shahar tashqarisida dam olishdi. Men ham.

Men o'qishni yoqtiraman.  
Mening o'g'lim ham.

Men uning ashula aytishini eshitmaganman. Mening do'stim ham.

Do'stim bugun teatrga bora olmaydi. Men ham.

## 24-DARS

95-§. Tugallangan kelasi zamon (TKZ) fe'li (The Future Perfect Tense). TKZ kelajakdagi ma'lum bir paytgacha tugallanadigan ish-harakatni ifodalaydi. Bu payt aniq vaqt bilan yoki biror-bir ish-harakat bilan berilishi mumkin. TKZ – **to have** ko'makchi fe'lining kelasi zamondagi shakli va asosiy fe'lining sifatdosh II shaklidan yasaladi:

shall	+ have + sifatdosh II
will	

I **shall have written** the letter by the time you come back.

He **will have done** this work by the end of the month.

Siz qaytib kelguncha, men bu xatni yozib bo'laman.

U bu ishni oy oxirida tugatadi (bajarib bo'ladi).

Eslatma I. Umumiy so'roq gap shaklida **shall**, **will** egadan oldinga o'tadi.

**Will you have finished**  
reading the book by  
tomorrow?

Siz ertagacha kitobni o'qib  
bo'lasizmi?

Eslatma 2. Bo'lishsiz shaklida **shall / will** dan keyin not keladi.

**He will not have finished** this  
article by three o'clock.

U bu maqolani soat uchgacha  
o'qib bo'lmaydi.

Eslatma 3. **TKZ** ko'pincha gapiruvchi ish-harakat kelajakdagi ma'lum bir paytgacha tugallanishini ta'kidlamogchi bo'lganida ishlatiladi. Shuning uchun u ko'pincha **to finish, to complete** fe'llari bilan ishlatiladi.

**I shall have finished** trans-  
lating this article by the time  
the director comes back.  
(= I shall have completed  
this translation by the  
time...)

Men bu maqolani direktor  
qaytguncha tarjima qilib  
bo'laman.

Eslatma 4. Payt va shart ergash gaplarda kelasi zamon ishlatilmasligi sababli **TKZ** o'rniga **THZ** ishlatiladi.

**As soon as we have had**  
dinner, we shall go for a  
walk.

Tushlik qilib bo'liboq, biz  
sayrga chiqamiz.

**I shall have a talk with you**  
after you **have done** this  
work.

Siz bilan bu ishni qilib bo'lganimdan so'ng gaplashaman.

*Noto'g'ri tuslanuvchi fe'llar jadvali*

<b>Infinitive</b>	<b>Past indefinite</b>	<b>Participle II</b>	<b>Uzbek</b>
to be	was, were	been	bo'lmoq
to beat	beat	beaten	urmoq, zarba bermoq
to become	became	become	erishmoq, bo'lmoq
to begin	began	begun	boshlamoq
to blow	blew	blown	esmoq
to break	broke	broken	sindirmoq
to bring	brought	brought	olib kelmoq
to build	built	built	qurmoq
to burn	burnt	burnt	yonmoq, yondirmoq
to buy	bought	bought	sotib olmoq
to catch	caught	caught	tutib olmoq
to choose	chose	chosen	tanlamoq
to come	came	come	kelmoq
to cost	cost	cost	<i>narxi turmoq</i>
to cut	cut	cut	qirqmoq, kesmoq
to do	did	done [dʌn]	qilmoq, bajarmoq
to draw	drew	drawn	sudramoq; chizmoq
to drink	drank	drunk	ichmoq
to drive	drove	driven	boshqarmoq, minmoq
to eat	ate [et]	eaten	ovqatlanmoq
to fall	fell	fallen	yiqilmoq
to feel	felt	felt	his qilmoq
to fight	fought	fought	kurashmoq
to find	found	found	topmoq
to fly	flew	flown	uchmoq, parvoz qilmoq
to forget	forgot	forgotten	unutmoq
to get	got	got	olmoq, erishmoq
to give	gave	given	bermoq
to go	went	gone [gɔn]	bormoq, yurmoq



to grow	grew	grown	o'smoq, o'stirmoq
to have	had	had	ega bo'lmoq
to hear	heard	heard	eshitmoq
to hold	held	held	ushlab turmoq
to keep	kept	kept	ushlamoq, saqlamoq
to know	knew	known	bilmoq
to lead	led	led	ergashtirmoq
to learn	learnt, learned	learnt, learned	o'rganmoq, bilmoq
to leave	left	left	tashlab ketmoq
to lend	lent	lent	qarz bermoq
to let	let	let	ruxsat bermoq
to light	lit	lit	yondirmoq
to lose	lost	lost	yo'qotmoq
to make	made	made	qilmoq, yasamoq
to mean	meant [ment]	meant [ment]	anglatmoq
to meet	met	met	uchratmoq
to put	put	put	qo'ymoq, joylashtirmoq
to read	read [red]	read [red]	(kitob) o'qimoq
to ring	rang	rung	qo'ng'iroq qilmoq
to run	ran	run	yugurmoq
to say	said [sed]	said [sed]	demoq, aytmoq
to see	saw	seen	ko'rmoq
to sell	sold	sold	sotmoq
to send	sent	sent	jo'natmoq, yubormoq
to set	set	set	o'rnatmoq, joylamoq
to shine	shone	shone	nur sochmoq
to show	showed	shown	ko'rsatmoq
to shut	shut	shut	yopmoq, berkitmoq
to sing	sang	sung	kuylamoq
to sit	sat	sat	o'tirmoq
to sleep	slept	slept	uxlamoq
to speak	spoke	spoken	gapirmoq

to spend	spent	spent	sarflamoq
to stand	stood	stood	turmoq
to sweep	swept	swept	supurmoq
to swim	swam	swum	cho'milmoq
to take	took	taken	olmoq
to teach	taught	taught	o'qitmoq
to tell	told	told	aytmoq, gapirmoq
to think	thought	thought	o'ylamoq
to throw	threw	thrown	irg'itmoq
to understand	understood	understood	tushunmoq
to upset	upset	upset	ag'darmoq, buzmoq
to win	won	won	g'olib chiqmoq
to write	wrote	written	yozmoq

# INGLIZ TILI DARSLIGI

**Natalya Aleksandrovna Bonk,  
Galina Akimovna Kotiy,  
Natalya Anatolyevna Lukyanova**

**(O'zbek tilida)**

**1-qism**

***Bahodir Jo'raboyev tarjimasi***

**Muharrir *N. Jumayeva*  
Musahhah *D. Hotamova*  
Texnik muharrir *D. Tsipushkina*  
Dizayner *A. Fozilov*  
Kompyuterda sahifalovchi *D. Tsipushkina***

Nashriyot litsenziyasi AI № 226, 16.11.2012. Bosishga 2013-yil 1-aprelda ruxsat etildi. Bichimi  $84 \times 108 \frac{1}{32}$  23,5 shartli bosma taboq. Gazeta qog'ozida chop etildi. Adadi 6000 nusxa. № 115-shartnoma. № 367-buyurtma.

«ART FLEX» nashriyoti, 2013-y.  
100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Telefon: (371) 244-95-20

«Dekont+», 113525, Moskva, Dnepropetrovskiy ko'chasi,  
3-uy, 5-korpus va  
«GIS», 107045, Moskva, Kolokolnikov chorrahasi 24,  
3-binolarida joylashgan nashriyotlarning ruxsati bilan nashr  
etildi.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI»da chop etildi.  
100200, Toshkent, Radial tor ko'chasi, 10-uy.